KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2025
6-SON



KASB-HUNAR TA’LIMI

Профессиональное образование
Professonal education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal

2025-yil, 6-son

Muassislar:
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limboshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV
Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay’ati:
M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO‘RAYEV, A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV, J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV, A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV, K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro‘yxatga olinib, 0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori bilan Pedagogika fanlari bo‘yicha dessertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani Universitet ko‘chasi, 2-uy
Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru, ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas’ul
H.Sirojidinov

Sahifalovchi:
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.
Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi va egasiga qaytarilmaydi.
Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Kasb-hunar ta’limi” jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 04.06.2025-yil.
Bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 10. Adadi 60 nusxa.
Buyurtma “PROFIEDUPRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg`ali tumani, Yangi Sirg`ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Madiyeva CH.D. Kompyuter texnologiyalari va dasturiy vositalarning o‘quvchilarda algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda bugungi ta’lim davriga xosligi 3
Pulatova D.A. Allan Korrington g‘ildiragi oliy ta’lim muassasalarida aralash ta’lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida 6
Abdullayeva I.B. Tohir malik ijodida ta’lim va tarbiya g‘oyalari 10
Kuralov Y.A. Raqamli ta’lim platformalari orqali dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi 13
Nuriddinova M.I., Fayziyeva D.T. Boshlang’ich sinflarda tabiatni muhofaza etish tushunchalarini yoritishda tabiiy fanlar darslariga quyiladigan didaktik talablar 17
Xudoyqulov A.O. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va vazifalari 21
Boboqulov Ch.U. Shaxmat va zamonaviy texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish .25
Badalov A.R. Raqamli texnologiyalar asosida alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish 31
Jamolov F.F. O‘quv-mashq bosqichidagi turon yakka kurashchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalash usullari 37
Qodirova D.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fanlararo integratsiyani o‘rgatish metodikasi 41
Azamov U.Y. Bo’lajak pedagoglarni multimedia texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatishning pedagogik shartlari 45
Yuldashov Sh.S. Markaziy osiyo davlatlarida media savodxonlik ta’limining rivojlanishi va hozirgi holati: nazariy yondashuvlar hamda amaliy tajribalar 50
Erkinov A.T. Koreys tilida mamlakatshunoslikka oid matnlar orqali talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi.....57
Qodirova F.T. Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishda boshqaruv strategiyasi 61
Abdullayev X.B. Faol ta'lim usullari va ulardan foydalanish 65
Azizova X.E. Talabalarning nazariy bilimlarini interaktiv vositalar va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi orqali rivojlantirishning nazariy asoslari 69
Xudoyqulova G.T. Boshlang‘ich tayyorlov bosqichidagi dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning nazariy asoslari 78
Muxidova O.N. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarini loyihaviy ta’lim asosida rivojlantirish metodikasi ...82
Ibroximova G.S. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida raqamli savodxonlikning ahamiyati 86
Rustamov E.B. Boshlang‘ich dzyudo mashg‘ulotlari orqali 6-7 yoshli o‘quvchilarni axloqiy va irodalilik jihatlarini tarbiyalash metodi 91
Ражапов В.Т. “Маънавий дунёқараш” тушунчасининг моҳияти ва мазмуни 95
Kurbanova N.B. Grafik ta’limda raqamli texnologiyalar va bim muhitining integratsiyasi: tajriba va natijalar 102
Aliev I.T. Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida 109
Рамазонова М.С. Дидактические механизмы развития педагогических основ вовлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения 113
Yunusova X.T. Boshqaruv kompetentligini baholashda gender yondashuvdan foydalanish xususiyatlari 119
Hamdamova M.X. Mutaxassislik fanlarining xorijiy tillarda o’qitilishi bugungi kunning innovatsion ta'lim usullaridan biridir 124
Safarov D.Z. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida jismoniy sifatlarni tarbiyalashning nazariy asoslari 128
Jumaev A.Sh. Bo’lajak o’qituvchi shaxsini kasbiy rivojlantirish omillari.....132
Egamberdiyeva Y.U., To‘lqinova N.A. Interaktiv metodlarning ta’lim jarayonini texnologiyalashtirishda tutgan o‘rni 136
Boysinov S.S. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda adabiy ta'limning roli 140

Зарипова Д.А. Важность использования метода smart при обучении своих студентов модулю "нейропедагогика" 145
To‘xtaniyozova F.O., Komilov Q.O'. Sport maktablarida kimyo darslarini olib borishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish usullari 149
Sidikova Z.M., Xoldarova I.V. Sharq mutafakkirlari merosi asosida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish 154
Nosirov N.V. O‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari 159
Hamdamov G'.A. Xususiy oliy ta’lim muassasalari boshqaruvida ilg‘or xalqaro tajribani joriy etish strategiyalari va yo‘l xaritalari 165
Tojiboyeva Sh.K. Ingliz tili o‘qituvchilari uchun media savodxonlikka asoslangan tanqidiy fikrlash metodikasini rivojlantirish 169
Maxsudov P.M. Bo’lajak professional ta’lim o’qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlari 173
Azizbek B.X. Chet el boshlang’ich sinf maktablarida ingliz tilini loyihaviy ta’lim vositasida o’qitish usullari 178
Akbarova D. R. Oliy ta'limda integrativ tibbiy bilimlarni tizimli tashkil etish 181
Salimov S.S. Maktab fizika laboratoriya darslarini tashkillashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari 185
Shavazova N.M. Mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining samaradorligi 189
Muxitdinova J.R. Texnologiya fani mashg’ulotlarida o’quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari 193
Shukurov Sh.N. Amaliy mashg‘ulotlarda lazer dastgohida buyumlar tayyorlash jarayonida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kreativlikni shakllantirish 205
Jo’rayev F.A. Ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga oid tarixiy va zamonaviy qarashlar 211
Mirsagatova U.Z., Komilova Sh.A. Su’niy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitishning pedagogik asoslari 215
Beketov N.A. Zamonaviy oliy ta’limda ta’lim sifatini ta’minlash: nazariy va amaliy asoslar 218
Бабаджанова Г. Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины 223
Kubayeva M.B. Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishni baholash komponentlari va ularning mezonlari 228
Risvayeva Ch.Z. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida yoshlarda yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish usullari 231
Islamova K.T. “Temurbeklar maktablari” o‘quvchilarini tanqidiy fikrlash g‘oyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida (Geografiya ta’limi misolida) 235
Abdullayev I.X. Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini axborot xavfsizligini ta’minlashga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari va ularga qo‘yiladigan talablar 241

KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI VA DASTURIY VOSITALARNING O‘QUVCHILARDA ALGORITMIK FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BUGUNGI TA’LIM DAVRIGA XOSLIGI

MADIYEVA CHAROS DOVUTOVNA
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Zamon bilan hamnafas rivojlanayotgan bugungi ta’lim davri va jarayonlarini kompyuter texnologiyalari va vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuni anglagan holda, mazkur maqolada aynan kompyuter texnologiyalari va dasturiy vositalar yordamida o‘quvchilarda algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kompyuter texnologiyalari va dasturiy vositalarning o‘quvchilarda algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda bugungi ta’lim davriga xos bo‘lgan jihatlari tahlil qilindi.

Tayanch so‘zlar: algoritmik fikrlash qobiliyati, kompyuter texnologiyalari, dasturiy vositalar, fikrlash, algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchi, algoritm.

Аннотация: Сегодняшняя образовательная эпоха и процессы, развивающиеся в ногу со временем, немыслимы без компьютерных технологий и инструментов. Осознавая это, в данной статье были проанализированы аспекты развития алгоритмического мышления учащихся с помощью компьютерных технологий и программных средств, характерные для сегодняшнего периода обучения, когда компьютерные технологии и программные средства развивают у учащихся навыки алгоритмического мышления.

Ключевые слова: развитие навыков алгоритмического мышления, компьютерной техники, программных средств, мышления, алгоритмического мышления, читателя, алгоритма.

Annotation: It is impossible to imagine today's educational period and processes that are developing in harmony with the times without computer technologies and tools. Realizing this, this article analyzes exactly what is characteristic of today's educational period in the development of algorithmic thinking in students with the help of computer technologies and software tools, in the development of algorithmic thinking in students of computer technologies and software tools.

KEY WORDS: algorithmic thinking ability, computer technology, software tools, thinking, development of algorithmic thinking ability, reader, algorithm.

Hozirgi vaqtda butun jahon bo‘ylab tezkor sur’atlarda rivojlanish holatlari kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda dunyo bilim iqtisodiyoti davriga kirib bormoqda. Mazkur sharoitda yosh avlodning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish nafaqat individual muvaffaqiyat uchun, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, maktab yoshidagi o‘quvchilarni har tomonlama, ya’ni tanqidiy, analitik va ijodiy fikrlashga o‘rgatish ularning kelajakdagi hayotida muhim rol o‘ynaydi, chunki zamonaviy jamiyatda oddiy bilimlarni yod olishdan ko‘ra, muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalari ko‘proq talab qilinadi.

Ta’limdagi yangilanish faqat o‘quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o‘zgartirishni ham nazarda tutadi. Yosh avlod vakillarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli — oliy natijasi demakdir. U faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, mustaqil ish jarayonida shakllanadi.

Narsa va hodisalarning mavjudligi aloqadorlikdan iboratdir. Aloqadorlik buzilsa, mavjudlikda ham o‘zgarish ro‘y berishini anglash, isbotlash, tushuntirish, fikrlash

shakllanishining tadrijiy bosqichlaridir. Fikrlash insonga hayot baxsh etadigan kuch ham sanaladi. Ya'ni, inson mustaqil fikrlash orqali tirik. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'lmagan o'lik jussaga aylanadi. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Shu sababli o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish juda muhim. Va bunga asosli ravishda aytish kerakki, fikrlash qobiliyati rivojlangan o'quvchigina bilimlarni mustahkam o'zlashtiradi.

O'quvchilarning mustahkam bilimları o'zlashtirishlarida faqatgina ijodiy fikrlash turlarigina emas, balkim algoritmik fikrlashlari ham juda muhim cihatlardan biridir. Negaki, sof nazariy matematika tomondan dastlabki bosqichlarda algoritm tushunchasi paydo bo'lgan. Va u algoritmlar nazariyasining kuchayishiga asos bo'lgan ham. Bugunga kunga qadar bu tushunchaning matemakani o'rganishda ahamiyati yuqori bo'lib kelgan. Shuningdek, ayni zamonaviy ta'lim davri uchun uni va unga xos xususiyatlarni yanada shakllantirishning muhim Nihatları namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, buning asosiy sabablaridan biri — jamiyatni tobora axborotlashtirish vazifa va masalalarining jiddiylashuvidir.

Bugun jamiyatda «algoritm» tushunchasi turli sohalarning markazida bo'lmoqda. Negaki, mavjud jamiyatning turfa jabhalarida algoritmik tushunchaga xos ishlar soni ortdi. Bu esa algoritm, algoritmik qobiliyat va uni rivojlantirish borasida chuqur yondashuvning yuzaga chiqishiga turtki bo'ldi. Ayni shu asosda aynan maktab o'quvchilarida algoritmik qobiliyatni rivojlantirishning zamonaviy ta'lim davriga xos ekanligini alohida qayd etish joiz.

Tadqiqotchi A.I.Gazeikinaning ta'biricha: "Algoritmik fikrlash — bu kattalashtirilgan bloklarni o'ziga xos tafsilotlash va optimallashtirish, yakuniy natijaga erishish jarayonini ongli ravishda birlashtirish bilan amalga oshiriladigan aqliy jarayonlarning aniq, maqsadga muvofiq ketma-ketligi mavjudligi bilan tavsiflangan kognitiv jarayon bo'lib, qabul qilingan semantik va sintaktik qoidalarga ega ijrochidir.

Demak, maktab o'quvchilarida aynan algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadi bugun jiddiy tusda globallashuv jarayonlarida rivojlanayotgan ta'lim davri uchun albatta, ijobiy samaradorlikka xizmat qiladi. Chunki joriy asr kompyuter texnologiyalari va uning vositalarisiz yashab bo'lmaydigan asr darajasiga yetib ulgurdi. Bundan ta'lim sohasi ham mustasno emas, albatta. Ayni kelib chiqib aytish mumkinki, maktab o'quvchilarida algoritmik qobiliyatni rivojlantirish uchun avvalo, o'quvchida algoritmik qobiliyatni rivojlantirishda hissa qo'shadigan bir necha dasturiy vositalarni tahlil qilish hamda ularni o'rganish maqsadida kompyuterni qo'llash sohalarini aniqlash, ushbu yo'nalaishni qo'llab-quvvatlash uchun biror bir turdagi dasturiy vositalar yaratilganligini alohida qayd etish darkor. Shu bilan bir qatorda alogoritmik qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturiy vositalarga qo'yiladigan asosiy talablarga aniqlik kiritish, mavjud dasturiy vositalarni xuddi shu talablarga muvofiq ekanligi yuzasidan tahlil ishlarini olib borish ham joiz.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, algoritmik qobiliyatni rivojlantirish uchun kompyuterdan foydalanishning ta'lim sohasida uch ta asosiy yo'nalishi aniqlangan:

- Komputer an'anaviy texnik ta'lim vositalari funksiyalarini sintez qiladigan, bilimlarning ko'rinishini yoki nazoratini oshirish uchun ishlatiladigan ko'p funksiyali texnik vosita sifatida;

- Komputer savodxonligi va axborot madaniyatini o'zlashtirish uchun komputer o'rganish ob'yekti sifatida.

- Komputer texnik ta'lim vositalarining an'anaviy funksiyalarini o'qituvchining kommunikativ va boshqarish funksiyalari bilan birlashtirgan faol intellektual va texnik vosita sifatida.

Demakki, har bir yo'nalish o'ziga xos dasturiy vositalar to'plami (DVT) orqali

amalga oshiriladi. Bu vositalar o‘quvchilarda algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan va o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash uchun muhim rol o‘ynaydi. Hamda o‘quvchilarda algoritmik qobiliyatni rivojlantirish uchun dasturiy vositalarga qo‘yiladigan asosiy talablar — foydalanuvchi uchun qulaylik yaratishi, o‘quvchilarning yoshiga mos interfeys va vizual taqdimotning yuqori darajada bo’lishi, ushbu vositalarning mavjudligi o‘quv jarayonining sifatini oshirishi va o‘quvchilarning kreativ, algoritmik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Воронина Л. В. Развитие творческого потенциала дошкольников через формирование у них алгоритмических умений // Педагогические системы развития творчества : мат-лы 10-й Междунар. науч.-практ. конф. (Екатеринбург, 13-14 декабря 2011 г.). Екатеринбург, 2011. Ч. 1. С. 135-140.
2. Родионова О. Н. Развитие алгоритмической культуры личности дошкольника // Известия Рос. Гос. пед. ун-та им. А. И. Герцена. 2008. № 69. С 473-476.
3. Цукарь, А.Я. Схематизация и моделирование при решении текстовых задач [Текст] / А.Я. Цукарь // Математика в школе, 2013. – № 5. – 15с.
4. Яковлева, Е.И. «Игры в Лого» [Текст] / Е.И. Яковлева // Научно-практический электронный альманах «Вопросы информатизации образования», 2014. – №4. – 23с.

ALLAN KORRINGTON G‘ILDIRAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ARALASH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

PULATOVA DILFUZA AZAMKULOVNA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Allan Korrington g‘ildiragi modelining mazmuni, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida aralash (gibrid) ta’limni samarali tashkil etishda ushbu modelning imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyada g‘ildirak modelining afzalliklari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar. Allan Korrington g‘ildiragi, aralash ta’lim, oliy ta’lim, pedagogik texnologiya, samaradorlik, interfaollik.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim sohasida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarini uyg‘unlashtiruvchi aralash ta’lim modellari tobora ommalashmoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning faolligini oshirish va mustaqil tafakkurini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, amerikalik pedagog Allan Korrington tomonidan taklif etilgan g‘ildirak modeli (Wheel Model) zamonaviy aralash ta’limni tashkil etishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Allan Korrington tomonidan ishlab chiqilgan g‘ildirak modeli (Wheel Model) - bu ta’lim jarayonida talabani faol sub’ekt sifatida ko‘ruvchi, uni o‘quv jarayonining markaziga joylashtiruvchi konstruktiv pedagogik model hisoblanadi. Bu model ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va interaktiv usullar bilan boyitishga xizmat qiladi.

G‘ildirak modelidagi asosiy metafora – bu talaba markazda turishi va uni o‘rab turgan faoliyat turlari g‘ildirak spitsalari kabi atrofiga joylashishi hisoblanadi. Ya’ni, g‘ildirak markazida – talaba shaxsiyati, uning bilimlari, salohiyati, qiziqishlari va o‘qish tarzi turadi. G‘ildirakning har bir “spitsasi” esa ta’limda qo‘llaniladigan muayyan usul yoki faoliyat turini anglatadi.

G‘ildirak modelining asosiy tarkibiy qismlari:

Markaz - Talaba

G‘ildirakning markaziy nuqtasi - bu talabaning individual ehtiyojlari, o‘quv maqsadlari va shaxsiy salohiyatidir. Bu yondashuvda har bir ta’limiy faoliyat aynan talabani inobatga olgan holda tashkil etiladi. Shu bois, model shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyilini amalga oshiradi.

Tashqi halqa — Pedagogik muhit

G‘ildirakning tashqarisida esa ta’lim muhitini tashkil qiluvchi omillar joylashgan: pedagogning roli, ta’lim platformalari (Moodle, Teams, Google Classroom va h.k.), baholash mezonlari va tashkilotchilarning qo‘llab-quvvatlovi. Bu muhit samarali ishlashi uchun pedagog va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik juda muhim.

G‘ildirak modelining nazariy asoslari

Allan Korrington g‘ildirak modelini yaratishda konstruktivizm ta’lim nazariyasidan ilhom olgan. Bu nazariyaga ko‘ra, talabalar bilimni tayyor shaklda

qabul qilmaydilar, balki uni faol tarzda o‘z tajribalari asosida qurib boradilar. G‘ildirak modelining har bir faoliyat turi talabani mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga va bilimni amaliyotda qo‘llashga undaydi.

Shu bilan birga, model Govard Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasi, Devid Kolbning tajribaga asoslangan o‘qish davri va Blum taksonomiyasi bilan uyg‘un tarzda ishlaydi. Masalan, keys-tahlil va refleksiya faoliyatlari yuqori darajali tafakkur operatsiyalarini talab qiladi.

Aralash ta’limda Allan Korrington g‘ildiragi modelini qo‘llash tajribasi va samaradorligi

Aralash ta’lim (gibrid ta’lim) — bu an’anaviy sinfdagi o‘qitish bilan onlayn o‘quv muhitini uyg‘unlashtiruvchi yondashuv bo‘lib, unda talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotning turli shakllari birlashtiriladi. Allan Korrington g‘ildiragi modeli aynan mana shu formatdagi ta’limni samarali tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Sababi, ushbu modelda an’anaviy, raqamli va mustaqil o‘quv faoliyatlari kompleks ravishda tuzilgan.

1. Platformalar va raqamli muhit imkoniyatlari

Allan Korrington g‘ildiragi modelini amalga oshirishda zamonaviy ta’lim platformalari muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

Google Classroom: talabalarga onlayn topshiriqlar berish, muhokamalar tashkil etish va refleksiyani baholash imkonini beradi;

Moodle: o‘quv materiallari, testlar, forumlar va mustaqil ishlarni markazlashtirilgan holda joylashtirish mumkin;

Microsoft Teams: sinxron darslar, videokonferensiyalar va guruhli muhokamalarni tashkil etishda samaralidir.

G‘ildirak modelining har bir “spitsasi” ushbu platformalar orqali qo‘llab-quvvatlanadi va oliy ta’lim muassasalaridagi aralash ta’limda faoliyatlarni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

2. Ustuvorliklari va samaradorlikka ta’siri

G‘ildirak modelini aralash ta’limda qo‘llashning bir necha asosiy ustuvorliklari mavjud:

Talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi: har bir talaba o‘ziga qulay formatda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘quv motivatsiyasini oshiradi: mustaqil ish, refleksiya va loyiha faoliyatlari orqali shaxsiy e’tirofga erishish ehtimoli yuqori.

Multimodal ta’lim muhitini yaratadi: axborot turli formatlarda — video, matn, tasvir, interaktiv vazifa sifatida taqdim etiladi.

Ta’limda individuallashuvni ta’minlaydi: har bir talaba o‘z tempida harakat qilishi mumkin.

Bir qator tadqiqotlar va amaliyotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Allan Korrington g‘ildiragi modelini aralash ta’limga integratsiya qilish natijasida talabalarning quyidagi ko‘rsatkichlari yaxshilangan:

Ta’limga qiziqish darajasi — 30–40% ga oshgan;

Mustaqil fikrlash ko‘nikmalari — 25% ga yaxshilangan;

Onlayn muhitda ishtirok darajasi — 2 baravar oshgan;

Ta’lim yakunlari bo‘yicha muvaffaqiyat darajasi — o‘rtacha 20% ga o‘sgan.

3. Amaliyotdagi misollar

Ayrim oliy ta’lim muassasalarida g‘ildirak modelidan foydalanish quyidagi formatlarda amalga oshirilmoqda:

“1 hafta – 1 mavzuda 6 faoliyat”: har bir mavzu uchun 6 turdagi faoliyat — ma’ruza, video, forum, mustaqil ish, test va refleksiya

belgilanadi.

“Interaktiv davracha”: talabalar 4 ta guruhga bo‘linib, har biri g‘ildirakning muayyan spitsasiga javobgar bo‘ladi va keyin o‘zaro ma’lumot almashadi.

“Spitsa asosida baholash”: har bir faoliyat uchun alohida baholash mezonlari belgilanib, reyting shaklida yig‘iladi.

G‘ildirak modelini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish yo‘nalishlari va metodik tavsiyalar

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, raqamlashtirish, interfaol o‘qitish texnologiyalari va mustaqil ta’limni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar, Allan Korrington g‘ildiragi modelini amaliyotga joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq, har qanday modelni samarali tatbiq etish uchun uni mahalliy shart-sharoit, talabalarning o‘quv madaniyati va pedagog kadrlar salohiyatiga moslashtirish talab etiladi.

1. Metodik yo‘nalishlar va moslashuv jarayoni quyidagi mexanizmlardan iborat

Modelning modulli formatga integratsiyasi

G‘ildirak modelini o‘quv fanlarining modulli tuzilmasiga moslashtirish kerak. Har bir modul doirasida 5–7 ta faoliyat turini (ma’ruza, keys-tahlil, onlayn muhokama, mustaqil topshiriq, refleksiya) qamrab olish samarali hisoblanadi.

Fan dasturlarini qayta ko‘rib chiqish

Fan dasturlari, xususan, o‘quv maqsadlari va topshiriqlari Blum taksonomiyasi asosida qayta ishlanishi kerak. Bu talabalarda analiz qilish, solishtirish, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy echim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazmunni raqamli muhitga moslashtirish

Mavjud darsliklar va o‘quv materiallarini raqamlashtirish va interaktiv formatda qayta ishlash talab etiladi. Masalan, matnli materiallarga qo‘shimcha ravishda podkastlar, videodarslar, infografika va testlar joriy etiladi.

2. O‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar

Modelni tanishtirish va o‘rgatish

Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar uchun maxsus seminarlar, treninglar va onlayn kurslar tashkil etish zarur. Ularda g‘ildirak modelining nazariy asoslari, faoliyat turlari va baholash strategiyalari yoritilishi kerak.

Pedagogik hamjamiyat shakllantirish

G‘ildirak modelini qo‘llayotgan o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashuvini yo‘lga qo‘yish kerak. Bu maqsadda fakultet va kafedralar doirasida “ta’lim innovatsiyalari guruhlari” tuzilishi mumkin.

Baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish

Talabalarning har bir faoliyati alohida baholanishi lozim. Masalan, muhokamada qatnashish — 10 ball, keys-tahlil echimi — 20 ball, refleksiya yozish — 10 ball va hokazo. Bu usul talabalarni barcha faoliyat turlarida faol ishtirok etishga undaydi.

3. Talabalar uchun yo‘naltiruvchi strategiyalar

Faoliyat turlari bo‘yicha yo‘riqnomalar taqdim etish (masalan, refleksiya qanday yoziladi, forumda qanday qatnashish kerak).

Raqamli platformalardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmalar (video yoki illyustrativ shaklda).

Modelning umumiy tuzilishi bilan talabalarni tanishtirish darsi tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, Allan Korrington g‘ildiragi modeli nafaqat zamonaviy ta’lim talablariga javob beradi, balki uni milliy ta’lim tizimi sharoitida ham samarali joriy

etish mumkin. Modelni muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun fan dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, pedagoglar malakasini oshirish va raqamli muhitni rivojlantirish zarur. Ushbu model orqali talabalarda shaxsiy mas’uliyat, mustaqillik va faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarori. “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017. – №17. – Modda 2909.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: Oliy ta’lim vazirligi, 2020. – 64 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4883-son qarori. “2020–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2020. – №23. – Modda 4883.
4. Karrington A. The Padagogy Wheel V4.0 [Elektron resurs]. –https://designingoutcomes.com
5. Колб Д. Э. Опытное обучение: опыт как источник обучения и развития. – Englvud Kliffs: Prentis-Xoll, 1984. – 256 c.
6. Гарднер Г. Структуры разума: теория множественного интеллекта. – Nyu-York: Basic Books, 1983. – 412 c.
7. Блум Б. Таксономия учебных целей. Руководство И: Когнитивная область. – Nyu-York: David McKay Company, 1956. – 207 c.
8. Бонк К. Дж., Грем К. Р. Справочник по смешанному обучению: глобалные перспективы, локалные проекты. – Сан-Франциско: Pfeiffer Publishing, 2006. – 550 c.
9. Сименс Г. Коннективизм: теория обучения сифрового века // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – T. 2, №1. – C. 3–10.
10. Андерсон Т., Дрон Дж. Три поколения педагогики дистанционного обучения // The International Review of Research in Open and Distributed Learning. – 2011. – T. 12, №3. – C. 80–97.
11. Mirzaaxmedov H.H. Ta’limda innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 210 b.
12. Abdullaeva N. Aralash ta’lim modellari: milliy amaliyotda qo‘llash xususiyatlari // Pedagogik mahorat jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–49.
13. Murodova M. Blended learning as an effective tool in higher education // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2021. – Vol. 3, Issue 7. – P. 115–121.
14. Ganieva D.O‘. Onlayn va gibrid ta’limda talabalarni baholash uslublari // Innovatsion ta’lim jurnali. – 2022. – №2. – B. 34–39.
15. Xamidov A. I. Masofaviy ta’limda pedagogik modellar va platformalar. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2021. – 148 b.
16. Sharipova G.H. Oliy ta’limda raqamlashtirish jarayoni: imkoniyatlar va muammolar // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. – 2023. – T. 4, №1. – B. 102–108.

TOHIR MALIK IJODIDA TA’LIM VA TARBIYA G‘OYALARI

ABDULLAYEVA ILMIRA BOLTAYEVNA
Urganch Innovatsion universisteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Tohir Malik ijodida ta’lim va tarbiya g‘oyalarining ifodalanishi tahlil etilgan. Asarlarida inson ma’naviyati, axloqiy poklik, vatanparvarlik, adolat, ezgulik va ilmga bo‘lgan intilish kabi tushunchalarning badiiy talqini o‘rganiladi. Muallifning "Shaytanat", "So‘nggi o‘q", "Tiriklik suvi", “Odamiylik mulki“ kabi romanlarida yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatdagi axloqiy muammolarni ko‘rsatish orqali ijtimoiy ongni yuksaltirishga qaratilgan g‘oyalarga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola, shuningdek, yozuvchining pedagogik qarashlari va ularni badiiy obrazlar orqali yetkazish uslubini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Tohir Malik, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, axloq, yosh avlod, pedagogik g‘oya, badiiy obraz, adabiyot, "Shaytanat", "So‘nggi o‘q", "Tiriklik suvi",“Odamiylik mulki“.

Аннотация: В данной статье анализируется отражение идей образования и воспитания в творчестве видного представителя узбекской литературы Тахира Малика. Рассматривается художественная интерпретация таких понятий, как духовность, нравственная чистота, патриотизм, справедливость, доброта и стремление к знанию в его произведениях. Особое внимание уделяется идеям, направленным на воспитание молодого поколения и повышение общественного сознания через раскрытие моральных проблем общества в романах «Шайтанат», «Последняя пуля», «Вода жизни», «Достояние человечности». Также в статье освещаются педагогические взгляды писателя и его методы донесения этих идей через художественные образы.

Ключевые слова: Тахир Малик, образование, воспитание, духовность, нравственность, молодое поколение, педагогическая идея, художественный образ, литература, «Шайтанат», «Царство человечности», «Последняя пуля», «Вода жизни»,«Достояние человечности».

Ta’lim va tarbiya g‘oyalari — jamiyatning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi eng muhim tushunchalardan biridir. Bu g‘oyalar insonning komil shakllanishiga, jamiyatda sog‘lom muhit barpo etilishiga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch" asarida ta’lim va tarbiya masalalari markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Muallif ta’kidlaydiki, hech qanday taraqqiyot, islohotlar yoki yutuqlar sog‘lom ma’naviy asoslarsiz barqaror bo‘la olmaydi. Shu sababli ta’lim va tarbiyada milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va vatanparvarlikka asoslangan ma’naviyat asos qilib olinishi lozim. Kitobda yoshlarni yuksak axloqiy mezonlar asosida tarbiyalash, ularda mustaqil fikrlash, halollik, vatanparvarlik, odob va mehr-oqibat tuyg‘ularini shakllantirish eng muhim vazifa sifatida ko‘rsatiladi.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos mavqe va uslubga ega bo‘lgan adib Tohir Malik ijodi milliy ruh, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar targ‘iboti bilan ajralib turadi. Uning asarlari nafaqat badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan, balki jamiyatning muhim ijtimoiy-madaniy muammolarini ko‘tarib chiqishi bilan ham alohida e’tiborga loyiqdir. Xususan, Tohir Malik ijodida ta’lim va tarbiya g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Adib o‘z asarlarida yosh avlodni vatanparvarlik, adolat, halollik, ezgulik va ilmga intilish ruhida tarbiyalash,

ularning ongini shakllantirish masalalariga alohida urg‘u beradi. Ushbu maqolada Tohir Malikning ayrim romanlari tahlili orqali uning pedagogik qarashlari, badiiy obrazlar vositasida berilgan tarbiyaviy g‘oyalari yoritiladi.

Tohir Malik – o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo‘lib, o‘zining sermahsul ijodi orqali nafaqat badiiy, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham katta iz qoldirgan adibdir. Uning asarlarida ko‘tarilgan dolzarb mavzular, insoniylik g‘oyalari, adolat, vatanparvarlik, axloqiy poklik, ta’lim va tarbiya masalalari har doim asosiy o‘rinda bo‘lgan. Tohir Malik o‘zining barakali ijodi va ibratga to‘la hayotini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotiga bag‘ishladi. Uning asarlarida odob-axloq, mehr-oqibat va odamiylik fazilatlari targ‘ib qilingan. Yozuvchi ijodidagi g‘oyalar kitobxonni jamiyat illatlaridan ogoh bo‘lishga, inson ruhiyatidagi ba’zi qusurlardan xalos bo‘lishga chorlaydi. Sevimli yozuvchimiz umrining so‘nggiga qadar ona Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qildi

Tohir Malikning romanlari, hikoyalari va qissalarida yosh avlodni tarbiyalash, ularning ongiga ezgulik, halollik, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni singdirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, uning “Shaytanat” romanida jamiyatdagi yovuz kuchlarga qarshi kurash, yoshlarning to‘g‘ri yo‘lni tanlashi va axloqiy barkamollikka intilishi aniq tasvirlanadi. Ushbu asarda tarbiya va ijtimoiy adolat g‘oyasi markaziy o‘rinda turadi.

Adib ko‘pincha o‘z asarlarida ma’naviyatning kuchi va insoniy fazilatlarning ta’lim orqali shakllanishiga urg‘u beradi. “So‘nggi o‘q” kabi asarlarda ham o‘qish, bilim olish, mustahkam iymon va axloqiy mezonlarga sodiqlik orqali insonning hayoti va jamiyatdagi o‘rni belgilanishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Tohir Malikning ijodida tarbiya masalasi faqat oilaviy muhit doirasida emas, balki keng ijtimoiy kontekstda – maktab, atrof-muhit, jamiyat va tarixiy xotira orqali ko‘rsatiladi. U yoshlarga faqat kitobiy bilim emas, balki hayotiy tajriba, mustaqil fikrlash va iymonli yashashni o‘rgatish zarurligini ta’kidlaydi.

“Tohir Malik”ning “Tiriklik suvi” asari fantastik-sarguzasht janrida yozilgan bo‘lib, unda insoniyatning abadiylikka intilishi, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash chuqur falsafiy ma’noda tasvirlanadi. Asar orqali muallif jamiyatdagi axloqiy inqiroz, ilm-fan va ma’naviyat munosabati, inson tabiatining murakkabligi haqida o‘z fikrlarini bildiradi. Abadiy hayot g‘oyasi vositasida insoniyatning orzu-umidlari, axloqiy tanlovi va o‘zgaruvchan tabiati yoritiladi. Asarda asosiy g‘oya – ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi, ilm-fan va ma’naviyatning uyg‘unligi, hamda inson axloqi ustuvor bo‘lishi zarurligidir. Muallif hayotni qadrlash, uning go‘zalligini tushunish, abadiylik emas – mazmunli yashash muhim ekanini uqtiradi.

Tiriklik suvi – faqat ilm bilan emas, ma’naviyat bilan topiladi. Bu orqali muallif insoniyat taraqqiyoti uchun ikkalasi ham zarurligini ko‘rsatadi.Asarda fidoyilik, sabr-toqat va ishonch katta ahamiyatga ega.Asosiy qahramon – ilmli, jasur, va fidoyi inson timsoli. U orqali muallif yoshlarni bilimli va vatanparvar bo‘lishga undaydi.

Yovuz kuchlar – pul, boylik va abadiy hayotni noto‘g‘ri yo‘llar bilan izlovchilar orqali tasvirlanadi.Asarda timsollar, ramziy obrazlar, ichki monologlar va falsafiy tafakkur keng o‘rin olgan. "Tiriklik suvi" – bu real modda emas, balki ramziy ma’nodagi hayot mazmuni, ma’naviy yuksalishdir. Tohir Malikning “Tiriklik suvi” asari nafaqat sarguzasht, balki chuqur axloqiy va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan asar bo‘lib, unda o‘quvchi o‘zini, jamiyatni va hayot mazmunini chuqur anglaydi. Asar yosh avlodni haqiqatparvarlik, halollik va ma’naviyatga chorlaydi. Qahramonlar hayotiy sinovlardan o‘tadi. Ular ezgulikni tanlash bilan jamiyatga

xizmat qilish zarurligini anglaydi.

Tohir Malik ijodining muhim asarlaridan biri bo‘lgan “Odamiylik mulki” – insoniylik, axloq, halollik, mehr-oqibat va iymon kabi yuksak qadriyatlarni targ‘ib etuvchi asardir. Bu asar orqali yozuvchi nafaqat badiiy obrazlar yaratadi, balki o‘quvchiga chuqur ma’naviy saboq, tarbiyaviy yo‘l-yo‘riq beradi.

Asarda ko‘tarilgan asosiy g‘oyalardan biri bu – inson kamoloti ta’lim va tarbiya orqali shakllanishidir. Tohir Malik shaxs tarbiyasini ,avvalo, oila, atrof-muhit va hayotiy tajriba orqali ifodalaydi. Asar qahramonlari orqaligina emas, muallifning falsafiy qarashlari, ichki monologlar orqali ham o‘quvchiga chuqur axloqiy saboqlar beriladi.

“Odamiylik mulki”da yozuvchi halollik va poklikni insonning eng buyuk mulki deb ataydi. Bu yerda “mulkiy boylik” emas, balki ruhiy va axloqiy boylik haqida so‘z yuritiladi. Asar yosh avlodga – nafaqat qanday yashash kerakligini, balki qanday odam bo‘lish kerakligini ham o‘rgatadi. Ta’lim bu yerda faqat bilim emas, balki insoniylikni o‘rgatadigan kuch sifatida tasvirlanadi.

Shuningdek, Tohir Malik bu asarda o‘zbek xalqining qadimiy odob-axloq mezonlariga, ota-bobolar merosiga suyanadi. Bu orqali u milliy tarbiyaning ildizlari, iymon-e’tiqod, sabr-toqat va halol mehnatning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida, “Odamiylik mulki” asari Tohir Malik ijodidagi eng chuqur ma’naviy va tarbiyaviy asarlardan biri hisoblanadi. Unda yoshlar uchun ibratli hayot saboqlari, ta’limning haqiqiy ma’nosi, odamiylikning yuksak fazilatlari yoritilgan. Asar bugungi kunda ham o‘quvchilar uchun muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Tohir Malik ijodi o‘zbek adabiyotida ta’lim va tarbiya g‘oyalarining yuksak namunasi bo‘lib, bugungi kunda ham yoshlar uchun muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarini o‘qish orqali nafaqat badiiy zavq olish, balki hayotiy saboqlarni o‘rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent: Sharq, 2000.
2.Tohir Malik. So‘nggi o‘q. – Toshkent: Yozuvchi, 2004.
3.Tohir Malik. Tiriklik suvi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.
4.Tohir Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2010.
5.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6.Sharopov Sh. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida tarbiyaviy g‘oyalar. – Toshkent: Fan, 2016.
7.Qodirov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
8.Egamberdiyeva M. Tarbiyaning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
9.Qurbonov A. Adib va zamon. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.

RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI ORQALI DASTURLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

KURALOV YULDASH ABDULLAYEVICH
CHDPU dotsenti v.b, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim platformalari orqali dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi yoritilgan. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: dasturlash, raqamli ta'lim, platforma, videodars, interaktiv muhit, amaliy ko'nikma.

Аннотация. В данной статье раскрыта методика формирования навыков программирования с использованием цифровых образовательных платформ. Также проанализированы возможности повышения эффективности учебного процесса и развития у студентов навыков самостоятельной работы с помощью цифровых инструментов.

Ключевые слова: программирование, цифровое образование, платформа, видеоурок, интерактивная среда, практические навыки.

Abstract. This article describes the methodology for developing programming skills using digital educational platforms. It also analyzes the possibilities of increasing the efficiency of the educational process and developing students' independent work skills using digital tools.

Keywords: programming, digital education, platform, video lesson, interactive environment, practical skills.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, zamonaviy ta'lim muhitining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yangi imkoniyatlar ochmoqda. Raqamli platformalar yordamida ta'lim jarayonini interfaol tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish va o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yanada kengaymoqda.

Hozirgi kunda raqamli ta'lim platformalari nafaqat o'qitish vositasi, balki o'quvchilar va talabalar uchun mustaqil bilim olish, amaliy topshiriqlarni bajarish, algoritmik tafakkur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning qulay va samarali muhitini yaratmoqda. Ushbu platformalar yordamida o'quvchilar istalgan joyda va vaqtda dasturlashga oid topshiriqlarni bajarish, o'z bilimlarini mustaqil ravishda baholash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, ular o'z loyihalarini yaratish orqali amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va ijodiy yondashuv asosida dasturlash ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu sababli, raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish va ularga asoslangan o'qitish metodikasini shakllantirish dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ulardan mustaqil foydalanish va real muammolarni algoritmik yechish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida dasturlashni o'rgatishning

asosiy maqsadi — talabalarni chuqur bilim, mustahkam ko‘nikma va amaliy malakalar bilan qurollantirib, ularni tez sur’atlarda rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatda faol ishtirok eta oladigan, tanqidiy va mantiqiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishdan iboratdir. Dasturlash fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalar nafaqat dasturlashning nazariy asoslarini mukammal egallashlari, balki bu bilimlarni kundalik hayotda amaliy qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari, algoritmik tafakkur va individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari ham muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligini oshirishda esa raqamli texnologiyalar muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi [7].

Raqamli texnologiyalarni loyihalash, ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari L.A.Aleksandrova, A.V.Bobilev, N.A.Bogdanova, N.V.Dnepr kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning izlanishlarida raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish, ta’lim sifatini oshirish va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish va raqamli vositalar asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish masalalari S.V.Lapteva, O.O.Chertovskix, O.O.Djioeva, O.M.Tandelova, D.V.Chochiti, O.M.Shadrina, L.R.Gabdrakipova, D.A.Zikov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari orqali chuqur tahlil etilgan [14].

Xususan, S.V.Lapteva o‘z tadqiqotlarida raqamli ta’lim resurslarining imkoniyatlarini aniqlab bergan bo‘lsa, O.O.Chertovskix esa sun’iy intellekt asosida ta’limni tashkil qilish va zamonaviy platformalar yordamida o‘qitish usullarini o‘rganib chiqqan. O.O.Djioeva, O.M.Tandelova va D.V.Chochiti raqamli texnologiyalarni tasniflash, ularning afzallik va imkoniyatlarini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan fikrlar bildirgan. O.M.Shadrina esa talabalarning mustaqil ishlari jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning samarali metodlarini tadqiq qilgan.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘qituvchi o‘quv materiallarini tizimlashtirilgan, optimallashtirilgan va vizual jihatdan qulay shaklda taqdim etish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, darslarni interaktiv va qiziqarli loyihalash, o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini nazorat qilish, ularni o‘z vaqtida baholash imkoniyatlari ham kengayadi. O‘quvchilar esa raqamli ta’lim platformalari yordamida mustaqil ravishda bilim olish, o‘zini-o‘zi baholash, fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, kreativ fikrlash va zarur kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu asosda ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalar va platformalar dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirishda nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini mustahkamlashda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning metodologik asosi zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari va dasturlashni o‘qitish nazariyasi tamoyillariga tayangan holda shakllantirilgan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta’lim muassasalarida dasturlash fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy yondashuvlar asos sifatida qabul qilindi:	
Tizimli yondashuv	dasturlashni o‘qitish jarayonining barcha tarkibiy qismlarini, ularning o‘zaro aloqadorligini va raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish mexanizmlarini aniqlash uchun qo‘llanildi. Bu yondashuv talabalarning dasturlash kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modelini ishlab chiqishga xizmat qildi.
Kompetensiyaviy yondashuv	talabalar bilimini baholashda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlashga yo‘naltirildi. Ushbu yondashuv orqali dasturlash jarayonida talabaning ijodiy fikrlashi, mustaqil yechim qabul qilish qobiliyati va amaliy dasturlash ko‘nikmalari rivojlantirildi.
Innovatsion yondashuv	raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali ta’lim jarayonini yangilash, interaktiv va motivatsion muhit yaratish, sun’iy intellekt elementlari, o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) va vizual dasturlash vositalari asosida dars jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etildi.
Integrativ yondashuv	dasturlashni boshqa fanlar (matematika, informatika, algoritmika, axborot xavfsizligi) bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi va fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotda asosan quyidagi metodlar qo‘llanildi:

• Ilmiy adabiyotlar tahlili — mavzuga doir ilg‘or xorijiy va mahalliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar tahlil qilinib, dasturlashni raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari aniqlab chiqildi.

• Eksperimental-tajriba metodlari — dasturlash fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhlari bilan pedagogik tajribalar o‘tkazildi.

• So‘rovnoma va intervyu — o‘quvchilarning dasturlash faniga bo‘lgan qiziqishini, motivatsiyasini va bilim darajasini baholash maqsadida strukturalangan savolnomalar va suhbatlar tashkil qilindi.

• Matematik-statistik tahlil — tajriba-sinov natijalarini chuqur tahlil qilish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni ilmiy asosda baholash uchun statistik usullar qo‘llanildi.

Tadqiqot davomida ilmiy asoslangan pedagogik modellar va dasturlashni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar dasturlashni samarali o‘rgatish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim platformalari dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’lim sifatini oshirish, mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirish va o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltirishda samarali vosita hisoblanadi. Xususan, interaktiv

dasturlar, videodarslar va onlayn testlar talabalarda dasturlashga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

A.M.Axmedova va G.Z.Xabibulinalar ta’kidlaganidek, videodarslar informatika fanini o‘quvchilar uchun qulay va moslashtirilgan shaklda taqdim etish imkonini beradi, bu esa bilimlarni chuqur va samarali o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Mara Saeli va hamkorlarining tadqiqotlari esa videodarslar dasturlash fanini o‘rganishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori natija berishini ko‘rsatadi.

Videodarslardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishiga qulay sharoit yaratadi, ta’lim jarayonini uzluksiz tashkil etadi hamda bilimlarni vizual tarzda mustahkamlash imkonini beradi. Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar va videodarslardan samarali foydalanish dasturlash fanini o‘qitishda yuqori sifat va natijadorlikni ta’minlaydi, talabalarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Shunday qilib, dasturlash tillari fanini o‘qitish jarayonida raqamli ta’lim platformalari va videodarslardan foydalanish talabalarda mavzuni chuqur o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda ta’lim jarayonining interaktiv va vizual shaklda tashkil etilishi, o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish va motivatsiyani oshirib, ularni faol o‘quvchi sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuralov Y.A. Organization of control and evaluation of the formation of competencies in the process of teaching programming // Current research journal of pedagogics. https://masterjournals.com/index.php/crjp 2023. Geniral inpact factor – p . 72-76.
2. Kuralov Y.A. Bo`lajak informatika o`qituvchilarini tayyorlashda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri usuli // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. T. 2022 [1/2]-son. B. 87-89.
3. Kuralov Y.A. Talabalarni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini shakllantirish // Kasb-hunar ta’limi. T. 2023. 2-son. –B. 278-281.
4. Kuralov Y.A. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. T. 2023 [1/5/1]-son. B. 76-78.
5. Kuralov Y.A Development of programming competence in continuous education system // “Algoritmlar va dasturlashning dolzarb muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Qarshi - 2023. – p. 514-516.
6. Kuralov Y.A Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturlashtirish kompetentsiyasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilish // Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali. Andijon – 2023. – B.165-167.
7. Kuralov Y.A. Ta’limda algoritmlash asoslari // Umumta’lim maktablarida aniq fanlarni o‘qitish metodikasi mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari –Chirchiq 2019. – B. 184-187.
8. Kuralov Y.A. Mobil ilovalar yordamida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturlashtirish kompetentsiyasini rivojlantirish // “Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendentsiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy anjuman. Jizzax 2023. – B. 211-214.
9. Kuralov Y.A. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish vositalari va metodlari // European Journal Of Interdisciplinary Research And Development Volume-14 Website: www.ejird.journalspark.org 2023. ISSN (E):2720-5746. –p. 267-272.
10. Aleksandrova L.A., Bobilev A.V., Bogdanova N.A., Dnepr N.V. (2020). Raqamli ta’lim texnologiyalarini loyihalash va joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari. Ta’lim texnologiyalari va metodikasi, 45(3), 123-137.
11. Lapteva S.V. (2021). Raqamli ta’lim resurslarining imkoniyatlari va o‘quv jarayoniga ta’siri. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, 50(2), 201-213.
12. Chertovskix O.O. (2021). Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish masalalari. Innovatsion ta’lim, 7(1), 45-59.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATNI MUHOFAZA ETISH TUSHUNCHALARINI YORITISHDA TABIIY FANLAR DARSLARIGA QUYILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR

NURIDDINOVA MAYSARA IKRAMOVNA-UZFPI Maktabgacha va bochlang'ich ta'lim fakul'teti Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti
FAYZIYEVA DILFUZA TOHIR QIZI – UZFPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini shakllantirishda qo'yiladigan didaktik talablar yoritilgan. Muallif o'quvchilarda ekologik madaniyat va mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishda darsning mazmuni, metodikasi va ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, dars jarayonida o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi lozim bo'lgan metodik yondashuvlar va didaktik materiallar keltirib o'tilgan. Maqola, boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan metodik ko'rsatmalarga asoslangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, ekologik tarbiya, didaktik talablar, tabiatni muhofaza qilish, metodik yondashuv, dars jarayoni.

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические требования к преподаванию естественнонаучных предметов в начальных классах при формировании представлений о защите природы. Автор подчеркивает значение содержания урока, методических подходов и учебных средств для развития у младших школьников экологической культуры и ответственного отношения к окружающей среде. Также представлены методические рекомендации, направленные на активизацию учебной деятельности учащихся. Статья опирается на эффективные методики экологического воспитания в начальной школе.

Ключевые слова: начальное образование, естественные науки, экологическое воспитание, дидактические требования, охрана природы, методические подходы, учебный процесс.

Abstract: This article discusses the didactic requirements for teaching natural sciences in elementary school when introducing the concepts of environmental protection. The author emphasizes the importance of lesson content, teaching methods, and instructional tools in fostering ecological awareness and responsible attitudes toward nature among young students. The paper presents methodological recommendations, activity-based tasks, and didactic materials aimed at enhancing students' engagement. It is based on effective strategies for implementing environmental education in primary education.

Keywords: primary education, natural sciences, environmental education, didactic requirements, nature protection, teaching methods, learning process.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishtimoiy-iqtisodiy, texnik taraqqiyotning bugungi zamonaviy bosqichi ta'lim-tarbiya tizimi oldiga demokratik jamiyatda erkin yashay oladigan, huquqiy madaniyati shakillangan, ishtimoiy munosabatlarga kirishimli, umuminsoniy qadryatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Mazkur vazifalar tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Jamiyatda kishi mavqeyining ortib, shaxsga e'tiborning kuchayotgan bir davrda ushbu maqsadlarini ro'yobga chiqarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarga yangicha yondoshuvni talab etadi. Shuning uchun ham, sungi yillarda ta'lim jarayoni bilan birga tarbiyaviy ishlarga ham innovatsion yondoshuvni amalga oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda o'quvchilarni zamon talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda ta'limni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu jamiyatga o'z

qarashlari shakillangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobilyatli, egalagan bilimlarini hayotga tadbiq eta oladigan, davr talabiga mos yashash, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-ikromli, odamgarchilik xususiyatlariga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash talabini qo'ymoqda.

Dars ta'lim-tarbiya jarayonining markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham davr talabiga mos kadrlar tayyorlashda maktabning o'rni katta ekanligi hammamizga ma'lum. Shu bois maktabda darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos dars o'qitishi talab etiladi. Uzoq davrlar mobaynida dars jarayonini tashkil etish nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lsada, uni amalga oshirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Masalan, o'quvchining o'zi mustaqil ravishda ishlashi, bilimlarni o'zi mustaqil egallab olish qobilyati hali to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, ya'ni, didakt olimlar ta'kidlaganidek "Yomon o'qituvchi haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa shu haqiqatni o'zi egallab olish yo'lini ko'rsatib beradi".

Dars ko'proq o'quvchilarning mavjud bilimlarni egallashga yo'naltiradi. Tashqaridan qaraganda bu yondoshuv to'g'ri bo'lib ko'rinsada bu masala atroflicha tahlil qilinganda asosan tashqi ko'rinishga e'tibor qaratilib, ichki tuzilishida o'quvchilarning bilim olishi, o'y-fikrlash qobiliyati hisobga olinmaydi. O'quvchi o'zining oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun harakat etadi. O'quvchilarning faolligiga etiborga olinadida, biroq amalga oshirilmaydi. To'g'ri tashkil etilmagan dars o'quvchilarning o'qish-bilim faolligini nazorat qilish imkoniyatini yarata olmaydi. Har xil metod va usullarni amalda qo'llash imkoniyati yo'q darsning borishidagi yo'l qo'yilayotgan kamchilkilarni nazarga olib, ko'pchillik didaktlar dars borishini mustaqil tuzib, o'quvchining faolligi, topqirligi, ijodkorligi ta'qiqlamaslik zarur deyishadi. Bu fikrni to'g'ri talqin etish lozim: "Ta'qiqlamaslik kerak" deganda, darsning borishini xohlagancha tashkil etaver, deb tushunmaslik kerak. Darsning borishini uning to'riga, maqsadiga, mazmuniga, bolalarning imkoniyatiga qarab tashkil etilishi shart.

Jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar o'qish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar bilan metodistlar, ijodkor o'qituvchilar bugungi dars qanday bo'lishi kerak, u oldingi o'tilgan darsdan nimasi bilan farq qilishi lozim degan savolga javob qidirmoqda. Shundan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilandi, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga o'quv jarayoninig sifatiga, o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor kuchaydi.

Malumki hozirgi waqtda talim tarbiya jarayonida ananayiv metodlardan - suxbat, kurgazmali metodlar wa amaliy metodlardan tashqari turli yangi metodlardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu bilan bir qatorda yangi texnik wositalaridan keng foydalanish, kompyuter texnologiyalarini qullash dars samaradorligini yanada oshiradi.

SHu bilan bir qatorda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or texnologiyalarning qo'llanishi, mashg'ulotlarning rang-barang qiziqarli tarzda tashkil etilganligiga olib kelish bilan o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'qitishning ilg'or, samarali usullarini izlash yoxud an'anaviy usullardan ijodiy foydalanishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish, odam organizmi va uning salomatligini saqlash to'g'risida ma'lumotlar berish, tabiatda kuzatishlar o'tkazish o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish, tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko'paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish, jonajon tabiatga muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash kabi masalalar

yoritladi. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsstish g'oyat muhimdir.

Bugungi kunda tdarslarining samaradorligini oshirishda fanlararo bog'lanish uslublaridan foydalanish davlat ta'lim sdandartida alohida ahamiyatga ega bo'lib, boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida integratsion usullardan foydalanishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ma'lumki hozirgi zamonda tabiatni muhofaza qilish, ekologik ta'lim va tarbiya berish masalalari eng asosiy va dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Asosan boshlang'ich sinflarda bu masalalarni qanday hal etish, qaysi metodlardan foydalanish, qaysi fanlarda bu tushunchalarni bolalarga etkazish hozirgacha o'z yechimini topolmay kelyapti.

Ushbu muammolarni hal etishda fanlar aro bog'lanish muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa hozirgi kunda uning asosini tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar tashkil etib, ularni integratsion usullar bilan yoritish maqsadga muvoffiq bo'lar edi.

Bunday yondoshishda fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'gan bir qator ijtimoiy – iqtisodiy, axloqiy estetik, g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan. Shu bois, boshlang'ch sinf o'quvchilariga tabiatni muhofaza etish tushunchalarini rivojlantirishda integrativ darslardan foydalanish, ayniqsa fanlararo bog'lanish darslari katta ahamiyatga ega. Masalan "Tabiiy fanlar" darslarini ona tili,o'qish, matematika va boshqa darslarga bog'lanib, ko'zatish natijalarini umumlashtirish, tabiat hodisalarini va ularning mavsumiy o'zgarishlarini mavzuli insho tarzida yozdirish mumkin. Bunda o'quvchilar tabiat haqidagi tushunchalarni bayon qilish, tirik organizmlarga g'amxurlik, ularga yordam berish zarurligiga o'zlarining munosabatlarini ham yozadilar.

Bu bilan bir qatorda tabiiy fanlar darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa 1-2 sinflarda "Tabiiy fanlar" fanini o'qitishda to'rli didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

Дидактик o'yinlar orqali o'qituvchilar bolalarga tabiat jismlari, tabiat hodisalari haqida ma'lumot berib bu bilan birgalikda ularning faolligini oshirishadi va fanga nisbatdan qiziqishlarini o'yg'otishadi.

Shunday qilib, o'quv metodik adabiyotlarning tahlillari va zamon talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda quyidagi talablarga amal qilinsa maqsadga muafiq bo'lar edi deb hisoblashimiz mumkin. Eng avvalo, bu sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o'qituvchilarga hurmat-ehtirom ishonch va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish lozim.

Ikkinchidan, o'quv faoliyatining oily motivini keltirib chiqarish, faqat o'quvchilarga o'quv materallarining ahamiyatinigina bildiribqolmasdan, ularga bilim olishning o'qituvchi tamonidan taklif qilingan metodlariga e'tiborni qaratish lozim.

Uchnchidan, o'quvchilarni bilim olishni kafolatlovchi ishonchli metod va usullar bilan tanishtirish (tushuncha, o'zlashtirilgan bilimni amalda qo'llay olishga qaratilgan metod va usullar bilan tanishtirish). Bu o'quvchilarning yaxshi o'qishiga, ta'lim-tarbiya olishda faollikka, ijodkorlikka olib boradigan foydali yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi;

To'rtinchidan, darsni o'quvchilarning mustahkam, yaxshi bilim olishga (bilim olish bu nazariy olgan bilimlarni hayotda qo'llay bilish degan so'z) yo'naltirish. Bu esa o'quvchining o'z bilimi va kuchiga ishonchni yanada oshirishiga olib keladi;

Beshinchidan, barcha o'quvchilarning yuqori darajada bilim olib, (Davlat ta'lim standarti asosida) uni yangi sharoitda qo'llay olish imkoniyatlariga sharoit yaratish. Darsda o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini to'g'ri xulosali tashkillashtira olish va ularning o'z mehnatining mevasidan qanoatlana oladigan sharoitlar yaratish.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan

materiallar asosida aytish mumkinki tabiiy fanlar darslari orqali o’quvchilar o’zlari yashayotgan tevarak atrof, tabiat jisimlari, tabiat hodisalari va tabiat qonuniyatlari haqida birlamchi tushunchalarga ega bo’lishadi. Ularni asrab avaylash, muhofaza etish uchun harakat qilishadi. Bu esa ularni vatanparvarlik ro’hida tarbiyalashda keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘raqulova D. — Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning didaktik asoslari. Ilmiy maqola, “Pedagogika” jurnali, 2022, №4.
2.Jo‘raqulova N. — Boshlang‘ich ta’limda ekologik tarbiyaning metodik asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
3.Назарова З.Р. — Методика преподавания естествознания в начальных классах. Москва: Академия, 2020.
4.Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun "Tabiiy fanlar" darsligi (1–4-sinflar). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan.

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

XUDOYQULOV ALIMJON OBLOQULOVICH
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mustaqillik, vatansevarlik va harbiy xizmatga muvofiq ruhiy tayyorgarlikni shakllantirishni nazarda tutadi. Nazariy va amaliyot jihatidan, harbiy vatanparvarlikni o‘rganish va o‘zlashtirish yoshlarning ko‘nglida milliy g‘urur va mas’uliyat hissini mustahkamlashini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: harbiy-vatanparvarlik, Konsepsiya, subyekt, obyekt, usul, shakl, ta’lim, tarbiya, ilmiylik, tarixiylik, muntazamlik, faollik, fikr uyg’unligi.

Annotation: This article implies young people in the spirit of military patriotism, to form mental training in accordance with independence, patritation, and military service. In terms of theoretical and practice, the study and mastering of military patriotism reflect the strengthening of the sense of national pride and responsibility in the hearts of young people.

Keywords: Military-patrient, concept, literature, object, method, form, education, upbringing, scientificacy, history, regularity, activity, opinionatory.

Аннотация: Эта статья подразумевает молодых людей в духе военного патриотизма, чтобы сформировать умственную подготовку в соответствии с независимостью, патритацией и военной службой. С точки зрения теоретической и практики, изучение и освоение военного патриотизма отражают укрепление чувства национальной гордости и ответственности в сердцах молодых людей.

Ключевые слова: военные, концепцию, литература, объект, метод, форма, образование, воспитание, научная наука, история, регулярность, деятельность, управление.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, shuningdek, yangi tahdidlar va xavflar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Shunday murakkab va o'zgaruvchan sharoitda, mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik va yuqori ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda, yoshlarga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish hamda “Xalq va armiya - bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oyani amalga oshirish lozim. Bu maqsadlar asosida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-iyundagi 267-sonli qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qaror, 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Mazkur konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlariga asoslanib shakllantirilgan. Konsepsiya doirasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kompleks dasturlar va choratadbirlar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa, nafaqat yosh avlodning harbiy xizmatga tayyorgarligini, balki ularning ma'naviy barkamolligini ham ta’minlaydi. Shunday

qilib, yoshlarning ongida vatanparvarlik tushunchasini kuchaytirish bilan birga, ularni tinchliksevarlik va jamoatchilikda faol ishtirok etishga tayyorlash, jamiyatimiz rivoji va xavfsizligini ta'minlash uchun muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining harbiy sohasidagi faoliyatiga jalb etish, shuningdek, jamiyatning turli tarmoqlarida, ayniqsa, davlat xizmatlari sohasida faol ishtirok etishga tayyorlashdir. Ushbu jarayon, yoshlar orasida Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatni kuchaytirish, hamda ularning o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik hissini mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Bunday tarbiya orqali, yoshlar nafaqat harbiy xizmatga tayyorlanadilar, balki ularning shaxsiy qadr-qimmati, ma’naviy ahloqi, va ijtimoiy faoliyati rivojlanadi. O‘zbekiston Respublikasining harbiy-hududiy tizimida faoliyat yuritish, yoshlarni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishga, O‘zbekistonlik sifatida o‘zligini tanish va o‘z vataniga sadoqatini namoyon etishga undaydi. Shuningdek, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishga tayyorlash orqali, yurtimizda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi. Shu tarzda, ushbu tarbiya jarayoni yoshlarning o‘zaro kurashish, tinchlikni asrab-avaylash va mustaqil O‘zbekistonning rivoji uchun mas'uliyatli fuqaro bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari, ma’naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish [2];

yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadokat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

buyuk tariximiz, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muxammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san’at rivojiga qo‘shgan hissalarini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish [3];

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko‘rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi hislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi halq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odobaxloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarda buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish;

hududlarda turkum harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda “Jasorat maktabi” nomli harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlarini o‘tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo‘lgan ishonch va hurmatni yanada oshirish, harbiy hizmatni o‘tash O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash;

umumta’lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qitilishining sifatini oshirish, o‘quv-moddiy bazani mustahkamlashga asosiy e’tibor qaratish hamda shu orqali o‘quvchi yoshlarda harbiy hizmat, uni o‘tashning huquqiy asoslariga oid bilimlar va

boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ommasiga keng yetkazish;

yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an’ana va qadriyatlariga sadoqatli bo‘lish hususiyatlarini shakllantirish;

Vatanni himoya qilish, uni asrash to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo‘yicha shaxsiy e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizning kelajagini belgilovchi muhim jarayon bo‘lib, u maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida aniq asoslangan prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda quyidagi asosiy prinsiplarning ahamiyati alohida e'tiborga molikdir [4]:

Ilmiylik – ta’lim jarayonida zamonaviy bilimlar va ilmiy yondashuvlardan foydalanish, shuningdek, ta’lim mazmunini yangilash orqali yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ilmiy asosda yuritish.

Tarixiylik – milliy tarix va an’analar asosida vatanparvarlik ruhini shakllantirish, shuningdek, o‘z xalqining tarixiy merosini ulug‘lash va tushuntirish.

Aniqlik va tezkorlik – ta’lim jarayonining samaradorligini ta'minlash, yoshlarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda tezkor va aniq ma'lumotlar bilan ta’minlash.

Muntazamlilik – tarbiyaviy faoliyatlarning izchil va muvofiqlikda olib borilishi, bu esa yoshlar ongida uzluksiz ravishda vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishga yordam beradi [5].

Faollik – yoshlarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undash, ularning munosabatlarini va fikrlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi – ta’lim jarayonining tarbiyaviy elementlari bilan uyg‘un ravishda olib borilishi, bu esa yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Tarbiyajarayoniningizchilligi–tarbiyalash jarayonida har bir bosqichda maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish zarurati, bu esa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda davomiylikni ta'minlaydi.

Ijobiy natijalar va yutuqlarga tayanish – harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasida erishilgan natijalar va yutuqlarni tahlil qilib, yangi yondashuvlar va metodlarni tatbiq etish.

Ushbu prinsiplarga amal qilish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini samarali va maqsadli ravishda olib borish imkonini beradi, natijada ularning burch va mas'uliyat feltini kuchaytiradi va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik jarayonda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagi usullar talim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag‘batlantirish, o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy na’muna. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllardan, jumladan, ilmiyamaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, turli o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil

etiladi. Ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rangbarangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda davlatimiz tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar, qarorlar va farmoyishlar e’tiborga molik ahamiyatga ega. Ushbu tashabbuslar doirasida, yosh avlodni soudini ishonchli, ulug‘vor maqsadlar sari yo‘naltirishga qaratilgan kompleks dasturlar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining harbiy tashkilot va ta'lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali, bu jarayonda erishilgan natijalarni tahlil qilish va samarali metodlarni qo‘llash, yoshlarning barkamolligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 265-sonli qarori Yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi. 26-iyun 2023 y.
2. Mirziyaev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.:O‘zbekiston, 2017.
3. Ortiqov O. va boshqalar. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-y.
4. Turgunbayev T.A. Harbiy qismlarda vatanparvarlik va ma’naviy-ma’rifiy tarbiya uslubiyoti. Darslik. Far. DU – 2022-y.

SHAXMAT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

BOBOQULOV CHORI UROLOVICH
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxmat va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bugungi tezkor o‘zgarayotgan ta’lim jarayonida intellektual o‘yinlar va raqamli vositalar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada shaxmat o‘yini o‘quvchilarning analitik tafakkuri, ijodiy yondashuvi, muammolarni hal qilish qobiliyati va diqqatni jamlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’sirchan metod sifatida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy texnologiyalar esa shaxmat darslarini interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida shaxmat va texnologiyalarning uyg‘unligi ta’lim jarayonidagi samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Maqola boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar izlayotgan pedagoglar va tadqiqotchilar uchun metodik tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: shaxmat, zamonaviy texnologiyalar, boshlang‘ich sinf, o‘quv ko‘nikmalari, intellektual rivojlanish, interaktiv ta’lim, analitik tafakkur, ijodiy yondashuv, mantiqiy fikrlash, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В статье анализируются возможности развития учебных навыков учащихся начальной школы посредством использования шахмат и современных технологий. В современном быстро меняющемся образовательном процессе интеллектуальные игры и цифровые инструменты играют важную роль в повышении эффективности обучения. В статье рассматривается игра в шахматы как эффективный метод развития у учащихся аналитического мышления, творческого подхода, навыков решения проблем и концентрации внимания. Современные технологии помогают организовать уроки шахмат в интерактивной и интересной форме. Исследование научно доказало, что сочетание шахмат и технологий оказывает положительное влияние на эффективность образовательного процесса и способствует развитию у учащихся навыков самостоятельного мышления и логического анализа. В статью также включены методические рекомендации для педагогов и исследователей, ищущих инновационные подходы в начальном образовании.

Ключевые слова: шахматы, современные технологии, начальная школа, навыки обучения, интеллектуальное развитие, интерактивное обучение, аналитическое мышление, творческий подход, логическое мышление, эффективность обучения.

Kirish

Ta’limning zamonaviy bosqichida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish muhim vazifa sanaladi. Bunda maktab ta’limining boshlang‘ich bosqichi alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu davrda bolalar tafakkuri va qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Ushbu jarayonda shaxmat kabi o‘yin va strategik tafakkurni rivojlantiruvchi vositalardan foydalanish juda samarali usul hisoblanadi. Shaxmat o‘yinining o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammolarni hal etish, diqqatni jamlash, sabr-toqat va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda tutgan o‘rni

ilmiy jihatdan isbotlangan. Zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda shaxmatni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish esa bu imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Dolzarbligi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarta’limningbarchabosqichlariga kirib kelayotgan davrda an’anaviy metodlarni innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shaxmat va zamonaviy texnologiyalar kombinatsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda ulkan potensialga ega. Virtual shaxmat platformalari, interaktiv darsliklar, mobil ilovalar va robototexnika elementlari bolalarning nafaqat shaxmatni o‘rganishlariga, balki mantiqiy fikrlash va muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu mavzu o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi, chunki axborot texnologiyalari yordamida ta’lim mazmunini boyitish va shaxsiy yondashuvni qo‘llash imkoniyatlari o‘sib bormoqda. Shu bilan birga, shaxmatning intellektual rivojlanish vositasi sifatida qadimiy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unlashuvi bugungi ta’lim tizimi oldidagi ustuvor maqsadlarni amalga oshirishda yangi istiqbollarni ochib beradi.

Tadqiqot maqsadi: Shaxmat o‘yini va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda mantiqiy, strategik fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va mustaqil fikrlash kabi qobiliyatlarni shakllantirish uchun samarali metod va vositalarni ishlab chiqish hamda ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

- shaxmatning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkuri, diqqatni jamlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ta’sirini o‘rganish va ilmiy tahlil qilish.

- zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan virtual shaxmat platformalari, interaktiv ilovalar va darsliklarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlash hamda ularni shaxmat o‘yiniga integratsiya qilish usullarini ishlab chiqish.

-shaxmatvazamonaviytexnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini amaliyotda sinab ko‘rish.

Adabiyotlarsharhi. Shaxmatvazamonaviy texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasini yoritishda ilmiy tadqiqotlarning o‘rni muhimdir. Ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida ko‘plab manbalar o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va innovatsion metodlarni qo‘llash masalalariga qaratilgani aniqlanadi.

Ziyoda Olimjonovnaning “O‘zbek xalq pedagogikasi bola shaxsini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omili sifatida” nomli maqolasida xalq pedagogikasi vositalari orqali bolalarda ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni shakllantirish masalasiga e’tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqot o‘quvchilarni ta’lim jarayonida shaxs sifatida rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va shaxmat o‘yinining tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asoslashga yordam beradi.[1]

D.Inoyatovaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy intellektini oshirishda kitob o‘qishning ahamiyati” nomli maqolasida hissiy intellekt va tafakkurni rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratilgan. Shaxmatning hissiy va kognitiv rivojlanishga ta’sirini hisobga olganda, bu yondashuv ta’lim jarayoniga yangi metodlarni kiritish

zarurligini ko‘rsatadi.[4]

M.P. Imomov va uning hammualliflari tomonidan yozilgan “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari va ulardan foydalanish metodlari” maqolasi shaxmat va boshqa o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib beradi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Shaxmat o‘yinini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali mazkur maqsadlarga erishish imkoniyati yanada kuchayadi.[2]

D.Abduraxmonovaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS dasturiga tayyorlash” maqolasida xalqaro ta’lim dasturlariga mos ravishda o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shaxmat va texnologiyalarning ta’lim jarayonida foydalanilishi ushbu dasturga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-bilish ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.[5]

E.S. Akramov tomonidan yozilgan “Bolalarning ta’lim va intellektual rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik va yordam beradigan o‘quv jarayonining shartlari” nomli maqolada intellektual salohiyat va ta’lim jarayonining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotda bolalarda intellektual rivojlanishni rag‘batlantirishda shaxmat va texnologiyalarning o‘rni ta’kidlanadi. Intellektual o‘sishga qaratilgan bunday ilmiy ishlanmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.[3]

R.Shoymurodova va L.Muxtorovaning “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini modellashtirish” maqolasida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini modellashtirish va samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shaxmat va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi ushbu modellashtirish jarayonini yanada boyitib, o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.[7]

S.Z. Mirzaliyevna uning hammualliflari tomonidan yozilgan “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo‘llari” maqolasida mantiqiy va matematik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan usullar tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv shaxmat o‘yini orqali o‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi.[6]

Umuman olganda, ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxmat va zamonaviy texnologiyalarning boshlang‘ich ta’limda qo‘llanishi o‘quvchilar tafakkuri, ijodiy salohiyati va intellektual rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini shaxmat va zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirish jarayonini ilmiy tahlil qilishga asoslanadi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Nazariy tahlil. Tadqiqotning nazariy qismi ilmiy adabiyotlar, pedagogik, psixologik va metodik manbalarni o‘rganishga qaratilgan. Bu bosqichda shaxmat o‘yinining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, o‘yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, zamonaviy texnologiyalarning o‘quvchilar mantiqiy tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Eksperimental metod. Tadqiqotda eksperimental usul muhim o‘rin tutadi. Shaxmat va texnologiyalardan

foydalanishning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi o‘quvchilar guruhlari o‘rtasida tajriba va nazorat sinflari orqali sinab ko‘riladi. Eksperiment davomida o‘quvchilarning o‘quv ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar kuzatiladi va ular baholanadi.

Diagnostik metodlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini aniqlash uchun diagnostik metodlardan, jumladan, testlar, so‘rovnomalar, intervyular, kuzatish va pedagogik eksperimentlardan foydalaniladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, strategik rejalashtirish va muammolarni hal qilish qobiliyatlaridagi rivojlanish darajasi baholanadi.

Matematik-statistik tahlil. Eksperiment natijalarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashda matematik-statistik metodlardan foydalaniladi. Olingan ma’lumotlar asosida eksperimentning natijalari statistika asosida tahlil qilinadi va ularning ishonchliligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tahlil va xulosa chiqarish. Tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar asosida nazariy va amaliy xulosalar chiqariladi, shaxmat va texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi shaxmat va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini har tomonlama o‘rganish, ilmiy asoslash va samarali amaliy yechimlarni taqdim etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot natijalari shaxmat o‘yini va zamonaviy texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi. Eksperiment davomida o‘quvchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida shaxmat va texnologiyalarni integratsiya qilish asosida maxsus ishlab chiqilgan dars metodikasi qo‘llanildi, nazorat guruhida esa an’anaviy ta’lim metodlari ishlatildi.

Natijalar tahlili: Tajribadan olingan natijalar quyidagi muhim jihatlarni aniqladi:

-mantiqiy tafakkur rivojlanishi: shaxmat o‘yinlari va interaktiv texnologiyalar yordamida dars o‘tkazilgan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari nazorat guruhidagi o‘quvchilarnikiga nisbatan sezilarli darajada rivojlanganligi kuzatildi. O‘quvchilar shaxmatda har bir yurishni oldindan o‘ylab, strategik rejalashtirish ko‘nikmasini shakllantirishga o‘rgandilar.

-muammoni hal qilish ko‘nikmalarining o‘sishi: shaxmat mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning muammoni tahlil qilish, o‘zlari uchun qulay yechimlarni qidirish va optimal yo‘lni topish kabi ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. O‘yin jarayonida ularda diqqatni jamlash, muammoga ijodiy yondashish va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlandi.

Raqamli texnologiyalar samaradorligi: tajriba davomida shaxmat platformalari, virtual o‘yinlar va interaktiv ilovalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirganligi aniqlandi. Bunday texnologiyalar vizual materiallarni taqdim etish orqali o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga chuqurroq kirishishini ta’minladi va bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirdi.

Ijodiy tafakkur rivoji: shaxmat darslari orqali o‘quvchilarda nafaqat mantiqiy tafakkur, balki ijodiy fikrlash ham shakllanganligi kuzatildi. Turli kombinatsiyalar, g‘ayrioddiy yechimlar va taktik yurishlar ijodiy tafakkurni

rag‘batlantirdi. O‘quvchilar qiyin sharoitlarda noan’anaviy yechimlarni topishga intildilar.

Natijalarni statistika orqali asoslash: olingan natijalar matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilindi. Tajriba guruhi o‘quvchilari nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan muhim parametrlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishganligi statistik ishonchlilik bilan tasdiqlandi. Masalan, mantiqiy testlar, muammoni hal qilish qobiliyatlari va ijodiy fikrlash darajasi tajriba guruhida 20-25% yuqoriroq bo‘ldi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxmat o‘yini va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayonida shaxmat va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat mantiqiy va ijodiy tafakkurini, balki muammolarni hal qilish qobiliyatini, o‘ziga ishonchni va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni ham oshiradi.

Bundan tashqari, o‘yin asosida tashkil etilgan darslar bolalar uchun qiziqarli va motivatsion bo‘lgani bois, ularning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Interaktiv texnologiyalar bilan birga shaxmat o‘ynash orqali bolalar nafaqat ma’lumotlarni yodlash, balki ularni amalda qo‘llashga ham o‘rganishdi.

Ushbu natijalar asosida shuni aytish mumkinki, shaxmat va texnologiyalar integratsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshirishda samarali strategik yondashuv bo‘lib, kelgusida bu usullarni boshqa fanlar bo‘yicha ham qo‘llash imkoniyati mavjud. Natijalar ilmiy va amaliy jihatdan o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochib berishini ko‘rsatdi.

Xulosa. Ushbu ilmiy tadqiqotda shaxmat va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi chuqur tahlil qilindi va tajriba asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, shaxmat o‘yinlari va interaktiv texnologiyalar ta’lim jarayoniga samarali joriy etilganda, o‘quvchilarning mantiqiy, ijodiy va analitik tafakkuri sezilarli darajada rivojlanishi aniqlandi.

Tajriba guruhi o‘quvchilari nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishdi. Xususan, ularning strategik rejalashtirish, muammolarni hal qilish, diqqatni jamlash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, shaxmat o‘yinlari orqali ta’lim jarayonini o‘yin shaklida tashkil etish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning aqliy salohiyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, xususan, interaktiv darsliklar, shaxmat ilovalari va virtual platformalar yordamida o‘quvchilar axborotni yanada tez va samarali o‘zlashtirdilar. O‘quv jarayonidagi bunday yondashuv ularning o‘zlashtirish darajasini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun shaxmat va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta’lim metodikasini yanada kengroq joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu nafaqat o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, balki ularni kelajakda murakkab muammolarni hal qila oladigan har tomonlama yetuk shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxmat va

zamonaviy texnologiyalarning sinteziga asoslangan ta’lim uslublari o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini yuksaltirishda va o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimjonovna Z. R. O‘zbek xalq pedagogikasi bola shaxsini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omili sifatida //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 3. – №. 35. – C. 75-79.
2. Imomov M. P. et al. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari va ulardan foydalanish metodlari //tadqiqotlar. – 2025. – T. 57. – №. 2025. – C. 3-9.
3. Akramov E. S. Bolalarning ta’lim va intellektual rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik va yordam beradigan o‘quv jarayonining shartlari //Journal of international scientific research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 393-400.
4. Inoyatova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy intellektini oshirishda kitob o‘qishning ahamiyati //University Research Base. – 2024. – C. 130-134.
5. Abduraxmonova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls dasturiga tayyorlash //xalq ta’limi. – 2021. – C. 30.
6. Mirzaliyevna S. Z., Ziyodaxon R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo‘llari //University Research Base. – 2024. – C. 428-432.
7. Shoymurodova R., Muxtorova L. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini modellashtirish //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2025. – T. 2. – №. 1. – C. 21-26.
8. Narzikulovich N. N. The effectiveness of doing sport in everyday life //Педагогика ва психология-яда инновациялар. – 2020. – T. 12. – №. 3.
9. Norboev N. N. Theoretical aspects of the influence of motivation on increasing the efficiency of physical education //Current research journal of pedagogics. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 247-252.
10. Narzikulovich N. N. Development of physical qualities of preschool children by means of mobile games //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 45-48.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ALOHIDA EHTIYOJLI O'QUVCHILARNING TA'LIM OLISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

BADALOV AVAZBEK RUSTAMJANOVICH
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida alohida ehtiyojli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limning zamonaviy konsepsiyalari, xalqaro tajriba va milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Alohida ehtiyojli o'quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun pedagogik, psixologik va tashkiliy mexanizmlar tavsiya etilgan. Nazariy konsepsiyalar va amaliy tajribalar asosida samarali qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ehtiyojli o'quvchilar, maxsus ta'lim ehtiyojlari, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, individual yondashuv, differential ta'lim, inklyuziv muhit.

Аннотация: В данной статье проведен теоретический и практический анализ механизмов раннего выявления и поддержки учащихся с особыми образовательными потребностями в системе образования. Рассмотрены методы раннего выявления особых потребностей, значение системы скрининга и научные основы эффективных моделей поддержки. На основе результатов исследования разработаны научно обоснованные рекомендации по совершенствованию системы раннего выявления учащихся с особыми образовательными потребностями в национальной системе образования.

Ключевые слова: раннее выявление, система скрининга, учащиеся с особыми потребностями, особые образовательные потребности, механизмы поддержки, профилактика, индивидуальный подход.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of mechanisms for early identification and support of students with special educational needs in the education system. Methods of early identification of special needs, the importance of screening systems, and the scientific foundations of effective support models are examined. Based on the research results, scientifically based recommendations for improving the system of early identification of students with special educational needs in the national education system have been developed.

Keywords: early identification, screening system, students with special needs, special educational needs, support mechanisms, prevention, individual approach.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – har bir o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishdir. Bu vazifa, ayniqsa, alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. XXI asrda raqamli texnologiyalar rivojlanishi ta'lim sohasiga yangi imkoniyatlar yaratib, alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yanada samaraliroq tashkil etish imkonini bermoqda[1]. Raqamli texnologiyalar asosida alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi ko'plab rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy assistiv texnologiyalar, maxsus dasturiy ta'minotlar va raqamli platformalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida duch keladigan to'siqlarni bartaraf etish va ularning potensialini to'liq namoyon etishga yordam bermoqda. O'zbekistonda ham ta'lim tizimini raqamlashtirish va alohida

ehtiyojli o'quvchilar uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalar qatorida qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI Alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Passey [2] o'zining tadqiqotlarida texnologiya asosidagi ta'lim (technology-enhanced learning) kontseptsiyasini qayta ko'rib chiqib, uni alohida ehtiyojli o'quvchilar kontekstida tahlil etgan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki ta'lim olishning yangi modellarini yaratish imkonini beradi. Rose va Meyer [7] tomonidan ishlab chiqilgan Universal Design for Learning (UDL) kontseptsiyasi raqamli texnologiyalarni alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limiga integratsiyalashning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. UDL tamoyillari asosida barcha o'quvchilar, shu jumladan alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun qulay va samarali ta'lim muhitini yaratish mumkin.

O'zbekistonlik olimlardan Abduraxmanova va Tursunov [1] raqamli texnologiyalar va inklyuziv ta'lim masalalarini o'rganib, ularni milliy ta'lim tizimi kontekstida tahlil etgan. Ularning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Assistiv texnologiyalar sohasidagi tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Bouck [4] o'zining monografiyasida assistiv texnologiyalarning tarixi, turlari va qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot bergan. Uning tadqiqotlari ko'rsatishicha, assistiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish mumkin.

Okolo va Diedrich [5] o'z tadqiqotlarida ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun assistiv texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, zamonaviy ekranni o'qish dasturlari va braille displeylarning imkoniyatlarini tahlil etgan. Ularning fikricha, bu texnologiyalar ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Norqulov va Ergasheva [3] o'z maqolalarida O'zbekiston ta'lim tizimida assistiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va muammolarini tahlil etgan. Ularning tadqiqotlari ko'rsatishicha, O'zbekistonda assistiv texnologiyalardan foydalanish darajasi hali yetarli emas, bu esa ko'plab alohida ehtiyojli o'quvchilarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini cheklaydi.

Raqamli ta'lim platformalarining samaradorligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Hall va boshqalar [7] alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun adaptiv ta'lim platformalarining samaradorligini o'rganib, bunday platformalarning o'quvchilar akademik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Raximova [5] o'z tadqiqotlarida raqamli ta'lim platformalarining inklyuziv ta'limdagi o'rnini tahlil etib, bunday platformalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini individuallashtirish va ularning o'zlashtirish darajasini oshirish imkonini berishini ta'kidlagan.

O'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalari alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning muhim omili hisoblanadi. Redecker tomonidan ishlab chiqilgan

"European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu)" o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini baholash va rivojlantirish uchun xalqaro standart sifatida qabul qilingan.

Mamarajabov va Karimova [6] O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini o'rganib, ularning alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalar darajasini tahlil etgan. Ularning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning ko'pchiligi raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qo'shimcha tayyorgarlikka muhtoj.

Alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limida ota-onalarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Heiman [11] o'z tadqiqotlarida ota-onalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini o'rganib, bu ko'nikmalar ularning bolalari ta'limida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlagan.

O'zbekistonlik olimlardan Usmanova [12] alohida ehtiyojli bolalar ota-onalari bilan olib borgan tadqiqotlari natijalariga ko'ra, ota-onalarning ko'pchiligi raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas, bu esa ularning bolalari ta'limidagi ishtirokini cheklaydi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta potensialga ega. Biroq, bu potensialdan to'liq foydalanish uchun texnik ta'minot, o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalari, metodik ta'minot va ota-onalar ishtiroki kabi bir qator masalalarni hal etish zarur.

NATIJALAR. Raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limida muhim transformativ kuchga ega bo'lib, ular kommunikativ to'siqlarni bartaraf etish, o'quv materiallarini individual ehtiyojlarga moslashtirishni ta'minlash, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, baholash jarayonini individuallashtirish va ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim muhitida teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning potensialini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, ularning ta'lim olish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi va natijada jamiyatga to'liq integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun mo'ljallangan va moslashtirilgan raqamli ta'lim platformalari o'rganildi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, samarali raqamli ta'lim platformalari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Universal dizayn prinsiplari asosida yaratilgan - barcha foydalanuvchilar uchun qulay interfeys;
2. Moslashuvchanlik - foydalanuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkoniyatlari;
3. Ko'p funksiyalilik - turli xil ta'lim resurslarini taqdim etish imkoniyati;
4. Interaktivlik - o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash;
5. Baholash tizimining individuallashtirilganligi - har bir o'quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda baholash mexanizmlarini taqdim etish[5].

Tadqiqot davomida o'rganilgan xalqaro platformalar orasida Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari asosida ishlab chiqilgan platformalar eng samarali ekanligi aniqlandi. Bu platformalar o'quv materiallarini taqdim etishning turli usullarini (matn, audio, video, grafika), o'quvchilar faolligini ta'minlashning turli vositalarini va o'quvchilarning bilimlarini namoyon

etishning turli yo'llarini taklif etadi.

O'zbekistonda joriy etilayotgan "Elektron ta'lim" va "Kundalik" kabi platformalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu platformalarda alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun qo'shimcha funksiyalar va imkoniyatlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy tajriba sifatida ayrim maktablarda joriy etilgan "Virtual sinf" loyihasi, "Raqamli maktab" konsepsiyasi va "Inklyuziv ta'lim uchun raqamli ko'prik" dasturlarini ko'rsatish mumkin. Bu loyihalar doirasida alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun maxsus raqamli resurslar yaratilgan va o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilgan.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari asosida raqamli texnologiyalarni alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limiga joriy etishning quyidagi pedagogik aspektlari aniqlandi:

1. Pedagogik dizayn - alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqishda universal dizayn tamoyillari va individual yondashuvni uyg'unlashtirish zarur. Bu o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishga va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi[7].

2. O'qitish metodlari - raqamli texnologiyalar asosida o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va individual yondashuvni amalga oshirish muhim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar va loyiha asosida o'qitish metodlari raqamli texnologiyalar bilan birgalikda qo'llanilganda alohida ehtiyojli o'quvchilarning motivatsiyasi va o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi.

3. Baholash tizimi - raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Adaptiv baholash tizimlari, portfel asosida baholash va o'z-o'zini baholash mexanizmlari o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi[8].

Raqamli texnologiyalarni alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limiga joriy etishning psixologik aspektlari muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayon o'quvchilarning rivojlanishiga ko'p tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv o'quv materiallari, virtual laboratoriyalar, o'yinlashtirilgan platformalar va boshqa raqamli vositalar o'quvchilarning qiziqishini uyg'otib, ularning darsga bo'lgan e'tiborini saqlab qolishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatganki, raqamli texnologiyalar qo'llanilganda o'quvchilarning faolligi 37% ga oshgan, bu esa ularning o'zlashtirish darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning o'zini o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Elektron portfoliolar, baholash dasturlari va o'z-o'zini tekshirish tizimlari orqali o'quvchilar o'z yutuqlarini ko'rish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar alohida ehtiyojli o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida muhim rol o'ynaydi. Ular orqali o'quvchilar tengdoshlari va keng jamiyat bilan muloqot qilish, o'z fikrlarini bildirib, boshqalar bilan tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ayniqsa, jismoniy cheklovlar tufayli an'anaviy ijtimoiy muhitda muloqot qilish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun juda muhimdir.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni joriy etishning psixologik aspektlari alohida ehtiyojli o'quvchilarning nafaqat akademik yutuqlarini, balki ularning umumiy psixologik farovonligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga to'liq mos keladi.

Alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limiga raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish kompleks tashkiliy yondashuvni talab qiladi va bir qator muhim aspektlarni qamrab olishi lozim.

Eng avvalo, texnik ta'minot masalasi hal etilishi zarur. Bu nafaqat maktablarni zamonaviy kompyuterlar, planshetlar va maxsus assistiv qurilmalar bilan jihozlashni, balki barqaror va tezkor internet aloqasini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, mavjud texnika va jihozlarni muntazam yangilab turish, ularning texnik xizmat ko'rsatishini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Texnik ta'minot alohida ehtiyojli o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlangan va moslashtirgan bo'lishi kerak.

Kadrlar tayyorlash masalasi ham muhim tashkiliy aspekt hisoblanadi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'qitish va muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Ayniqsa, alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash uchun mo'ljallangan maxsus raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish juda muhim. Bu jarayonda o'qituvchilarni motivatsiyalash va ularning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish ham maqsadga muvofiq.

Metodik ta'minot raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning muhim shartidir. Sifatli o'quv-metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar, video darslar va boshqa resurslarni ishlab chiqish, ularni o'qituvchilar va ota-onalar uchun qulay formatda taqdim etish zarur. Metodik materiallarda nafaqat texnologiyalardan foydalanish bo'yicha texnik ko'rsatmalar, balki pedagogik tavsiyalar ham o'z aksini topishi lozim.

Normativ-huquqiy ta'minot raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonining huquqiy asoslarini belgilaydi. Bu sohani tartibga soluvchi qonunlar, qarorlar, yo'riqnomalar va standartlarni ishlab chiqish, ularni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Normativ hujjatlarda alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun raqamli resurslardan foydalanish, ularning xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlar maxfiyligini saqlash kabi masalalar aniq belgilangan bo'lishi lozim.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limiga joriy etishning tashkiliy aspektlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi kerak. Texnik ta'minot, kadrlar tayyorlash, metodik va normativ-huquqiy ta'minot masalalarini kompleks hal etish orqali raqamli texnologiyalardan maksimal darajada samarali foydalanish va alohida ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun tenglik va imkoniyatlar yaratishning kuchli vositasiga aylandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli texnologiyalar bu o'quvchilar uchun nafaqat ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning individual ehtiyojlarini qondirishning samarali usullarini ham taqdim etadi.

Assistiv texnologiyalar, maxsus dasturiy ta'minotlar va raqamli platformalarning keng spektri o'quvchilarning individual qobiliyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Bu esa ularning ta'lim olish jarayonidagi to'siqlarni bartaraf etish va yashirin potensiallarini to'liq namoyon etishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar davomida o'rganilgan xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni to'g'ri joriy etish natijasida alohida ehtiyojli o'quvchilarning nafaqat akademik ko'rsatkichlari, balki ijtimoiy-psixologik moslashuvi ham sezilarli darajada yaxshilanadi.

Biroq, milliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida hali ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Maktablarni zarur texnika va jihozlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bu yo'nalishdagi asosiy vazifalar hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik, psixologik va tashkiliy aspektlarni kompleks ravishda hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib ishlab chiqilgan tavsiyalar milliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Milliy dastur ishlab chiqish, o'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etish, raqamli resurslar bankini yaratish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ota-onalar uchun qo'llanmalar tayyorlash - bularning barchasi ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'limida teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim sifatini oshirish va ularning jamiyatga to'liq integratsiyalashuvini ta'minlashning muhim vositasidir. Bu yo'nalishdagi izchil islohotlar va tizimli yondashuv nafaqat alohida ehtiyojli o'quvchilar, balki butun jamiyat uchun ham ijobiy natijalar beradi. Zero, har bir bola, uning qobiliyati va imkoniyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqiga ega, va raqamli texnologiyalar bu huquqni amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахманова, А. Т. & Турсунов, И. Б. (2022). Рақамли технологиялар ва инклюзив таълим: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар. Халқ таълими, 4, 24-36.
2. Passey, D. (2020). Technology-enhanced learning: Rethinking the term, the concept and its theoretical background. British Journal of Educational Technology, 50(3), 972-986.
3. Норкулов, А. & Эргашева, Г. (2021). Алоҳида эҳтиёжли ўқувчилар учун рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари. Педагогик маҳорат, 2, 58-67.
4. Bouck, E. C. (2017). Assistive Technology. SAGE Publications.
5. Рахимова, Д. (2022). Рақамли таълим платформаларининг инклюзив таълимдаги ўрни. Таълим муаммолари, 3, 48-59.
6. Мамаражабов, М. & Каримова, С. (2023). Ўзбекистон таълим тизимида рақамли технологияларни қўллаш: ҳозирги ҳолат ва истиқболлар. Халқ таълими, 1, 32-45.
7. Meyer, A., Rose, D. H., & Gordon, D. (2014). Universal design for learning: Theory and practice. CAST Professional Publishing.
8. Баратов, С. & Алимова, К. (2022). Рақамли технологиялар асосида алоҳида эҳтиёжли ўқувчиларни баҳолаш тизимини такомиллаштириш. Психология ва педагогика муаммолари, 3, 72-85.
9. Усманова, З. (2021). Алоҳида эҳтиёжли ўқувчиларнинг ижтимоий-психологик мослашувида рақамли технологияларнинг ўрни. Таълим муаммолари, 2, 98-112.
10. Содиқова, Ф. & Қодирова, Г. (2023). Мактаб ўқитувчиларининг рақамли компетенцияларини ривожлантиришнинг замонавий ёндашувлари. Таълим менежменти ва инновациялар журнали, 2, 45-57.
11. Heiman, T. (2018). Parents of Children with Disabilities: Resilience, Coping, and Future Expectations. Journal of Developmental and Physical Disabilities, 30(2), 721-737.
12. Усманова, З. (2022). Алоҳида эҳтиёжли болалар учун рақамли ота-оналик: муаммо ва ечимлар. Оила ва жамият, 3, 67-79.

O‘QUV-MASHQ BOSQICHIDAGI TURON YAKKA KURASHCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASH USULLARI

JAMOLOV FIRUZ FAXRIDDINOVICH
Zarmed universiteti Ijtimoiy - iqtisodiyot va muhandislik fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turon yakka kurashining shakllanishi hamda uning ayrim qoidalari haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari jismoniy madaniyat sohasida turon yakka kurashi doirasida qo‘llaniladigan ayrim jismoniy sifatlar to‘g‘risida atroflicha fikrlar ilgari surilgan bo‘lib, inson organizmining ayrim sifatlarini qanday namoyon qila olishi bayon etilgan. Ushbu kurash turini qanday qilib rivojlantirish hamda shu orqali sportchilarning jismoniy sifatlarini yuqori pog‘onaga olib chiqish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy sifatlar, turon yakka kurash, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, harakatlar koordinatsiya, streotip harakatlar.

Annotation. This article provides information on the formation of Turan Solo Wrestling as well as some of its rules. In addition, in the field of Physical Culture, detailed opinions have been put forward about certain physical qualities used within the framework of the Turan solo struggle, describing how it can manifest certain qualities of the human body.Ideas are presented on how to develop this type of wrestling and thereby raise the physical qualities of athletes to a higher level.

Keywords: physical qualities, turon solo struggle, agility, agility, endurance, Movement coordination, streotype movements

Аннотация. В этой статье представлена информация о становлении туранского единоборства, а также о некоторых его правилах. Кроме того, в области физической культуры выдвигаются развернутые представления о некоторых физических качествах, применяемых в рамках единоборства Туран, и описывается, как человеческий организм может проявлять определенные качества. В нем изложены идеи о том, как развить этот вид борьбы и тем самым вывести физические качества спортсменов на более высокий уровень.

Ключевые слова: физические качества, выносливость в единоборствах, скорость, ловкость, выносливость, координация движений, стреотип движений.

Turon yakka kurashi - bu O‘zbekistonda yaratilgan milliy sport turi bo‘lib, jangovar san’at va an’anaviy kurash uslublarini o‘zida mujassam etadi. U sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yosh avlodni jismonan chiniqtirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida yaratilgan.

Turon yakka kurashining o‘ziga xos asosiy xususiyatlarimavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1.Turon kurashi 1990-yillarning oxirlarida va 2000-yillarning boshlarida shakllangan. Bu sport turi O‘zbek jangovar an’analariga tayanadi va xalqimizning qadimiy kurash madaniyatiga asoslanadi.

2. U jangovar elementlar, himoya, zarba, uloqtirish va yerda kurashish (parter) kabi uslublarni o‘z ichiga oladi. Har bir jangchining kiyimi (formasi) va belgilangan maydoncha (tatami)da kurashadi.

3.Turon kurashida faqat jismoniy emas, balki ruhiy-axloqiy tarbiya ham katta ahamiyatga ega. Unda halollik, sabr, matonat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar ustuvor hisoblanadi.

4. O‘zbekiston bo‘ylab maktablarda, sport klublarida va oliy ta’lim muassasalarida keng targ‘ib qilinmoqda. Resmi federatsiyasi mavjud bo‘lib, musobaqalar ham o‘tkaziladi.

Tarixan mavjud bo‘lgan jismoniy

tarbiya tizimlariga insonning jismoniy (harakat) sifatlarini tarbiyalay olishiga qarab baho berilgan. Insonning organizmida turli darajada shakllangan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, tana bo‘g‘inlari harakatchanligi va muskullar egiluvchanligini jismoniy sifatlar deb atash qabul qilingan. Inson organizmining shu sifatlarini qanday namoyon qila olishiga qarab individga kuchli, chaqqon, tezkor va h.k. deb baho berganlar. Bu sifatlar o‘lchovga ega, uning ko‘rsatkichlari jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari deb ataladi va ko‘rsatkichlar orqali individning ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorligi aniqlanadi. Masalan, inson 100 kg og‘irlikdagi shtangani yelkaga olib faqat 3 marotaba o‘tirib tura olsa, boshqasi shu vazn bilan 5 marotabadan ortiq o‘tirib tura olishi mumkin. Shu mashqni ikki marta ortiq bajarganligi uchun ikkinchi o‘rtoqning kuch sifati rivojlangan deb baholanadi. Bu sifat organizmning suyak, muskul va boshqa a’zolarining to‘qimalari, hujayralari va hokazolarning rivojlanganligigagina bog‘liq bo‘lmay, ma’naviy-ruhiy fazilatlariga ham bog‘liq. Shuning uchun harakat sifatlarini tarbiyalash ma’naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalash ishi bilan chambarchas bog‘liq va tarbiyaning shu yo‘nalishiga vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Harakat sifatlarini tarbiyalashga intilish insoniyatning azaliy orzusi. Mehnat qurollari, harbiy anjom va aslaxa bilan muomala qilishning samaradorligi tabiat insonga in’om etgan va uni tarbiya jarayonida rivojlantirish mumkin bo‘lgan jismoniy fazilatlarga bog‘liq tarbiyalash lozimligi masalasini ko‘ndalang qo‘yadi. Jismonan barkamol, axloqan pok, estetik didli, e’tiqodli, sadoqatli, texnika ilmining zamonaviy asoslarini puxta egallagan, har taraflama ma’naviy yetuk, jismonan garmonik rivojlangan kishini tarbiyalash hozirgi kungacha davrimizning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan “Sog‘lom avlod uchun” dasturining o‘zagini tashkil etadi. Harakatlarning koordinatsiyaviy murakkabligi chaqqonlikning birinchi o‘lchovidir. Agar harakatning fazo, vaqt, kuch xarakteristikalari harakat vazifasiga mos bo‘lsa, harakat yetarli darajada aniq bo‘ladi, harakat vazifalari harakatning aniqligi tushunchasini keltirib chiqaradi. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o‘lchovidir. Hayotda va sportda duch kelishi mumkin bo‘lgan barcha harakatlarni ikki guruhga ajratamiz:

1. Nisbatan stereotip harakatlar.
2. Nosteriotip harakatlar.

Yengil atletika yo‘lkasida, tekis joyda yugurishlar, uloqtirish va sakrashlar, gimnastika mashqlari, birinchi guruh harakatlariga, sport o‘yinlari, yakkama-yakka olishuv, slalom, kross va shu kabilar ikkinchi guruhga kiritiladi. Stereotip harakatlardagi aniqlik, kishi bu harakatlarni bajarishning qanchalik uzoq mashq qilganligiga, va uni texnikasini o‘zlashtirganligiga bog‘liq. Agar inson to‘g‘ridan to‘g‘ri, tayyorgarliksiz yangi harakatlarni birdaniga bajara boshlasa, harakatni o‘zlashtirib olishi uchun vaqtni turlicha sarflanishiga qarab chaqqonlikka baho beriladi. Shuning uchun yangi harakatni o‘zlashtirib olishga ketgan vaqt shug‘ullanuvchida chaqqonlik sifatining ko‘rsatkichlaridan biridir.

Chaqqonlikni rivojlantirishi usuliyati bilan tanishib chiqadigan bo‘lsak, birinchidan, chaqqonlikni rivojlantirish koordinatsiya jihatdan murakkab harakatlarni bajarishni, ikkinchidan , harakat faoliyatini to‘satdan o‘zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta tuza olish qobiliyatini tarbiyalashdan iboratdir. Bunda chaqqonlik uchun zarur bo‘lgan o‘z harakatlarini fazo va vaqtda aniq idrok etish, lozim bo‘lsa, stabil harakatlar qila bilish, muvozanat saqlay olish, galma-gal zo‘r berish va muskullarni bo‘shattirish yoki, aksincha, muskullarni taranglashtirish qobiliyati va shunga o‘xshash boshqa xususiyatlarni tanlab takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Demak, “chaqqonlik” deganda, harakatlar koordinatsiyalarning umumiy to‘plami, ya’ni yig‘indisi tushuniladi.

Chaqqonlikni tarbiyalash, birinchidan, koordinatsion jihatdan murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olish qobiliyatini tarbiyalashdan va, ikkinchidan, harakat faoliyatini to‘satdan o‘zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyatini tarbiyalashdan iboratdir. Chaqqonlikni oshirishga qaratilgan yuklamaning o‘zgarishi shug‘ullanuvchilar yenga oladigan koordinatsion qiyinchiliklami orttira borish yo‘li bilan sodir etiladi. Bu qiyinchiliklar asosan quyidagi talablardan tashldl topadi: 1) harakatlarning aniq bo‘lishi; 2) ulaming o‘zaro muvofiqligi; 3) sharoitning tosatdan o‘zgarishi.

Jismoniy mashqlami bajarishda kishining chidamliligi - uning uzoq vaqt davomida ish tezligini pasaytirmasdan ishlash qobiliyatidir. Chidamlilik organizmning funksional zahiralariga, jismoniy chiniqqanlik darajasiga, ish bajariladigan muhit sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Muntazam ravishda maxsus mashqlar bilan shug‘ullanish organizmning shu ishlarga chidamliligini oshiradi. Chidamlilik organizmda charchashga qarshilik ko‘rsatish layoqatining ortishi bo‘lib, uni tarbiyalashning uslub hamda vositalari olib boradigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda rivojlanadi. Chidamlilik ortishi bilan organizmda yuqori darajadagi ish qobiliyatini saqlash muddati uzayadi. Chidamlilik bir qancha turlarga ajratiladi: umumiy chidamlilik, maxsus chidamlilik, dinamik ishlami bajarishga chidamlilik, statik chidamlilik, gipoksiyaga (qonda kislorod miqdorining kamayishiga) chidamlilik, issiqqa va sovuqqa chidamlilik. Jumladan, dzyudo sport turida ham sportchilar har qanday holatga va vaziyatga chidamli, sabrli bo‘lishi lozim. Inson faoliyatining belgilangan shiddatini qachongacha saqlay olishini ko‘rsatadigan vaqt chidamlilikning asosiy o‘lchovidir. Chidamhlik bevosita va bilvosita usullar bilan o‘lchanadi. Bevosita o‘lchash usulida tekshirilayotganlarga biror topshiriqni bajarish (masalan, berilgan tezlikda yugurish) tavsiya etiladi va ish qancha vaqtgacha dastlabki shiddat bilan bajarilishi (tezlik pasaya boshlagunga qadar) aniqlanadi. Chidamlilikni bevosita usulda o‘lchash amalda doimo qulay emas. Shuning uchun ko‘pincha bilvosita usuldan foydalaniladi. Chunonchi, sport amaliyotida chidamlilik biror uzoq masofani bosib o‘tish vaqtiga qarab aniqlanadi.

Tezkorlik deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan harakat reaksiyasining vaqtini belgilovchi funksional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi. Tezlikni namoyon bo‘lishining uchta asosiy shakli bor:

1. Yakka harakat tezligi (kichik tashqi qarshilikni yengish bilan);

2.Harakatlar chastotasi;

3.Harakatlar reaksiyasi tezligi (yashirin latent davri).

Tezkorlikning eng sodda shakllarining namoyon bo‘lishi bir-biriga aloqador emas. Ayniqsa bu reaksiya vaqtiga bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda harakat tezligi ko‘rsatkichlari bilan korelyatsiya qilinmaydi. Tezlikning namoyon qilinishini qayd etilgan uchta shaklining umumlashmasidan (qo‘shilmasidan) aniqlash mumkin.

O‘quvchilarning tezkorlik qobiliyatini qo‘shimcha rivojlantirishga jismoniy mashq va o‘yinlar bilan mustaqil o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar xizmat qihshi mumkin. O‘yinlar zahirasining ko‘payishi, ulami uyushtirish unsurlarini o‘rgatish jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ishidir. U o‘quvchilarda mustaqil mashg‘ulotlarga muhabbat uyg‘otishi va ulami har tomonlama rag‘batlantirishi kerak. Tezkorlik mashqlari mushaklar yaxshigina qiziganidan keyin katta samara beradi, ammo to charchashga qadar qo‘llaniladi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, tezkorlikni rivojlantirish uchun beriladigan mashqlami darsning birinchi yarmiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Tezkorlik mashqlari yoki seriyalari o‘rtasidagi dam olish oralig‘i qayta tiklanish uchun yetarli boTishi kerak. Tezlikning pasayishi mashqlaming yetarliligi mezoni bo‘lib hisoblanadi. Asosan, kuchni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qo‘shimcha mashqlami kelajakni hisobga olib rejalashtirish kerak.

Chunonchi, o‘quv yilining birinchi choragida o‘rganilanadigan materialning vositalari (yengil atletika, sport o‘yinlari), asosan, oyoqlar kuchining rivojlanishiga yordam beradi.

Jismoniy sifatlami rivojlantirish boshlang‘ich ta'limda jismoniy tarbiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, bu tezkorlik va chaqqonlik sifatlariga tegishlidir, chunki quyi sinflarda o‘rgatish aynan shu sifatlaming jadal rivojlanishi uchun eng qulay bo‘lgan davr hisoblanadi. Chidamlilikni rivojlantirishda asosiy vazifa bolalar organizmining ayrim imkoniyatlarini oshirishga ko‘maklashish va shu asosda umumiy chidamlilikni ta'minlashdan iboratdir. Kuchni rivojlantirish vazifasi, eng avvalo, gavdani shakllantirish va rivojlantirish, quloq mushak guruhlarini mustahkamlash bilan bog‘langan

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, turon yakka kurashi - bu nafaqat sport turi, balki yosh avlodni jismoniy va ma’naviy barkamollikka yetaklovchi milliy qadriyatdir. U o‘zbek xalqining jangovar san’atga oid boy merosini zamonaviy shaklda namoyon etadi. Turon kurashi orqali yoshlar sog‘lom turmush tarziga amal qilishadi, vatanparvarlik, halollik va jasorat kabi fazilatlarni o‘zida shakllantirishadi. Shu boisdan, uni rivojlantirish va keng targ‘ib qilish - kelajak avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. o‘rgatish vaqtida murakkab harakat aktlari - tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi fazalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalaming xususiyatlari ham hisobga olmadi. Bo‘lib yuborish uslubdan foydalanish harakatni o‘rganishning izchilligini belgilash uchun, shuningdek, tayyorgarlik mashqlarini tanlash uchun muhimdir. Jismoniy mashqlami bajarish jarayonida bu yoshdagi bolalarda chaqqonlik, tezlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlari tarbiyalanadi. Ulaming anatomik-fiziologik xususiyatlarini e‘tiborga olsak, chaqqonlik va tezlik sifatlarini tarbiyalashimkoniyati ularda boshqa sifatlarga nisbatan ko‘proq bo‘ladi, kuch va chidamlilik sifatlarini tarbiyalashda esa, aksincha, extiyotkor bo‘lish zarur. Lekin bu sifatlami rivojlantirish umuman to‘xtatib qo‘yilmaydi, chunki kuch va chidamlilik elementlari har bir harakat faoliyati uchun zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (turon yakkakurashi). Darslik. R.S. Shukurov. Durdona Nashiryoti. 2020y.
2. Turon Milliy yakka kurashi. o‘quv qo‘llanma. R.S. Shukurov Durdona Nashiryoti. 2012.
3. Safarov D.Z.O‘., Xamroev B.X. Oliy ta’limda gimnastika darslarini innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida o‘qitishi samaradorligi // Scientific progress, 2021.T. 1. № 6.
4. Islomov E.Yu., Xamroev B.X., Safarov D.Z.U. Upravlenie vospitaniem yunogo sportsmena vo vremya zanyatiy fizicheskimi uprajneniyami i na trenirovke // Voprosы nauki i obrazovaniya, 2020. № 20 (104).
5. DZ Safarov, BX Xamroev, MM Mavlonov. Ispolzovanie pedagogicheskix texnologiy v protsesse obucheniya gimnastike - Voprosы nauki i obrazovaniya № 14 (139), 2021
6. Safarov D. Z. O. G. L., Nazarova N. E., Sadriddinova D. H. Q. Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining maqsadi va vazifalari //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – S. 1498-1505.
7. Safarov D.Z.O‘., Xamroev B.X. Oliy ta’limda gimnastika darslarini innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida o‘qitishi samaradorligi // Scientific progress, 2021. T. 1. № 6.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI FANLARARO INTEGRATSIYANI O‘RGATISH METODIKASI

QODIROVA DILSHODAXON ABDUNABIYEVNA
Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fanlararo integratsiyalashgan ta’limni o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Fanlararo integratsiya boshlang‘ich ta’limda chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ilg‘or xorijiy tajriba, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, boshlang‘ich sinf, metodika, bo‘lajak o‘qituvchi, tayyorlash, kompetensiya.

Аннотация: В данной статье освещены научно-методические основы обучения будущих учителей начальных классов межпредметной интеграции. Межпредметная интеграция является важным средством формирования глубоких знаний и навыков в начальном образовании. В статье обоснованы методические подходы, разработанные на основе передового зарубежного опыта и современных педагогических технологий.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, начальный класс, методика, будущий учитель, подготовка, компетентность.

Abstrakt: This article explores the methodological foundations for teaching future primary school teachers how to implement interdisciplinary integration. Interdisciplinary learning is a key tool in forming deep knowledge and skills in primary education. The study presents methodical approaches developed based on advanced international experience and modern pedagogical technologies.

Keywords: interdisciplinary integration, primary education, methodology, future teacher, preparation, competence.

KIRISH

Fanlararo integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat turli fanlardan dars beruvchi, balki ularni bir butunlikda uyg‘unlashtira oladigan kompetent shaxs bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning fanlararo integratsiya asoslarini o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi (Beane, 1997).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ–81-son qarori bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ta’lim sifatini oshirishda integratsiyalashgan yondashuvlarning roli alohida ta’kidlangan.

METODOLOGIYA

Fanlararo integratsiya (interdisciplinary integration) deganda turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, mazmuniy, uslubiy yoki kontekstual bog‘liqlikni bir butun yondashuvda o‘rgatish tushuniladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda chuqur, tarmoqlangan bilimlar majmuini shakllantiradi va ularni real hayotiy muammolarni yechishga yo‘naltiradi.

Asosiy belgilari:

• Mazmuniy uyg‘unlik: Turli fanlarda o‘tiladigan mavzular umumiy muammoning turli jihatlarini ochib beradi.

• Kontekstual o‘rgatish: Bilimlar hayotiy holatlar asosida, bir necha fan elementlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘rgatiladi.

• Amaliyotga yo‘naltirilganlik: Integratsiyalashgan darslar ko‘pincha loyiha, muammo yechish, tadqiqotga asoslanadi.

Boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiyaning o‘rni alohida ahamiyatga ega, chunki bu bosqichda o‘quvchilarning dunyoqarashi endi shakllana boshlaydi. Darslarda alohida fanlarga bo‘lingan bilimlar emas, balki bir butun konseptual tushunchalar tizimi kerak.

Integratsiya boshlang‘ich ta’limda quyidagilarga olib keladi:

• O‘quvchilar tafakkurining yaxlit rivojlanishi

• O‘zaro bog‘liq bilimlarni hosil qilish

• Fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish

• Kompetensiyalarning barqaror shakllanishi

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z fanini chuqur bilishidan tashqari, uni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rgatish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim. Shu boisdan, ularni tayyorlash jarayonida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish kerak:

Asosiy tayyorgarlik yo‘nalishlari:

1. Nazariy bilimlar: Fanlararo integratsiya haqida umumiy tushuncha, tarixiy taraqqiyot, asosiy nazariyalar.

2. Metodik ko‘nikmalar: Darslarni integratsiyalashgan holda loyihalash, didaktik materiallar yaratish.

3. Amaliy tajriba: Integratsiyalashgan darslarni kuzatish, rejalashtirish va o‘tkazish.

4. Refleksiya va tahlil: O‘z faoliyatini tahlil qilish, dars samaradorligini baholash.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarda integratsiyalashgan darsni loyihalash, fanlararo aloqalarni aniqlash, integratsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalari yetarli emas edi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.

1. Dastlabki diagnostika: Bo‘lajak o‘qituvchilarning 68% fanlararo aloqalarni rejalashtirishda qiynalishi, 54% darslarda integratsion usullardan foydalanmasligi aniqlandi.

2. Metodik kompleks yaratildi: "Fanlararo integratsiya asosida dars loyihalash" moduli ishlab chiqildi.

3. Eksperiment natijalari:

o Eksperimental guruhda integratsion ko‘nikmalarning shakllanishi 35% dan 81% ga oshdi.

o Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 37% dan 49% gacha o‘sdi.

o O‘zlashtirish darajasida o‘rtacha 26% farq kuzatildi ($p<0.05$).

MUNOZARA

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiyalashgan o‘qituv metodikasini tizimli o‘rgatish bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Integratsiya nafaqat fanlar mazmunining uyg‘unlashuvi, balki o‘quvchilar fikrlash doirasini kengaytiruvchi vosita sifatida ham qaraladi (Drake & Burns, 2004). Shuningdek, xorijiy tajriba (masalan, Finlandiya, Kanada ta’lim tizimi) integratsiyalashgan o‘qituv metodlari orqali boshlang‘ich bosqichda kompleks loyihalar, mavzulararo faoliyat va STEAM elementlarini samarali joriy etishini ko‘rsatadi.

Integratsiyalashgan o‘qituv metodlarining turlari

Fanlararo integratsiyada quyidagi metodlar keng qo‘llaniladi:

Tematik integratsiya- Bir mavzu doirasida turli fanlar elementlarini uyg‘unlashtirish

Modulli yondashuv- darslar modullar orqali birlashtiriladi (masalan, “Tabiat va texnologiya”)

Loyiha usuli- o‘quvchilar loyiha doirasida turli fanlardan bilimlarni qo‘llaydi

Muammo asosida o‘qitish-real muammolarni yechishda fanlararo yondashuv qo‘llaniladi

Finlandiya ta’lim integratsiyasiga asoslangan bo‘lib, “fenomen asosida o‘qitish” (phenomenon-based learning) keng joriy etilgan. Bu modelda o‘quvchilar biror hodisani har xil fanlar orqali o‘rganadilar. Kanada Interdisciplinary Studies dasturlari boshlang‘ich bosqichdan joriy etilib, darslar ko‘pincha loyiha asosida tashkil etiladi. Ko‘p hollarda san’at, matematika va atrof-muhit fanlari integratsiyalanadi. Singapur STEM yondashuvi asosida fanlararo o‘qituv modellariga e’tibor kuchli. Ta’lim jarayonida matematika, texnologiya va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari uyg‘un holda o‘rgatiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni integratsiyalashgan ta’limga tayyorlash metodikasi quyidagi komponentlardan iborat:

1. O‘quv moduli: “Fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari” fani o‘quv dasturiga kiritiladi.

2. Amaliy mashg‘ulotlar: Mavzulararo bog‘liqlikni aniqlash, integratsiyalashgan dars ishlanmalarini tuzish.

3. Simulyatsiya darslari: Talabalar maxsus stsenariylar asosida integratsiyalashgan darslar olib boradilar.

4. Refleksiya treninglari: O‘z darslarini baholash, tanqidiy tahlil qilish.

XULOSA

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fanlararo integratsiya asosida tayyorlash – zamonaviy ta’limning global

1-jadval: Tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish yo’llari

Tayyorlash yo‘nalishi	Takomillashtirish yo‘llari	Samaradorlik omillari
Pedagogik bilim va kompetensiyalar	Pedagoglarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirish, interaktiv usullardan foydalanish.	O‘qitish sifatining oshishi, pedagoglarning kasbiy malakasi rivojlanishi.
Psixologik tayyorgarlik	Pedagoglarning bolalar psixologiyasini chuqur o‘rganishlari, stressga chidamlilik ko‘nikmalarini shakllantirish.	Bolalar bilan ishlash sifati oshishi, tarbiyaviy faoliyatning samaradorligi.
Innovatsion ta’lim texnologiyalari	Onlayn va oflayn treninglar, virtual laboratoriyalar, multimediya vositalaridan foydalanish.	Dars samaradorligining oshishi, ta’lim jarayonining innovatsion tus olishi.
Refleksiv amaliyot	O‘z faoliyatini baholash va rivojlantirish, refleksiv kundalik yuritish.	Pedagoglarning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy o‘sish jarayonining jadallashishi.
Amaliy mashg‘ulotlar	Tarbiyachilar uchun maxsus amaliy mashg‘ulotlar, trening va seminarlar o‘tkazish.	Tarbiyachilar tajribasining ortishi, real muammolarni hal qilish qobiliyati.
Monitoring va baholash tizimi	Pedagoglarning ishlash samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, oraliq va yakuniy baholash tizimlarini ishlab chiqish.	Sifat nazorati oshishi, pedagoglar ish faoliyatining tahlil qilinishi.
Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Davlat tomonidan pedagoglarning malakasini oshirish dasturlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, grantlar ajratish.	Maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanishi, pedagoglarning malakasi oshishi.
Xalqaro tajriba va hamkorlik	Chet el universitetlari va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda maxsus dasturlar joriy qilish.	Xalqaro darajada ta’lim sifatining oshishi, tajriba almashinuvi va innovatsion yondashuvlar joriy etilishi.

talablariga javob beruvchi, chuqur bilimli, kreativ va mustaqil fikrlovchi pedagoglarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni pedagogik ta’lim tizimiga joriy etish bo‘lajak o‘qituvchining darsni nafaqat o‘qitish, balki mazmunan boyitish, motivatsion va interaktiv shaklda olib borish qobiliyatini kuchaytiradi. Fanlararo integratsiyani o‘rgatish metodikasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita sifatida o‘zini oqladi. Shu boisdan oliy ta’lim muassasalarining pedagogik yo‘nalishlari o‘quv rejalari va fan dasturlariga integratsiyalashgan dars metodikasini kiritish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining (2022). 2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. PQ-81-son qarori.
2. Beane, J. A. (1997). Curriculum integration: Designing the core of democratic education. Teachers College Press.
3. Drake, S. M., & Burns, R. C. (2004). Meeting standards through integrated curriculum. ASCD.
4. Fogarty, R. (1991). Ten ways to integrate curriculum. Educational Leadership, 49(2), 61–65.
Конец формы

BO’LAJAK PEDAGOGLARNI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI.

AZAMOV UMARXON YAXYOXONOVICH
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo’lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi doirasida multimedia o’qitish texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish zarurati shuningdek, talabalarni ta’limda multimedia texnologiyalarining foydalanishga tayyorlashning dolzarbligi, umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quv jarayonini amalga oshirish doirasida bir qator pedagogik sharoitlarni ta’minlash shartlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: texnologiya, multimedia texnologiyalari, multimedia, multimedia vositalari, bo’lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik holat, axborot-ta’lim muhiti, axborot jamiyati, axborot kompetentsiyasi.

Аннотация. В данной статье представлена информация о необходимости формирования готовности будущих педагогов к использованию мультимедийных технологий обучения в рамках своей профессиональной подготовки, а также об актуальности подготовки учащихся к использованию мультимедийных технологий в образовании, об условиях обеспечения ряда педагогических условий в рамках осуществления образовательного процесса в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: технология, мультимедийные технологии, мультимедиа, мультимедийные средства, профессиональная подготовка будущих педагогов, Педагогический статус, информационно-образовательная среда, информационное общество, информационная компетентность.

Annotation. This article provides information on the necessity of future teachers to be prepared for using multimedia technologies during their professional training, as well as on the relevance of preparing students for the use of multimedia technologies in education, and on the conditions for providing a number of pedagogical conditions as part of the educational process at schools.

Keywords: technology, multimedia technologies, multimedia, multimedia tools, professional training of future teachers, Pedagogical status, information and educational environment, information society, information competence.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan, multimedia texnologiyalarining keng joriy etilishi pedagogik faoliyatga bo‘lgan yondashuvni tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’limda raqamli vositalardan oqilona foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, interaktiv muloqot va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida multimedia texnologiyalarini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia texnologiyalari ta’lim mazmunini vizual, audio va interaktiv shakllarda yetkazishga imkon beradi. Bu esa nafaqat o‘quv materialining tushunarli va esda qolarli bo‘lishini ta’minlaydi, balki talabalarni dars jarayoniga faol jalb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bo‘lajak pedagoglarni ushbu texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish, ularning raqamli pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish zamon talabi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishida bo‘lajak pedagoglarni multimedia texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatishning pedagogik shartlari, bu jarayonni samarali tashkil etish yo‘llari, mavjud muammolar va ularning yechimlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologiyasi, uning asosiy maqsadlari va vazifalariga erishish uchun qo‘llaniladigan usul va metodlarni aniqlaydi. Bo‘lajak pedagoglarni multimedia texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatishning pedagogik shartlarini o‘rganish uchun bir nechta ilmiy metodlar qo‘llaniladi. Ushbu metodlar ta’lim jarayonidagi samaradorlikni oshirish, o‘quvchilarni multimedia texnologiyalari orqali o‘qitish jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimida yangi texnologiyalarni joriy etish — pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib bormoqda. Bo’lajak pedagoglarning o’quv jarayonida zamonaviy multimedia o’qitish texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish jarayoni talabalarning kasbiy tayyorgarligini, uning mazmuni, amalga oshirish vositalari va usullarini amalga oshirishning tegishli metodologiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Talabalarni ta’limda multimedia texnologiyalarining butun spektridan foydalanishga tayyorlashning dolzarbligi, shuningdek, umumiy o’rta ta’lim maktablaridada o’quv jarayonini amalga oshirish doirasida bir qator pedagogik sharoitlarni ta’minlashni talab qiladi.

Bo’lajak pedagoglarning multimedia texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirishning mohiyati haqida gapirganda, shuni ta’kidlash kerakki, bu jarayon oliy ta’lim tizimida ma’lum pedagogik sharoitlarni yaratishni o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, "pedagogik sharoitlar"tushunchasining mohiyatini asoslashga murojaat qilish tavsiya etiladi. Ushbu tushuncha pedagogika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida ko’plab ilmiy tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar doirasida ushbu kontseptsiyaning turli jihatlari ko’rib chiqiladi, buning asosida zamonaviy fanda “pedagogik sharoitlar” tushunchasini talqin qilishda yagona yondashuv yo’q degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish asosida olimlarning “pedagogik sharoitlar” tushunchasining mohiyatini aniqlashga bo’lgan yondashuvlarini ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Olimlar tomonidan keng ma’noda tahlil qilingan tushuncha ma’lum bir pedagogik maqsadga erishish uchun ob’ektiv ravishda shakllangan yoki sub’ektiv ravishda yaratilgan muayyan shakllar, usullar, moddiy sharoitlar, real vaziyatlar tizimi sifatida belgilanadi.

Ko’pgina tadqiqotlarda pedagogik sharoitlar pedagogik faoliyat shakli ma’nosida belgilanadi, uning maqsadi mutaxassislarni tayyorlashdir. Pedagogik sharoitlar ostida bir qator tadqiqotchilar ob’ektiv imkoniyatlar, shakllar, usullar yoki pedagogik texnikalar to’plamini tushunadilar. Boshqa ilmiy yondashuvlar pedagogik sharoitlarni tashkiliy shakllar sintezi, vazifalarni hal qilishga yordam beradigan moddiy imkoniyatlar ma’nosida belgilaydi. Bir qator tadqiqotchilar pedagogik sharoitlarni pedagogik tizim faoliyati samaradorligi bog’liq bo’lgan omillar yoki holatlar ma’nosida belgilaydilar [2].

Ushbu tadqiqot doirasida, yuqoridagi ilmiy yondashuvlar asosida va maqolaning maqsadini hisobga olgan holda, pedagogik sharoitlar deganda biz kelajakdagi o'qituvchilarni o'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash samaradorligiga hissa qo'shadigan holatlar, vositalar va chora - tadbirlar majmuini tushunamiz.

Olimlarning pedagogik sharoitlarning mohiyatini asoslashga bo'lgan yondashuvlarini ko'rib chiqib, ushbu tadqiqotda tahlil qilingan texnologiyalarni o'rganishga murojaat qilamiz.

Multimedia texnologiyalari deganda turli xil usullardagi axborot vositalarini ishlab chiqish, ishlash va ulardan foydalanish tartibi tushuniladi. Multimedia vositalari farqlanadi:

- apparat (protsessorli kompyuter, o'rnatilgan Stereo dinamiklar bilan multimedia monitori, televizor tyunerlari, ovoz platalari);

- dasturiy ta'minot (multimedia xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturlar va muammoli yo'naltirilgan dasturlash tillari) [4].

O'quv jarayonidagi multimedia texnologiyalari vositalari elektron darsliklarda, PowerPoint dasturi yordamida yaratilgan elektron taqdimotlarda, video metod, elektron pochta, rolli o'yin, elektron interaktiv doska va boshqalarda namoyish etilishi mumkin. [1].

O'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchining ijodiy salohiyatini yanada kengroq va to'liq ochib berishga imkon beradi. Multimedia o'ziga xos interaktivlik, moslashuvchanlik, turli xil multimedia o'quv ma'lumotlarini birlashtirish fazilatlari tufayli, shuningdek o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning bilim faoliyati uchun motivatsiyasini oshirishga hissa qo'shish qobiliyati tufayli juda foydali va samarali ta'lim texnologiyasidir.

Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayoni sub'ektlarining o'ziga xos uslublariga tayanishda ichki tajribasini rivojlantirish;

- axborot va kommunikativ o'zaro ta'sir ko'nikmalarini shakllantirish;

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ITV va PTni joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash respublikada ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlarning muhim qismidir. Raqamli o‘quv resurslarini yaratish, o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va faol o‘qitish metodlarini keng qo‘llash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan. Mazkur tadqiqot talabalarning nazariy bilimlarini interaktiv vositalar va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi orqali rivojlantirishning muhim nazariy asoslarini ochib berdi. Olingan natijalar oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘qitish sifatini oshirish va zamonaviy bilimli kadrlar tayyorlash bo‘yicha keyingi tadqiqotlar va amaliy qadamlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa

Mazkur fundamental tadqiqot talabalarning fundamental nazariy bilimlarini intellektual rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishga yo‘naltirilib, interaktiv ta’lim vositalari (ITV) va pedagogik texnologiyalarning (PT) didaktik potensialini sinergetik integratsiyalashning epistemologik va kognitiv imperativlarini tahlil etadi. Tadqiqot natijasida nazariy bilimlarning talabalarning kognitiv arxitekturasidagi fundamental ahamiyati, xususan, konseptual ramkalarni shakllantirish, mantiqiy-semantik aloqalarni anglash va yuqori tartibli kognitiv

funksiyalarni rivojlantirishdagi hal qiluvchi roli empirik va nazariy jihatdan tasdiqlandi. ITV (virtual laboratoriyalar, kognitiv trenajyorlar, multimedia simulyatsiyalari, gamifikatsiyalashgan o‘quv muhitlari) va PT (konstruktivistik o‘qitish strategiyalari, kollaborativ loyihalar, muammoga asoslangan o‘qitish, flipped classroom)ning nazariy bilimlarni intellektual rivojlantirishdagi transformativ imkoniyatlari, xususan, ichki motivatsiyani oshirish, epistemik qiziquvchanlikni rag‘batlantirish, sensor-perseptiv modalitetlarni diversifikatsiya qilish orqali axborotni qayta ishlash samaradorligini optimallashtirish va abstraktlashuv darajasini moderatsiya qilish orqali bilimning chuqur o‘zlashtirilishiga signifikan ta’sir ko‘rsatishi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan validatsiya qilindi.

Tadqiqot doirasida nazariy bilimlarni intellektual rivojlantirishda ITV va PTni integratsiyalashning fundamental didaktik prinsiplari (subyekt-faoliyatli yondashuv, vizualizatsiya va kognitiv yuklamani optimallashtirish, individual trayektoriya va differensiallash, avtonomiya va o‘z-o‘zini tartibga solishni rivojlantirish, kontekstuallik va autentiklik, refleksiya va metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish) ishlab chiqilib, ularning metodologik konstruktlari aniqlandi. Ushbu prinsiplar o‘quv jarayonining subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanganligi, kognitiv ergonomikasi, individual o‘quv traektoriyalarini ta’minlash, o‘zini-o‘zi boshqarishni rag‘batlantirish, bilimni autentik kontekstlarda qo‘llash va reflektiv amaliyotni rivojlantirish kabi muhim didaktik imperativlarni aks ettiradi. ITV va PT integratsiyasining talabalarning kognitiv jarayonlariga (diqqat, ishchi xotira, tafakkur, tushunish) ta’sirining psixologik-pedagogik mexanizmlari, jumladan, kognitiv resurslarni optimallashtirish, ishchi xotiraning samarali ishlashini ta’minlash, mantiqiy va abstrakt fikrlashni faollashtirish hamda o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish orqali nazariy bilimlarning samarali o‘zlashtirilishiga ko‘maklashishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlar kognitiv arxitekturaning funksional birliklari va o‘z-o‘zini samarali boshqarishning psixologik konstruktlari bilan interaktiv aloqada ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. Allyn & Bacon.
2. Ausubel, D. P., Novak, J. D., & Hanesian, H. (1978). Educational psychology: A cognitive view (2nd ed.). Holt, Rinehart & Winston.
3. Jonassen, D. H. (1999). Designing constructivist learning environments. In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional-design theories and models, volume II: A new paradigm of instructional theory (pp. 215-239). Lawrence Erlbaum Associates.
4. Lewin, K. (1946). Action research and minority problems. Journal of Social Issues, 2(4), 34-46.
5. Abdumajidova, D.A. (2021). Oliy ta’limda interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik asoslari. Zamonaviy ta’lim, (1), 12-18.
6. Ishmuhamedov, R.J., Abdukodirov, A.A., & Pardaev, A. X. (2017). Innovatsion pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iste’dod.
7. Sharipov, Sh. S., & Musurmonova, O. M. (2015). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan.
8. Xodjayev, B. X. (2013). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: TDPU.
9. Muratov, X. X. (2021). Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o ‘qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. Academic research in educational sciences, 2(1), 1130-1136.
10. Султанов, Х. Э., & Муратов, Х. Х. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери орқали ўқув жараёни ва амалиётнинг самарали интеграциясини таъминлаш. педагогика ва психологияда инновациялар, 11.
11. Ходжаев, Б. Х. (2015). Инновацион таълим технологиялари модулидан маъруза матнлари. Т.: ТДПУ, Б, 31.
12. Xodjaev, B. X. (2015). Innovatsion ta’lim texnologiyalari modulidan ma’ruza matnlari.

BOSHLANG‘ICH TAYYORLOV BOSQICHIDAGI DZYUDOCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

XUDOYQULOVA GAVHAR TO‘RAYEVNA
Zarmed universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot va muhandislik fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dzyudo sport turida jismoniy holatlarni rivojlantirish, jismoniy tarbiyaning inson salomatligiga foydasi haqida bir qancha fikrlar ilgari surilgan. Bundan tashqari dzyudochilarning o‘quv mashg‘ulotlari oldidan yuklamalarni tashkil etishni rejalashtirish usullari hamda faoliyat samaradorligini yaxshilash borasida atroflicha fikrlar aytilgan.

Kalit so‘zlar: dzyudo, mashq, texnika, jismoniy madaniyat, tezkorlik, progressiv ta’limot.

Annotation. This article presents several ideas about the development of physical conditions in judo, the benefits of physical education for human health. In addition, detailed ideas are given on the methods of planning the organization of loads for judo players before training sessions and improving the effectiveness of their activities.

Keywords: judo, exercise, technique, physical culture, agility, progressive training.

Аннотатция. В статье представлено несколько идей о развитии физической подготовки в дзюдо и пользе физического воспитания для здоровья человека. Кроме того, были даны подробные представления о методике планирования организации нагрузок перед тренировочными занятиями для дзюдоистов и повышения эффективности их деятельности.

Ключевые слова: дзюдо, упражнения, техника, физическая культура, ловкость, прогрессивная тренировка.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarni bartaraf qilish va ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to‘liq foydalanishni ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni qabul qilindi.

Dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligining rivojlanishi va takomillashi uchun quyidagilar asosiy manba hisoblanadi:

- mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni yuksaltirishning yo‘llari va hozirgi paytdagi ahvoli haqidagi hukumat qarorlari, qonunlari;

- jamiyatning rivojlanishi davomida insonni har tomonlama kamol toptirish haqidagi progressiv ta’limotlar. Bu ta’limotlar insonning har tomonlama rivojlanishi huquqinigina ovoza qilish bilan kifoyalanmay, uning mazmunini ochishga urinish hamda shu g‘oyalarni amalga oshirish yo‘llarini nazariy, amaliy jihatdan asoslashdan iboratdir;

- dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligining rivojlanishisohasi bo‘yicha olib borilgan va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va boshqa aralash fanlarning jismoniy tarbiyaga oid to‘plagan nazariy, amaliy bilimlari tizimi;

- ijtimoiy turmush tarzi uning hayotiy amaliyoti tajribasi, jamiyatning yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilarga bo‘lgan talabini qondirish bo‘yicha to‘plangan amaliy tajribalar;

-jamiyat a’zolarini dzyudo qonuniyatlarini bilishi va shu asosda inson jismoniy kamoloti tizimini tuzish va uni boshqarishga oid bilimlar;

-mavjud jamiyat ma’naviyatining bir bo‘lagi hisoblangan dzyudo tizimiga jismoniy madaniyat konsepsiyalari;

- dzyudo praktikasi — manba sifatida nazariy qoidalarning hayotiyligini tekshiradi, amaliyotdagi tug‘ilgan original g‘oyalardan foydalanadi va ular esa bir qancha nazariyalarni boyitadi;

- arxiv materiallari, shaxsiy kuzatish natijalari (kundaliklar, sportchilar va ularning murabbiylarining rejalari, musobaqa bayonnomalari, konspektlar, ma’ruza matnlari va h.k.lar) dzyudo nazariyasini boyitadi va unga manba bo‘lib xizmat qiladi;

- sog‘lom turmush tarzi nazariyasi va amaliyoti tajribalarining nazariy

bilimlari, odam ekologiyasi.

Sportning bir yo‘nalishi bo‘lgan dzyudoning vazifasi shunday muvaffaqiyatli hal qilinadiki, shug‘ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda tushunib bajarsalar yoki ular sport mashg‘ulotlariga qiziqib, tashabbus ko‘rsatib ijodiy yondashsalar, organizmda harakat malakalarini to‘g‘ri shakllanishi, funksional qobiliyatlarini rivojlanishi uchun umumiy maxsus bilimlarga tayanishlari lozim bo‘ladi. Dzyudo sport turida talantni ochish shug‘ullanuvchida umumiy jismoniy rivojlanganlik va tayyorlanganlik hamda soha bo‘yicha chuqur malakaviy bilimlarga ega bo‘lish, bosh miya, muskullar faoliyatidan foydalanish ko‘r-ko‘ronalikka yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi. Mashg‘ulotga ongli munosabatda bo‘lmaslik talantni so‘nishiga sabab bo‘ladi. Eng xavflisi shug‘ullanuvchida bir tomonlamalilik, faqat sport bilan shug‘ullanishgagina odat shakllanadi. Dzyudo trenirovkasi sirlariga sho‘ng‘ish, uni tushunish, shug‘ullanuvchi mahoratini oshishiga olib keladi. Bunga faqat har tomonlamalilik orqaligina erishish mumkin. Jahon rekordlarini o‘rnatish, chempionlik lavozimlari uchun kurashish, sportchidan yuqori saviya, chuqur bilim va jismoniy qobiliyatni talab qiladi. Bunga erishish uchun esa mashaqqatli mehnat, kuchli iroda sohibi bo‘lishlik talab qilinadi.

Insonning harakatlari murakkab bir butimlikni tashkil etadi. Harakat aktining bir butunligi bu akt tashkil topadigan harakatlarning o‘zaro bog‘liqligida va o‘zaro ta'sir etishida namoyon bo‘ladi; harakat detalliaridan birining o‘zgarishi natijasida fazoda, boshqa bir qator detallaming vaqt jihatidan o‘zgarishi ro‘y beradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida harakatlarning tuzilishi haqida gapiriladi. Harakatning tuzilishi - uning yagona bir butunlik sifatidagi barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro qonuniy bog‘lanishidir.

Dzyudo sport turida tezkorlik sifatini bir mashqdan ikkinchi mashqqa “ko‘chirish” qoidada kuzatilmagan. Uning ko‘chishi mashqlarni bir-biriga koordinatsiya nuqtayi nazaridan yaqin o‘xshashligi bo‘lsagina namoyon bo‘lgan, qolaversa individning mashqlanganligi (shug‘ullanganligi) qancha yuqori bo‘lsa, bu ko‘chish shunchalik past darajada bo‘ladi [N.G. Ozolin, 1949; V.M. Zatsiorskiy, 1961]. Shunga ko‘ra, tezkorlik sifati haqida gapirganda, bu sifatni, tarbiyalash

haqida gapirmay, inson harakatidagi aniq tezkorlik xususiyatlarini rivojlantirish haqida gapirish lozim.

Har taraflama umumiy jismoniy tayyorgarlik talablari inson kamolotining asosiy qonuniyatlaridan biriga - tizim va organlaming o‘zaro chambarchas aloqasiga tayanadi. Insonning kuchi, chidamliligi, tezligi, epchilligi qancha yuksak darajada kamol topsa, harakat ko‘nikmalarining zahirasi qancha boy bo‘lsa va kishining salomatligi qancha mustahkam bo‘lsa, uning maxsus tayyorgarligini, shu jumladan, sport tayyorgarligini amalga oshirish shu qadar yuksak bo‘ladi. Rang-barang jismoniy tayyorgarlikning mustahkam poydevoriga qurilgan sportning muayyan turiga ixtisoslashtirish har taraflama jismoniy tarbiya sifatini yaxshilashning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib qoladi.

Yoshga xoslik va ko‘p yillilik nuqtayi nazaridan jismoniy tarbiya jarayonini tuzishdagi ketma-ketlik: jismoniy tayyorgarlikning umumiy poydevoridan ancha chuqur va tor (maxsuslashgan) tayyorgarlik tendensiyasidan iborat. Mashg‘ulotlar (dars) miqyosida jismoniy tarbiya vazifalarining ketma-ket hal etilishi jismoniy mashq turlari bajarilganidan so‘ng qoladigan “iz” bilan aniqlanadi (masalan, tezlik mashqlarini mashg‘ulotning boshiga, chidamlilikka qaratilgan mashqlami uning oxiriga kiritish maqsadga muvofiq).

Turli jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan ko‘p miqdordagi o‘quvchilarning bir vaqtda shug‘ullanishi yuklamani mutanosiblashtirishni qiyinlashtiradi. Mashg‘ulotnio‘rtachajismoniytayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilarga mo‘ljallash kerak, jismonan kuchliroq o‘quvchilarga esa individual (qo‘shimcha) topshiriqlar berish lozim. Darsda jismoniy tarbiya yuklamasini mutanosiblashtirish uchun

quyidagi usullardan foydalaniladi:

- o‘yinlar va mashqlar miqdorini o‘zgartirish;
- mashqlami turlicha miqdorda takrorlash;
- mashq bajarishga ajratilgan vaqtni ko‘paytirish yoki ozaytirish;
- mashqning bajarish sur’atini o‘zgartirish;
- harakatlar amplitudasini ko‘paytirish yoki ozaytirish;
- mashq bajarishni murakkablashtirish yoki soddalashtirish;
- mashq bajarishda turli predmetlami qo‘llash.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya - sog‘lomlashtirish lagerlarida yoshlaming dam olishi keng tarqalgan. Hozirgi kunda bunday lagerlarning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ulaming hammasida ishlash mazmunining asosini jismoniy tarbiya va sport tashkil qiladi. Bu yerda ertalabki gimnastika, chiniqtirish bo‘yicha tadbirlar, o‘quv-mashg‘ulot darslari, harakatli va sport o‘yinlari, umumjismoniy tayyorgarlik, sog‘lomlashtirish guruhlaridagi, har xil sport turlari bo‘yicha seksiyalardagi mashg‘ulotlar, musobaqalar, sport bayramlari hamda ko‘p kunli yurishlarda ishtirok etish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, jismoniy madaniyat darslarida reaksiya qilish vaqtini oldindan shartlashilgan turli-tuman signallarga reaksiya qilishni talab qiluvchi (masalan, to‘xtalishlar bilan bajariladigan erkin yugurishlar yoki o‘qituvchi signali, buyrug‘i bilan yugurish yo‘nalishini o‘zgartirish) mashqlarni yordamida rivojlantiriladi. Sport o‘yinlari reaksiya qila olish va uni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositadir.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarning boshqa tipik formalari o‘zining davriyligi, tizimli emasligi, faqat bir marotabaliligi, individualligi bilan

darslardan tubdan farqlanadi. Ko‘pincha mashg‘ulotlarning yuqorida qayd qilingan shakllari darsni to‘ldiradi va uni xususiy va umumiy vazifalarini to‘ldirishda qo‘shimcha rol o‘ynaydi. Lekin ular aholini dzyudo bo‘yicha ma’lum darajadagi talablarni to‘la qondirib mustaqil ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. -Toshkent,2005. 194-b.
2.Arslonov Sh.A., Tangriyev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo). Darslik.-Toshkent “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2017 y. 188-b.
3.Голковский Н.М. Керимов Ф.А. Волная борба. Т, 1993.
4.Salamov R.S.Jismoniy tarbiya va uslubiyati.1,2 jild.T.ITA-press.2018-296b
5. Verxoshanskiy Yu.V. - Osnovы spesialnoy fizicheskoy podgotovki sportsmenov. M.: Fizkultura i sport, 2007. – 331-b.
Novikov A.A. Osnovы sportivnogo masterstva.M.:Sovetskiy sport,2012-256s.
6. Qodirov, Sirojiddin Erkinboevich. "Development of strength and operational strength skills of qualified judoists aged 15-17 years in sports improvement groups." Eurasian Journal of Sport Science 1.2 (2021): 131-135.
7. Tumanyan G.S. Sportivnaya borba.M.: Sovetskiy sport, 2000, 288-s

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI LOYIHAVIY TA’LIM ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

MUXIDOVA OLIMA NURILLOYEVNA
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida bo‘yicha bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion metodlari yoritilgan. Ayniqsa, “Ayollar ko‘ylagi asos chizmasini konstruksiyalash” mavzusi misolida loyiha asosida ta’lim (Project-Based Learning) yondashuvi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, raqamli savodxonlik, muloqot va jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari izchil bayon qilingan. Har bir bosqich: loyiha mavzusini aniqlash, rollarni taqsimlash, amaliy faoliyat, chizmalarni bajarish, taqdimot, baholash hamda refleksiya – ketma-ket tahlil qilinib, ularning ta’limiy samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: transversal kompetensiyalar, Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning) metodi, texnologiya fani, dizayn, konstruktsiyalash, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, CLO 3D, AutoCAD, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar.

Аннотация. В статье освещаются инновационные методы развития трансверсальных компетенций будущих учителей технологии в условиях современного образовательного процесса на основе цифровых технологий. Особое внимание уделено применению проектного подхода (Project-Based Learning) на примере темы «Конструирование женского платья». Последовательно изложены механизмы формирования у студентов критического мышления, творческого подхода, цифровой грамотности, навыков коммуникации и командной работы. Каждый этап — определение темы проекта, распределение ролей, практическая деятельность, выполнение чертежей, презентация, оценка и рефлексия — проанализирован с точки зрения его педагогической эффективности.

Ключевые слова: трансверсальные компетенции, метод проектного обучения (Project-Based Learning), учебный предмет технология, дизайн, конструирование, цифровая грамотность, критическое мышление, CLO 3D, AutoCAD, компетентностный подход, инновационные методы.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, texnologiya fani o‘qituvchilari nafaqat o‘z sohasiga oid chuqur mutaxassislik bilimlariga, balki umumiy, ko‘p sohalarda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan transversal kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi lozim.

Transversal kompetensiyalar – bu aniq kasb yoki fan doirasidan tashqarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, turli hayotiy va professional holatlarda samarali faoliyat yuritishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuasidir. Bunday kompetensiyalar tanqidiy va innovatsion fikrlash, raqamli savodxonlik, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish, ekologik ong va global fuqarolik mas’uliyatini o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda o‘qituvchining pedagogik mahorati nafaqat kasbiy bilimlar va metodik yondashuvlarga, balki aynan transversal kompetensiyalar darajasiga ham bevosita bog‘liq. Bu kompetensiyalar o‘qituvchining shaxsiy va professional o‘sishida, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Transversal kompetensiyalarni

shakllantirishda an’anaviy ta’lim metodlari yetarli samaradorlik bermaydi. Shu sababli, ta’lim jarayonida innovatsion, interaktiv va amaliy faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv mazmuni an’anaviy yondashuvlardan tubdan farq qilgan holda, amaliyotga yo‘naltirilgan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan bo‘lishi zarur.

Ta’lim samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining o‘quv resurslarini to‘g‘ri tanlashi, interaktiv strategiyalarni ishlab chiqishi va talabalarni individual yondashuv asosida yo‘naltira olishiga bog‘liq. Shu munosabat bilan quyidagi innovatsion metodlar keng qo‘llaniladi: loyiha asosida ta’lim (Project-Based Learning), gamifikatsiya, STEAM yondashuvi, mentorlik, hamda tajriba almashish. Bu metodlar talabalarda real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Quyida “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanidan “Ayollar ko‘ylagi asos chizmasini konstruksiyalash” mavzusini o‘qitishda Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning) metodidan foydalanishning samaradorlik jihatlari yoritiladi.

Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning) metodi talabalarni amaliy va ijodiy ishlarga jalb qilish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash va natijaga yo‘naltirilgan faoliyat olib borishga o‘rgatish uchun juda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar real hayotdagi muammolar asosida ishlaydigan loyihalar ustida ishlaydilar, masalan, ayollar ko‘ylagining ma’lum bir holatga mo‘ljallangan dizayni, zamonaviy modaga moslashtirilgan chizma yoki o‘z ehtiyojlariga moslashtirilgan model yaratish kabi topshiriqlarni bajaradilar.

Ushbu metodni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Loyiha mavzusini belgilash. Talabalarga loyihaning asosiy mavzusi va maqsadi beriladi. Masalan: “Ayollar ko’ylagi asos chizmasini konstruksiyalash”

2. Guruhlarga bo‘lish va rollarni taqsimlash bosqichi – dars jarayonini samarali tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Bu bosqichda talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va har bir a’zoga aniq mas’uliyatlar yuklatilgan rollar belgilanadi.

- Dizayner – ko‘ylak modelining umumiy g‘oyasini ishlab chiqadi, konseptual eskizni yaratadi va estetik jihatlarni hisobga olgan holda dizayn yondashuvini shakllantiradi.

- Konstruktor – texnik chizma uchun zarur bo‘lgan o‘lchamlarni aniqlaydi, konstruktsiyaning asosiy chizmasini bajaradi, andaza tayyorlaydi va texnologik xaritani ishlab chiqadi.

- Model’er – bozor tendensiyalari va mijoz ehtiyojlarini tahlil qiladi, tayyorlangan konstruktsiyani texnik jihatdan modellashtiradi hamda funksional talablarga moslashtiradi.

- Texnolog – tayyor andazalarga asoslanib materialni bichadi, mahsulotning maketini tayyorlaydi va texnologik jarayonlarni nazorat qiladi.

- Prezentator – guruh nomidan chiqish qiladi, loyihaning yakuniy natijalarini sinf oldida taqdim etadi, asosiy g‘oyani, ishlatilgan metodologiyani va yondashuvni tushuntiradi.

3. Loyiha rejasi va maqsadlarini ishlab chiqish – o‘quv faoliyatini tizimli tashkil etishning muhim bosqichidir. Har bir guruh o‘z loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich harakat rejasini ishlab chiqadi va belgilangan maqsadlarga erishish yo‘llarini aniqlaydi.

4. Amaliy faoliyatni tashkil etish – talabalarning nazariy bilimlarini real ish jarayonida qo‘llashga yo‘naltirilgan bosqich bo‘lib, bunda har bir guruh a’zolari o‘ziga biriktirilgan rol doirasida mustaqil va jamoaviy faoliyat olib boradilar.

- Dizaynerlar guruhining vazifasi – ko‘ylakning kreativ dizaynini ishlab chiqishdan iborat. Ular mahsulotning umumiy tashqi

ko‘rinishi, uslubi, rang uyg‘unligi va bezak elementlarini belgilaydilar. Shu bilan birga, dizaynda milliy naqshlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib, ularning joylashuvi, hajmi va estetik ta’sirini aniqlaydilar. Bu bosqich ijodiy tafakkur va madaniy merosga hurmat asosida olib boriladi.

- Konstruktorlar – ko‘ylak chizmasi ustida ishlaydi. Ular texnik chizmalarni yaratishda aniq proporsiyalar, geometrik moslik va o‘lchamlar o‘rtasidagi muvozanatga e’tibor qaratadilar. Detallarning joylashuvi, tikuv chiziqlari va texnologik ketma-ketlik konstruksiyaning ergonomik va funksional jihatdan mukammal bo‘lishini ta’minlaydi.

- Texnologlar – dizayn va konstruktsiyaga asoslanib, naqsh va boshqa bezak elementlarini ko‘ylakning qaysi qismlariga texnik jihatdan to‘g‘ri joylashtirish mumkinligini aniqlaydilar. Ular tikuv texnologiyalari, matoning xossalari, naqshlarni tikish yoki bosma usulda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganadilar hamda texnik shart-sharoitlar asosida optimal yechimlarni ishlab chiqadilar.

Mazkur amaliy bosqich talabalarda kasbiy yondashuv, ijodiy fikrlash, muammoni texnik tahlil qilish va jamoaviy muvofiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Loyihani amalga oshirish bosqichi – talabalarning nazariy reja asosida amaliy natijaga erishish jarayonidir. Bu bosqichda har bir guruh o‘z chizmalarini texnik va estetik talablar asosida mukammal shakllantiradi.

Ko‘ylakning asosiy qismlari – old va orqa bo‘laklari, yeng hamda yoqa – alohida-alohida chizilib, keyinchalik yagona konstruktsiyaga birlashtiriladi. Chizmalarni bajarishda proporsiyalar, simmetriya, ergonomika va estetik dizayn tamoyillariga qat’iy amal qilinadi.

Jarayon davomida o‘qituvchi kuzatuvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi: guruhlarning faoliyatini baholab boradi, aniqlangan xatolarni bartaraf etishga yordam beradi hamda zarur maslahat va ko‘rsatmalarni taqdim etadi.

Chizmalarni tayyorlash uchun zamonaviy raqamli dizayn vositalari – masalan, AutoCAD yoki CLO 3D kabi dasturlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, chizmalarni an’anaviy tarzda – qo‘lda bajarish ham mumkin, bu esa talabalarning individual yondashuvi va kasbiy mahoratiga mos ravishda tanlanadi.

Ushbu bosqich talabalarning texnik savodxonligi, dizayn tafakkuri va amaliyot bilan nazariyani uyg‘unlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

6. Taqdimot va baholash bosqichi – loyihaning yakuniy natijalarini ommaviy taqdim etish va baholash jarayonidir. Bu bosqichda har bir guruh o‘z ishlab chiqqan loyihasini sinf oldida himoya qiladi va erishilgan natijalar haqida batafsil ma’lumot beradi.

Taqdimot davomida talabalar foydalanilgan metodlar, texnik yechimlar, dizayn konsepsiyasi va loyihaning estetik jihatlari haqida izoh beradi. Ular chizmalar, texnologik xaritalar, materiallar tanlovi va dizayn asoslarini asoslab, o‘z ishlanmasining afzalliklarini namoyon etadilar.

Boshqa guruhlar taqdimotdan so‘ng savollar berish, fikr bildirish va tahliliy mulohazalar orqali bahs-munozarada ishtirok etadilar. Bu esa tanqidiy fikrlash va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyihalarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- Texnik aniqlik – chizmalar va texnologik hujjatlarning belgilangan texnik talablarga muvofiqligi;
- Ijodiy yondashuv – dizayn g‘oyalarining yangiligi, estetik qiymati va innovatsion yechimlar mavjudligi;
- Jamoaviy ish – guruh a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik, vazifalarning to‘g‘ri taqsimoti va birgalikdagi natija;
- Muloqot ko‘nikmalari – loyiha taqdimotini ifodali, mantiqiy va ishonarli tarzda bayon qila olish qobiliyati;
- Raqamli savodxonlik – loyihada raqamli vositalardan (AutoCAD, CLO 3D va boshqalar) foydalanganlik darajasi.

Ushbu baholash mezonlari nafaqat yakuniy natijani, balki butun loyihaviy faoliyat jarayonini har tomonlama baholash imkonini beradi.

7. Refleksiya va muhokama bosqichi – bu loyiha yakunida talabalar tomonidan o‘z faoliyati, tajribasi va erishilgan natijalar yuzasidan tahliliy mulohazalar yuritiladigan muhim pedagogik jarayondir. Ushbu bosqichda har bir guruh loyiha davomida egallagan bilim va ko‘nikmalar, duch kelgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr bildiradi.

Talabalar loyihaning qaysi bosqichlari ular uchun murakkab kechgani, ayniqsa texnik chizmalarni tuzishda o‘lchamlarning aniqligini ta'minlash, andazalar tayyorlash yoki dizayn g‘oyasini aniq shaklga keltirishda duch kelgan muammolarni atroflicha tahlil qiladilar. Ular ushbu qiyinchiliklarni qanday strategiyalar yoki usullar orqali bartaraf etganliklarini izohlaydilar.

Shuningdek, guruh a’zolari o‘z ish faoliyatining kuchli va zaif jihatlarini aniqlaydi. Muhokama davomida har bir ishtirokchi loyihadagi shaxsiy hissasini baholaydi, guruh ichidagi hamkorlik darajasini tahlil qiladi va kelgusidagi loyihalarda qanday takomillashish kerakligi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Bu reflektiv jarayon nafaqat o‘z-o‘zini baholash va tajriba almashishga imkon yaratadi, balki talabalar tomonidan transversal kompetensiyalar — tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy yondashuv va jamoaviy muloqot ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, refleksiya bosqichi o‘quv jarayonining yakunlovchi, ammo pedagogik ahamiyati jihatidan nihoyatda muhim bosqichi hisoblanadi. U talabalarni o‘z ta’limiy faoliyatini chuqur anglashga, xatolardan saboq olishga va kelgusida yanada samaraliroq faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, an’anaviy metodlardan farqli ravishda, bu yondashuv o‘quvchini markazga qo‘ygan, faol va kompetensiyaviy ta’lim muhiti yaratadi. Shuningdek, bu model bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarga zamonaviy ta’lim talablari asosida yuqori sifatli darslarni tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Merdzhanova, Y. (2014). Basic methodological approaches to transversal competences. Sofia: University Publishing House “St. Kliment Ohridski”, (In Bulgarian).
2. Mezirow J. Transformative learning theory. Contemporary theories of learning 2018/3/27, pp.114-128
3. Moos D. C. and A. Ringdal, “Self-Regulated Learning in the Classroom: A Literature Review on the Teacher’s Role,” Education Research International Volume, Article ID 423284, 15 pages, 2012.
4. Muxidova O. N. (2024). Bo’lajak texnologiya o'qituvchilarining transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o’rni. “Xalq ta’limi” jurnali. 4/1 son, 2024, 15-17.
5. Мухидова О.Н. (2024). Условия развития трансверсальных компетенций у будущих учителей технологии. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences International scientific-online conference. Great Britian. 22.06.2024. стр.80-84.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

G.S.IBROXIMOVA
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida raqamli savodxonlikning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Raqamli savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari - raqamli kontentdan foydalanish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va raqamli xavfsizlikni ta’minlash masalalari yoritiladi. Pedagogning innovatsion texnologiyalarni tatbiq etuvchi va o‘quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantiruvchi shaxs sifatidagi roli alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli savodxonlik, pedagogik faoliyat, boshlang‘ich ta’lim, raqamli kompetensiyalar, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматривается значение цифровой грамотности в педагогической деятельности учителей начального образования в условиях цифровой трансформации образовательной системы Узбекистана. Освещаются ключевые компоненты цифровой грамотности - использование цифрового контента, формирование цифровых компетенций и обеспечение цифровой безопасности. Особое внимание уделяется роли педагога как проводника инновационных технологий и воспитателя цифровой культуры у обучающихся.

Ключевые слова: цифровая грамотность, педагогическая деятельность, начальное образование, цифровые компетенции, информационная безопасность, цифровая культура, образовательные технологии.

Abstract. The article discusses the importance of digital literacy in the pedagogical activities of primary education teachers in the context of digital transformation of the educational system of Uzbekistan. Key components of digital literacy are highlighted - the use of digital content, the formation of digital competencies and ensuring digital security. Particular attention is paid to the role of the teacher as a conductor of innovative technologies and educator of digital culture among students.

Keywords: digital literacy, pedagogical activity, primary education, digital competencies, information security, digital culture, educational technologies.

Kirish. Bugungi ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan raqamli transformatsiyalanib borayotgan davrda, pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli va metodlariga yangicha yondashuvlar zarur bo‘lib, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilardan raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalari, raqamli xavfsizlik va media madaniyatga oid bilimlar majmuasiga ega bo‘lish talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining interaktiv, multimodal va individual yondashuvga asoslangan shakllarini joriy etish orqali o‘quvchilarning raqobatbardosh va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida raqamli savodxonlikning o‘rni va ahamiyati, uning kasbiy metakompetensiya sifatidagi xususiyatlari hamda zamonaviy ta’lim muhitidagi zaruriyati tahlil etiladi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichiga o‘tishi bilan birga, pedagog kadrlarga qo‘yilayotgan talablar

sezilarli darajada yangilandi. Zamonaviy o‘qituvchi umumiy madaniy va kasbiy bilimlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bo‘yicha puxta tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Raqamli vositalarning barcha sohalar, jumladan, ta’limga kirib kelishi o‘quv jarayonining mazmuni, shakli va metodikasida sifat jihatidan yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Ta’limjarayonidainteraktivplatformalar, elektron darsliklar, onlayn test tizimlari, raqamli laboratoriyalar kabi innovatsion vositalarning qo‘llanishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Pedagog tomonidan raqamli resurslardan maqsadli foydalanish orqali individual yondashuvga asoslangan ta’lim tashkil etiladi, o‘quvchilarning faolligi ortadi, natijadorlik yuqori darajaga chiqadi.

Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarning mavjudligi o‘quvchilar bilan samarali muloqotni ta’minlash, ta’limiy ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish va taqdim etish imkonini beradi. O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri sifatida o‘quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish, axborot xavfsizligi, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli etikaga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati vujudga keladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog har tomonlama raqamli savodxonlikka ega bo‘lishi, o‘z kasbiy mahoratini zamon talablari asosida takomillashtirib borishi, innovatsion texnologiyalarni ta’limga integratsiyalash orqali o‘quvchilarning raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratishi lozim. Shu tariqa, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ta’lim islohotlarining faol ishtirokchisi va raqamli taraqqiyot yetakchisiga aylanishi kerak.

Bugungi kunda umumta’lim maktabiga ko‘p funksiyali ijtimoiy-madaniy institut sifatida qaraladi. U nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy, madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-pedagogik funksiyalarni ham birlashtiradi. Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyalanishi va maktab oldidagi ijtimoiy talablarning o‘zgarishi sharoitida maktab bilim berish makoni bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarda asosiy kompetensiyalarni, qadriyatga yo‘naltirilgan qarashlarni hamda raqamli madaniyatni shakllantirish maydoniga aylanadi. Umumta’lim muassasalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida o‘quvchilarning erta kasbga yo‘naltirilishi, iqtidorli va ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj toifadagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda pedagogik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash masalalari ilgari suriladi. Hozirgi davrda o‘qituvchining axborot savodxonligi darajasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi va u uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan bo‘lishi hamda ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiyalashga qodirligi ta’lim sifatini ta’minlashning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi. Pedagog faqat texnik vositalardan foydalanishni bilibgina qolmay, balki ularni o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlari, darsning didaktik maqsadlari va ta’lim standartlari talablariga mos ravishda ongli va metodologik yondashuv asosida qo‘llay olishi lozim. Raqamli pedagogik madaniyatning rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy vositalar doirasini kengaytiradi, moslashuvchanlik va innovatsion o‘zgarishlarga tayyorlikni shakllantiradi. Shunday qilib, axborot savodxonligi yuqori, texnologik jihatdan malakali pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki raqamli jamiyat sharoitida yashash va faoliyat yuritishga tayyor o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi faol ta’lim sub’yektiga aylanadi.

Zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalarida raqamlashtirish jarayoni keskin sur’atlar bilan rivojlanib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ta’lim muhitining asosiy mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Raqamli texnologiyalarning keng ko‘lamda

joriy etilishi, masofaviy hamda onlayn ta’lim shakllarining rivojlanishi, virtual muloqot formatlarining kengayishi, shuningdek, ta’lim va ma’rifat amaliyotida geymifikatsiya (o‘yinga asoslangan yondashuv) usullarining faol tatbiq etilishi yangi axborot-kommunikatsiya asosidagi ijtimoiy haqiqatning shakllanishini ta’minladi.

Raqamli jamiyat sharoitida faqat ta’lim infratuzilmasining texnik yangilanishi emas, balki pedagogik faoliyatning maqsadi, mazmuni va metodlariga doir yondashuvlar ham qayta ko‘rib chiqilishga ehtiyoj sezdi. Yangi avlod raqamli platformalari va interaktiv vizualizatsiya vositalari orqali o‘quvchilarning individual o‘quv yo‘llarini shakllantirish, ta’limiy kontentni interaktiv va multimodal shaklda taqdim etish imkoniyati yaratildi. Bu esa o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiya, kognitiv faollik va muvaffaqiyatlilik darajasining oshishiga xizmat qildi.


Raqamlashtirish zamonaviy ta’lim modelini shakllantiruvchi tizimli omil sifatida e’tirof etildi. Ushbu model moslashuvchanlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, ochiqlik va texnologik integratsiya tamoyillariga tayangan holda postindustrial ta’lim tizimiga o‘tish uchun zamin yaratdi. Bunday sharoitda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, moslashuvchanlikni ta’minlash hamda tez o‘zgaruvchan raqamli muhitda uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik darajasini oshirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etdi.

“Raqamli savodxonlik” tushunchasi birinchi marta 1997-yilda amerikalik tadqiqotchi, yozuvchi va jurnalist Pol Gilster tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, uning kontseptual yondashuvlari raqamli jamiyatning jadal rivojlanishi sharoitida keyingi pedagogik va axborot tadqiqotlariga asos solgan. U o‘zining tadqiqotlarida raqamli savodxonlikni kompyuter qurilmalaridan foydalanishdagi texnik mahorat sifatidagina emas, balki turli raqamli formatlarda va keng manbalardan olingan ma’lumotlarni mazmunli idrok etish, tanqidiy tahlil qilish va undan samarali foydalanishning keng qamrovli qobiliyati sifatida belgilab berdi. Olimning so‘zlariga ko‘ra, raqamli savodxonlik nafaqat operativ ko‘nikmalarni, balki axborot bilan ishlashning kognitiv mexanizmlarini, shuningdek, gipermatn va multimedia muhitida harakatlanish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Gilster foydalanuvchining raqamli makonda, ayniqsa Internet muhitida doimiy bo‘lishi an’anaviy fikrlash, xatti-harakatlar va kommunikativ o‘zaro ta’sir modellarini o‘zgartirishga olib kelishini alohida ta’kidladi. Axborotni izlash, filtrlash va izohlashning yangi usullari, shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyatning maxsus shakllari vujudga kelmoqda. Natijada, yuqori darajadagi axborot va aloqa faolligi, ko‘p ma’noli aloqalar va polisemantik tarkibni idrok etishga tayyorlik bilan ajralib turadigan tarmoq tafakkuri rivojlanadi. Zamonaviy tarmoq tafakkuri insondan nafaqat texnologik malakani, balki ishlab chiqilgan metakognitiv strategiyalarni, tanqidiy fikrlashni, raqamli muhitda axloqiy xulq-atvorni va axborot oqimlarining manipulyatsiya ta’sirini ajrata olish qobiliyatini ham talab qiladi. Shunday qilib, Pol Gilster talqin qilgan raqamli savodxonlik axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, raqamli etika va global raqamlashtirish kontekstida barqaror moslashish qobiliyati chorrahasida shakllanadigan integral meta-kompetentlik vazifasini bajaradi.

Raqamli savodxonlik bu o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan murakkab kategoriya bo‘lib, uning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: raqamli kontentdan foydalanish, raqamli kompetensiyalar, shuningdek, raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. (1-rasm)

Birinchi komponent raqamli kontentdan foydalanish bu internet-resurslar va raqamli platformalardan kundalik hayotda foydalanishni anglatadi. Bunga bulutli texnologiyalar, raqamli OAV, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot,



1-rasm. Raqamli savodxonlikning tarkibiy tuzilmasi

muloqot va ta'lim imkoniyatlarini ta'minlovchi vositalar kiradi. Raqamli kontentdan foydalanish darajasi shaxsning raqamli jamiyatga qo'shilganlik darajasini va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorligini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi komponent - raqamli kompetensiyalar - bu raqamli texnologiyalar bilan samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan kognitiv, instrumental va operatsion ko'nikmalar majmuasini ifodalaydi. Bunga internetda ma'lumot izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash ko'nikmalari, media kontent yaratish, raqamli qurilmalar bilan ishlash, onlayn to'lovlar va raqamli muloqotdagi faol ishtirok kiradi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan bu ko'nikmalar o'quvchi hamda pedagogning raqamli subyektligini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Uchinchi komponent - raqamli xavfsizlik - raqamli muhitda shaxsiy va professional xavfsizlikni ta'minlashga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi. Bu yerda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli etikani shakllantirish, huquqiy savodxonlik, internetda odob-axloq madaniyati, ma'lumotlarni saqlash va zaxira nusxalarini yaratish bo'yicha ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi. Raqamli makonda xavfsiz harakatlana olish qobiliyati axborot jamiyatida shaxsning barqaror faoliyati uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Ta'lim muhitining transformatsiyasi sharoitida raqamli savodxonlik pedagogning ustuvor kasbiy metakompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. U shaxsning raqamlashtirilgan jamiyat va ta'lim tizimi sharoitida samarali faoliyat yuritish qobiliyatini ta'minlovchi kognitiv, operatsion hamda qadriy-motivatsion komponentlarning integrativ majmuasi sifatida talqin qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim amaliyotiga jadal kirib kelishi fonida raqamli savodxonlik endilikda ixtiyoriy ko'nikma emas, balki o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining strukturaviy asosiy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda.

E.V. Yakovleva raqamli savodxonlikni pedagogning raqamli kompetentligining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko'radi va uni nafaqat texnik ko'nikmalar, balki bilim, motivatsiya va refleksiya qilish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab tushuncha sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, raqamli savodxonlik - bu ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan tanqidiy va xavfsiz foydalanish, shuningdek, pedagogning o'z raqamli amaliyotini tahlil qilish va uzluksiz rivojlantirishga tayyorligi bilan namoyon bo'ladi. Shunday ekan, u zamonaviy raqamli ta'lim muhitida samarali

faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan muhim metakompetensiya hisoblanadi.

Raqamli vositalar va platformalarni puxta egallash, ta’limiy kontentni raqamli muhit talablariga moslashtirish, interaktiv va multimodal ta’lim jarayonini tashkil etish - bularning barchasi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish va metafan natijalarga erishishning zaruriy shartlari hisoblanadi. Shunday qilib, pedagogning raqamli savodxonligi nafaqat texnologik moslashuvchanlik va metodik jihatdan o‘zgaruvchanlikni ta’minlaydi, balki XXI asr ta’lim paradigmasi doirasida innovatsion va ilmiy-izlanish faoliyatiga tayyorlik darajasining indikatoriga aylanishi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa. Tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli savodxonlik boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining zamonaviy pedagogik faoliyatida asosiy kasbiy metakompetensiya sifatida namoyon bo‘lib, u nafaqat texnik vositalarni egallash, balki tanqidiy tafakkur, axborot xavfsizligi, raqamli etika va raqamli madaniyatni shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etadi. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagog o‘z faoliyatini reflektiv, motivatsion va innovatsion yondashuv asosida tashkil etishi orqali nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki raqamli jamiyatga moslashgan, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-sonli qarori. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-sonli Qonuni.
4. Адыева Л.Ф., Беленкова И.В. Цифровая грамотность педагога и ее компоненты // Филиал РГППУ в г. Нижнем Тагиле. – Н. Тагил: РГППУ, 2020. – 6 с.
5. Gutiérrez-Porlán J.M., Román-Graván J.M., Sánchez-Vera J.A. Assessing teachers' digital competence in primary and secondary education: Some insights from the literature // Education and Information Technologies. – 2021. – Vol. 26. – P. 747–776. – DOI: 10.1007/s10639-020-10283-1.
6. Robles Moral, F. J., & Fernández Díaz, M. Future primary school teachers’ digital competence in teaching science through the use of social media // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, no. 5. – P. 2816. – DOI: 10.3390/su13052816.
7. Спиридонова Ю.С. Понятие и структура цифровой компетентности будущих педагогов // Педагогика. – 2023. – №79, ч. 2. – С. 369–372.
8. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2018. – 80 p.
9. Xalikova U. M. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni raqamli texnologiyalar orqali shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences: xalqaro ilmiy onlayn konferensiya materiallari. – 2023. – B. 9–15. – DOI: 10.5281/zenodo.8220234.
10. Яковлева Е. В. Цифровая компетентность будущего педагога: компонентный состав // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2021. – № 04 (апрель). – С. 46–57. – URL: http://e-koncept.ru/2021/211021.htm (дата обращения: 06.05.2025).

BOSHLANG‘ICH DZYUDO MASHG‘ULOTLARI ORQALI 6-7 YOSHLI O‘QUVCHILARNI AXLOQIY VA IRODALILIK JIHATLARINI TARBIYALASH METODI

RUSTAMOV ELNOR BAXTIYOROVICH
Zarmed universiteti Ijtimoiy - iqtisodiyot va muhandislik fakulteti Ijtimoiy fanlarkafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dzyudo sport turi haqida keng fikrlar bayon etilgan bo‘lib, bu mashqlar orqali sportchilarda qanday jismoniy va ma’naviy sifatlarni rivojlantirish kerakligi aytib o‘tilgan.Bundan tashqari sportchilarning mashqlarni bajarish jarayonidagi axloqiy sifatlari qanday bo‘lishi haqida fiklar ham muhokama qilingan. Inson jismoniy va ma’naviy kamolotining yagonaligi tufayli jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy va estetik tarbiya vazifalarini hal etish uchun juda katta imkoniyatlarga egaligi va bu vazifalami hal etish shaxsni har taraflama kamol toptirish omili sifatida jismoniy tarbiyaning rolini kengaytiribgina qolmay, balki bevosita jismoniy tarbiyaning o‘z muvaffaqiyatini ta'minlashi haqida bir qancha fikr- mulohazalar ifodalangan.

Kalit so‘zlar: dzyudo, halollik, sabr, texnik mashg‘ulotlar, yengil yurish, sakrash.

Annotation. This article provides a broad overview of the sport of judo, and tells how physical and spiritual qualities should be developed in athletes through these exercises.Opinions have also been discussed about what the moral qualities of athletes in the process of performing exercises will be. Due to the uniqueness of physical and spiritual maturation, a person has a huge potential for solving the tasks of mental, moral and aesthetic education in the process of physical education, and the solution of this task is expressed not only in expanding the role of physical education as a factor for the development of an individual in all respects, but also a number of aspects

Keywords: judo, honesty, patience, technical training, light walking, jumping

Аннотация. В этой статье излагается широкий спектр мнений о виде спорта дзюдо, а также рассказывается, какие физические и духовные качества необходимо развивать спортсменам с помощью этих упражнений.Кроме того, обсуждались мнения о том, какими должны быть моральные качества спортсменов в процессе выполнения упражнений. Высказано несколько мнений о том, что благодаря единству физического и духовного созревания человек обладает огромными возможностями для решения задач психического, нравственного и эстетического воспитания в процессе физического воспитания, и что решение этой задачи не только расширяет роль физического воспитания как фактора всестороннего совершенствования личности, но и непосредственно обеспечивает собственный успех физического воспитания.

Ключевые слова: дзюдо, честность, терпение, техническая подготовка, легкая ходьба, прыжки

texnologiyalarni amaliy qo‘llashda yuqori natijalarga erishganlar. Shu bilan birga, an’anaviy usulda o‘qitilgan talabalar bilan solishtirganda, eksperimental guruhlar amaliyotga tayyorlik va loyihani boshqarish bo‘yicha ko‘proq kompetensiyalarni egallagani aniqlangan.

Ushbu tajriba kursi grafik ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini isbotlab, o‘quv jarayonini innovatsiyalash va zamonaviylashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Natijalar asosida kelajakda BIM texnologiyalariga asoslangan kurslarni kengaytirish va boshqa yo‘nalishlarda ham integratsiyalash imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda.

Tahlil va natijalar:

Tajribaviy darslar natijasi quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

Ko‘rsatkich	**Eksperimental guruh (%)**	**Nazorat guruhi (%)**
Chizma aniqligi va sifat	88%	65%
Loyihalash tezligi	91%	70%
Amaliy topshiriqlarni bajarish darajasi	86%	60%
Kompyuter grafikasi bilan ishlash ko‘nikmasi	93%	62%
Mustaqil ishlash faolligi	89%	66%

Yuqoridagi natijalar grafik fanlar o‘qitilishida BIM texnologiyalarini joriy etish o‘quv sifatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, loyihani vizuallashtirish, qurilish materiallari va hajmlarini aniqlash, shuningdek, texnik hujjatlarni tayyorlash ko‘nikmalari shakllandi.

5. Xulosa va takliflar

Grafik ta’limda BIM texnologiyalarini integratsiyalash nafaqat pedagogik jarayonni zamonaviy va innovatsion asosda tashkil qilish imkonini beradi, balki talabalarni mehnat bozorining hozirgi va kelajakdagi real ehtiyojlariga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi yordamida olib borilgan ta’lim jarayoni talabalarda loyiha va qurilish faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni yanada samarali shakllantirishga yordam beradi. Tajribalar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, BIM texnologiyalarining grafik ta’limga integratsiyasi quyidagi muhim ijobiy natijalarni beradi:

Loyihalash kompetensiyalarining rivojlanishi: BIM texnologiyalari talabalarga an’anaviy ikki o‘lchamli chizmalar o‘rniga 3D modellashtirish, vaqt (4D) va xarajatlarni (5D) boshqarish imkonini beruvchi keng qamrovli loyihalashtirish ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Bu o‘z navbatida, talabalar murakkab arxitektura va muhandislik tizimlarini yanada to‘liq va aniq anglab, real loyihalar ustida ishlashga tayyorlanadi.

O‘quv motivatsiyasining oshishi: Zamonaviy, interaktiv va amaliy dasturlar asosida o‘quv jarayoni tashkil etilganda talabalar faol ishtirok etadi, o‘zlashtirish jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi. BIM dasturlari talabalarni loyiha yaratishda o‘z g‘oyalari va ijodkorligini amalga oshirishga undaydi, bu esa o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Aniq fanlar va texnik fanlar o‘rtasida integratsiyaning ta’minlanishi: BIM texnologiyalari grafik ta’lim jarayonida arxitektura, konstruktsiya, mexanika, materialshunoslik va boshqa texnik fanlarni o‘zaro bog‘lash imkonini yaratadi. Bu esa talabalarda tizimli va kompleks yondashuvni rivojlantirishga, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Muhandislik fikrlashni chuqurlashtirish: BIM asosida ishlash talabalarni muammolarni tizimli ravishda hal qilish, konstruktiv yechimlarni topish, turli muhandislik tizimlarini birlashtirish va optimallashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiradi. Bu o‘quv jarayoni talabalarni haqiqiy muhandislik fikrlash darajasiga olib chiqadi, ular mustaqil ravishda murakkab loyihalar ustida ishlashga tayyorlanadi.

Shunday qilib, BIM texnologiyalarini grafik ta’limga joriy etish nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarni zamonaviy qurilish sohasining talablariga mos ravishda tayyorlaydi. Bu esa o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarining ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga, talabalar uchun kasbiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Grafik fanlar dasturiga BIM asosidagi modullarni kiritish.

2. Revit, ArchiCAD, Navisworks kabi dasturlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish.

3. BIM texnologiyalari asosida loyiha ishlarini tashkil etish orqali yakuniy baholash tizimini takomillashtirish.

4. O‘qituvchilar uchun BIM dasturlarida ishlash bo‘yicha malaka oshirish kurslarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mardov, S. X. (2021, November). Modern Electronic Methods of Controlling Students' Knowledge in the Field of Construction Drawing. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 18-26).
2. Xudoykulovich, M. S., & Saidaxatovna, R. F. (2021). Xasanboy o’g’li NA Evristic teaching technology and its practical application which in theaching of draftsmanship. Middle European Scientific Bulletin, 12, 458-462.
3. Khudoykulovich, M. S. kizi, FZX.(2021). Content of the Science of Architecture Construction and Its Current Status of Teaching. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(7), 106-114.
4. Xudoykulovich, M. S., & Qizi, F. Z. H. (2021). Methods of using graphic programs in the field of construction drawing. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1297-1306.
5. Xudoykulovich, M. S. (2021, October). The status of teaching the subject" construction drawing" in higher education institutions. In Archive of Conferences (pp. 105-108).
6. Mardov, S. K., Khasanova, M. N., & Absalomov, E. (2022). Pedagogical and psychological basis of teaching architecture drawing in types of education. In Euro-Asia Conferences (pp. 32-35).
7. Xudoykulovich, M. S. (2021). THE STATUS OF TEACHING THE SUBJECT. In CONSTRUCTION DRAWING" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." Archive of Conferences.
8. Mardov, S. K., & kizi Farxatova, Z. X. (2022, February). The practical significance of design and its types. In Euro-Asia Conferences (pp. 54-57).
9. Мардов, С. (2022). Qurilish chizmachiligi fanini o ‘qitishda grafik dasturlardan foydalanishda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishning bugungi holati va muammolari. Общество и инновации, 3(1), 155-163.
10. Mardov, S. X. (2021). The practical importance of graphic programs and their descriptions in the development of student space imagination in teaching the subject of construction drawing. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(104), 680-684.
11. Mardov, S. K., & kizi Farxatova, Z. X. (2022, March). Design and art. In Euro-Asia Conferences (pp. 58-61).
12. Mardov, S. K. (2022). kizi Farxatova, Zilolaxon Xikmat. Methodology of Development on the basis of Graphic Programs in Increasing Student Space Imagination and Graphic Literacy in Teaching Construction Drawing. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 312-319.

MAJMUAVIY YONDASHUV TA’LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

ALIEV ISLAMBEK TURSINBAEVICH,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti (DSc) mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada majmuaviy yondashuvning ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning nazariy va metodik asoslari, ta’lim jarayonidagi ahamiyati, amaliyotdagi qo‘llanish holatlari hamda ushbu yondashuvni joriy etish borasidagi yutuq va muammolar, ta’lim tizimida joriy etish imkoniyatlari hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yondashuv, ta’lim, natija, jarayon, omil, nazariya, amaliyot, muammo, tavsiya, talqin, ahamiyat, ijod, intellekt, sifat, rivojlanish.

Annotation. The article analyzes the role of the integrated approach in the educational process, its theoretical and methodological foundations, its importance in the educational process, cases of application in practice and achievements and problems in the implementation of this approach, recommendations aimed at improving the possibilities and effectiveness of its implementation in the educational system.

Key words: approach, education, outcome, process, Factor, Theory, Practice, problem, recommendation, interpretation, significance, creativity, intelligence, quality, development.

Kirish. Jahon tajribasi ta’lim tizimini rivojlantirishda integratsiyalashgan va majmuaviy yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Ta’lim jarayonini takomillashtirishda, ayniqsa, multidissiplinar yondashuv, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali erishish mumkin. Majmuaviy yondashuv ta’lim mazmunini to‘liqroq qamrab oladi, talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va fanlararo bog‘liqlikni ta’minlaydi. Ta’lim tizimining rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’limda fanlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotish, integratsiyalashgan yondashuvlarni qo‘llash va ta’lim jarayonini majmuaviy ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida nafaqat bilim sifatiga, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yondashuv ta’limni hayot bilan uyg‘unlashtirib, inson kapitali sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu boisdan, ta’limda majmuaviy yondashuvni tizimli ravishda joriy etish – dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Asosiy qism. Majmuaviy yondashuv – bu o‘quv jarayonida fanlar, metodlar, yondashuvlar va texnologiyalarni bir-biri bilan bog‘liq holda qo‘llashga asoslangan ta’lim konsepsiyasidir. Ushbu yondashuv ta’limning axborot, psixologik, metodik va texnolog‘ik jihatlarini birlashtiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro faoliyati faqat ma’lumot yetkazish bilan chegaralanmay, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Majmuaviy – bu so‘z arabcha “majmu’” (jamlangan, to‘plangan) so‘zidan olingan bo‘lib, “umumiylashgan”, “bir butunga keltirilgan”,

“kompleks” degan ma’nolarni anglatadi. Yondashuv – biror narsaga, muammoga, masalaga nisbatan yondashish usuli, qarash, uslub bo‘lib, “majmuaviy yondashuv” – bu bir masalaga bir nechta tarafdan, to‘liq, keng qamrovli, o‘zaro bog‘liq va uyg‘unlashgan usulda yondashish degan ma’noni bildiradi [9].

Majmuaviy yondashuv — ta’lim, fan yoki boshqa sohada biror muammoni hal etishda bir nechta fan, usul, texnologiya va nazariyalarni bir vaqtda, o‘zaro bog‘liq holda qo‘llashga asoslangan yondashuv turidir [16].

Majmuaviy yondashuv orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin [11]:

- fanlararo bog‘liqlik: biologiya, kimyo va ekologiya kabi fanlarni birgalikda o‘qitish orqali mukammal bilim shakllanadi.
- ijodiy fikrlash: turli fanlarni integratsiya qilish natijasida talabalar yangi g‘oyalar yaratishga moyil bo‘ladi.
- hayotga yaqinlashtirish: nazariy bilimlarni hayotiy misollar bilan uyg‘unlashtirish orqali bilim mustahkamlanadi.
- muammolarni hal qilish ko‘nikmalari: Kompleks yondashuv talabalarda masalani har tomonlama ko‘ra bilish qobiliyatini shakllantiradi.

Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonida fanlar, metodlar, texnologiyalar va pedagogik usullarni birlashtirishga asoslangan. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- talabaga yo‘naltirilgan ta’lim: talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish.
- innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik usullarni qo‘llash.
- ta’lim jarayonini monitoring qilish va baholash: ta’lim jarayonining samaradorligini baholash va tahlil qilish.

Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonida quyidagi yo‘nalishlarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [12]: ijodiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish: talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi; pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish: ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish; talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish: talabalarning mustaqil ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish; ta’lim mazmunini hayotga yaqinlashtirish: ta’lim mazmunini hayotdagi voqealar va muammolar bilan bog‘lash.

O‘zbekistonda majmuaviy yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining mazmun mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta’minlashga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Innovatsion pedagogika: Innovatsion pedagogika asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasasi xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimi: Ta’lim muassasasi xodimlarining malakasini oshirish va ularning professional salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyatning tezkor rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti va mehnat bozorida yuzaga kelayotgan yangi talablar asosida tubdan yangilanmoqda [1]. Bunday sharoitda an’anaviy pedagogik yondashuvlar o‘rnini innovatsion, fanlararo va integratsiyalashgan yondashuvlar egallamoqda. Xususan, majmuaviy yondashuv — ta’lim jarayonida turli fanlar, metodlar va ta’lim texnologiyalarini bir-biri bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash orqali talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqurroq shakllantirishni maqsad qiladi.

Natijalar va muhokamalar. Majmuaviy yondashuv nafaqat bilimlar tizimini mustahkamlash, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv

ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida — maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha — keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, o‘quv dasturlari, dars jarayoni va baholash tizimida integratsiyani talab etadi.

Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, bilim iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda [15]. Hozirgi kunda jamiyat uchun yetarli bilimga ega, mustaqil fikrlay oladigan, fanlararo bog‘liqlikda muammolarni hal etadigan, ijodiy yondashuvga ega mutaxassislar kerak. Bu esa ta’lim jarayonida majmuaviy yondashuvni joriy etishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Majmuaviy yondashuv — bu ta’limda bir necha fan va yo‘nalishlarni birlashtirgan holda, o‘zaro bog‘liq ravishda o‘qitish va talabalarning bilim olish jarayonini hayotga yaqinlashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Unda o‘quv faoliyati faqat bitta fan bilan cheklanmaydi, aksincha, bir nechta fan va bilim sohalarining birgalikdagi integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv ta’lim mazmunining chuqurroq o‘zlashtirilishiga, talabalarda murakkab muammolarni yechish, tanqidiy va tizimli fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi [14].

Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonida to‘laqonli bilim berishdan tashqari, talabani har tomonlama rivojlantirish, uning shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarishga ham xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali ta’lim beruvchi nafaqat o‘quv dasturlarini fanlararo uyg‘unlashtirishga, balki o‘qitishning barcha bosqichlarini — rejalashtirish, amalga oshirish va baholashni ham integratsiyalangan shaklda tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’limni modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, fanlararo bog‘liqlikka asoslangan integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini joriy etish orqali majmuaviy yondashuvga keng yo‘l ochilmoqda. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik, faol pedagogik usullardan foydalanish, axborot texnologiyalarini darslarda samarali qo‘llash bu jarayonni yanada jonlantirmoqda.

Majmuaviy yondashuv — bu ta’limni kompleks va tizimli asosda tashkil etishga qaratilgan yondashuv bo‘lib, u turli fan va bilim sohalari o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlashni ko‘zlaydi. Bu yondashuvda ta’lim jarayoni fanlararo munosabatlar asosida shakllantiriladi, ya’ni ma’lumotlar birgalikda tahlil qilinadi, o‘zaro bog‘liq holda tushuntiriladi va qo‘llaniladi [13].

Majmuaviy yondashuv: konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi (talaba bilimni mustaqil yaratadi); salohiyatli (kompetensiyaviy) yondashuvni talab qiladi (nafaqat bilim, balki amaliy qo‘llash, munosabat va ko‘nikmalar ham rivojlantiriladi); ta’lim mazmunida fanlararo va multidissiplinar yondashuvni tatbiq etadi.

Majmuaviy yondashuvning ilmiy asoslari pedagogik psixologiya, kognitiv fanlar, ta’lim nazariyasi va metodikasi kabi sohalar bilan bog‘liqdir. Xususan:

- Jon Dyuining “ta’lim – hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zi” degan qarashi bu yondashuvning falsafiy asosini tashkil qiladi [8];
- Jerom Bruner [5] va Lev Vыgotskiyning [7] kognitiv rivojlanish nazariyalari majmuaviy yondashuvning metodik platformasini shakllantirgan;
- Bloom taksonomiyasi ham fanlararo yondashuvda bilim va ko‘nikmalarning murakkablashuv bosqichlarini nazarda tutadi [6];
- PBL (Project Based Learning): Loyihalar asosida o‘qitish – real hayot muammosi atrofida fanlarni integratsiya qilish [10];
- Case-study: Hayotiy misollar asosida fanlararo tahlil qilish.

Majmuaviy yondashuvda o‘qituvchi klassik ma’lumot yetkazuvchidan ko‘ra [4]:

- muloqot va hamkorlik tashabbuskori;
- ta’lim jarayonini yo‘naltiruvchi va tashkil qiluvchi;
- fanlararo aloqalarni yaratishga mas’ul metodist sifatida namoyon bo‘ladi.

Majmuaviy yondashuv talaba faolligini oshirishga xizmat qiladi [3]:

- mustaqil izlanishlar;
- guruhda ishlash ko‘nikmalari;
- tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- turli ma’lumot manbalari bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimidagi islohotlar doirasida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi [2]: oliy ta’lim muassasalarida fanlararo dasturlar joriy etildi; STEAM ta’limni maktablarga bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilindi; ta’lim sohasidagi raqamlashtirish ishlari, ya’ni elektron platformalarda integratsiyalashgan o‘quv kurslarini joriy etish; o‘qituvchilarning majmuaviy yondashuv metodikasini yaxshi bilmasligi; fanlararo dasturlar uchun moddiy-texnik baza yetarli emasligi; oliy ta’limda fanlar orasida hamkorlikning yetishmasligi.

Xulosa. Majmuaviy yondashuv ta’lim mazmuni va shakllarini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, fanlararo bog‘liqlikni shakllantirish, tahlil va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu yondashuvni tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish, uning metodik, moddiy va inson resurslarini shakllantirish orqali majmuaviy yondashuvning samarasini oshirish mumkin.

Majmuaviy yondashuv ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, pedagogik jarayonlarni zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda majmuaviy yondashuvni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ta’lim tizimining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 23 sentabr). – 1–12-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – B. 3–17.
3. Abdullaeva, Z. (2023). Talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish — davr talabi. Ta’lim va innovatsiya jurnali, №1(11). – B. 78–83.
4. Ares.uz: https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/talabalarda-intellektual-izhodij-obiliyatni-rivozhlantirish-tehnologiyalari – B. 1–5 (PDF shaklida ko‘rsatilgan).
5. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press. – pp. 11–29, 72–85.
6. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longman. – pp. 201–215, 249–255.
7. Vыgotskiy, L.S. (1982). Mыshlenie i rech. Moskva: Pedagogika. – B. 45–60, 98–110.
8. Dyui, J. (2000). Demokratiya i obrazovanie. Moskva: Pedagogika. – B. 35–67, 112–125.
9. Ilmiybaza.uz: https://ilmiybaza.uz/document/talim-muassasasi-hodimlarining-uzluksiz-malaka-oshirish-tizimini-yaratishga-innovacion-yondashuv/ – B. 2–9.
10. Mahkamova, D. (2021). Maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Ta’limda innovatsion yondashuvlar, №2. – B. 34–38.
11. OECD (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing. – pp. 7–19, 48–62.
12. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: Autodesk Foundation. – pp. 13–21, 40–47.
13. Uzviylik.tdi.uz: https://uzviylik.tdi.uz – Elektron maqola, taxminiy betlar: B. 1–4.
14. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change. New York: Teachers College Press. – pp. 55–70, 110–124.
15. Xalilova, M. (2022). Pedagogik ta’lim uzviyligini ta’minlashning ilmiy-pedagogik muammolari. Pedagogika fanlari jurnallari to‘plami, №4. – B. 45–52.
16. Yuz.uz: https://yuz.uz/news/innovatsion-pedagogika-izlanish-yangicha-yondashuv-va-tajriba-mahsuli – B. 1–3.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОСНОВ ВОВЛЕЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В СПОРТИВНЫЙ КРУЖОК НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

М.С. РАМАЗОНОВА: СТАРШИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация: В статье анализируется сущность технологий смешанного обучения, их роль в привлечении студентов в спортивные секции, а также вопросы эффективной организации этого процесса посредством дидактических механизмов. Технологии смешанного обучения являются важным фактором повышения мотивации к занятиям спортом и формирования здорового образа жизни. Исследование раскрывает способы повышения активности студентов путем интеграции современных цифровых технологий в деятельность спортивных клубов.

Ключевые слова: смешанное обучение, спортивные секции, педагогические основы, дидактические механизмы, студенты, интерактивные методы, здоровый образ жизни.

Abstract: This article analyzes the essence of blended learning technologies, their role in attracting students to sports clubs, as well as the issues of effective organization of this process through didactic mechanisms. Blended learning technologies are an important factor in increasing motivation for sports and forming a healthy lifestyle. The study reveals ways to activate student participation by integrating modern digital technologies into the activities of sports clubs.

Key words: mixed education, sports section, pedagogical basics, didactic mechanisms, students, interactive methods, healthy image.

Введение

Сегодня внедрение современных технологий в образовательный процесс стало важной педагогической потребностью. В частности, технологии смешанного обучения повышают интерактивность обучения, активизируют деятельность учащихся, побуждают их к самостоятельному получению знаний. Время показывает, что эти технологии необходимо использовать не только в теоретических науках, но и в практических областях, включая физкультуру и спорт. Пропаганда здорового образа жизни среди студентов, повышение физической активности, привлечение внимания к спортивным секциям являются одними из актуальных задач, стоящих перед высшими учебными заведениями. Однако традиционные методы не могут полностью решить эту проблему. Поэтому возникает необходимость актуализации педагогического подхода к организации работы спортивных секций и эффективного использования возможностей цифровых технологий и смешанного обучения. Использование технологий смешанного обучения в спортивном образовании в настоящее время является одним из наиболее актуальных вопросов. Эта модель может повысить интерес учащихся к спорту и эффективно вовлечь их в физическую активность. [2]

В данной статье на основе исследований, проводимых в этом направлении, будет проанализировано состояние интеграции технологий смешанного обучения со спортивными клубами, их эффективность и дидактические механизмы в этом процессе. Также при активном вовлечении студентов в спортивный кружок раскрываются научно-теоретические основы новых стилей.

Цель: разработка педагогических основ и дидактических механизмов техно-

логий смешанного обучения в повышении эффективности привлечения учащихся в спортивные кружки.

Задачи: определение содержания технологий смешанного обучения;

Анализ деятельности спортивных кружков;

Выявление педагогических подходов к вовлечению учащихся;

Предложить эффективные дидактические механизмы.

Сегодня технология смешанного обучения применяется во многих высших учебных заведениях Узбекистана. Например, в Самаркандском государственном университете изучались развитие, виды, преимущества и недостатки методов смешанного обучения. Также инновационные формы смешанного обучения изучаются в рамках дисциплины «Технологические образовательные методики» Джизакского государственного педагогического университета.

Ученые нашей страны И. Джаббаров, Ю. Джумабаев, Х. Зиеев, Д. Кенджаева, К. Наджмиддинова, К. Назаров, Д. Рахимбоева, М. Хайруллаев, М. Холматова, Р. Худойбергенова, Х. Шаихова, Э. Юсуров, Н. Холметова и другие изучали духовность, культуру личности, роль духовной культуры в повышении ее социальной активности, разработку педагогических основ привлечения студентов в спортивные секции и ее философские аспекты. [11]

Внедрение смешанной формы обучения в образовательную систему о‘помогает сделать процесс обучения более эффективным и гибким. Однако для его успешного применения необходимо эффективное использование цифровых инструментов учителями и учениками, а также соответствующая инфраструктура и методические рекомендации. [12]

Технология смешанного обучения считается очень эффективной не только для теоретических дисциплин, но и для практических занятий, в том числе спортивных кружков. Это достигается за счет подхода.

- студенты могут получать теоретические знания о спорте онлайн, а практические упражнения могут укрепить физические навыки. Например: онлайн-урок обучает здоровому образу жизни, правильным методам упражнений и здоровому питанию, в то время как практическое занятие закрепляет эти знания с помощью реальных действий.

Технологии смешанного обучения начали развиваться во всем мире с 1990-х годов. Возрастает значение этого подхода и в системе образования Узбекистана. Например, в 2024 году Алламова Шохиста провела научную работу на тему совершенствования системы образования на основе цифровых технологий в условиях смешанного образования. Развитие педагогических основ вовлечения учащихся в спортивные кружки на основе технологии смешанного обучения необходимо для того, чтобы будущий специалист систематически осознавал важность физической культуры и спорта в студенческие годы, был не только специалистом своего дела, но и человеком, обладающим различными умениями и навыками восстановления организма после тяжелого труда. В связи с этим большое значение имеет изучение рассматриваемойпроблемы. В исследовании Т.И. Исаевой были выявлены содержание вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологии смешанного обучения, технологии их изучения и сопровождения, установлены структурно-функциональные связи содержания образования, а также выявлены различные средства формирования здорового образа жизни студентов на основе технологии смешанного обучения.

Ошина О.В. Проведенное автором диссертационное исследование показывает, что если подготовка студента к

кружковым занятиям в образовательном процессе вуза строится на акмеологическом подходе, если формирование эмоций осуществляется с использованием внутренних и внешних мотивов, если стимулируются механизмы рефлексии и самоопределения, то реализуется акмеологический конфликт. успешно сформирован.

В целях содействия решению проблемы разработки педагогических основ привлечения студентов к занятиям в спортивных секциях на основе технологии смешанного обучения разработаны и апробированы в исследовательском порядке рациональные методы сочетания аудиторных и внеаудиторных занятий по физической культуре с целью разработки педагогических основ привлечения студентов к занятиям в спортивных секциях и развития оздоровительных направлений в высших учебных заведениях. [9]

Методология

Методология данного научного исследования направлена на углубленное изучение процесса привлечения студентов в спортивные секции с использованием технологий смешанного обучения. Теоретическая часть исследования по формированию, развитию и совершенствованию потребности в здоровом образе жизни у студентов высших учебных заведений предусматривала три этапа – выявление, формирование и контроль – в ходе реализации разработанной исследователем программы.

Целью этапа идентификации является создание начальных условий для исследовательской работы. Целью этапа формирования является создание контрольной и экспериментальной групп и апробация разработанной программы в экспериментальной группе, создание практических и теоре тически обоснованных редакционных условий для ее реализации. Целью контрольного этапа является выявление того, как изменилась потребность в здоровом образе жизни в исследовательской группе в результате реализации нашей программы, сравнение результатов, полученных в результате несложной учебной работы в контрольной группе; сделать выводы. Процесс выработки педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения у его воспитанников имеет такие существенные стороны. Потому что этот процесс связан с результатами и требует постоянной работы над собой, обновления и совершенствования рабочего процесса. В теоретической части исследования представлена логическая последовательность действий, позволяющая определить эффективность разработанной нами программы. Исследование проводилось на основе следующих методологических подходов:

Метод наблюдения: Систематически наблюдался процесс тренировочных занятий, проводимых в спортивных клубах на основе смешанного обучения (т.е. традиционного + цифрового). В ходе наблюдения было отмечено следующее:

• Регулярность участия студентов;

• Уровень активности в обучении;

• Варианты использования технологий (видеоуроки, дистанционное обучение, упражнения через мобильные приложения).

Метод опроса: Специально разработанные анкеты были распространены среди студентов и спортивных тренеров. Анкета была адресована:

• Мнения и отношение к использованию технологий смешанного обучения;

• Причины и препятствия для участия в спортивных клубах;

• Влияние спортивных тренировок, проводимых с использованием технологий, на мотивацию.

В результате был определен уровень восприятия спортивного отношения и

цифровых подходов среди студентов. Анкета исследования включала три блока вопросов:

Блок 1 направлен на разработку педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения;

Блок 2 направлен на разработку педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения;

Блок 3 был призван предоставить информацию о роли разработки педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения.

Инструментами исследования являются анкеты, состоящие из 3 блоков по 30 вопросов, из которых 60% представлены в явном виде, 30% - в полуявном виде, а также есть формат «другое» вне списка возможных ответов, в котором студент может написать собственное мнение по изучаемой проблеме. дали возможность. Оставшиеся 10% представляли собой открытые вопросы, позволяющие респондентам свободно выражать свое мнение и отношение к конкретной проблеме.

Экспериментальный метод: В качестве эксперимента были сформированы две группы: Экспериментальная группа проводила спортивные тренировки на основе технологий смешанного обучения (например, онлайн-задания через Telegram/ Zoom, видеоупражнения, элементы геймификации).

Контрольная группа занималась только традиционными методами (регулярные тренировки в спортзале). В ходе эксперимента сравнивались показатели активности, частоты участия и физической подготовленности двух групп.

Целью организации опытно-экспериментальных работ является определение степени эффективности использования педагогических условий, обеспечивающих возможность подготовки к профессиональной деятельности для совершенствования дидактических возможностей разработки педагогических основ «Вовлечения студентов в спортивные секции на основе технологий смешанного обучения». Планирование, организация экспериментальной работы и обработка полученных материалов осуществляются на основе рекомендаций и указаний, приведенных в специальной литературе и научных трудах по редакционным исследованиям (Ю.К. Бабанский, Д.В. Чернилевский, Н.А. Зиновьев, М.М. Гаирбеков и др.). Пилотный проект был реализован в три этапа в период с 2021 по 2022 год.

На первом этапе (ноябрь-декабрь 2021 г.) были проведены опросы по проблемам исследования среди студентов БГУ, АНДПИ и КУ на основе программы исследования. Анкетирование проводилось при содействии преподавателей БГУ, АНДПИ, КУ, деканов, заведующих кафедрами, магистров и директоров, а также под внешним руководством научных сотрудников, вошедших в рабочую группу.

На втором этапе (2020–2021 гг.) проводился анализ анкетных, тестовых и экспериментальных материалов.

На третьем этапе был проведен сравнительный анализ данных, полученных в 2022-2023 годах.

Экспериментальная апробация и оценка эффективности разработки педагогических основ вовлечения студентов в спортивные секции на основе разработанных технологий смешанного обучения проводились в образовательных программах БГУ АНДПИ, КУ по направлениям «Туризм (спортивно-оздоровительный туризм)» и «Спортивно-подвижные игры». В ходе экспериментальной работы были выявлены: мотивация студентов к учебной деятельности; приобретение студентами знаний и навыков по профессиональным дисциплинам; применять

знания и навыки, полученные в профессиональных дисциплинах; остаточные знания по профессиональным дисциплинам; Определено отношение студентов к профессиональным предметам.

Результаты

Опытно-экспериментальное изучение профессиональных дисциплин в группе проводилось по разработанной методике. При структурировании учебного материала и применении педагогической технологии основное внимание уделялось выполнению практических работ, являющихся элементами проектной деятельности, решению обобщенных образцовых задач и творческих проектов.

Сформулируем следующие две гипотезы; н0 - нулевую гипотезу (об отсутствии различий), Н1-альтернативную гипотезу (о значении различий) н0: уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся экспериментально-тестовой группы, изучающих курс по методике подготовки к профессиональной деятельности, традиционно не превышает уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся контрольной группы, получающих образование.

Н1: уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся экспериментально-тестовой группы, изучающих курс по методике подготовки к профессиональной деятельности, традиционно выше, чем уровень увеличения процента положительных ответов обучающихся контрольной группы, получающих образование.

Используя таблицу, мы сначала сравниваем количество правильных ответов контрольной и экспериментальной групп.

Степень увеличения положительных ответов студентов, изучающих свои профессиональные дисциплины по методике подготовки к профессиональной деятельности, будет выше, чем степень увеличения процента положительных ответов студентов, изучающих курс традиционным способом.

Следовательно, можно считать, что в результате применения методики подготовки педагогов к профессиональной деятельности в преподавании профессиональных дисциплин будущее профессиональное образование становится более эффективным в подготовке педагогов к профессиональной деятельности. Педагогический эксперимент подтвердил гипотезу исследования. [10]

Заключение

Из других педагогических предпосылок совершенствования дидактических возможностей развития педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения ценностные подходы. В целях активного освоения основных аспектов здорового образа жизни на занятиях использовались сюжетно-ролевые игры, тематические исследования, групповое обсуждение, мозговой штурм, видеоанализ, видеоролики, демонстрируемые тренером по предложенной теме. На этапе формирования исследовательской работы поэтапная реализация авторской программы направлена на формирование потребности в здоровом образе жизни через спортивные игры, разработанные нами, в частности, волейбол и другие виды спорта. это позволило протестировать целенаправленную последовательность действий.

Программа совершенствования потребности в разработке педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения может выступать в качестве матрицы и позволяет применять ее в условиях любого образовательного учреждения, независимо от географического положения.

Предложения

На основании вышеизложенных выво-

дов и результатов исследования представлены следующие рекомендации:

1. Внедрение инновационных методов обучения на основе мобильности учебно-методического обеспечения при разработке педагогических основ привлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения;

2. Разработка механизмов создания дифференцированных электронных программ и веб-сайтов дидактических возможностей развития педагогических основ вовлечения учащихся в спортивный кружок на основе технологий смешанного обучения различных слоев населения;

3. Здоровый образ жизни у людей с ограниченными возможностями здоровья, в формировании жизненных навыков, выявлении и внедрении в практику подходящих для них видов спорта-оздоровления.

Использованной литературы:

1. Республики Узбекистан от 23.09.2020 г. Закон № УП-637 “Об образовании”. https://lex.uz/docs/5013007
2. Республики Узбекистан от 04.09.2015 г. О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан "О физической культуре и спорте" https://lex.uz/docs/-2742233
3. Рахимов В. Электронный информационный образовательный ресурс” физкультурно-спортивный оздоровительный туризм " (свидетельство Агентства интеллектуальной собственности при Министерстве юстиции Республики Узбекистан № БГУ 00492)
4. Рахимов В. Методика обучения физкультуре и подвижным играм (спортивным играм). - Т.: «Фан Зиясы», 2022, 512 с.5. Расулова О. Совершенствование организационных механизмов реализации принципов системности и преемственности в формировании здорового образа жизни молодежи. Эд. наука. доктор...дис. - Ташкент, 2015. - 316 с.
5. Рискулова К. Сотрудничество неправительственных организаций в развитии культуры здорового образа жизни молодежи: пед. наука. имя Дис. Автореф. - Ташкент: Узгту, 2011. - 21 С.
6. Рожков М.І., Гребенюк О. С. , Байбородова Л. V. , Гребенюк. Б. Педагогика V 2 т. Том 1.— М.: Издательство Юрайт, 2018.— 402
7. Рокич М. Ценностные ориентации – Санкт-Петербург: Питер, 2015. – 704 С.
8. Рузиева Д.І. Научно-педагогические основы развития чувства национальной гордости у студентов высших образовательных организаций: пед. наука. d - ri dis. - Ташкент:тдPU, 2007. - 274 С.
9. Мелешкова Н.А. Формирование здорового образа жизни студентов вуза в процессе физического воспитания. автореф. кан. пед. наука-Камерова, 2005. - 28 С.
10. Разработка автора
11. Yuldosheva S.M. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. nom dis. - Toshkent, ROIAM, 2001. - 119 b.
12. Yusupov Ye. Yoshlarning ma’naviy kamoloti. -Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 32
13. Ramazonovich, K. S. (2023). BASKETBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY VOSITA SIFATIDA HARAKATLI O ‘YINLARNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ,
14. Ramazonova, M. S. (2023). BADMINTON: HISTORY OF ORIGIN, DEVELOPMENT STAGES, TYPES, GAME RULES. Scientific Impulse, 1(9), 837-843.
15. Orlova, K. V., Fedyanin, M. Y., Simanenkov, K. E., Dergunov, A. S., Goldshmidt, P. R., Saydullaeva, A. F., ... & Demidov, L. V. (2022). Real-world efficacy of the first line therapy with prolgolimab in patients with metastatic melanoma: interim results of the FORA (FOrteca Real practice Assessment) observational study. Journal of Modern Oncology, 24(4), 413-425.

BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI BAHOLASHDA GENDER YONDASHUVDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

YUNUSOVA XOLIDAXON TO‘LQINJON QIZI
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Gender masalasi bugungi kunda jahon miqyosida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshqaruv kompetentligini baholashda gender yondashuvning o‘rni va ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Rahbarlarning boshqaruv kompetentligini baholashda gender yondashuvning ahamiyati haqida bahs boradi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar, xalqaro va milliy tajribalar tahlili orqali boshqaruvda baholash tizimlarining nazariy asoslari va gender yondashuvning amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender yondashuv boshqaruv samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynasa-da, ularning qo‘llanilishi ma’lum metodologik va madaniy xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv kompetentligi, gender yondashuv, boshqaruv kompetentligini baholash, gender tenglik, tranzaksion rahbarlik, transformatsion rahbarlik

Аннотация. Вопрос гендера сегодня является одной из самых актуальных проблем в мировом масштабе. В данной статье проанализирована роль гендерного подхода и возможности его применения при оценке управленческой компетентности. Рассматривается значимость гендерного подхода в оценке управленческих компетенций руководителей. На основе анализа современных научных трудов, международного и национального опыта рассмотрены теоретические основы систем оценки управленческих компетенций и практическое применение гендерного подхода. Результаты показывают, что гендерный подход играет важную роль в оценке эффективности управления, однако его применение требует учёта определённых методологических и культурных особенностей.

Ключевые слова: управленческая компетентность, гендерный подход, оценка управленческих компетенций, гендерное равенство, транзакционное лидерство, трансформационное лидерство.

KIRISH

Bugungi iqtisodiy va ijtimoiy globallashuv sharoitida maktab boshqaruv faoliyatining samaradorligi va barqaror rivoji boshqaruv tizimining sifatiga bog‘liqdir. Boshqaruv kompetentligi – bu har bir maktab rahbarining maktabni samarali boshqarish uchun egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasidir. Ushbu kompetentlikning baholanishi tashkilotda rahbarlarning kasbiy va shaxsiy ko‘nikma, bilim va qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish hamda samarali boshqaruv muhitini yaratishda muhim omil hisoblanadi. Kompetentlik rahbarlar tashkilot resurslarini samarali boshqarish, strategik maqsadlarga erishish, xodimlar bilan muvaffaqiyatli muloqot va ularning salohiyatini oshirishda asosiy rolni o‘ynaydi.

So‘nggi o‘n yilliklarda gender yondashuvlar boshqaruv nazariyasi va amaliyotida ishtirok etmoqda. Gender mezonlar boshqaruv kompetentligini baholashda va yetakchilik jarayonlarida qaror qabul qilish, jamoani boshqarish, muammolarni hal qilish kabi ko‘plab ko‘rsatkichlarda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida tashkilotlarda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish uchun genderni hisobga olgan kompleks baholash tizimlarini joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro miqyosda ko‘plab izlanishlar va tadqiqotlar ayollar va erkaklarning boshqaruv kompetentligida farq, yetakchilik uslublari va samaradorlikdagi o‘ziga xosliklarni aniqlashga qaratilgan. Xususan, ayollar transformatsion yetakchilikda ko‘proq faol ekanliklari, tranzaksion uslub esa erkaklar orasida ko‘proq tarqalganligi haqida ilmiy dalillar mavjud. Katalist gender stereotiplari va madaniy omillar boshqaruvdagi gender tafovutlarini kuchaytirishini ta’kidlagan[1].

Tranzaksion rahbarlik – bu rahbar va xodimlar o‘rtasidagi “berish-olish” munosabatlariga asoslangan boshqaruv uslubi. Bu uslub “motiv qiluvchi” va “mukofotlash usuli” bo‘lib, qat’iy tartib va intizomlarga asoslanadi. Bunda rahbar “Sen topshiriqni bajarsang – mukofotlayman” yoki “Sen xatoga yo‘l qo‘ysang – jazo olasan” qabilida xodimlar bilan boshqaruv munosabatida bo‘ladi. Bernard Bass tranzaksion rahbarlikni mukofot va jazolarni taqsimlash sifatida ta’riflagan, bu har qanday boshqaruvning markaziy qism ekanligini ta’kidlagan[2]. Burns esa bu uslubni “o‘zaro manfaatli, ammo yuzaki munosabatlar” deb ta’riflagan va transformatsion rahbarlik bilan mutlaqo qarama-qarshi deb hisoblagan[3].

Transformatsion rahbarlik – bu rahbar va xodimlarni yuqori motivatsiya va axloqiy darajaga ko‘taradigan, tashkilotda chuqur o‘zgarishlarni amalga oshiradigan boshqaruv uslubi. Rossiyalik olim V.A. Spivak o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaydi: “Transformatsion rahbarlik zamonaviy tashkilotlar uchun eng samarali uslub bo‘lib, u nafaqat natijaga erishishni, balki xodimlarning shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi[4]. Bu ikki boshqaruv uslubi bir-biridan bir qancha ajartib turuvchi farqlarga ega:

Xususiyat	Tranziksion rahbarlik	Transformatsion rahbarlik
Asosiy maqsad	Mavjud holni saqlash	O‘zgarishlar yaratish
Motivatsiya usuli	Mukofot va jazo	Ilhom va vizyon
Vaqt istiqboli	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli
Xodimlar bilan munosabat	Shartli kelishuv	Shaxsiy rivojlanish
Tashkiliy ta’sir	Samaradorlikni saqlash	Innovatsiya va o‘zgarish
Qaror qabul qilish	Yuqoridan pastga	Hamkorlikda

MDH mamlakatlari, xususan, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston kabi davlatlarda ham boshqaruv kompetentligini gender yondashuv asosida baholashga qiziqish ortib bormoqda. McKinsey kompaniyasining 2024-yilgi tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ayollarning ishlab chiqarishdagi o‘rni bo‘yicha eng katta tadqiqot gender balans mavjud bo‘lgan kompaniyalar yuqori moliyaviy natijalarni ko‘rsatmoqda. Bu holat boshqaruv kompetentligini baholashda gender mezonlaridan foydalanishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshqaruv kompetentligini baholash sohasidagi tadqiqotlar katta ilmiy o‘rin egallagan bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishlaridan biri – gender mezonlarni hisobga olgan holda yetakchilik va boshqaruv samaradorligini tahlil qilishdir.

Boyatzisning klassik asari – “The Competent Manager” – boshqaruv kompetentligini tushunish va baholashda asosiy nazariy poydevor vazifasini bajaradi. U boshqaruv kompetentligini faqat texnik bilimlar yoki shaxsiy fazilatlarning yig‘indisi sifatida emas, balki murakkab xulq-atvor modeli deb hisoblaydi. Boyatzis kompetentlikni bilim,

ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlar majmuasi deb tariflab, ularni baholash orqali rahbarlarning samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidladi. Shu bilan birga, u gender mezonlarni o‘z modeli tarkibida bevosita ko‘rmagan, bu esa keyingi tadqiqotlarga olimlar o‘rganishii uchun yo‘l ochib berdi.

Alisa H.Eagli va Linda L.Karli boshqaruv sohasida gender yondashuvni chuqur tahlil qilib, ayollar va erkaklarning boshqaruv uslublarida farqlar mavjudligini isbotladi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, ayollar ko‘proq transformatsion yetakchilik uslubidan foydalanadi, ya’ni ular motivatsiya qilish, ilhomlantirish va o‘zgarishlarni boshqarishda yuqori natijalar ko‘rsatadi. Erkaklar esa ko‘proq tranzaksion uslubga, ya’ni an’anaviy boshqaruv va nazoratga tayanishi haqidagi nazariyalarni ilgari surishgan[5]. Bu tadqiqotlar boshqaruv kompetentligini baholashda gender mezonlarni hisobga olish zarur ekanligini isbotlab berdi, chunki har ikki boshqaruv uslubi ham tashkilotning sharoitlari va vazifalarida turlicha samara berishi mumkin. Ular o‘zining asarida (Through the Labyrinth: The Truth About How Women Become Leaders) ayollarning rahbarlik faoliyatida duch keladigan murakkab to‘siqlarni “labirint”ga o‘xshatishadi. Mualliflar ta’kidlaydilarki: “Ayollar rahbarlik lavozimlariga erishish yo‘lida bir qator murakkab va ko‘rinmas to‘siqlarga duch keladi, bu to‘siqlar aniq va to‘g‘ri chiziqli emas, balki murakkab labirint kabi”. Eagli va Karli gender stereotiplarining rahbarlik baholashiga ta’sirini o‘rganib, ayol rahbarlarning erkak hamkasblariga nisbatan qattiqroq mezonlar bilan baholanishini aniqlaydilar. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, transformatsion rahbarlik stilida ayollar erkaklar bilan solishtirganda yuqori natijalar ko‘rsatadilar, ammo bu afzallik baholash jarayonida yetarli darajada hisobga olinmaydi.

Suzan Madsen “Global Women’s Leadership Research” nomli tadqiqotida gender va rahbarlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qiladi. Madsen “Gender xilma-xillik rahbarlik jamoalarining qaror qabul qilish sifatini 73% gacha yaxshilaydi va moliyaviy ko‘rsatkichlarni 15% oshirishi mumkinligi haqida” ta’kidlaydi. Uning tadqiqoti 67 mamlakat bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, gender balansi mavjud tashkilotlarning innovatsion faollik darajasi sezilarli darajada yuqori ekanligini isbotlaydi[6].

Daniyel Golmen, Richard Boyatzis va Enni MakKi “Primal Leadership: Realizing the Power of Emotional Intelligence” asarida emotsional intellektning rahbarlik faoliyatiga ta’sirini o‘rganib, gender omillarining muhim ahamiyatini e’tirof etadi. Mualliflar o‘z tadqiqoti natijasida quyidagi fikrni ilgari surishadi: “Hissiy intellektning to‘rtta asosiy komponenti – o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash va munosabatlarni boshqarish – gender xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq”. Tadqiqotga ko‘ra, ayollar odatda empatiya va ijtimoiy anglash ko‘nikmalarida ustunlik qilsalar, erkaklar stressli vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlashda yaxshi natijalar ko‘rsatadilar.

MDH mamlakatlarida gender va boshqaruv kompetentligini baholash masalalari o‘ziga xosliklarga ega. Petrov va Sidorov Rossiya va qo‘shni davlatlarda olib borgan tadqiqotlarida gender mezonlarni baholashda mahalliy madaniyat va ijtimoiy stereotiplarning katta rol o‘ynashini ta’kidlashdi. Ularning fikricha, MDHda gender tengligi konsepsiyasi xorijiy standartlardan farq qiladi va mahalliy sharoitga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Shu sababli, MDH mamlakatlarida gender mezonlarni boshqaruv kompetentligiga kiritishda kontekstga mos metodologiyalarni yaratish muhim ekanligini qayd etishadi.

Vladimir A.Spivak “Управление персоналом: гендерный аспект” monografiyasida Rossiya korperativ sektorida gender yondashuvning qo‘llanilishini keng qamrovli tahlil qiladi. Spivak Rossiya tashkilotlarida gender balansi mavjud rahbarlik jamoalari an’anaviy erkak rahbarlar ustun jamoalarga nisbatan 23% yuqori samaradorlik ko‘rsatishini

aniqlagan. Muallif 2018-2020 yillar oralig‘ida 500 dan ortiq tashkilotda olib borilgan tadqiqot natijalarini taqdim etib, gender xilma-xilligining ijobiy ta’sirini isbotlab berdi.

Ainur K. Sagyndykova “Гендерные аспекты управленческой деятельности в условиях Казахстана” maqolasida Markaziy Osiyo sharoitida gender mezonlarining qo‘llanilish xususiyatlarini tahlil qiladi. Sagyndykova Qozog‘iston kabi ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatlar mavjud bo‘lgan davlatda gender mezonlarini qo‘llash milliy an’analar va zamonaviy talab o‘rtasidagi muvozanatni ushlashga yordam berishini ta’kidlagan. Uning tadqiqoti Olmota va Nur-Sulton shaharlaridagi 120 ta tashkilotni qamrab olgan bo‘lib, an’anaviy gender rollariga bo‘lgan qarashlar bilan zamonaviy boshqaruv talablari o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot asosida olib borilgan adabiyotlarni tahlil qilishdan ko‘rinib turibdiki, boshqaruv kompetentligini baholashda gender yondashuvning o‘rni global va mintaqaviy miqyosda tobora oshib bormoqda. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar boshqaruvda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi yetakchilik uslublari va kompetensiyalar farqliligini aniq ko‘rsatgan, bu esa gender mezonlarni baholash tizimlariga kiritishni taqozo etadi.

Kompetentlikni aniqlashda maxsus gender masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam. Biroq, boshqaruv sohasida gender farqlari keng o‘rganilgan. Gregory tadqiqot dalillarini ko‘rib chiqib, boshqaruvda muvaffaqiyatga erishishda erkak va ayollar o‘rtasidaa farq yo‘qligini, ammo, bu natijalar asosan, ayollar ko‘pchilik erkaklardan iborat muhitda (masalan, faqat 6% ayol boshqaruvchi bo‘lgan tashkilotlarda) boshqaruvga bo‘lgan motivatsiyasi va o‘z-o‘zini qadrlashi erkaklarga nisbatan pastroq bo‘lishi aniqlangan. Aksincha, ayollar boshqaruvchilarning 19% ni tashkil etadigan tashkilotlarda gender farqi kuzatilmagan[7].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayol rahbarlar erkaklardek ko‘p jinsiy stereotiplarga duch keladi: ular “ham juda erkaklarcha, ham juda ayollarcha bo‘lmaslik” uchun nozik chiziqda yurishi talab etiladi.

Menejment sohasida erkak va ayollarni solishtirgan ko‘plab tadqiqotlarda ular orasida sezilarli farqlar ko‘p emasligini aniqlangan. Shu sababli, gender differenslik haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar va ayollar egalik qiladigan kompetensiyalarda katta farq bo‘lmasligi mumkin.

Schein AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy va Ispaniyada faoliyat yuritayotgan rahbarlar hamda AQShdagi biznes boshqaruvi talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan oltita xalqaro tadqiqot natijalarini solishtirgan. Ushbu tadqiqotlarda erkaklar va ayollar tomonidan muvaffaqiyatli rahbar sifatida eng xarakterli deb topilgan 15 ta xislat e’tirof etilgan. Oltita tadqiqotdan barcha ro‘yxatlarda yoki beshtasida mavjud bo‘lgan xislatlar xalqaro miqyosdagi boshqaruvchilarga xos stereotipni tashkil etdi. Schein aniqladiki, turli mamlakatlardan bo‘lgan rahbarlarning javoblarida kam farqlarni sezgan, garchi ular beshta turli davlatda so‘rovdan o‘tkazilgan bo‘lsa ham.

Eng sezilarli farq shundaki, ayollar o‘zlarining yuqori xislatlari qatorida “o‘ziga ishonch”ni ham kiritgan. Demak, erkak va ayol rahbarlar solishtirilganda ham, erkaklar ayollarni yetakchilik qobiliyati bo‘yicha pastroq baholashda davom etmoqda. Schein xulosasiga ko‘ra, boshqaruvda gender stereotiplash so‘nggi 15 yil ichida o‘zgarmagan[8].

Yurtimiz O‘zbekiston siyosatida ham gender masalalari yetakchi o‘rinni egallagan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham bu masalalar kafolatlab qo‘yilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugun mamlakatimiz hayotiga daxldor bo‘lgan qarorlarni qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortib bormoqda. Natijada ularning boshqaruv sohalaridagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik sohasida 35 foizga, siyosiy partiyalarda 44

foizga, oliy ta’limda 46 foizga yetdi.

Sh.Otamurodova o‘z tadqiqotida ayollarning boshqaruv pozitsiyalarida ishtiroki dinamikasini tahlil qiladi. Otamurodova 2018-2022 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda rahbarlik lavozimlaridagi ayollar ulushi 18% dan 24% gacha oshganligini, bu ijobiy tendensiya hisoblanadi, ammo hali ham yetarli emasligini ta’kidlagan

XULOSA. Xorijiy tadqiqotlar gender mezonlarni boshqaruv kompetentligini baholashda keng va chuqur tadqiq etilganini ko‘rsatadi. Boyatzisning modelidan boshlab, Eagli va Karli tomonidan aniqlangan gender asosidagi boshqaruv uslublari boshqaruv kompetentligini baholashda turli o‘lchovlarni taklif etadi. MDH mamlakatlarida esa gender mezonlarni baholash ko‘proq mahalliy madaniyat, ijtimoiy stereotiplarga asoslangan bo‘lib, bu yondashuvlarning xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashuvi qiyinroq kechmoqda. O‘zbekistonda esa gender mezonlarni boshqaruv kompetentligiga integratsiya qilish borasida dastlabki ilmiy ishlar olib borilmoqda, biroq kengroq metodologik asos va amaliy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Boshqaruv kompetentligini baholashda gender mezonlardan foydalanish zamonaviy tashkilot boshqaruvining muhim elementi hisoblanadi:

Birinchidan, gender xilma-xilligi tashkiliy samaradorlikni oshiradi va innovatsion rivojlanishga yordam beradi. Ayollar yanada samarali rahbarlik xususiyatlarini namoyon qilishlari isbotlangan holda, gender balansli rahbariyat jamoalarining ustunliklari aniqlanadi.

Ikkinchidan, gender mezonlarini qo‘llashda madaniy va milliy xususiyatlarni hisobga olish zarur. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bosqichli va ehtiyotkor yondashuv eng samarali strategiya hisoblanadi.

Uchinchidan, gender-sezgir baholash tizimi professional metodologiyaga asoslanishi va stereotiplar bilan kurashishi kerak. Bu maqsadda ko‘p mezonli, shaffof va ob’ektiv baholash tizimlari ishlab chiqish zarur.

To‘rtinchidan, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha darajadagi rahbarlar va xodimlarni tayyorlash, me’yoriy-huquqiy bazani yaratish va doimiy monitoring tizimini joriy etish talab etiladi.

Shunday qilib, gender mezonlardan foydalanishda xalqaro, MDH va O‘zbekiston tajribalarini uyg‘unlashtirish va mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud. Ushbu o‘ziga xosliklar kelajakdagi tadqiqotlarning yo‘nalishlarini belgilab beradi va boshqaruv kompetentligini baholashda yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Catalyst. (2021). The Bottom Line: Connecting Corporate Performance and Gender Diversity. Retrieved from https://www.catalyst.org/research/the-bottom-line-connecting-corporate-performance-and-gender-diversity/
2. Bass, B. M. (1985). Leadership and Performance Beyond Expectations. New York: Free Press. 431 p.
3. Burns, J. M. (1978). Leadership. New York: Harper & Row. 406 b.
4. Spivak, V. A. (2021). Управление персоналом: гендерный аспект. Москва: Издательство “Менеджмент”. 348 с.
5. Eagly, A. H., & Carli, L. L. (2007). Through the Labyrinth: The Truth About How Women Become Leaders. Boston, MA: Harvard Business Review Press. 272 p.
6. Madsen, S. R. (2020). Global Women’s Leadership Research: Impact of Gender Diversity on Leadership Effectiveness. International Journal of Business Studies, 48(2), 45–59.
7. Gregory, J. B. (1990). Gender differences in management: An examination of self-confidence, motivation and achievement. Journal of Management, 16(2), 123-140.
8. Schein, V. E. (1995). Women and Leadership: The State of Play and Strategies for Change. San Francisco: Jossey-Bass. 272 b.

MUTAXASSISLIK FANLARINING XORIJIY TILLARDA O'QITILISHI BUGUNGI KUNNING INNOVATSION TA'LIM USULLARIDAN BIRIDIR

HAMDAMOVA MUQADDAS XAMIDOVNA
Samarqand tibbiyot Universiteti xorijiy tillar kafedrasining o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'rgatuvchi o'qituvchilar institut hamda universtitet talabalariga xorijiy tillarda muloqotni xususan, og'zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlata olishni o'rgatishlari uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar orqali yuqoridagi bu komponentlar xorijiy tillarni o'rgatishda o'z tinglovchilariga qanday usullardan samarali foydalanish mumkinligini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Xorijiy til, leksik minimum, fonetika, grammatika, morfologik, fragmentlar, "zig-zag", "aqliy hujum", innovatsiya, metodik usullar, savol, dars, pedagogik texnologiya, interfaol usul, tinglovchi.

Kirish: Innovation pedagogik texnologiya bu - texnikaviy va insoniy manbalarni va ularning o‘zaro bog‘liqligini inobatga olib, o‘z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo‘yadigan, butun o‘qitish va bilim olish jarayonini, yaratish, qo‘llash va aniqlash bo‘yicha tizimli qarashdir. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida pedagogning pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish «pedagogning innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo‘ldi.

Asosiy qism: Bizga ma'lumki XXI asr dunyo ilm-fan taraqqiyotida texnologiyalar asri ekanligi jamiyatimizning turli jabhalarida o'z aksini topmoqda. Olamning turli xil chekkalarida inson hayotida, ularning turmush tarzini yengillashtirish uchun mo‘ljallangan texnologik mashinalar ixtiro qilinmoqda. Shuningdek, texnologiyalar bilan birgalikda bir-biridan qiziqarli va foydali dasturlar ham yaratilmoqda. Bularga misol qilib kundalik turmushda ishlatiladigan kompyuter va mobil aloqalarni ham olishimiz mumkin. Shu dasturlarimizning ko‘pchiligi xorijiy tillarda ishlashi bizga ma'lum. Chunki, xozirgi kunda xorijiy tillarga ham katta e'tibor qaratilgan. Xalqimizda «Til bilgan el bilar» degan naql bor. Donishmand xalqimizning bunday ibratli fikrlari necha yuz yillar o'tsada hali hanuz o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Shuningdek hozirgi kunda jamiyatimizdagi har bir kasb egasi o'z mutaxassisligini mukammal bilishi bilan bir qatorda birorta xorijiy tilni bilishi, uning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatida shunday yetuk salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj barcha sohalarda bugungi kunning eng dolzarb talablaridan biri hisoblanadi. Davlatimizning ko‘pchilik oliygohlarida mutaxasisilik fanlari, xorijiy (rus, ingliz, fransuz, koreys, Italian……) tillarda o‘rgatilmoqda, hamda ularni o‘rgatish uchun maxsus metodikalar ham, amalda qo‘llanilmoqda. Bu turdagi metodikalarda ayniqsa kompyuter texnologiyalari (kompyuterlar, elektron kitoblar, va boshqalar) ko‘p ishlatiladi. Innovatsion metodlarga ko‘ra tinglovchilar yangi ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishlari uchun ular orasida shu mavzuga oid turli xil interaktiv o‘yinlar, mantiqiy treninglar va shunga o‘xshash qiziqarli mashg‘ulotlarni muntazam ravishda olib borishlari lozim . Bunday qiziqarli o‘yinlar vaqtida talabalar bir-biridan o‘zish uchun, odatdagiga nisbatan ko‘proq ma'lumot olishga va uni raqib jamoaga

nisbatan qo‘llashga intiladilar. Tinglovchilar ma’lumotlarni bunday yo‘l bilan bilib olganda ko‘proq va uzoq vaqtgacha eslab qoladi. Fanlardagi o‘zaro bog‘liqlikni tashkil etish uchun esa aynan shu jarayon juda qo‘l keladi. Masalan, tibbiyot sohasiga oid klinik fanlarni oladigan bo‘lsak. Fanga doir ma’lumotlar va terminlarni ifoda etishda dars jarayonida ingliz, nemis, fransuz tillaridan foydalanilsa, talaba jarayon davomiyligida qanday ma’lumotlar berilayotganiligini bilish uchun ham izlanishga tushadi. Shu asnoda birdaniga ikki va uchta fanlararo bog‘liqlikni yuzaga keltirish mumkin. Birinchidan, fanga doir video xarakat qo‘yilsa, ikkinchidan uni talaba e’tiboriga xavola etish uchun AKTdan foydalaniladi. Uchinchidan esa, tasvirni ta’riflashda chet tilidan foydalanilsa, dars qiziqarli bo‘lib o‘z maqsadiga erishadi. Xorijiy tilda muloqot, bilish, axborot olish va to‘plash vositasi hisoblangan xorijiy tilida munosabatlar shartlari nutq faoliyati barcha turlarini bilish zarurligini belgilab beradi. Yangi metodlar boshqa yaqin va aralash fanlar xususan, tilshunoslik, psixolingvistika, psixogigiyena tajriba va bilimlaridan foydalanadilar. Internet materiallarida so‘zlashish ko‘nikmalarini amalga oshirilishi sharti sifatida so‘z boyligiga, til materiallari hajmiga unchalik katta talablar qo‘yilmaydi. Biroq so‘zlashish muloqot jarayonida shaxs sifatida to‘laqonli ishtirok etishi uchun foydalanuvchi egallab olishi kerak bo‘lgan so‘z va umuman, til materiallari hajmi zarur minimumini belgilaydi. Talabalarni kasbiy yo‘naltirish maqsadida o‘qituvchi avvalo pedagogik faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasasining tayyorlaydigan ixtisosligini e’tiborga olgan integratsiyalashgan differensial o‘qitishni amalga oshirish lozim . O‘qitish mazmunini kasbga yo‘naltirish deganda, tinglovchi tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarni uning kelgusi faoliyatida tutgan o‘rni, nazariy va amaliy ahamiyati, ta’lim tarbiyaning uzviyligini amalga oshirish orqali shaxsning barkamolligini ta’minlash tushuniladi. Shu maqsadlarni ko‘zlab xorijiy til o‘qituvchisi o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlar va axborot texnologiyalardan foydalanib, o‘quv muammolariga asoslangan vaziyatlarni vujudga keltirishi va amaliy mashg‘ulot, baxs munozara, suhbat, konferensiya, muammoli darslarida ularni muvafaqiyatli hal etishini ta’minlashi talab etiladi. Pedagogik texnologiyalarning darsning texnologik xaritasi, interfaollik vositalari, interfaol dars ishlanmasining sxemasi, kichik guruhlarda ishlash, interfaol texnologiyalardan namunalar, aqliy xujum, bumerang texnologiyasi va uni o‘tkazish bosqichlari, blis so‘rov texnologiyasi, blis o‘yin texnologiyasi va o‘tkazish bosqichlari, bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun metodi, talabalarning mustaqil tayyorgarligidan keyingi leksiya, talabalarning mustaqil tayyorgarligidan keyingi leksiya, dumaloq stol metodi, munozara metodi, zig-zag metodi, keys stadi texnologiyasi kabi turli xil metodlar va texnologiyalar mavjud bo‘lib, ulardan darslarda foydalanish darsning saviyasini oshirib, talabaning yodida tez hamda uzoq muddatga saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Interfaol usul bularga xonadagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materialllar, o‘quv plakatlari foto suratlar, tasviriy san’at asarlari, video tasvirlar, jonivorlar, o‘simliklar, tabiat obyektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi. Ko‘rgazmali vositalari chet tili faniga oid pedagogik texnologiyada qo‘llanilishi talabalarga o‘rgatish kerak bo‘lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko‘rsatish orqali tez, aniq va to‘g‘ri tushuntirish imkonini beradi. Audio vositalar eshitish orqali axborotni o‘rganish, o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko‘proq audiovizual vositalar, ya’ni bir vaqtda eshitish va ko‘rishga xizmat qiluvchi vositalar sifatida video tasvirlardan foydalaniladi. Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan xolda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin. Ta’lim amaliyotida

qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi. O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘yin faoliyatida o‘qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg‘aygan sari o‘yinning roli biroz kamayib boradi. O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi” . Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi. Lotin tilini o’qitishda qo’llaniladigan interaktiv «What/How/Why outlines», «Plase mand», «Baliq skeleti» metodlari orqali erishiladigan yutuklar “O‘yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi”. Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan. Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi. O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur.

O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o‘yin jarayonida shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O‘quv faoliyatining asosiy motivi – bu o‘quv-bilish motivi bo‘lsa, o‘quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa talabada o‘zi tanlangan va asoslarini o‘zlashtirayotgan kasbga bo‘lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o‘quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko‘nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o‘qitish jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘yinli texnologiyalari, shuningdek, tibbiyot oliygoxlari talabalarining ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o‘stiradi. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o‘yinlar o‘yin texnologiyalari deb nomlanadi.O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (m: ta’lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish talaba (o‘quvchi)larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtayi nazaridan yordam beradi. O‘quv mashg‘ulotlaridan o‘yinlar va o‘yinli vaziyatlarni qo‘llash quyidagi asosiy

yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, roli, shuningdek, o‘yin elementlari hamda ta’limning o‘zaro uyg‘unligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o‘yinlar o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi. Har qanday o‘yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o‘yinlar ham o‘zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo‘ladi. Tibbiyot ta’lim muassasalarida ko‘p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o‘yinlarian foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalarining asosini tibbiyot oliygoxlari talabalariningfaollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi. Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o‘quv materialini tushunish, uning negizida ma’lum ko‘nikma, malaka va sifatni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, jamiyatimizda bugungi kunda xorijiy tillarda o’z kasbiy faoliyatini olib boradigan bilimli yetuk kadrlarga bo’lgan talab, dunyoning rivojlangan gigant davlatlari qatori bizning davlatimizda ham ehtiyoj borgan sari ortib bormoqda. Shuningdek, bunday kadrlar yurtimizni har tamonlama ravnaq topishida, dunyo hamjamiyati bilan raqobatbardosh bo’la olishida o’z hissalarini qo’sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. « Le grammaire de francais“ M.U.Ubaydullayev, O.V.Saxno, E. Xudoyberganova. 2008 .
2.” Le francais” Z.Davronova, Z .Aytuganova, U.Akramov, F. Akramova 2014.
3. “ Pratique de francais”A. Papova, S . Kazakova 1989.
4. “ Grammaire de francais”M. N. Malina 1978
5. Utile grammaire.fr
6. Ziyonet.uz
7. Compte, C. (1989). L’image animée dans l’apprentissage du français langue étrangère. Langue Française 83. 22-34
8. Voir Beacco J.-C., Bouquet, S. & Porquier R. (2004) : Niveau B2 pour le français, Editions Didier, Paris, section 3.4.4, p. 96.
9. Alvarez G. (1977) : « Français fonctionnel, français instrumental, français scientifi- que, langue de speciality traduction », dans AUPELF : Le Renouveau des etudes francai-ses a l'universite, Actes de la Deuxieme rencontre mondiale des departements d'etudes françaises (Strasbourg), AUPELF, Montreal, p 71-83.
10. Van Ek J. A. (1975) : The Threshold Level in a European Unit/Credit System for Modern Language Learning by Adults, Conseil de l'Europe, Strasbourg.
11. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). FRANSUZ TILIDA MURAKKAB NISBIY OLMOSHLARNING ISHLATISH METODIKASI. Miasto Przyszłości, 53, 451–452. Retrieved from http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4859
12. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). Le Developpement De Tourisme Entre La France Et L'ouzbekistan. https://doi.org/10.5281/zenodo.14001984
13. Yorova, S., & Hasanova, F. (2024). TIBBIY DISKURSGA XOS BO ‘LGAN KASBIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(8), 68-71.
14. Karimovna, Y. S. (2024). Medical Staff Professional Communication Process. Gospodarka i Innowacje., 44, 227-230.
15. Yaxyayevna, N. S. . (2024). Public Health Communication Enhancing Knowledge and Empowering Communities. International Journal of Formal Education, 3(4), 287–290.
16. Bakhodirovna, E. M. (2024). STRUCTURAL AND FUNCTIONAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE TEXTS OF WORKS OF ART (ENGLISH AND UZBEK AUTHORS). Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-1), 111-117.
17. Aitmuratova, P., Yorova, S., & Esanova, M. (2023). The role of foreign languages in our life. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 161-164.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATIDA JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

SAFAROV DILMUROD ZOIROVICH
Zarmed universiteti Ijtimoiy - iqtisodiyot va muhandislik fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda jismoniy tarbiya hamda sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va uni tartibga solish haqida bir qancha fikrlar ilgari surilgan. Hozirgi vaqtda sport ijtimoiy ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olib, bunga binoan birinchi darajali vazifa bolalar va o ‘smirlarni doimiy sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, ularda kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik va boshqa jismoniy sifatlarni rivojlantirish ekanligi nazariy ma’lumotlar orqali isbotlangan.

Kalit so‘zlar: epchillik, chaqqonlik, tezkorlik, jismoniy sifat, egiluvchanlik, jismoniy bilim, mashq, organizm, jismoniy tarbiya, pedagogik jarayon.

Annotation. This article puts forward a number of ideas about the development and regulation of physical qualities of individuals involved in physical education and sports today. Taking into account the fact that sports are currently gaining social importance, it is proved through theoretical data that the primary task is to involve children and adolescents in regular sports activities, develop strength, speed, endurance, agility and other physical qualities in them.

Keywords: agility, agility, speed, physical quality, flexibility, physical knowledge, exercise, organism, physical education, pedagogical process.

Абстрактный. В статье представлено несколько идей о развитии и регуляции физических качеств лиц, занимающихся физической культурой и спортом в наши дни. Учитывая, что спорт в настоящее время приобретает все большую социальную значимость,Первоочередная задача — поощрение детей и подростков к регулярным занятиям спортом. Участие в тренировках, которые развивают силу, скорость, выносливость, ловкость и другие физические качества были подтверждены теоретическими данными.

Ключевые слова: ловкость, быстрота, быстрота, физическое качество, гибкость, физические знания, упражнения, организм, физическое воспитание, педагогический процесс.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida insonni tarbiyalash, uning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatliginimustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, jamoalarda qulay ruhiy muhitni Yaratishning keng qirrali jarayonida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati ortib borayotganligi kuzatilmoqda beradigan sport kurashining har xil turlari jismoniy tarbiya tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Jismoniy tarbiya — pedagogik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayotiuchun

muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan. Mana shu ta’rifda jismoniy tarbiyaning insonni tarbiyalashning mustaqil turi sifatidagi o‘ziga xosligi ta’kidlab o‘tilgan.Jismoniy tarbiyaga oid bo‘lgan bu o‘ziga xoslikning tarkibida ikkita alohida ma’noga ega bo‘lgan “jismoniy bilim” va “jismoniy sifatlarni rivojlantirish” deb atalgan tushuncha yotadi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalash jismoniy tarbiya jarayoni deb qaraladi. Bu tushuncha kuch, tezkorlik chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik

sifatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bir butun jarayonning shu tomonlari bir-

biri bilan mustahkam bog‘langan. Masalan, agarda o‘quvchilar yugurish mashqlarini ko‘p marotabalab, uning bajarilish texnikasini o‘zlashtirish maqsadida takrorlayversalar, shu vaqtning o‘zida ham kuch, ham chidamlilik va ayrim hollarda tezkorlik ham tarbiyalanadi. Boshqa tomondan, o‘sha yugurish mashqlarni katta tezlik bilan takrorlansa (tezkorlikni tarbiyalash uchun), u holda mashq texnikasi mustahkamlanadi va takomillashadi, shu vaqtning o‘zida esa ta’lim, bilim berish vazifalari ham hal qilinadi.Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida, hattoki shug‘ullanuvchilarning ruhiy holatiga, ularning emotsiyasiga (his tuyg‘usig‘a), irodasiga, axloqining namoyon bo‘lishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ana shular hisobiga tarbiyaviy vazifalarning hal qilinishi uchun kerak bo‘lgan sharoit yuzaga keldi. Jismoniy tarbiya jarayonida hamisha ham tarbiyaviy, ham ta’limiy elementlarning mavjudligi uni bir butun pedagogik jarayon deb karashga olib keladi. Qayd qilingan elementlar qo‘yilgan vazifaga qarab, har biri alohida ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Jismoniy tarbiyada jismoniy rivojlanish qonunlari ham, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qonunlari ham aks etadi. Jismoniy tarbiyaning sotsial qonunlaridan foydalanishi, xarakteri va usuli aslida jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumidan kelib chiqadi. Bu jismoniy tarbiyaga ijtimoiy xarakter beradi, sinfiy jamiyatda esa tarbiya hukmron sinflarning manfaatlariga bo‘ysundirildi. Jismoniy tarbiya — abadiy kategoriyadir, shu ma’nodaki tarbiyaning bu yo‘nalishi jamiyat paydo bo‘lgandan beri mavjud bo‘lib, bunday tuzum ham ijtimoiy ishlab chiqarishning va inson hayotining zaruriy shartlaridan biri sifatida davom etaveradi.

Ma’lumki, mavjud jamiyatda yashaydigan har bir shaxs har tomonlamarivojlangan bo‘lishi lozim, chunki, kishilar ruhiy, ma’naviy va jismoniysifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda tug‘ilmaydilar.Bu sifatlarni kamol topishi, o‘sha ijtimoiy sharoitga va mavjud tarbiya tizimiga bog‘liq. Jismoniy tarbiya esa tarbiyaning boshqa tomonlari ichida muhimlaridan biridir. Ijtimoiy muhit har tomonlama garmonik rivojlanishni, har doim va har yerda inson organlari va sistemalarining biologik rivojlanishining ichki talabi tarzida qo‘yadi.

Yosh sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) yuksak natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) yosh sportchilar organizmidagi funktsional imkoniyatlarini

oshirish;

2) jismoniy sifatlar - kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik va

egiluvchanlikni rivojlantirish;

3) yosh sportchilar organizmdagi jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlami yo‘q qilish.

Inson sifat jihatidan bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman qobiliyatlar egasi bo‘lishi mumkin. Aynan shu turli jismoniy qobiliyatlarning o‘zig

xosligi uning jismoniy sifatlari to‘g‘risida guvohlik beradi. Turmushda, jismoniy tarbiya va sportda inson qobiliyatlarining sifatiga xos xususiyatlar “kuchli”, “tezkor”, “chaqqon”, “egiluvchan” degan iboralarda o‘z aksini topgan. Bu sifatlarning hayotdagi ahamiyati ularni

ayirib ko‘rsatish mezoni hisoblangan. Aslida, jismoniy sifatlar alohida

jismoniy qobiliyatlarning erishilgan darajasi, ularning aniqligi, o‘ziga

xosligi, ahamiyati ifodasi sanaladi. Masalan, insonning kuch qobiliyatlarini olaylik. Tezlik-kuch qobiliyatlari mushaklaming jiddiy zo‘riqishi va ularning yuqori qisqarish tezligini tahlil etuvchi mashqlarda yuzaga chiqadi. Tezlik - kuch qobiliyatlarining rivojlanishi, eng avvalo , “portlovchi” kuch deb ataladigan sifatda aks etadi.

Jismoniy qobiliyatlami rivojlantirish jarayonida ko‘proq tanlab ta’sir qiluvchi va majmuali tavsifdagi, har xil - katta, o‘rta va kichik yuklamalardan foydalanish mumkin. Birinchi tilga olingan yuklamalar

asosan alohida qobiliyatlami, masalan,

tezkorlik va kuch qobiliyatlarini, keyingilari esa turli faoliyat chog‘ida tezkorlik va chidamlilik imkoniyatlarini izchil yoki muvoziy tarzda (ayni bir vaqtda) takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, tezkorlik xususiyatiga ega bo‘lgan yuklamalar chidamlilikning ko‘proq namoyon etilishini talab qiladigan yuklamalar uchun qulay fiziologik sharoit yaratadi. Ular esa o‘zidan keyin bir necha soat mobaynida (agar jiddiy o‘sish yuz bergan bo‘lsa), tezkorlik mashqlarining bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan “iz” qoldirib ketadi. Yana shu ham aniqlanganki, tezkorlik yuklamalari kuch xususiyatlariga ega bo‘lgan taassurotlar bilan yaxshi uyg‘unlashadi, bunda ijobiy davomli ta’sir ma’lum sharoitda, ya’ni kuch mashqlari tezkorlik mashqlaridan oldin bajarilgandagi holatda ham, ulaming teskari ketma-ketligi holatida ham amal qilishi mumkin. Shuning uchun majmuali mashg‘ulotlarda yuklamaning eng maqbul ketma-ketligini tanlashda ulaming asosiy yo‘nalishiga qarab quyidagi tartibda qo‘llash mumkin:

KUCH => TEZLIK => CHIDAMLILIK
yoki TEZLIK => KUCH => CHIDAMLILIK

Bu tartib alohida mashg‘ulot ichidagi mashqlar ketma-ketligiuchun ham, haftalik yoki unga davomiyligi jihatidan yaqin davrlardagi mashg‘ulotlar ketma-ketligi uchun ham to‘g‘ri hisoblanadi. Albatta, ko‘rsatilgan tartib jismoniy tarbiya va sport amaliyotida yagona emas. Bir qator omillarga (shug‘ullanuvchilaming tayyorligi, qo‘llanilayotgan yuklamalaming kattaligi va o‘sib-o‘zgarishlari, mashg‘ulotlaming umumiy yo‘nalishi va h.k.) bog‘liq ravishda uyg‘unlashtirishning boshqacha tartiblari ham uchrashi mumkin.

Tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, kuch va shu kabi jismoniy sifatlar hech qachon alohida ajratib rivojlantirilmaydi. Madaniyatning boshqa turlari - aqliy, axloqiy, ruhiy, mehnat va boshqalarni tarbiyalash jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarida osonroq kuchadi va madaniyat jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bolalik va o‘smirlik yoshlarida umumiy chidamlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jism oniy mashqlarga qo‘yiladigan asosiy talab- yuqori hissiy ko‘tarinkilik zaminida mashg‘ulotlarning yumshoq, ehtiyotlovchi rejimini yaratishdir. Bu talabning bajarilishi yosh sportchiiarda mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishni qo‘llab-quvvatlash hamda keyingi ixtisoslashuv uchun sharoitni yuzaga keltirishning zarur sharti hisoblanadi. O‘smirlik davrigacha maktab sport to‘garaklari sharoitida maxsus chidamlilikni tarbiyalash uchun fiziologik poydevor paydo bo‘ladi. Chidamlilikni o‘stirishga qaratilgan jismoniy yuklamalarga o‘rtacha jismoniy rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar tezroq moslashadilar. Jismoniy rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan maktab o‘quvchilarida tezlik va tezkorlik-kuch mashqlarini bajarish chog‘idagi ishchanlik ularning jismoniy rivojlanish darajasi o‘rtacha yoki past bo‘lgan tengdoshlaridagiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari past bo‘lgan bolalar va o‘smirlar umumiy chidamlilikda bo‘lganidek, maxsus chidamlilik jihatidan ham tengdoshlaridan ancha orqada bo‘ladilar. Jismoniy ishchanlik qobiliyatining eng maqbul ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan jismoniy rivoji o‘rtacha bo‘lgan bolalar ajralib turadilar. Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari past yoki undan yuqori bo‘lganlarda yurak-qon tomir tizimi, tayanch-harakat apparatiga xos funktsional nosozliklar ko‘proq uchraydi. Sport bilan muntazam shug‘ullanishning alohida jism oniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’siri doim ham bir xil emas. Lekin, shubhasiz, jismoniy mashqlar organizmning shakllari va faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Egiluvchanlik – harakat-tayanch apparatining majmuaviymorfologik xususiyati bo‘lib, inson gavdasining alohida bo‘g‘imlaridagi bir-biriga nisbatan bo‘lgan harakatdir.“Egiluvchanlik” atamasini gavdani yoki umumiy harakat zanjirini ulovchi deb tavsiflashga maqsadga muvofiqdir. Masalan,

umurtqa pog‘onasi harakatini ba’zan egiluvchan deb atashadi. Alohida bo‘g‘imlar haqida gap ketganda, ularning harakatchanligi ustida gapirib o‘tish kerak (yelka bo‘g‘imlari, tizza bo‘g‘imlari harakatchanligi). Rivojlanish darajasining ko‘rsatkichlariga ko‘ra harakat amplitudasi juda keng. U burchak darajasi goniometri vositasida yoki santimetr chizgMch yordamida o‘lchanadi. Amplitudaning turli harakatlardagi ma’lumotlarini aniq olish uchun turli optik usullar: kinoga olish, video yozuv, stereotsiklografiya, rentgen - televizor yoki ultratovushli lokatsiyalar qo‘llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tezlik mashqlarini bajarishdan oldin yaxshilab badan qizdirish va mashg‘ulotlarga ham shaklan, ham mazmunan tegishli bo‘lgan harakatlarni bajarish kerak. Tayyorgarlik mashqlarini bajarishning samaradorligini oshirishda ularni asta-sekin ko‘paytirib borish kerak. Aynan yuqori sifatli badan qizdirish jarohatdan qochishga va tezlik mashqlarini bajarishdagi yutuqlarni egallashga sabab bo‘ladi. Ammo shuni esda tutish kerakki, mashg‘ulot vazifalari hajmining

bir xilligi MATga salbiy ta’sir qiladi, yurak faoliyati va qon aylanish tizimidagi tartib buziladi. Bu asosan, bolalar va o‘smirlarga tegishli. Ushbu holatdan qutulish uchun mashg‘ulotlarni turli-tuman qilish, ya’ni darslarni manzarali joylarda o‘tkazish, mashg‘ulot trassalarini o‘zgartirish va o‘yin usullaridan foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. -Toshkent, 2005. 194-b.
2.Arslonov Sh.A., Tangriyev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo). Darslik.-Toshkent “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2017 y. 188-b.
3. D.Z.Safarov, B.X.Xamroev. Oliy ta’limda gimnastika darslarini innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida o‘qitishi samaradorligi // Scientific progress, 2021.T. 1. № 6.
4. Islomov E.Yu., Xamroev B.X., Safarov D.Z.U. Upravlenie vospitaniem yunogo sportsmena vo vremya zanyatiy fizicheskimi uprajneniyami i na trenirovke // Voprosы nauki i obrazovaniya, 2020. № 20 (104).
5. D.Z.Safarov, BX Xamroev, MM Mavlonov. Ispolzovanie pedagogicheskix texnologiy v protsesse obucheniya gimnastike - Voprosы nauki i obrazovaniya № 14 (139), 2021
6. Safarov D.Z.O‘., Xamroev B.X. Oliy ta’limda gimnastika darslarini innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida o‘qitishi samaradorligi // Scientific progress, 2021. T. 1. № 6.

BO’LAJAK O’QITUVCHI SHAXSINI KASBIY RIVOJLANTIRISH OMILLARI

JUMAEV AXMAMAT SHERMAMATOVICH – O‘ZDJTU DOTSENTI

Abstract. The professional, spiritual, moral, economic, and political relationships of the teacher to the evolution of society as a factor of social action are explored in this article, which focuses on approaches to the professional training of aspiring teachers. In-depth analysis is done on pedagogical ideas such freedom, individual ambitions, interest, knowledge, need, purpose, and action as a factor of social development of the personality of the future teacher.

Rezyume. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini kasbiy rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi shaxsining jamiyat tarqqiyotiga bo‘lgan kasbiy, ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari ijtimoiy faollik omili sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, erkinlik, shaxs intiluvchanligi, qiziqish, bilimdonlik, ehtiyoj, motiv, faollik kabi pedagogik tushunchalar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini ijtimoiy rivojlantirish omili sifatida atroflicha tahlil etilgan.

Tayanch tushunchalar: shaxs, yoshlar, pedagog, shaxs erkinligi, qiziqish, mustaqil fmkrlash, ehtiyoj, motiv, zamonaviylik, pedagogik jarayon, bo‘lajak mutaxassis, kasbiy shakllanish, muloqot, ijtimoiy faollik.

Bugungi kunning dolzarb vazifalari anchagina:1.«Barcha narsa inson uchun, uning manfaati uchun», shiorini amaliyotga tatbiq etish. 2.«Yaratish, va yana yaratish, ijod va bunyodkorlik» qabilida ish yuritishni kundalik odat va tartib-qoidaga aylantirish. 3.Qadriyatlarga hurmat va e’zoz, insonning o‘zini oliy qadriyat tarzida tan olinishini ajdodlardan avlodlarga bekamu ko‘st yetkazish. 4.Inson fenomenida mavjud bo‘lgan botiniy illatlardan qutilish yo‘lini qidirib topish va yo‘l qo‘yilgan xato hamda kamchiliklardan ijobiy saboq chiqarish. 5.Inson omilining barcha tamoyillardan ustuvorligini amalda isbot etish va undan bugungi kun uchun dasturilamal tarzida samarali foydalanish. 6.Kechagi kun va ertangi istiqbol uchun mavjud vaziyatdan oqilona ish tutish orqali saboq olish va kelgusi faoliyat maqsadida metodologik mo‘ljal sifatida foydalanish.

Ta’lim tizimida islohotlar shiddatli davom etib turgan hozirgi davrda ta’lim va tarbiya jarayonini shaklan va mazmunan takomillashtirish zarurati kun tartibidagi asosiy va bosh masala bo‘lmog‘i hamda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi yanada kuchaytirilmog‘i lozimdir. Umuman, ta’lim va tarbiyada inson omili juda muhim komponent bo‘lib, mafkura poligonlarida bo‘shliq bo‘lmasligini ta’minlaydigan qudratli kuch sifatida maydonga chiqishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, bu yilgi davlat dasturi tasdiqlandi. Davlat dasturining har bir bandi mamlakatimiz rivoji uchun ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Mazmunan demokratik va insonparvarlik asosiga qurilayotgan jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti shaxsning shu taraqqiyot talablariga moslik darajasi, uning aql-idrokiga, jismoniy kuch-quvvatiga, ijtimoiy-siyosiy voqelikni anglashiga, ijtimoiy


va kasbiy faolligiga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va ijtimoiy faolligini ta’minlashga qaratilgan va shaxs o‘zida ana shu qobiliyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ham deb ataladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan omillar ham – turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, maqsadlarning yagona majmuasiga buysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir-butun ta’limni ko‘zda tutuvchi ijtimoiy ta’sir majmui bo‘lmog‘i kerak. Har bir shaxs ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, ehtiyoji va mavqega qarab turli xil munosabat va muloqatlar doirasida faol harakatda bo‘ladi.

Ehtiyoj – insonning tirik organizm va shaxs sifatidagi faoliyati uchun moddiy, madaniy (faktorlarga) omillarga zaruratni ifodalovchi shaxs ruhiyatining ma’lum bir holati. Ehtiyojlar insonda faollikni uyg‘otadi va hayotiy faoliyat dasturi sifatida namoyon bo‘lib, uni ma’lum qadriyatlarni egallashga yo‘naltiradi. “Albatta, tug‘ilishdan to o‘limgacha bizning boshqalar bilan o‘zaro ta’sirga kirishishimiz bizning shaxsiyatimiz, hayotiy qadriyatlarimiz va xulq-atvorimizni belgilaydi. Biroq ijtimoiylashuv jarayonida har bir shaxs o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va harakat qilishga layoqat orttiradi” . Buning uchun mazkur omillarni oydinlashtirish, amalga oshirish, nazorat va tahlil qilish kabi ish harakatlari ketma-ketligidan iborat quyidagi texnologik chizmaga asoslanishni talab etadi:

1-jadval

Shaxs faolligini ta’min etish orqali bo’lajak pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning yaxlit tizimi



1-jadvaldan ko‘rinadiki, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan ushbu tizimida talaba maqsadni ko‘zlashi uchun unga erkinlik berish zarur. Erkinlik harakatga, intilishga olib keladi. Albatta bu o‘rinda talabaning bilimdon bo‘lishi zarur sifatlardan biri hisoblanadi. Talabaning bilimi sayoz bo‘lsa, undagi topqirlik, hozirjavoblik, qiziqish ko‘zga tashlanmaydi. O‘z-o‘zidan talaba tashabbusni qo‘lga kirita olmaydi. Demak, talaba ta’limiy jihatdan faollikni qo‘lga kirita olmaydi. Qiziqish – insonning bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlarning hissiy namoyon bo‘lishidir. Bizda qiziqish tug‘dirgan narsa tezroq va mustahkamroq esda qoladi. Aynan mana shu “qiziqish” tushunchasi qanday rivojlanadi? degan savolning yechimini topib olish lozim. Chunki, qiziqish va maqsad, ehtiyoj hamda motiv bir biri bilan chambarchas bog‘lanib keladi. Talabadagi kasbiy layoqat, qobiliyat va moyilliklarni o‘z vaqtida payqash, keyin unda qiziqishni rivojlantirish va ushbu qiziqish asosida talabadagi kasbiy iqtidorni yuzaga chiqarish pedagog, psixolog ustozlarimizning kasbiy mahorati va maqsadiga bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanadi.

Maqsadni ko‘zlash bosqichida – ijtimoiy vaziyatni baholash, o‘zining ta’limiy faoliyatini asosiy maqsadga buysundirish, kelajakdagi muayyan ta’limiy-tarbiyaviy ta’sirlarni qabul qilishga tayyorlik darajasiga tashxis qo‘yishdan iboratdir. Shuningdek, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, ehtiyoj va motivni bir biri bilan bog‘lanib keladi dedik. Demak, ehtiyojning qondirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga undovchi va uning yo‘nalishini belgilovchi sabablar motivlar deb ataladi.

Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma’noni bildiradi.

Motivatsiya–motivlarningharakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig‘indisidir.

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi faoliyatida egallanishi lozim bo‘lgan kasbiy-madaniy fazilatlarni olib qaraydigan bo‘lsak, bular: mehribonlik, g‘amxo‘rlik, bolajonlik, bilimdonlik, zukkolik, muloqatga va munosabatga kirishuvchanlik, kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘ziga talabchanlik, mas’uliyatlilik, qiziquvchanlik, mustaqil fikr, tashkilotchilik, tadbirkorlik, qat’iyatlilik, kamtarlik, pedagogik madaniyat va kabilardan iborat.Bufazilatlardanbirontasiyetishmaydigan bo‘lsa, talabada pedagogik mahoratning shakllanishida muayyan muammoli vaziyatlar kelib chiqishi mumkinligi aniqlandi. Buning uchun:

Maqsadni aniq qo‘yilishi maqsadga erishish jarayoni kafolatli natija hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy faol va raqobatbardosh o‘qituvchi shaxsi mehnat bozorida o‘zining kasb mahorati, qobiliyati, ijodkorligi, insoniylik qirralari hamda vatanparvarlik tuyg‘usi bilan ajralib turadi. Tadqiqot ko‘rsatuviga muvofiq, bu jarayonda pedagogik mahoratning to‘rtta elementiga asosiy e’tibor qaratilishi lozimligi aniqlandi. Bular: insonparvarlik, kasbiy bilimdonlik, kasbiy qobiliyat va pedagogik texnika.

O‘qituvchi shaxsi hamisha ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Zamonaviy o‘qituvchi esa munosabatlar muvozanatini ko‘ra bilishga, uni rivojlanish sari unday olishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Zamonaviylik har doim yangicha pedagogik – psixologik idrokni talab etadi. Pedagogika va psixologiya fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘shadi. Shunga muvofiq, zamonaviy o‘qituvchi shaxsining kasbiy va ijtimoiy faolligi jamiyatni ijtimoiy sog‘lomlashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy faolligini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog‘imiz lozim.

Amaliyot va uzoq yillar davomida olib borilayotgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatayaptiki, shaxslarning ko‘p qirrali faoliyati murakkab va qarama-qarshilikdan iborat bo‘lganligi uchun aholi o‘rtasidagi munosabatlari, fikr- mulohazalari, baholash mezonlari bir tekisda rivojlanib bormaydi. Shaxsning qalbi, ruhiyatida kechadigan har bir yangilanish, o‘zgarish uning hayotga bo‘lgan qarashini, munosabatlarini, kelajak rejalarini ham muayyan ma’noda o‘zgartiradi. Demak, jamiyatda o‘zgarmaydigan munosabatlar va qarashlar bo‘lishi mumkin emas. Ta’lim-tarbiya tizimida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi muammosi zamonaviy talablar doirasida o‘rganib chiqilishi asosida bugungi kun o‘qituvchisining kasbiy, shaxsiy tayyorgarligiga nisbatan qator talablar tizimi shakllantirilgan. Zamonaviylik o‘z navbatida keng ma’noga ega bo‘lgan tushuncha bo‘lib, o‘qituvchi shaxsining jamiyat tarqqiyotiga bo‘lgan kasbiy, ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari hamda fuqarolik mas’uliyatini belgilovchi o‘lchov hisoblanadi.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya ham yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir va bo‘lajak pedagok shaxsini kasbiy rivojlantiradigan omil hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim talablaridan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o‘qitishni jadallashtirish vazifasi dolzarb sanaladi. Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog va tarbiyachilarning salohiyati, kuchli kasbiy bilimi va mahorati ko‘p narsani belgilaydi. Ularning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi.
2. Giddens E. Sotsiologiya: oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Tarjimonlar N. Mamatov va J Boymatov. – T.: Sharq, 2002. – 848 b.
3. A.Sh. Jumaev. Pedagogik faoliyatda shaxs xususiyatlari va kasbiy sifatlar o‘rtasidagi psixologik uyg‘unlik // O‘zMU xabarlari № ½, 2015, 142-145 b.
4. M.Quronov, Z.Qurbaniyazova. Ijtimoiy pedagogika. – T.: 2003.-48 b.
5. Utanov U., Qo‘shatov T. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi ma’naviyatini shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish shakl, metod va vositalari // O‘zMU xabarlari – Toshkent, 2015. - №1/2. – B. 158.
6. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7 sinf tarix darslari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2009. – B. 36.

INTERAKTIV METODLARNING TA’LIM JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISHDA TUTGAN O‘RNI

EGAMBERDIYEVA YULDUZ URINBOYEVNA –FarDU Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
TO‘LQINOVA NURXONOY AHADJON QIZI – FarDU talabasi

Annotatsiya: Maqolada interaktiv metodlar va texnologiyalarni o‘qitishning yangi usullari sifatida qo‘llashning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatlari, guruhli muhokamalarda fikr almashish, onlayn resurslar va raqamli platformalarni qo‘llashning pedagogik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Ta’limda texnologiyalashuv va interaktiv metodlarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, o‘qitish samaradorligini yaxshilaydi va o‘quvchilarni mustaqil o‘rganish jarayoniga jalb etadi.

Kalit so‘zlar: interaktiv metodlar, ta’lim jarayoni, texnologiyalashuv, pedagogik yondashuv, o‘quvchi faolligi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, raqamli platformalar, guruhli ish, onlayn resurslar, ta’lim innovatsiyalari, o‘qitish samaradorligi.

An’anaviy usullarga nisbatan afzallik. An’anaviy darslarda o‘quvchilar asosan o‘qituvchiga qaram bo‘lib qoladi va passiv eshituvchi rolini bajaradi. O‘yin texnologiyalari esa ularni markaziy subyektga aylantiradi – bu esa ta’lim sifatining oshishiga olib keladi.

Gubaidullina F.S. (2019) shuni ta’kidlaydiki, “o‘yin o‘quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi va muammolar yechuvchisiga aylantiradi” [3].

O‘yin texnologiyalari kimyo fanining murakkab nazariyasini soddalashtiradi, o‘quvchilarni rag‘batlantiradi va ularni mustaqil bilim olishga undaydi. Shu bilan birga, bu yondashuv o‘quvchilarni fanlararo integratsiyaga olib boradi va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya o‘yin faoliyati. – Moskva: Pedagogika, 1991.
3. Gubaidullina F.S. Didaktik o‘yinlar orqali fan o‘qitish. – Ufa, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2019-yil.
5. Muhamedova S. Maktab darslarida gamifikatsiya usullari. // Kimyo va Biologiya, 2021, №2.
6. Barab S., Gresalfi M., Ingram-Goble A. Transformational Play: Using Games to Position Students as Scientists. – The Journal of the Learning Sciences, 2010.
7. To‘xtaniyozova F.O. Kognitiv qiziqishni shakllantirish usuli sifatida kimyo darslarida o'yin texnologiyalari// science shine international scientific journal, 2025, № 1 (1). 278-283 betlar.
8. Dalolatnoma. Surxondaryo viloyati Termiz shahri “Termiz olimpiya va paraolimpiyada sport turlariga tayyorlash” Markazida o’tkazilgan tajriba-sinov natijalari, 2025 y mart.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

SIDIKOVA ZULFIYA MURODJON QIZI - FarDU, o‘qituvchi
XOLDAROVA IRODA VALIJONOVNA - FarDU, professor

Annotatsiya. Bu maqola, ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilindi. Xususan, rossiyalik va mamlakatimiz olimlarning tarbiya nazariyasiga oid ta’riflari keltirildi. Ular tomonidan ta’lim oluvchilarni milliy an’analar, boy tarixiy o‘tmish, insoniylik, ezgulik. odillik g‘oyalari asosida ma’naviy takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Ular ma’naviy madaniyat, milliy qadriyatlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchisining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Ta’lim, odob-axloq va shu kabi shakllarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirishdir. Shuningdek, insonda ish-hunar, odob-axloqni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilar tushuniladi. Ta’lim so‘zi ham arab tilidan olingan bo‘lib, o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish, ma’lumot berish ma’nolarida qo‘llaniladi. Yana bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Shuningdek, ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumot va ko ‘nikmalar majmui va xulosalar haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, ta’lim dasturi, rivojlanish, boshlang’ich ta’lim, pedagogik-psixologik, qadriyat, tarbiya nazariyasi, ta’lim jarayoni, ma’naviy takomillashtirish, jamiyat taraqqiyoti, axborotlashgan jamiyat, modernizatsiya, rivojlantirish omili

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga berilayotgan e’tibor, Prezidentimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, yoshlarimizni bilim olishlari uchun yaratilgan shart- sharoitlar tahsinga sazovor. Aynan bu jarayonda yoshlar bilimini oshirish, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu borada oliy ta’lim sohasida xorijiy tajribalar integratsiyalashuvi rivojlantirishning ahamiyati va o‘rni kattadir.

Globallashuv - insoniyatning ongu-shuuri va tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon. U chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan, axborotlashgan jamiyatga o‘tish jarayonidir. Bunday jamiyatda faqat inson tafakkuri yetakchi o‘rin egallaydi.

Tafakkur - jamiyat taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi oyna. Bu oynada muvaffaqiyatlar ham, kamchiliklar ham ayon ko‘rinadi. Sir emaski, insonning nechog‘lik mukarramligi, komilligi fikrlash darajasi, tafakkuri bilan belgilanadi. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini qay darajada shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashtirish jarayoni bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi 2012-yil 16-17-fevral kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqida XXI asrga shunday ta’rif beradi: “Biz yashayotgan XXI asr - intellektual boylik hukmron qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual

boylikka intilish har qaysi millat va xalq kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar”. Intellektual boylik va salohiyat manbasi, uni rivojlantirish omili ta’lim-tarbiya jarayonining sifati hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlardan ta’lim sifati insoniyatning barcha hayotiy-muhim faoliyatlariga ta’sir etadi.

Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida ham global o‘zaro bog‘liqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta ta’sir etishi mumkin. Yuzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning yechimi faqatgina insoniyatdan kelajakda aqliy va ma’naviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esa faqatgina to‘g‘ri va sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish orqaligina erishish mumkin.

Ikkinchidan, ta’limning asosiy yo‘nalishi tarbiyaga borib taqaladi. Tarbiya o‘ta muhim, o‘ta murakkab va o‘ta dolzarb masala bo‘lib kelgan va bo‘lib qoladi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobidagi “Tarbiyaning zamoni” bobida shunday jumlalar bor. “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur? - degan savol keladur. Bu savolga “birinchi-uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi-maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”- deb javob bersak.

Aynan ana shu maktab va madrasa tarbiyasini avval ham, hozir ham muallim-pedagoglar amalga oshirib kelishgan. Bizningcha, tarbiyada atrof-muhit ta’siri ham yetakchi o‘rinni egallamoqda. Bolalar ko‘proq eshitganini yoki o‘qiganini emas, balki ko‘rganini qilishga harakat qilishadi. Demak, bir so‘z bilan aytish mumkinki, ta’lim -tarbiya sifatli bo‘lishi uchun biz o‘zimiz (pedagoglar) sifatli ta’lim berishga munosib bo‘lishimiz zarurdir.

Uchinchidan, insoniyatning barcha hayotiy muhim munosabatlari (siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy va b.) - insonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirga bog‘liq holda shakllanadi hamda rivojlanadi. Ta’lim sifatiga bog‘liq holda ushbu munosabatlar darajasi va albatta siyosiy-iqtisodiy munosabatlar ham o‘zgaradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilganlardan xulosalash mumkinki, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta’lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo‘lmaydi.

Barcha muammolarni faqatgina yuksak darajadagi ong, to‘g‘ri tafakkur va beqiyos bilim, yuksak ma’naviyat va ma’rifat yo‘li bilangina hal etish mumkin. Bunga ta’lim-tarbiyaga e’tiborni yanada oshirish, bu sohaga yanada ko‘proq mablag‘ ajratish orqali ta’lim sifatini yuksaltirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida bayon etilgan ko‘rsatmalarni amalga oshirish va tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini jahon ta’limi andozalari talablariga mos bo‘lishini ta’minlash bugungi kunda ta’lim tizimi oldidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘z o‘rnida mazkur masala va muammolar yechimi yo‘lida yurtimizda keng ko‘lamdagi ta’lim islohotlarini amalga oshirish, ta’lim jarayoniga axborot va zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash kabi vazifalarni amalga oshirish ta’limga yangicha yondashuvni talab etadi.

Zotan, ta’lim va tarbiyaning hayot

talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o‘rganish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, “Tarbiya“ fanining asosiy vazifasi o‘quvchilarda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida g‘oyaviy bo‘shliq vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni ajdodlarning shonli kechmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Ayniqsa, axborot va globallashuv asri deb atalayotgan bugungi kunda ushbu maqsadga erishish uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning uchinchi jildida tarbiya so‘ziga quyidagi ta’rif berilgan. Tarbiya so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, rivojlantirish, o‘stirish, o‘rgatish, ilm berish ma’nolarini bildiradi. Ta’lim, odob-axloq va shu kabi shakllarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirishdir. Shuningdek, insonda ish-hunar, odob-axloqni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilar tushuniladi.

Ta’lim so‘zi ham arab tilidan olingan bo‘lib, o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish, ma’lumot berish ma’nolarida qo‘llaniladi. Yana bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Shuningdek, ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumot va ko ‘nikmalar majmui hisoblanadi.

Metodika - pedagogika fani sohasida ma’lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Fanni o‘qitish metodikasi - ta’lim tizimida ushbu o‘quv fanining ahamiyati va o‘rnini belgilaydi, uning vazifalari, o‘qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo‘yicha qo‘llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o‘z ichiga oladi.

“Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo‘lib, o‘qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishga yo‘naltirilib, u o‘quvchilarga ushbu fandan puxta bilim berish, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda tarbiya kursining maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarbiya fanini o‘qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini asosiy fan sifatida o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, tarbiya o‘qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Xalq ta’limi tizimida ham sifatli ta’limni joriy etish maqsadida, barcha o‘qituvchilar tushunadigan sodda va aniq tilda “Dars muqaddas”, “O‘rgan - o‘rgat”, “Sog‘lom muhit - sog‘lom jamoa”, “Uzluksiz va uzviy” kabi innovatsiyalar amaliyotga joriy qilindi. Mazkur innovatsiyalarning mantiqiy davomi sifatida “Yaxshi muallim - sifatli ta’lim” deb nomlangan tashkiliy metodik tadbirlar kompleksi tavsiya etilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda:

- bugungi kunda o‘quvchi yoshlarning aqliy kamoloti rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta’lim mazmuniga talabchanligi tabiiyki, har bir o‘qituvchini o‘z ustida ishlashga, malakasini oshirishga, ongi va salohiyatini rivojlantirishga, tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo‘lib borishga undaydi;

- bugungi kunda shiddat bilan kechayotgan jarayonlar yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi

pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarning mazmun va mohiyati, o‘ziga xos xususiyati va dars jarayonlarida qo‘llash usullarini chuqurroq o‘rganish, tadqiq etish lozimligini anglatmoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish zarur bo‘lganidek, o‘z o‘rnida pedagoglarda ham ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri va muvaffaqiyatli tashkil etish mahoratini oshirish lozimligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda “Tarbiya” fanini o‘qitish da quyidagi eng muhim talablar qo‘yilmoqda:

- har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, ya’ni darsdan ko‘zlangan maqsad hamda o‘quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o‘tgan darsdagi o‘tilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jihozlarni belgilash va qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratish;

- -“Tarbiya” fanini (1-4-sinflar), (5-6-sinflar), (7-8-9-sinflar), (10-11-sinflar) o‘qitish bo‘yicha interfaol usullarni qo‘llash, amalda qo‘llanilayotgan va yangi o‘quv qo‘llanmalarning mazmunini o‘rganish va tahlil etish;

- dars mavzularini bayon etishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan muqaddas manbalarimizdan, ertak, rivoyat, hikoya, maqol va hikmatlardan, buyuk ajdodlarimizning boy meroslaridan, hozirgi zamon bolalar shoiri va yozuvchilarining asarlaridan qiziqarli tarzda tashkil etiladigan darslar orqali unumli foydalanish;

- fanlararo uzviylikka e’tibor berish, amaliy, ijodiy mashg‘ulotlarni ko‘proq kiritish, bu borada mahoratli o‘qituvchilarning ijodiy ish tajribalaridan keng foydalanish.

“Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida har bir pedagog ta’lim muassasasining spetsifik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini o‘quvchilar jamoasining umumiy tayyorgarliklariga individual va differensial yondashgan holda tashkil etmog‘i va amalga oshirib bormog‘i lozim.

XULOSA

Jamiyat, madaniyat va ta’lim rivojlanayotgan, globallashuv tobora keng avj olayotgan bugungi kunda milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda ta’limiy innovatsiyalar tatbiqini yaxshilash, ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini innovatsion yo‘naltirishning zarurligini quyidagi holatlar belgilaydi:

- birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ta’lim sifatini yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarish zarurligini taqozo etadi. Bunda pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish, foydalanish va ta’lim jarayoniga tatbiq etishni o‘z ichiga olgan o‘qituvchilar pedagogik faoliyatining innovatsion yo‘nalganligi ta’lim siyosatini yangilash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

- ikkinchidan, ta’lim mazmunining insonparvarlashuvi, o‘quv predmetlari hajmi va tarkibining o‘zgarishi ta’limning yangi tashkiliy shakl va texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etilishini talab etadi.

- uchinchidan, o‘qituvchilarning pedagogik yangiliklarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishga bo‘lgan munosabatlari o‘zgarib bormoqda. Avval innovatsion pedagogik faoliyat, asosan yuqoridan taklif etilgan yangiliklarni ta’lim jarayoniga joriy etish bilan cheklangan bo‘lsa, hozir u tanlanadigan tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib bormoqda. Shuning uchun, ta’limni boshqarish

tashkilotlari faoliyatida o‘qituvchilar tomonidan ta’lim amaliyotiga kiritilayotgan pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, ularni ishlab chiqish va tatbiq etish uchun qulay ta’limiy sharoit yaratish muhim yo‘nalishga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Pedagogika entsiklopediya II jild. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. - B.102.
5. Raximova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bosqichlari va mazmuni // Uzluksiz ta’lim. - Toshkent, 2021. - B. 98-102.
6. Yo‘ldosheva S. O‘zbekistonda yoshlarni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Ped.f.n. ... diss. - T.: 2000. -109 b.
7. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. - T.: 1993. -364 b.
8. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Avtorefarat. pedagogika fan. nom. diss. - T.: 2005. - 8 b.
9. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... dis. - T.: 2007. -377 b.
10. Musayev F.A. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. Falsafa fan...dok. diss. T.: 2008. 36 b.
11. Zulfia, S. (2023). Methodology of Teaching the Heritage of the Ancestors through Teaching the Science of Education to Primary Class Students. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(8), 121-125.
12. Qizi, S. Z. M. (2021). Pedagogical Mechanisms Of The Formation Of The Social Outlook Of Future Teachers In The Context Of The Informatization Of Education. The American Journal Of Applied Sciences, 3(04), 203-207.
13. Inomzoda, A. A. (2021). " Improving The Teaching Of" Education" On the Basis of Multimedia Technologies"(On the Example of Primary Classes). Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2, 88-90.
14. Abdujabborovna, K. S. (2021). Pedagogical Conditions Of Professional Direction Of Pupils Of The Orphanage. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 1(2), 158-160.
15. Ўринова Ф, Сидикова З. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИ НУТҚ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБ ВА УНИНГ АХАМИЯТИ. Scientific Bulletin of Namangan State University. 2019;1(12):344-7.

O‘QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISH FUNKSIYALARI

NOSIROV NODIRBEK VALIJONOVICH
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiyalar yordamida o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari, o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash masalalari tahlil etilgan. O‘qituvchilarni tayyorlashda loyihaviy yondashuvli yangi pedagogik usullarni ishlab chiqishga, ijodiy va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga, shuningdek, talabalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Maqolada o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalaridan foydalanish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy mahorat, o‘qituvchilar, kasbiy mahorat, malaka, o‘qitish, loyihalash texnologiyasidan foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5847-sonli Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi. Ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga munosib hissa qo‘sha oladigan, mehnatda o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bugungi kunning asosiy talabidir.

O‘qituvchining o‘quv va metodik faoliyatini ko‘rib chiqishda, izoh tariqasida, “metodik kompetentlik” atamasi mualliflik atamasining izohi berilib o‘tiladi. Deyarli barcha mualliflar N.A.Muslimov, O‘Q. Tolipov, Sh.S.Sharipov, T.N.Gushchina, N.V.Teltevskaya, V.D.Simonenkolar metodik kompetentlik insonning o‘z kasbiy ma’lumot darajasi, tajribasi va individual qobiliyatlari, uning doimiy o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini takomillashtirishga intilishi, faoliyatga ijodiy va mas‘uliyatli munosabati bilan belgilanadi degan fikrni beradilar.

O‘qituvchisining metodik kompetentligi - bu faqat bilimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan emas, balki ularning amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va o‘quvchilarning texnologik faoliyatga qiziqishini uyg‘otishga qaratilgan kompleks jarayondir. O‘qituvchi o‘z o‘quv faoliyatida zamonaviy pedagogik va metodologik yondashuvlar va didaktik prinsiplardan, innovasion ta’lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalari vositasidan foydalangan holda yuqori samaradorlikka erishishi tushuniladi.

O‘qituvchisining metodik kompetentligi - bu mutaxassisning shaxsiy sifatlari (mustaqil qaror qabul qilish, o‘zini-o‘zi takomillashtirish va boshqa) hamda pedagogik va amaliy

faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir. O‘qituvchi o‘z faoliyatini metodik jihatdan to‘g‘ri va samarali tashkil etish uchun bir qator tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak: - birinchisi pedagogik tayyorgarlik bunda o‘qituvchi pedagogika, psixologiya va ta’lim metodikasini yaxshi o‘zlashtirishi lozim. Buning uchun u ta’limning asosiy prinsiplarini, o‘qitish usullarini, o‘quv jarayonidagi o‘quvchilarni individual-psixologik xususiyatlarini bilishi zarur; - ikkinchisi metodik tayyorgarlik bunda o‘qituvchi fanini o‘rgatish usullarini, o‘quv materiallarini tanlash, shunday tarzda ishlashni o‘z ichiga oladiki, o‘quvchilarning qiziqishini qozonish, ularga yangi bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkoniyat yaratishda iborat. O‘qituvchi faqat fanni o‘rgatib qo‘yish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning konstruktorlik- texnologik ko‘nikmalarini shakllantirishga ham mas’uldir. Ularning funksional vazifalari konstruktorlik-texnologik ishlanmalarni tayyorlash, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishdan iborat. Shu bilan birga o‘quv-bilish metodlarini to‘g‘ri tanlash, mustaqil ishlash, guruhda ishlash, amaliy mashg‘ulotlar, keys-stadiylar, modellashtirish va boshqa innovasion o‘qitish metodlaridan foydalanishi lozim. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga yordam beradi; - uchunchisi amaliyotga yo‘naltirilgan tayyorgarlik, bunda ta’limning muhim jihatlaridan biri amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratishida ko‘rinadi, ushbu amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilarga yangi texnik vositalar va materiallar bilan ishlashni o‘rgatish, ishlab chiqarish jarayonini kuzatish va texnologik tajribalarni o‘rganishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq; - to‘rtinchisi ijodiy va tahlil qilish kompetensiyalarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati, bunda o‘qituvchi yangi texnologiyalar va metodikalardan foydalanishga tayyor bo‘lishi, yangi ishlanmalarni tahlil qilish va ularga yangicha yondashuvlar ishlab chiqishi zarur. Ushbu qobiliyat o‘quvchiga yangi bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni samarali o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi; - beshinchisi innovasion texnologiyalardan foydalanish, ushbu yo‘nalishda ta’limning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq ravishda axborot-kommunikasiya texnologiyalari, internet resurslari, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi zamonaviy dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanishni o‘rganishi maqsadga muvofiq; - oltinchisi ta’limni tashkil etish va o‘quvchilar bilimini baholash usullari bilishida ko‘rinadi, bu yani o‘qituvchining metodik kompetentligining yana bir muhim qismi - bu ta’lim jarayonini samarali baholash usullarini ishlab chiqishdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimini tekshirish, amaliy ish natijalarini baholash va ularning ishlanmasiga baho berishda samarali usullarni qo‘llash lozim.

Metodik kompetentlikni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish metodikasi hozirgi paytda ta’lim tizimida ro‘y berayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi yangicha voqealar bilan bog‘liq o‘zgarishlar, jahon ta’lim makoniga intilish, yangi axborot texnologiyalari paydo bo‘lishi o‘qituvchi tayyorlashning an’anaviy doiralaridan chiqishning yangi yo‘llari haqida o‘ylanishga, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlar izlab topishga majbur qilmoqda.

Metodik kompetentlikni tuzilishini ko‘rib chiqishdan oldin, uning takomillashtirish talabaning OTM bosqichining dastlabki bosqichlaridan boshlanishi kerak degan fikrga to‘xtalamiz. O‘qituvchining metodik kompetentligini shakllanishida umumiy kasbiy tayyorgarlik fanlari muhim rol o‘ynaydi. Metodik kompetenlik tarkibida olimlar quyidagi tarkibiy qismlarni ajratadilar: shaxsiy, faoliyatli, intelektual va boshqalar. O‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish tamoyillari: o‘qituvchilarining

metodik kompetentligini takomillashtirishning integrativ tamoyili; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning elementar mexanizmlaridan ongli ravishda boshqariladigan va o‘z-o‘zini boshqaradigan jarayonga o‘tish tamoyili; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonida pedagogik baholash, o‘zini o‘zi baholash va refleksiv tamoyili; pedagogik (didaktik) jarayonni loyihalash; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning individual harakat yo‘nalish tamoyillari; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini bosqichma-bosqich takomillashtirish tamoyili.


O‘qituvchining metodik kompetentlik tushunchasini shakllantirish, kasbiy kompetentlik tushunchasiga murojat qilishni talab qiladi. Ushbu shaxsiy xususiyatning taniqli ta’riflarining keng doirasi faqat yuqorida keltirilgan umumiy kompetentlikni tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan talqinlarni tahlil qilishga qaratilgan.

O‘qituvchining metodik kompetentligining funksiyalari: metodologik yondashuv; kommunikatuv yondashuv; individual talablar; malaka talablar; xususiy holati. O‘qituvchining metodik kompetentligining funksiyalari jamoada va undan tashqarida turli darajadagi munosabatlarni o‘rnatish uchun metodik faoliyatning muhimligini anglaydi: talaba-talaba, talaba-o‘qituvchi, talaba-texnika va boshqalar.

O‘qituvchining metodik kompetentligini takomillashtirishning to‘rtta quyi tizimi mavjud: didaktik vositalar (munozaralar, dialoglar, pedagogik vaziyatlar, loyihaviy suhbat), o‘qituvchining o‘quv va ishlab chiqarish faoliyatida munosabatlarni o‘rnatishga tayyorligini takomillashtirishga va pedagogik ishning ahamiyatini tushunishga yordam beradigan motivatsion komponentni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega;

innovatsion vositalar (keys-metodi, proyeksion faoliyat, testlar), operatsion-faoliyat komponentini takomillashtirishda samarali o‘quv va ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon yaratadi; taqlid qilish (imitatsion) (ishbilarmonlik o‘yinlari: immitatsion, rolli o‘yinlar), o‘qituvchining o‘quv va ishlab chiqarish rollarini o‘ynashga qaratilgan kommunikativ va refleksiv komponentlarni takomillashtirish uchun ahamiyatli; analitik vositalar (pedagogik muammoli vaziyatlar, seminarlar), o‘qituvchining metodik kompetentligini kognitiv tarkibiy qismini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan texnologiyalar, uning mazmuni o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘quv va ishlab chiqarish ishlarida o‘zaro munosabatlarni ishlab chiqishdir.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. O‘qituvchisining metodik kompetentligining tarkibiy tuzilmasi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Metodik kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixalogik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va komunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Tayanch va kasbiy kompetensiya – bu talabaning OTM bosqichida ega bo‘lgan kompetentliklar majmui sanaladi. U quyidagi tayanch kompetentliklarni o‘z ichiga oladi: axborotlar bilan ishlash, kommunikativ, mustaqil, ijodiy, ijtimoiy.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - bu muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish, o‘zgartirish va qo‘llash qobiliyati.

Kreativ kompetensiya - o‘qituvchi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglash ko‘rsatkichidir. Bu axloqiy madaniyatni, ideallarni, ma’naviy qadriyatlarni tavsiflaydi; asosiy kompetensiya – bu talaba OTM da (uning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari va pedagogik faoliyatida dastlabki tajribaga ega bo‘lganda) shakllanadigan kompetensiya hisoblanadi. U quyidagi asosiy (maxsus) kompetentliklarni o‘z ichiga oladi: maqsadli, tashkiliy, tarkibiy, loyihalash, monitoring.

Texnologik kompetentlik - talabalarni ta’lim yo‘nalishiga oid fanlarni bilishning aniq usuli sifatida tanishtirish, sohaga oid innovatsion texnologiyalar va voqelikni dialektik o‘zaro bog‘liqligini tushunishini shakllantirish bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarga tayyorlash imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Kommunikativ kompetensiya - bu boshqa insonlar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyati; mustaqil kompetensiya - bu o‘rganishga mustaqil ravishda yondashish, maqsadlarni belgilash, natijalarni rejalashtirish qobiliyati. Ijodiy kompetensiya - bu ijod qila olish, mustaqil izlanish qobiliyati.

Keltirilgan kompetentsiyalar o‘qituvchining metodik tayyorgarligida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari bugungi zamonaviy ta’lim jarayonida katta ahamiyatga egadir. Talabalarni jahon talablariga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun o‘qituvchilar doimo o‘sib borishi, o‘z ustida ishlashi zarur. Shu maqsadda oliy ta’lim tizimida loyiha texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Loyiha texnologiyalari - talabalar va o‘qituvchilar tomonidan muayyan muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish uchun loyihalar ustida ishlash orqali amalga oshiriladigan ta’lim jarayonidir. Bu yondashuvda ta’lim jarayoni an’anaviy metodlarga emas, balki amaliy va mustaqil ta’lim usullariga asoslanadi. Loyihaga asoslangan texnologiyalar orqali o‘qituvchilar va talabalar mavzu yoki muammo ustida birgalikda ishlaydi va natijaga erishish uchun aniq qadamlarni bajaradi.

O‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirishda loyihalash texnologiyalarining ahamiyati quyidagilardan iborat:

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish: loyihalar ustida ishlash o‘qituvchilarga muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash va fikr yuritish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Bu ularning o‘quv jarayonida yanada samarali ishlashiga yordam beradi;

Ijodkorlik va innovatsion yondashuv:

Loyihaviy yondashuv ijodkorlikni talab qiladi, bu esa o‘qituvchilarga darslarini qiziqarli va samarali o‘tkazish uchun turli yangiliklarni amalga oshirish imkonini beradi. O‘qituvchilar rivojlanish jarayonida loyihalarni amalga oshiradilar, ular yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni hal qilishda innovatsion usullardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

Hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish: loyihaga asoslangan texnologiyalar jamoaviy ishlashga yordam beradi, chunki loyihalarda ko‘pincha bir nechta o‘qituvchilar birgalikda ishlaydi. Bu ularga bir-birining tajribasidan o‘rganish, samarali muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi;

Texnologiyalarni qabul qilish: zamonaviy ta’limda turli texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Loyihalar ustida ishlash o‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanishni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Loyiha texnologiyalari o‘qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qiladi:

Amaliy tajribani oshiradi: Loyihalar amaliy tajribani oshirishning ajoyib usuli. Loyihalarda ishtirok etish orqali o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy mahoratlarini amalda mustahkamlaydilar, o‘zlariga yangi ko‘nikmalar qo‘shadilar;

O‘qitishning yangi usullaridan foydalanishni rag‘batlantiradi: Loyihalar o‘qituvchilarni o‘z darslarida yangi pedagogik va didaktik usullardan foydalanishga undaydi. Masalan, analitik va tanqidiyfikrlashgayo‘naltirilgantopshiriqlar bilan tanishtirish, o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va ular bilan muntazam muloqot qilish;

O‘zaro tajriba almashish: Loyiha texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarni tajriba almashishga undaydi. Masalan, loyiha davomida o‘qituvchilar o‘z hamkasblari bilan o‘qitish usullari, didaktik materiallar va boshqa qo‘shimcha manbalar bilan bo‘lishishlari mumkin;

Kasbiy malaka oshirish kurslari va seminarlari: Loyiha texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun o‘qituvchilar turli o‘quv kurslari va seminarlarga jalb etilishi mumkin. Ushbu tadbirlarda o‘qituvchilar loyiha yaratish va ulardan foydalanish, amaliy usullarni o‘rganmoqda;

Baholash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi: Loyihalarda ishtirok etish orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘zlarining, balki boshqa o‘qituvchilarning ishini ham baholash imkoniyatiga ega. Bu ularni mustaqil ravishda o‘z-o‘zini baholash va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga o‘rgatadi.

Tavsiyalar. O‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish va ularning jarayon yo‘nalishi va muammoni qo‘yish bilan muvofiqligi asosida tavsiyalar tayyorlanadi, bunday innovatsion texnologiyadan amaliy foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. Funksiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchilarga o‘z malakalarini oshirish shuningdek, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari va loyiha texnologiyalari katta rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashlari, yangi pedagogik va texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari, ijodkorlik qobiliyatini oshirishlari va jamoaviy ish faoliyatini rivojlantirishlari uchun

imkoniyat yaratadi. O‘qituvchilar metodik kompetentligini oshirib, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyat qozonishi uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.
3. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta‘limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2006.-46 b.
4. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.
5.Nosirov.N.V. “Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati” Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O‘zbekiston. Toshkent. 4-son 2022 yil.-525 b.
6.Nosirov.N.V. “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari” «Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology» International Jourtal on Integrated Education. Researcg Parks Publishing Indonesia. In Vol.6 No r (2023). Indoneziya. -195 b.
7. Nosirov, N. (2023). Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. Scientific Journal of the Fergana State University, (1), 207.
8. Nosirov, N.V. (2023, July). Education of future technological education teachers: Forming the skills of using technologies. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 13–16).
9. Nosirov, N.V. (2023). Future teachers of technology: Methodological competence formation factors. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 1(2), 32–37.
10. Nosirov, N.V. (2023). Preparing future technological education teachers for methodological-innovative activity. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 300–303.
11. Nosirov, N. (2023). Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. Scientific Journal of the Fergana State University, (1), 207.
12. Nosirov, N.V. (2023, September). Teaching methods for future technological education teachers in specialist subjects based on digital technologies. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 8–11).

XUSUSIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA ILG‘OR XALQARO TAJRIBANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI VA YO‘L XARITALARI

HAMDAMOV G’IYOSBEK ABDUVALIYEVICH,
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Xususiy oliy ta’lim muassasalarini boshqarish globallashuv, texnologik taraqqiyot va rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlari sharoitida tobora murakkablashib bormoqda. Eng yaxshi xalqaro tajribalarni joriy etish boshqaruvni, akademik sifatni va operatsion samaradorlikni oshirish uchun keng qamrovli asos yaratadi. Ushbu maqolada yetakchilik, sifat kafolati, o‘quv dasturlari innovatsiyasi, professor-o‘qituvchilarni rivojlantirish, texnologiya integratsiyasi, moliyaviy barqarorlik, xalqarolashtirish, manfaatdor tomonlarning ishtiroki va doimiy takomillashtirishga urg‘u berib, ushbu amaliyotlarni qo‘llash bo‘yicha asosiy strategiyalar va yo‘l xaritalari o‘rganiladi. Global ekspertlarning fikrlari va muvaffaqiyatli amaliy tadqiqotlarga tayangan holda, ushbu maqola Xususiy oliy ta’lim muassasalarning raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar. Xususiy oliy ta’lim, xalqaro ilg‘or tajribalar, boshqaruv strategiyalari, sifatni ta’minlash, o‘quv dasturlari innovatsiyasi, o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish.

Абстрактный. Управление частными высшими учебными заведениями (ЧВО) становится все более сложным в условиях глобализации, технического прогресса и потребностей развивающегося общества. Внедрение передового международного опыта обеспечивает комплексную основу для улучшения управления, академического качества и операционной эффективности. В этой статье изложены ключевые стратегии реализации этих практик с упором на лидерство, обеспечение качества, инновации в учебных программах, развитие преподавателей, интеграцию технологий, финансовую устойчивость, интернационализацию, взаимодействие с заинтересованными сторонами и постоянное совершенствование, а также изучаются дорожные карты. На основе мнений мировых экспертов и успешных примеров из практики в данной статье представлены практические рекомендации по повышению конкурентоспособности и устойчивости ЧУЗ.

Ключевые слова. Частное высшее образование, лучшие международные практики, стратегии управления, обеспечение качества, инновации в учебных программах, развитие преподавателей.

Kirish. Xususiy oliy ta'lim muassasalarini boshqarish murakkab va dinamik jarayon bo'lib, sifatli ta'limni moliyaviy barqarorlik bilan muvozanatlash uchun nozik yondashuvni talab qiladi. Menejment sohasida ilg‘or xalqaro tajribalarni qabul qilish tobora kuchayib borayotgan global ta’lim bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun yo‘l xaritasini taqdim etadi. Ushbu hujjat ushbu ilg'or tajribalarni amalga oshirish strategiyalari va yo'l xaritalarini o'rganadi, ekspert xulosalari va dunyo bo'ylab muvaffaqiyatli institutlarning amaliy tadqiqotlariga asoslanadi.

Strategik qarash va yetakchilik. Eng ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etishning asosiy qadamlaridan biri samarali rahbariyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan aniq strategik qarashlarni shakllantirishdir. Oksford universiteti professori Saymon Marginsonning so'zlariga ko'ra, "Mustahkam strategik asos muassasalarga mahalliy ehtiyojlarni qondirish bilan birga o'z maqsadlarini global standartlarga moslashtirish imkonini beradi".[1] Xususiy oliy ta’lim muassasalari rahbariyati innovatsiyalar va mukammallik madaniyatini rivojlantirish

1 Marginson, Simon. "Higher education and public good." Higher education quarterly 65.4 (2011): 411-433.

uchun shaffoflik, inklyuzivlik va mas'uliyatni birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Asosiy harakatlar bu missiyaga asoslangan strategiyani ishlab chiqish. Bunda tashkilotning missiyasi, qarashlari va qadriyatlarini aniq belgilab, xalqaro sifat mezonlariga muvofiqligini ta'minlash nazarda tutiladi. Yetakchilik guruhlarini kuchaytirishda ma'murlarni samarali boshqarish ko'nikmalari bilan jihozlash uchun ularni professional rivojlantirish dasturlariga sarmoya kiritish kerak. Boshqaruv tuzilmalarini yaratish esa strategik nazoratni ta'minlash va mas'uliyatni ta'minlash uchun turli xil tajribaga ega kengashlar yoki kengashlarni yaratish hisoblanadi.[2]

Sifatni ta'minlash mexanizmlari. Sifat kafolati (QA) xalqaro e'tirof va ishonchni qozonish uchun muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim bo‘yicha yetakchi maslahatchi doktor Stamenka Uvalich-Trumbić kabi ekspertlar “Xususiy oliy ta’lim muassasalari ham ichki, ham tashqi baholash jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli QA tizimlarini qabul qilishlari kerak”, deb ta’kidlaydilar.[3] Asosiy harakatlar sifatida akkreditatsiya standartlarini qabul qiling. Qolaversa, ta'lim sifatini tasdiqlash uchun nufuzli milliy va xalqaro agentliklardan akkreditatsiyadan o'ting. Ishlash ko'rsatkichlarini amalga oshirishda taraqqiyotni kuzatish uchun bitiruv stavkalari, bandlik natijalari va talabalarning qoniqish so'rovlari kabi o'lchanadigan ko'rsatkichlardan foydalaning. Benchmarking yaxshilash uchun sohalarni aniqlash uchun muntazam ravishda global tengdoshlar bilan institutsional ish faoliyatini solishtirish imkonini beradi.

O‘quv dasturlari innovatsiyasi va global ahamiyati. Raqobatbardosh bo'lish uchun xususiy oliy ta’lim muassasalari ham innovatsion, ham xalqaro mehnat bozori talablariga mos keladigan o'quv dasturlarini taklif qilishlari kerak. Boston kollejidan doktor Filipp Altbax ta'kidlaydi: "Global kompetensiyalarni o'z dasturlariga integratsiyalashgan institutlar talabalarni globallashgan dunyoda rivojlanish ko'nikmalari bilan jihozlaydi".[4] Asosiy harakatlar rivojlanayotgan maydonlarni qo'shing: Sun'iy intellekt, qayta tiklanadigan energiya va global sog'liqni saqlash kabi yuqori talab qilinadigan sohalarda dasturlarni joriy qiling. Fanlararo tadqiqotlarni rag'batlantirish uchun talabalarga bir nechta fanlarni o'rganish imkonini beruvchi moslashuvchan o'quv dasturlarini ishlab chiqing. Sanoat hamkorliklarini rivojlantirishda stajirovkalar, hamkorlik dasturlari va real loyihalarni taqdim etish uchun sanoat bilan hamkorlik qiling.

Fakultetni rivojlantirish va jalb qilish. Fakultet ta'limdagi mukammallikning markazidir. Ularning kasbiy o'sishiga sarmoya kiritish eng yaxshi amaliyotdir. Doktor Marina Leon-Gonsales, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha mutaxassis ta’kidlaganidek, “Doimiy kasbiy rivojlanish o‘qituvchilarning yuqori sifatli ta’lim berish va o‘zgaruvchan pedagogik tendentsiyalarga moslashish uchun jihozlanishini ta’minlaydi”. Asosiy harakatlar ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish uchun zamonaviy o'qitish usullari, jumladan, onlayn va gibrid modellar bo'yicha

2 Hénard F., Diamond L., Roseveare D. Approaches to internationalisation and their implications for strategic management and institutional practice //IMHE Institutional Management in Higher Education. – 2012. – T. 11. – №. 12. – C. 2013.

3 Daniel, John, Asha Kanwar, and Stamenka Uvalić-Trumbić. "Breaking higher education's iron triangle: Access, cost, and quality." Change: The Magazine of Higher Learning 41.2 (2009): 30-35.

4 Altbach, Philip G. "Globalisation and the university: Myths and realities in an unequal world." Tertiary Education & Management 10.1 (2004): 3-25.

seminarlar va sertifikatlarni taklif qiling. Tadqiqotlar va nashrlarni rag'batlantirishda professor-o'qituvchilarni tadqiqot bilan shug'ullanish, xalqaro konferentsiyalarda qatnashish va nufuzli jurnallarda nashr etish uchun rag'batlantirishni yarating. Mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish uchun esa bilim almashish va martaba rivojlanishini rag'batlantirish uchun kichik o'qituvchilarni tajribali murabbiylar bilan bog'lang.

Texnologiyalar integratsiyasi. Texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy oliy ta'lim boshqaruvining asosidir. Raqamli ta’lim bo‘yicha yetakchi organ doktor Toni Beytsning so‘zlariga ko‘ra, “Texnologiyadan foydalanish nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki talabalarning ta’lim natijalarini ham yaxshilaydi” . Asosiy harakatlar ta'limni boshqarish tizimlarini (LMS) joriy qilishda Onlayn ta'lim va ma'muriy vazifalarni osonlashtirish uchun Moodle yoki Blackboard kabi platformalardan foydalaning. Ma'lumotlar tahlilini qabul qilib talabalar faoliyatini kuzatish va xavf ostida bo'lgan talabalarni bashorat qilish uchun tahlil vositalaridan foydalaning. AT infratuzilmasini yaxshilashda talabalar va xodimlar uchun mustahkam internet aloqasi va zamonaviy qurilmalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlang.

Moliyaviy barqarorlik. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash Xususiy oliy ta’lim muassasalari uchun muhim muammo hisoblanadi. Oliy ta’lim siyosati bo‘yicha ekspert, doktor Frans van Vught “Uzoq muddatli barqarorlik uchun diversifikatsiyalangan daromad oqimlari va oqilona moliyaviy menejment zarur”, deb ta’kidlaydi. Asosiy harakatlar Endowment fondlarini rivojlantirishda stipendiyalar va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni ta'minlash uchun jamg'armalarni tashkil eting. Xalqaro talabalarni jalb qilishni kengaytirish uchun xalqaro talabalarni jalb qilish madaniy xilma-xillikni oshirish bilan birga daromadni oshirishi mumkin. Bitiruvchilarni jalb qilishda xayriyalar yaratish va institutsional g'ururni oshirish uchun kuchli bitiruvchilar tarmoqlarini yarating.

Xalqarolashuv. Xalqaro miqyosdagi institutlarning o'ziga xos belgisidir. Xalqaro ta'lim sohasida kashshof bo'lgan doktor Jeyn Nayt shunday tushuntiradi: "Global miqyosda bog'langan kampus yaratish talabalarga foyda keltiradi va institutsional obro'sini oshiradi" . Asosiy harakatlar Global hamkorlikni yo'lga qo'ying: qo'shma dasturlar, tadqiqot tashabbuslari va almashinuv imkoniyatlari uchun xalqaro universitetlar bilan hamkorlik qiling. Chet elda o'qish dasturlarini rag'batlantirishda talabalarni xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etishga undash. O'quv muhitini boyitish uchun turli madaniy va ilmiy kelib chiqishi bo'lgan o'qituvchilarni yollash.

Manfaatdor tomonlarni jalb qilish. Talabalar, ota-onalar, bitiruvchilar va sanoat hamkorlarini o‘z ichiga olgan manfaatdor tomonlarni jalb qilish ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etish uchun juda muhimdir. Reytinglar va oliy ta’lim siyosati bo‘yicha ekspert doktor Ellen Hazelkornning so‘zlariga ko‘ra, “Manfaatdor tomonlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish ishonchni mustahkamlaydi va institutsional obro‘-e’tiborni oshiradi”. Asosiy harakatlar muntazam ravishda fikr-mulohaza so'rovlarini o'tkazish ya’ni, qaror qabul qilishda rahbarlik qilish uchun talabalar va professor-o'qituvchilarning fikrlarini to'plang. Hamjamiyat tadbirlarini mezbonlik qilish. Mahalliy jamoalar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun ochiq eshiklar kuni, seminarlar va madaniy dasturlarni tashkil qiling. Ish beruvchilar bilan hamkorlik qilib o'quv dasturlarini ishchi kuchi ehtiyojlariga moslashtirish va bandlik natijalarini yaxshilash uchun sohalar bilan ishlang.

Monitoring va uzluksiz takomillashtirish.

Va nihoyat, Xususiy oliy ta’lim muassasalari doimiy takomillashtirish madaniyatini o'z ichiga olishi kerak. Bu ilg'or xalqaro tajribalarga moslashish uchun strategiyalarni muntazam ravishda ko'rib chiqish va takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Asosiy harakatlar tekshiruv qo'mitalarini tuzing: taraqqiyotni baholash va o'zgarishlarni tavsiya qilish uchun maxsus guruhlarni yarating. Innovatsiyalarni rag'batlantirishda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun yangi g'oyalarni taklif qilish va sinab ko'rish uchun platformalarni taqdim eting. Muvaffaqiyatlarni nishonlab doimiy mukammallikni rag'batlantirish uchun yutuqlarni tan oling va mukofotlang.

Xulosa. Xususiy oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etish strategik va yaxlit yondashuvni talab qiladi. Vizyonli etakchilikni rivojlantirishdan tortib texnologiyani integratsiyalash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashgacha bo'lgan har bir qadam jahon darajasidagi institutlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Global ekspertlardan o'rganish va strategiyalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali xususiy oliy ta’lim muassasalarini mukammallikka erishishlari va global ta'lim landshaftiga katta hissa qo'shishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Marginson, Simon. "Higher education and public good." Higher education quarterly 65.4 (2011): 411-433.
2. Hénard F., Diamond L., Roseveare D. Approaches to internationalisation and their implications for strategic management and institutional practice //IMHE Institutional Management in Higher Education. – 2012. – Т. 11. – №. 12. – С. 2013.
3. Daniel, John, Asha Kanwar, and Stamenka Uvalić-Trumbić. "Breaking higher education's iron triangle: Access, cost, and quality." Change: The Magazine of Higher Learning 41.2 (2009): 30-35.
4. Altbach, Philip G. "Globalisation and the university: Myths and realities in an unequal world." Tertiary Education & Management 10.1 (2004): 3-25.
5. Lam González, Yen E., Javier de León Ledesma, and Carmelo J. León González. "European nautical tourists: Exploring destination image perceptions." Tourism and hospitality management 21.1 (2015): 33-49.
6. Bates, Tony, and Gary Poole. "Effective teaching with technology in higher education: Foundations for success." (2003).
7. Neave, Guy, and Frans A. Van Vught. Government and Higher Education Relationships across Three Continents: The Winds of Change. Issues in Higher Education Series, Volume 2. Pergamon Press, Elsevier Science Ltd., The Boulevard, Langford Ln., Kidlington, Oxford OX5 1GB, England, United Kingdom (52 British pounds, $83)., 1994.
8. Knight, Jane. Higher education in turmoil: The changing world of internationalization. Vol. 13. Brill, 2008.
9. MOROZ S. A. et al. GENERAL CHARACTERISTICS OF UNIVERSITY RATINGS AND THEIR POTENTIAL FOR ASSESSING THE HIGHER EDUCATION QUALITY //Вісник Національного технічного університету «ХПІ». Серія: Актуальні проблеми розвитку українського суспільства. – 2022. – С. 35.

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI UCHUN MEDIA SAVODXONLIKKA ASOSLANGAN TANQIDIY FIKRLASH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH

TOJIBOYEVA SHOHISTAXON KOMILJONOVNA
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Fakultetlararo chet tili kafedrasi dotsenti v.b., Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tili o‘qituvchilari uchun media savodxonlikka asoslangan tanqidiy fikrlash metodikasini rivojlantirish zaruratini ilmiy-metodik nuqtayi nazardan sharhlaydi. Bugungi globallashuv davrida axborot oqimining keskin ortishi natijasida soxta xabarlar, manipulyativ materiallar va noto‘g‘ri ma’lumotlar o‘quv jarayoniga tahdid solmoqda. Shu sababli, bo‘lajak yoki faol ingliz tili o‘qituvchilari mustahkam media savodxonlik ko‘nikmalarini egallashi, shuningdek, tanqidiy fikr yuritish imkoniyatlarini chuqurlashtirishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, metodika, rivojlantirish, pedagogika, axborot oqimi, fact-checking, interfaol, lingvistik, kompetensiya, metodologiya, globallashuv, analitik, madaniyat.

Annotation: in the modern age of information, the flow of news is growing rapidly, with numerous posts on various topics published daily on social networks, blogs and various media platforms. False (“fake”) posts, directed at manipulation or distorting information, also occur among these messages. It is for this reason that it is important for future English teachers to develop critical thinking and information literacy.

Keywords: Fake messages, manipulation, critical thinking, methodology, media, analysis, communication, debate, interactive, immunity, fact-checking. reflection, globalization.

Kirish: Zamonaviy davrda ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida keng qo‘llanilib, fan, texnologiya, siyosat, madaniyat singari ijtimoiy hayotning turli jabhalarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sohasida xorijiy tilni puxta egallash nafaqat lingvistik bilimlar, balki keng qamrovli madaniy va ijtimoiy kontekstlarni ham tushunishni talab qiladi. Shu bois, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari media savodxonlikni shakllantirish va tanqidiy fikr yondashuvlariga ega bo‘lish orqali nafaqat til, balki axborot bilan ishlash madaniyatini ham mukammal o‘zlashtirishi lozim. Chunki shiddat bilan o‘sib borayotgan raqamli axborot oqimi turli soxta xabarlar, manipulyativ kontent va noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqalishiga olib kelmoqda. Media savodxonlik – bu zamonaviy sharoitda turli manbalardan olingan axborotni tanqidiy baholash, qaysi xabarning ishonchli yoki shubhali ekanini aniqlash, manipulyatsiya usullarini tushunish va ularga qarshi immunitet hosil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash esa ushbu jarayonning asosi bo‘lib, tahlil, solishtirish, xulosa chiqarish va dalillarni tekshirish bosqichlarini talab etadi. Ingliz tili o‘qituvchilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri turli xalqaro manbalar bilan ishlashlari, ilmiy maqolalar, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishlari, xorijiy yangiliklarni o‘rganishlari sababli media savodxonlikni egallashlari yanada dolzarb bo‘lmoqda.

Global axborot makonida soxta xabarlar butun dunyoda jiddiy muammoga aylangan. Bunday xabarlar ijtimoiy tarmoqlar, bloglar yoki onlayn nashrlar orqali tezkor tarqalishi, ba’zan odamlarning siyosiy yoki ijtimoiy qarashlarini manipulyatsiya qilishi mumkin. Shuning uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari fake xabarlarga qarshi kurashish, turli manbalardan kelayotgan

ma’lumotlarni xolis, adolatli va ilmiy metodlar asosida tekshirish bo‘yicha etarli malakaga ega bo‘lishi kerak. Zero, ular keyinchalik maktab yoki oliy ta’lim dargohlarida avlodga xalqaro standartlarga mos ta’lim berishda ushbu ko‘nikmalarni o‘quvchilarga ham singdirishlari lozim bo‘ladi. Media savodxonlikka asoslangan tanqidiy fikrlash metodikasi insonning eng dastlabki intellektual ehtiyojlaridan biri – axborotni qayta ishlash va haqiqatni izlash xususiyatlariga tayangan holda yaratiladi. Pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlarining kesishmasida joylashgan ushbu metodika har bir ta’lim bosqichida keng qo‘llanish imkoniga ega. Ayniqsa, ingliz tili kabi dunyo miqyosida faol ishlatiluvchi tilni egallash jarayonida talabalar turli regional, global ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy voqeliklarga oid matnlarni kuzatishga majbur bo‘ladi[1]. Ushbu majburiyatning samarali natija berishi uchun esa tanqidiy fikrlash usullarini yaxshi bilish muhim omilga aylanishi shubhasizdir. Media ma’lumotlarning xususiyati shuki, u ko‘pincha emotsional quvvat bilan taqdim etiladi, saralash hamda filtr qilish mexanizmi esa har doim ham oson kechmaydi. Agar bo‘lajak o‘qituvchi dalillarga asoslangan, materialni mustaqil o‘rganish va ilg‘ab olish usullarini chuqur bilsa, unda mediamuhitda uchraydigan soxta xabarlar, noto‘g‘ri talqinlar va manipulyativ usullarni erta bosqichda payqash imkoniyati ortadi. Natijada, u o‘zi dars o‘tayotgan talabalarga yoki o‘quvchilarga ham shunday ko‘nikmalarni singdirishga muvaffaq bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, ilmiy-nazariy sifatni yuksaltirish hamda innovatsion ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, xorijiy til ta’limi hamda pedagogik metodikalarni uzviy ravishda o‘rganish hozirgi ilmiy izlanishlar markazida turibdi. John Dewey, Jean Piaget, Лев Виготскй kabi ilmiy arboblarning taraqqiyot, kognitiv rivojlanish va o‘qitish uslublariga oid asarlari tanqidiy tafakkurning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi[2]. Dewey reflektsiya va tajriba asosida o‘rganish konsepsiyasini rivojlantirgan bo‘lsa, Piaget esa kognitiv rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib berdi. Виготскй esa shaxsning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini, jamiyat bilan o‘zaro aloqadagi o‘qitish jarayonini asoslaydi[3]. Ushbu nazariy ishlanmalar media savodxonlikni va tanqidiy fikrlashni integratsiya qilishga zamin yaratadi. Chet tili ta’limi metodistlari, xususan, Jeremy Harmer, Douglas Brown kabi olimlar a’lo darajadagi lingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida faqat lug‘at va grammatikaga e’tibor berish bilan cheklanmay, ijtimoiy-kognitiv, madaniy va interfaol omillarni ham hisobga olish zarurligini ta’kidlashadi. Brown nazariyasida “student-centered approach” – ya’ni, talaba faoliyatiga asoslangan yondashuv ustuvor o‘rin tutadi. Bunda o‘qituvchi ma’lumot beruvchi emas, balki maslahatchi, yo‘naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Media savodxonlik bo‘yicha esa G.Kovach va T.Rosenstiel jurnalistika va xabarlarning haqqoniyligi haqida fikr yuritib, har bir xabarning dalillarga, ishonchli manbalarga asoslanishi muhimligini uqtiradi[4]. So‘nggi yillarda fake xabarlar fenomeni tobora keng tarqalishi bilan “fact-checking” tushunchasi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Fact-checking vositalari orqali turli ma’lumotlarning asosliligi tekshiriladi, rasmiy raqamlar yoki ekspert xulosalari bilan solishtiriladi. Xususan, Snopes.com yoki FactCheck.org kabi saytlarda shubhali xabarlarni tahlil qilish mumkin. Ushbu uslubni ingliz tili o‘qitish jarayonida qo‘llash, o‘quvchilarda media savodxonlikni mustahkamlash bilan birga, lug‘at boyligi va matn ustida ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi mumkin. Bunday yondashuv Bloom taksonomiyasida “tahlil”, “baholash”

kabi yuqori pog‘onalarni ifodalaydi.

Mediata’lim yo‘nalishidagi mahalliy tadqiqotlarga nazar solsak, O‘zbekistonda ham so‘nggi paytlarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash masalalari bo‘yicha qator ilmiy maqolalar va metodik qo‘llanmalar yaratilmoqda. Ushbu izlanishlarning barchasi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun maxsus dasturlar, treninglar, mashg‘ulotlar ishlab chiqish zarurligini ta’kidlashadi. Bu dasturlar media matnlarni lingvistik-tahliliy usulda o‘rganish, xabarlarning haqiqiy va soxta ekanini farqlash, dalillarni ilg‘ash kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Metodologik nuqtayi nazardan, media savodxonlikning ajralmas qismi bo‘lgan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bir qator uslublar tavsiya etiladi. Misol uchun, integratsiyalashgan darslar chet tili o‘qitish jarayonida turli fanlararo masalalarni bog‘lash imkonini beradi. Muammoli vaziyatlar (problem-based learning) o‘quvchilarni mustaqil tahlil qilishga undasa, bahs-munozara (debate) texnologiyalari turli nuqtayi nazarlarni tushunish, dalillarni himoya qilish va rad etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, key-study, infotahlil, roliklarni tomosha qilish va ularni sharhlash, turli davlatlardagi yangiliklar yoritilishini o‘zaro solishtirish kabi strategiyalar tanqidiy fikr yuritishni chuqurlashtiradi.

Ushbu maqola orqali taklif etilayotgan metodik model ingliz tili o‘qituvchilari tayyorgarligida quyidagi bosqichlarni nazarda tutadi:

1. Media manbalarni tanlash: eng avvalo, mavzuga doir, dolzarb, a’lo darajadagi onlayn resurslar, xususan, xalqaro yangiliklar, ilmiy-ommabop maqolalar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar saralanadi.

2. Lisoniy tahlil: o‘qituvchi yoki talaba matndagi kalit so‘zlar, terminlar, so‘z birikmalarini o‘rganadi, lug‘atdan foydalanadi, uslub xususiyatlarini tushunishga harakat qiladi[5].

3. Tanqidiy baholash: xabar yoki maqolaning maqsadli auditoriyasi, muallif pozitsiyasi, faktlar va fikrlar farqi, ishonchli manbalar mavjudligi aniqlanadi.

4. Bahs-munozara va natija: maxsus mashqlar yoki to‘garak mashg‘ulotlarida talabalar topilgan muammo haqida bahs yuritishadi, xulosa chiqarishadi.

Shuningdek, metodika samarali bo‘lishi uchun rasmiy baholash mezonlari ham ishlab chiqilishi kerak. Talabalarning analitik fikrlashi, manbalar bilan mustaqil ishlashi, dalillarni himoya qilishi va soxta xabarlarni fosh etishdagi muvaffaqiyati reyting vositalari orqali nazorat qilinadi. Shunday mezonlar talabalarga ham aniq yo‘nalish beradi: ular bilishadiki, fikrlarini shaklan to‘g‘ri ifodalash, ishonchli dalil keltirish, jamoaviy munozarada faol qatnashish, xabarning manipulyativ elementlarini aniqlash kabilar baholanadi. Natijada, tanqidiy tafakkurning nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy-ma’naviy o‘lchami ham paydo bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlarda CLIL (Content and Language Integrated Learning)[6] kabi yondashuvlarning ommalashishi ham bejiz emas. Ushbu uslubda chet tili o‘rgatish jarayonida boshqa fanlar mazmuni ham integratsiya qilinadi. Media savodxonlikka asoslangan tanqidiy fikrlash metodikasi ham CLIL prinsiplarini muvaffaqiyatli qo‘llashi mumkin. Masalan, siyosat, iqtisod, sotsiologiya fanlaridan dolzarb yangiliklar ingliz tilidagi manbalardan olinib, dars jarayonida muhokama qilinadi. Shu tariqa, o‘quvchilar bir tomondan, chet tilini faol o‘rganishadi, boshqa tomondan, global jarayonlar haqida tanqidiy munosabat shakllantirishadi. Bu yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyatini ham rag‘batlantiradi. Metodika doirasida yana bir muhim narsa – turli darajadagi talabalarga moslashuvchan yondashuvdir. Mashg‘ulotlar izchil o‘tkazilib, talabalarning “fact-checking” seskilligi,

manbalarni solishtirish, muallif mavqeini baholash ko‘nikmalari oshib boradi. Shu tarzda bosqichma-bosqich sistemali rivojlanish ta’minlanadi.

Xulosa: Keltirilgan ma’lumotlarni umumlashtirib aytganda, “Ingliz tili o‘qituvchilari uchun media savodxonlikka asoslangan tanqidiy fikrlash metodikasini rivojlantirish” masalasi zamonaviy ta’limning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Avvalo, global miqyosda xabarlar oqimining shiddat bilan o‘sishi, ijtimoiy tarmoqlarda turli ma’lumotlarning tez tarqalishi, boshqalarga ta’sir o‘tkazish maqsadida ishlab chiqiladigan manipulyatsion materiallar shaxsning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining shunday axborot bosimlariga tayyor bo‘lishi, daliliy asoslarga suyanadigan tahliliy yondashuvni puxta egallashi, xabarning ishonchlilik darajasini erta bosqichda aniqlay olishi muhim. pedagogik tomondan qaraganda, o‘qituvchi endilikda faqat informatsiyaviy vositachi emas, balki murabbiy, yo‘naltiruvchi, bahs yurituvchi bo‘lib, talabalarning mustaqil fikr yuritishini harakatga keltiradi. Lingvistik nuqtayi nazardan, media matnlardagi turli kontekstlarni tushunish, lug‘aviy birikmalarni o‘rganish, ifoda uslublarini kashf etish kabi jarayonlar chet tilini boy imkoniyatlar makoniga aylantiradi[7]. Psixologik jihatdan esa o‘quvchilar yuritayotgan bahslar ularda ishonch hissini tarbiyalaydi, tanqidiy nazar bilan narsa-hodisalarga yondashish odati shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ham aytish mumkinki, bugun jamiyatimizga nafaqat til biladigan, balki xalqaro darajada fikrlay oladigan, turli manbalardan olingan axborotni puxta tahlil qiladigan, o‘quvchilarda ham shunday ko‘nikmalarni rivojlantiradigan ustozlar zarur. Media savodxonlik va tanqidiy fikr shu ma’noda ta’limda fundamental o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Hozirgi kunda o‘quvchilar turli manbalardan o‘zlari mustaqil ta’lim olishga harakat qiladilar. Agar ularning o‘qituvchisi aynan shu jarayonda yo‘naltiruvchi, saralash, farqlash, hujjatlashtirish, xulosa chiqarishning mantiqiy yo‘llarini ko‘rsatib bera olsa, dars sifati ham, yodda qolish darajasi ham o‘ta yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sabirova, U. "UDK: 301: 37 TA’LIM TIZIMIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINING SOTSIAL MASALALARI." ILMIY AXBOROTNOMA: 92.
2. Dewey, John, Hans Fink, Justus Hartnack, and Johannes Sløk. John Dewey. Collier-Macmillan, 1970.
3. Safarova, F.I."DISKURS TAHLILI: MADANIY VA IJTIMOIY KONTEKSTDAGI TA’RIFLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 168-170.
4. Kovach, A.G., and Peter Sandor. "Cerebral blood flow and brain function during hypotension and shock." Annual Review of Physiology 38 (1976): 571-596.
5. Rajabaliyeva, Nodiraxon. "MEDIALINGVISTIK VOSITALARNING MANIPULYATIV MEZONLARI." QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 11 (2024): 91-93.
6. Coyle, Dorothy. "Content and language integrated learning: Motivating learners and teachers." Scottish languages review 13.5 (2006): 1-18.
7. Isaqov, Olimxon. "TALABALARDA MA'NAVIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani misolida)." PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH 1.8 (2024): 163-165.

BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH BOSQICHLARI

P.M.MAXSUDOV – Namangan Davlat texnika universiteti "Mexanika" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Maqola bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining pedagogik faoliyati masalasiga bag'ishlangan. Maqolada o'qituvchining pedagogik faoliyati va OTMlarning professional ta'lim yo'nalishi talabalarida uni shakllantirish bosqichlari to'g'risida tahliliy materiallar keltirilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, kompetentsiya, kompetentlik, pedagogik faoliyat, kasb ta'limi metodikasi, yo'naltiruvchi bosqich, shakllantiruvchi bosqich, faoliyatni barqarorlashtiruvchi bosqich, shaxs sifatida qayta tuzdiruvchi bosqich,

Аннотация. Статья посвящена вопросу педагогической деятельности профессионального обучения. В статье представлены аналитические материалы о педагогической деятельности педагога и о этапах его форирования обучающих студентов в направлении профессионального образования вузах.

Ключевые слова: профессиональное образование, компетенция, компететность, методика профессионального обучения, направляющий этап, формирующий этап, стабилирующий этап, этап переобразования как личность.

Annotation. The article is devoted to the issue of pedagogical activity of a teacher of vocational training. The article presents analytical materials on the pedagogical activity of a teacher and on the periods of its formation of students teaching in the direction of vocational education of universities.

Keywords: professional education, competence, competency, methodology of professional training, guiding period, formative period, stabilizing period, period of re-formation as a person.

Kirish. Recpublikamizda "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash", ish beruvchilarning talab va ehtiyojlariga mos mutaxaccicliklar bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash hamda professional ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning cifati va camaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning asosiy talablaridan biriga aylanmoqda. Ta'lim tizimi oldiga shunday mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilmoqdaki, bunda bilim, ko'nikma va malakalar kasbiy sohada zarur bo'lgan ma'lum bir kompetentsiyaga aylanadi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining professional ta'lim yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni, shuningdek, ularni pedagogik faoliyat bo'yicha tayyorgarligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar mohiyatini o'rganish natijalari bu borada ilmiy izlanishlarni olib borilishi lozimligini taqozo etmoqda.

Mavzu bo'yicha ilmiy ishlarning tahlili. Professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini oshirish, uni mehnat mazmunidagi o'zgarishlarning bashorat qilingan dinamikasiga muvofiqlashtirish zarurati tamoyiliy jihatdan yangi, samarali tizimlar va o'qitish texnologiyalarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Muammoni rivojlantirishning eng dolzarb yo'nalishlari kasbiy pedagogik ta'lim umumiy tizimining komponenti sifatida metodik tayyorgarlik tizimini qurishni asoslashdir.

Bugungi kunga qadar pedagogika fanida

maqsadlarni shakllantirishning nazariy jihatlari, professional ta’lim tizimining tashqi, rasmiy belgilariga asoslangan tuzilishi va mazmuni – ta’lim muassasasining turi, ta’lim tizimining bosqichi va boshqalar o’rganilib, asoslab berilgan [1].

Z.M.Bolshakova va N.N.Tulkiboeva [2] tizimli-mazmunli tahlil va faoliyatli yondashuv asosida kasbiy pedagogik faoliyatni shakllantirishning quyidagi bosqichlarini belgilab bergan.

Kasbga moslashish. Ushbu bosqichda kasbiy faoliyat va muloqotning asosiy qoidalari, me’yorlari haqida tushunchalar paydo bo’ladi.

Kasbiy faoliyatda talabaning o’zini o’zi anglashi. SHaxsning ko’p qirrali qobiliyatlari o’qituvchilik kasbida o’zini o’zi anglashi, o’zini o’zi amalga oshirishga qaratilgan.

Kasbiy pedagogik faoliyatni shakllantirish. Pedagogik bilimlarni, pedagogik nazariyalarni, yondashuvlarni, texnologiyalarni ongli ravishda rivojlantirish jarayonida ularni tekshirish va ta’lim amaliyotida mustahkamlash.

Ijodiy pedagogik faoliyatning barcha elementlarini bajarish zarurligini anglashni nazarda tutuvchi shaxsni qayta tuzdirish bosqichi. O’zini o’qituvchi sifatidagi qobiliyatini rivojlantirish va qayta tuzdirish.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda tizim sifatida pedagogik faoliyatning asosiy qismi bo’lgan metodik tayyorgarlik g’oyasi allaqachon mavjud. Professional ta’lim o’qituvchisining metodik tayyorgarligi uning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini yakunlaydi; o’qitishning ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va sohaviy bloklarini birlashtiradi, talabalarni kasbiy faoliyatning umumlashtirilgan metodlari bilan qurollantiradi

Masalan, 60112400 – Professional ta’lim (60800100 – Qishloq xo’jalgini mexaniizatsiyalashtirish) yo’nalishida bo’lajak professional ta’lim o’qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash amaldagi o’quv rejalariga ko’ra mutaxassislikka kirish, yosh davrlari fiziologiyasi va gigienasi, kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta’lim texnologiyalari, kasb ta’limi metodikasi, maxsus fanlarni o’qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi fanlarni o’zlashtirish, kasbiy pedagogika, kasb ta’limi metodikasi, maxsus fanlarni o’qitish metodiksi fanlaridan kurs ish (loyiha)lari, mustaqil ishllarni bajarish, pedagogik va BMI oldi amaliyotlarini o’tash shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish jarayonlarida erishiladi.

Bizning tadqiqotimizda pedagogik faoliyat tarkibidagi metodik tayyorgarlikni tashkil etishning samarali tizimi va texnologiyasini ishlab chiqish kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich o’zlashtirishni modellashtirish g’oyasiga asoslanildi.

Quyida uzluksiz metodik tayyorgarlikning qabul qilingan modeliga muvofiq pedagogik faoliyatni shakllantirish bosqichlarining umumlashtirilgan tavsifi keltirilgan.

Birinchi bosqich - pedagogik faoliyatni yo’naltiruvchi asoslarini o’zlashtirish (algoritm, tuzilma va boshqalar), faoliyatni bajarish shartlari orqali uni amalga oshirish texnologiyasi bilan tanishishni o’z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich - pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich o’zlashtirishni o’z ichiga oladi. Faoliyatni amalga oshirish jarayonini hayoliy modellashtirish. Algoritmlar, sxemalar, texnologik xaritalar, metodik ishlanmalar, rejalar va boshqalarni ishlab chiqish. Tashqi ko’rsatmalar, texnologik xaritalar, yo’riqnomalar, metodik ishlanmalar va boshqalarga asoslangan faoliyatni amalga oshirish bajariladi.


Uchinchi bosqich – pedagogik faoliyatni amalga oshirish, ularni batafsil ko’rsatmalarga tayanmasdan, balki tashqi ko’rsatmalar asosida amalga oshirishni takomillashtirishga qaratiladi.

To’rtinchi bosqich - ko’rsatmalarga, xaritalarga, diagrammalarga tayanmasdan, tashqi ko’rsatmalarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirishni ta’minlaydi. Faoliyat mustaqil va ijodiy amalga oshiriladi.

Bosqichlarning ketma-ketligi va aniq mazmunlari shartli bo’lib, haqiqiy metodik tayyorgarlik jarayonida ular o’zaro bog’langan bo’ladi va bir-birini to’ldirib boradi. Biroq,

umumiy algoritm va ularning rivojlanish sxemasi qonuniy hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik tizimining bosqichlari sifatida biz quyidagi bosqichlarni aniqladik (1-rasm):



Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik tizimini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq ko'rsatilgan muammoni keyingi hal qilish shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida uning ilmiy va pedagogik asoslarini izlashni davom ettirishni talab qiladi. Metodik tizim bosqichlarining tashkiliy-moddiy tavsiflari ham yanada rivojlantirilishi lozim. O'qitish tizimlari va texnologiyalarining turli xil variantlarini (jumladan, kredit-modulli, muammoli, dual ta'lim va b.) izlash va asoslashni davom ettirish kerak.

1-bosqich pedagogik faoliyat texnologiyasi bilan tanishish, uning nazariy asoslarini (tuzilishi, algoritmi va boshqalar) o'zlashtirish, shuningdek, kelgusi faoliyatni amalga oshirish uchun zarur motivatsiyani shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Bu faoliyatga "Mutaxassislikka kirish", "Yosh davrlari fiziologiyasi va gigienasi" kabi fanlarni o'rganish shuningdek o'quv-tanishuv amaliyoti jarayonida erishiladi. Ularning mazmunining har bir elementi ushbu bosqichning yakuniy natijalariga ham, butun jarayonga ham aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2-bosqichga shaxs va jamoani o'rganish, tashxis qo'yish va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq harakatlar majmuasi kiradi; ta'lim jarayonining umumiy strategik maqsadlarini ishchi maqsadlarga aylantirish, uning qonunlari va tamoyillarini belgilash. Ushbu harakatlar keyingi bosqich uchun indikativ asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu bosqichda ilgari qabul qilingan yondashuvlarga ko'ra – metodik tayyorgarlikning mohiyatini aniqlaydigan metodik harakatlar elementlarini shakllantirish boshlanadi.

Bu, birinchi navbatda, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisi pedagogik faoliyatining ajralmas komponenti bo'lgan ta'lim jarayonini loyihalash bo'yicha harakatlar majmui shakllantiriladi.

Loyihaviy harakatlarni shakllantirishning indikativ va axboriy-nazariy asosi, birinchi navbatda, o'rganishning qonuniyatlari va tamoyillari, o'quv jarayonining mohiyati va tuzilishi, o'quv jarayonida shakllangan o'qitish tizimlari, shakllari, usullari va vositalarini bilishdir. Loyihaviy harakatlar tarkibiga prognostik ko'nikmalar (o'rta va uzoq muddatli prognozlar) kiradi.

Murakkab loyihalash harakatlarining tuzilishiga integrtsaiyalashgan ko'nikmalar yangi vaziyatlarda yanada rivojlanish va takomillashtirish uchun turtki bo'ladi.

SHunday qilib, loyihalash harakatlari majmuasi quyidagilar: 1) maqsad va vazifalarni; 2) o'qitish mazmunini loyihalash; 3) optimal ta'lim texnologiyasini loyihalash, shu jumladan

o’qituvchi va talabalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar shakllarini, o’qitish usullarini, qo’llaniladigan didaktik vositalarni ishlab chiqishlarni o’z ichiga oladi.

Yuqoridagi harakatlar “Kasbiy pedagogika” va “Kasbiy psixologiya” fanlaridagi amaliy mashg’ulotlarda shakllantiriladi va ketma-ketlik yakuniga ko’ra tashqi ko’rsatmalar asosida mustaqil bajarish darajasiga yetkaziladi.

Ushbu daraja metodik tayyorgarlikning uchinchi bosqichiga o’tish uchun zarur bo’lib, u yanada murakkab birlashtirilgan shakllanishlarni - metodik harakatlarni shakllantirish uchun ishonchli asos yaratadi.

3-bosqichda faoliyatni bajarish batafsil ko’rsatmalarsiz baarilsada, lekin baribir tashqi ko’rsatmaga tayanadi. Bu bosqichda harakatlarning ayrim elementlari qisqartirilib, avtomatlashtirila boshlaydi va umumlashtiriladi.

Masalan, ta’lim texnologiyasini loyihalashda o’qitish usullarining xususiyatlarini ma’lum o’ziga xos shartlar bilan taqqoslash kabi jarayonni bajarish vaqti kamayadi; talaba operatsiyalarni tezroq bajara boshlaydi.

Uchinchi bosqichning mazmun sohasini “Ta’lim texnologiyalari”, “Kasb ta’limi metodikasi” (1-qism), fanlari va birinchi pedagogik amaliyotlar tashkil etadi. Ushbu bosqichda ba’zi metodik elementlarni bajarish vaqti qisqartirila boshlaydi, umumlashtiriladi va avtomatlashtiriladi.

4-bosqichda faoliyatning rivojlanishi mustaqil (tashqi rahbarlikka tayanmasdan) va ijodiy amalga oshiriladigan darajaga keltiriladi. Jarayonlar va harakatlarning alohida elementlari (ayniqsa, texnik xususiyatga ega) avtomatlashtirilib, mahoratga aylana boshlaydi. Bu bosqichning mazmunini “Kasb ta’limi metodikasi” (2-qism xususiy metodika yoki “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi”), “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanlari shuningdek, yakuniy pedagogik va BMI oldi amaliyotlari, bitiruv malakaviy ishlari tashkil etadi.

Pedagogik faoliyatni maqsadga muvofiq o’zlashtirishda asosiy tizimlashtiruvchi fan bu “Kasb ta’limi metodikasi” hisoblanadi. Ushbu fanning asosiy vazifasi bo’lajak o’qituvchilarda professional ta’lim muassasalari (kasb hunar maktabi, kollej va texnikum)da kasbiy fanlardan nazariy, tajriba, amaliy mashg’ulotlar va o’quv amaliyotlarini mustaqil amalga oshirish bilan bog’liq pedagogik faoliyat majmuasini shakllantirish hisoblanadi.

“Kasbiy psixologiya”, “Kasbiy pedagogika”, “Ta’lim texnologiyalari”, “Kasb ta’limi metodikasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” kabi fanlar bo’yicha amaliy mashg’ulotlar shuningdek, pedagogik amaliyotlar pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi to’rt bosqichning har birini ajralmas qismi sifatida, uzluksiz jarayon davomida nazariya va amaliyotni uyg’unlashtirishga imkon beruvchi yakuniy amaliy mashg’ulot tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi.

Ularning maqsadli shakllanishi kasbiy psixologiya va kasbiy pedagogika fanlaridan boshlanadi, bunda talabalar dars maqsadlari belgilash, darsni loyihalash, muammoli vaziyatlarni ishlab chiqish, professional ta’lim muassasalarining o’quv jarayonida uchraydigan turli kasbiy vaziyatlar bilan bog’liq muammolarni hal qilish bo’yicha mashqlarni bajaradilar. Bundan tashqari, bunday sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish bo’yicha ishlar talabalarning “Kasb ta’limi metodikasi” va “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” fanlaridan sinov darslarini o’tkazish va o’z o’zini tahlil qilishda davom ettiriladi [3,4].

Maqsadlarga erishish samaradorligi fanning metodik tayyorgarlik tizimida qanday rol o’ynashi, asosiy yoki yordamchi bo’lishiga bog’liq. Pedagoik faoliyatga tayyorgarlikning butun tizimi uchun asosiy, yaxlit fan rolini "Kasb ta’limi metodikasi" fani bajaradi, qolgan fanlarda esa ta’minlanadi.

Xulosa. SHunday qilib, ko’rib chiqilgan bosqichlarning har biri bo’lajak professional ta’lim o’qituvchisini pedagogik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari hisoblanib, fanning bir qismini, to’liq fanni shuningdek, mustaqil

ta’lim va kurs ishlarini bajarish hamda pedagogik amaliyotlarni o’tash jarayonlarida hal qilinadigan muayyan maqsad va vazifalarga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кива А.А., Косырев В.П., Кузнецов А.Н. Дидактическое проектирование на основе компетентностного подхода: Монография. – М.: Изд. Отдел НОУ “ИСОМ”, 2005. – 142 с
2. Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Закономерности усвоения профессиональной педагогической деятельности студентами педвуза.//Современная высшая школа:инновационный аспект. // Челябинск, №1, 2018. – С. 37-44
2. Maxsudov P.M. Kasb ta’limi metodikasining fan va o’quv predmeti sifatida tahlili // Xalq ta’limi. Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. – Toshkent. 2021. № 5. (maxsus) – 20-23 b.
3. Махсудов П.М. Некоторые аспекты перподавания учебного предмета “Методика преподавания профессионального обучения” в ВУЗах Узбекистана. //Среднее профессионального образования. Научно-методический журнал. – Россия, Москва. 2023. № 4. (332) – С. 49-51

CHET EL BOSHLANG'ICH SINF MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI LOYIHAVIY TA'LIM VOSITASIDA O'QITISH USULLARI.

AZIZBEK BAXRIDDINOV XAYRULLO O'G'LI
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy va Finylandiyaning boshlang'ich sinf maktablarida loyihaviy ta'lim usullaridan samarali foydalanish tajribasi hamda sinfxonalardagi ijrosi haqida yortilgan. Shuningdek, loyihaviy ta'limning afzalliklari xususan, til ko'nikmalari va o'quvchilarda ijodiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi ijobiy natijalar haqida ham ma'lumotlar berilgan.Maqolada loyihaviy yondashuv yordamida ingliz tilini o'rgatishda innovatsion strategiyalar va pedagogik texnologiyalar keltirilib, ularning amaliyotda qo'llanishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Loyihaviy ta'lim, kreativ fikrlash, interfaol dars usullari,integrativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: This article discusses the effective use of project-based learning methods in primary schools in China and Finland, as well as their implementation in classrooms. It also highlights the advantages of project-based learning, particularly its positive impact on developing language skills, creative thinking, and critical thinking among students. The article presents innovative strategies and pedagogical technologies for teaching English through a project-based approach, offering practical recommendations for their application.

Keywords: Project-based learning, creative thinking, interactive teaching methods, integrative approach, communicative competence.

Kirish

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari va xalqaro hamkorlikning kuchayishi natijasida xorijiy tillarni o'qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida loyihaviy ta'lim usullari ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda.Xitoy va Finlyandiya boshlang'ich sinf maktablarida loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tajribasi yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda. Loyihaga asoslangan o'qitish nafaqat o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni mustaqil va kreativ fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, bu usul til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilishga yordam beradi.Ushbu maqolada Xitoy va Finlyandiya boshlang'ich sinflarida ingliz tilini loyihaviy ta'lim vositasida o'qitish usullari, ularning sinfxonalardagi ijrosi va amaliyotdagi yutuqlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Xitoy va Finlyandiya ta'lim tizimida ingliz tilini loyihaviy ta'lim vositasida o'qitish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy izlanuvchilar ilmiy-adabiy manbalarida o'z qarashlarini keltirib o'tgan. Ular loyihaviy ta'limning samarasi hamda o'quvchilarda shaxsiy va til ko'nikmalardagi rivojlanish haqida yoritib o'tganlar.

Xitoylik pedagog Zeeuw fikricha, loyihaviy ta'lim o'quvchilarning jalb qilinishi, madaniy bilimlari va ingliz tilidagi kommunikativ ko'nikmalarini yaxshilash zaruratidan kelib chiqib, o'qituvchi tomonidan tashabbus etilgan amaliy tadqiqot loyihasi sifatida qo'llanildi. Shuningdek, Xitoylik tadqiqodchi Juanjuan Zhao olib borgan suhbat ma'lumotlari va so'rov natijalariga ko'ra, xitoylik boshlang'ich sing o'quvchilar loyihalar bilan shug'ullanishdan zavqlanishlarini bildirdilar. Ular loyihalar ustida ishlashni muntazam maktab ishlaridan

qiziqarli tanaffuslar sifatida qabul qilganliklarini ta’kidladilar. Loyihalar ular uchun qiziqarli va ijodiy ishlar bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratadi, bu esa dars shaklini rang-barangroq qilishga ko’maklashadi. Stoller Finylandiya ta’limida loyihaviy ta’lim vositasida ingliz tilini o’qitish orqali quyidagi me’yorlarni o’quvchilarda aniqlaydi:ko‘nikmalarni integratsiyalash,til va mazmunni o‘zlashtirishni birlashtirish,individual va jamoaviy o‘qishni rag‘batlantirish, o‘quvchilarning o‘z o‘qishlari uchun mas’uliyat olishlari va yig‘ilgan ma’lumotlari bo‘yicha hisobot berishlari,o‘quvchilar va o‘qituvchiga yangi rollar va mas’uliyatlar berish. Sart ham fin boshlang’ich sinf o’quvchilarida loyihaviy ta’limning yordamida “onglilik, kuzatish, refleksiya va tahlil” kabi ko’nikmalar shakllanganli bu esa ularning mustaqil fikrlash qobilyati shakllanganligini aniqlagan.

Mahalliy tadqiqotchilardan Mirzaeva o’z maqolasida loyiha faoliyatining boshlang‘ich ta’limda ijobiy pedagogik ta’siriga alohida e’tibor qaratgan. Maqolalarda keltirilgan tajriba natijalari loyihaviy o‘qitish o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari va jamoaviy ish malakalarini shakllantirishda ham muhim ekanligini ko‘rsatadi.Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy ta’lim nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitishda samarali usul sifatida o‘z o‘rniga ega. Xitoy va Finlyandiya tajribalari bu yondashuvning global ta’lim tizimlaridagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu sababli, ushbu maqolada loyihaviy ta’lim vositalari yordamida ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Tahlillar va natijalar

Xitoyda Loyihaga asoslanib ingliz tilini o'qitish bo'yicha tadqiqotlar 2002-yilda nashrlarda paydo bo'la boshladi. Shundan beri, loyihaviy ta’lim orqali ingliz tilini o’qitish pedagogikasi va tadqiqotlari tobora ko'proq olimlarni jalb qilib kelinmoqda. Xitoy ta’lim tizimida ingliz tili 3-sinfdan boshlab majburiy fan sifatida o’qitiladi. Xitoydagi boshlang’ich sinflarda ingliz tilini o’qitish uchun PEP(people’s education press) nomli kitobdan foydalaniladi. Ushbu kitobda har bir unit oxirida loyiha ishiga asoslangan topshiriqlar mavjud. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun ajratilgan loyiha ishi topshiriqlari o’quvchilarning qiziqishi hamda yoshini inobatga olingan. Misol uchun, poster tayyorlash va amaliy mashg’ulotlar kabi loyiha ishi topshiriqlari berilgan. Poster tayyorlash: ajdar kema festivali(dragon boat festival) nomli loyiha topshirig’ida o’quvchilar bu festival haqida ma’lumotlar olishadi va ushbu ma’lumotlar yordamida bolalar kreativ yondashgan holda ajdar kemasining rasmini va festivalda ishtirok etadigan odamlarning suratini o’z loyiha ishlarida aks ettirishlari kerak, mening oilam(my family) va xitoycha yangi yil kabi loyiha ishlari topshiriq sifatida berilgan. Amaliy mashg’ulotlar uchun esa obrazli o’yinlar hamda tabiat va ekologiya nomli loyiha topshirig’ida o’quvchilar maktab bog’ida o’zlari xoxlagan o’simliklarini yetishtirishadi va yil yakunida hosilni yig’ib, kichik bozor tashkil qilishadi shuningdek, pishirish(cooking) mavzusida ham loyiha topshirig’i mavjud bo’lib bunda boshlang’ich sinf o’quvchilari o’zlari yoqtirgan taom, salad yoki pishiriq tayyorlashadi va pishirilgan mahsulotlarini o’rtoqlari bilan baham ko’rishadi. Bu kabi loyiha ishlar o’quvchilarni real hayotga bog’laydi.Boshlang’ich sinflarda bahor faslida kartoshka yetishtirish loyiha ishi ham mavjud bo’lib, bunda bolalar kichik idishlarga kartoshka urug’larini ekishadi va ularni parvarish qilishadi. Bu turdagi mashg’ulotlar o’quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish va tadqiqot olib borish ko’nikmalarini shakllantiradi, natijasida haqiqiy hissiy tajriba orttiradilar va ularning miyyasida men qila olaman, uddalay olaman degan tushuncha paydo bo’ladi.Shu bilan birga,o‘rganishning kontekstini his qiladilar hamda o‘rganishga ko‘proq qiziqish bildiradilar. Xitoylik izlanuvchilar loyiha ustida amalga oshirgan tadqiqod ishlari shuni isbotladiki, loyihaviy

topshiriqlar, bilim olishda qiynalayotgan o‘quvchilarning maktabdagi o‘qishida sezilarli yutuqlarga erishishga ko’maklashadi hamda ushbu yutuqlar bilim egallash, o’rgangan ma’lumotlarni chuqurroq anglash, dars jarayonlarida faol ishtirok etishga undash va o‘zini anglash qobiliyatining rivojlanishi kabi sohalarda yaqqol ijobiy natijaga erishilgan. Xitoy ta’lim tizimida loyihaviy ta’limning paydo bo’lishi boshqa til o’qitish metodlaridan voz kechildi degani emas. Har bir metodning o’quvchilarda tilni shakllantirishda o’z ahamiyatiga ega hisoblaniladi.

Finlandiya ta’lim tizimi ingliz tilini o’qitishda loyihaviy ta’lim yondashuvini muvaffaqiyatli qo’llab kelmoqda. Bu yondashuv o’quvchilarning chuqur bilim olishini, ijodkorlikni rivojlantirishni va real hayotdagi muammolarni hal qilish ko’nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi.

Finlandiyada loyihaviy ta’limning asosiy xususiyatlari: Fanlararo integratsiya: Finlandiya maktablarida 2016-yildan boshlab fenomen asosidagi ta’lim (Phenomenon-Based Learning) joriy etilgan bo’lib, bu yondashuv turli fanlarni birlashtirib, o’quvchilarga keng qamrovli mavzularni o’rganish imkonini beradi. Shuningdek, o’quvchilarning faol ishtiroki bo’lib, loyihaviy ta’limda o’quvchilar mustaqil ravishda loyihalar ishlab chiqadi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko’nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, loyihaviy ta’lim yondashuvi ingliz tilini o’qitishda yuqori natijalar bergani aniqlangan. Bu yondashuv yuqori darajadagi o’quvchilarni rag’batlantirish va transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali bo’lgan.

Xulosa

Chet el boshlang'ich sinf maktablarida ingliz tilini loyihaviy ta’lim vositasida o‘qitish samarali va zamonaviy yondashuvlardan biridir. Loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.Loyihaviy metod asosida ingliz tilini o‘qitish jarayonida bolalar jamoaviy hamkorlikda faol ishtirok etib, til o‘rganishga qiziqish bilan yondashadilar. Turli loyihalar orqali mavzularni amaliy jihatdan o‘zlashtirish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularning muloqot qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy ta’lim orqali ingliz tilini o‘qitish nafaqat til o‘rganishni yengillashtiradi, balki bolalarda muammolarni hal qilish, ijodkorlik va muloqotga tayyorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu sababli, loyihaviy metod boshlang'ich ta’lim bosqichida ingliz tili darslari uchun muhim va zaruriy yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. de Zeeuw, G. 2003. Helping others: Projects or research. Journal of Community and .Applied Social Psychology,13(6), 496-503.
2.Juanjuan Zhao. Project-based Chinese as a foreign language instruction- a teacher research approach.2014-yil iyun
3.Stoller, F. 2006. Establishing a theoretical foundation for project-based learning in second and foreign language contexts. Past, present, and future 19-40 bet
4.Sart, G. 2014. The effects of the development of metacognition on project-based learning.Procedia - Social and Behavioral Sciences, 152 (2014), 131-136.
5.Sue Wang,Project-based Language Learning in China: ALiterature Review.
Central University of Finance and Economics, Beijing, China.2020 -yil yanvar.
6.Creativechinese.com
7.D.Bo’tabayeva.Pedagogik mahorat o’quv qo’llanma toshkent 202. Science and Innovation nashriyoti.

OLIY TA'LIMDA INTEGRATIV TIBBIY BILIMLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH

AKBAROVA D. R. – O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI KATTA O'QITUVCHISI

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'limda integrativ tibbiy bilimlarni tizimli tashkil etish, integrativ ta'lim kontsepsiyasining tizimli tashkil etish va tibbiy bilimlarni rivojlantirishda integratsiyaning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lim, tizim, tibbiy bilimlar, yo'nalish, tamoyillar, kontsepsiya, sport faoliyati, oliy ta'lim, rivojlantirish.

Integratsiyalashgan ta'lim - bu yaxlit yondashuvni ta'minlash uchun turli fan bilimlari va mavzuning jihatlari o'zlashtiriladigan tushunchalarning integratsiyasidir. Integratsiyalashgan ta'lim orqali murakkab mavzuni soddalashtirish, shuningdek, konsepsiyani yaxshiroq tushunish uchun ishlatiladigan ikkita eng muhim integratsiya modellarini (Fogartiy va Harden) qiyosiy tahlil qilish bilan integratsiya zarurligini isbotlab bergan [1].

Tibbiy ta'limdagi fanlar integratsiyasini Xarden tadqiqotlari natijasida shunday ta'riflaydi: "Ko'pincha alohida akademik kurslar yoki kafedralarda o'qitiladigan fanlarni o'zaro bog'lash yoki birlashtirish uchun o'quv materiyasini tashkil etish zarur". (Xarden va boshq., 1984) [2].


Biz integratsiyalashgan o'quv dasturini qanday ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashni muhokama qilamiz. Keling, integratsiyalashgan o'quv dasturining ahamiyati va nima uchun zarurligi haqida tushunchaga ega bo'lamiz.

Integratsiya bilimlari tashkil etilishi eng samarali hisoblanib, masalan, talabalarga turli fanlardan jigar haqida hech qanday integratsiyasiz ta'lim berilsa, ularda jigarning anatomik, fiziologik jigar, patologik jigar va boshqalar tushunchalarini ishlab chiqishda organizm va turli kasalliklar kontekstida yaxlit tushunchaga ega bo'lish qiyin kechadi. Natijada, talabalar turli fanlar bo'yicha o'qitiladigan mavzular o'rtasidagi munosabatlarni tushunish yoki rivojlantirish bo'yicha qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Oliy ta'limda integrativ tibbiy bilimlarni tizimli tashkil etish – bu tibbiyot va jismoniy tarbiya sohasidagi muammolarni kompleks, ko'p tarmoqli yondashuv bilan hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlarni mustahkamlashni ta'minlovchi jarayondir [3]. Integrativ ta'lim kontsepsiyasining tizimli tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi (1 - rasmga qarang)

Ushbu prinsiplarni amalga oshirish orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilashi, ularni zamonaviy tibbiy muammolarni hal qilish uchun tayyorlashi mumkin. Integrativ tibbiy bilimlar esa soha professionallari uchun muhim manba hisoblanadi.


Hozirgi bosqichda kasb-hunar ta'limidagi integratsiya jarayonlarining borishi, shuningdek, ularning "mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishga" ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Ta'limga integratsiyalashgan yondashuvlar talabalarning shaxsiy va kasbiy intilishlarini bog'lashga yordam beradi; ularga o'z-o'zini hurmat qilish va mutaxassislar


INTEGRATIV TA'LIM KONTSEPTSIYASINING TIZIMLI TASHKIL ETISHNING TAMOYILLARI
Optimal salomatlik -inson tajribasining jismoniy, ekologik, hissiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarining eng yuqori darajada ishlashi, natijada farovonlik holatini yaratadi.
Bilimlarni rivojlantirish- Sport tibbiyotining turli sohalari (tibbiyot, psixologiya, biologiya, biomexanika va jismoniy tarbiya) o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish, natijada talabalarda integrative bilimlar rivojlantiriladi.
Individuallik- Talabalarga bilim biya orqali singdirish katta ahamiyatga ega.
Hamkorlik- Pedagog va talabaning mashg'ulot yuzasidan olib boriladigan suhbat va munosabatlari, natijada talabaning yangi tibbiy bilimlarga ko'nikmasini hosil qiladi va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi.
Tibbiy bilimlar integratsiyasi- Talabalar bir vaqtning o'zida sport va tibbiyotga oid bilimlarni birgalikda o'rganib borishi, natijada tibbiy bilimlarga ega talaba bo'lib yetishishidir.
Kasallikni oldini olish- Talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jarohatni oldini olish, 1-yordam ko'rsatish va tibbiy bilimlarni targ'ibot qilish, natijada talaba -yoshlarda turli kasalliklarni oldini olish holatlari kuzatiladi.
Universal talaba- integrativ bilimlar orqali talabalar turli xil bilimlarga ega bo'ladilar.
Tajriba-Nazariyani amaliy tadqiqotlar va turli xil sinamalar olishi uchun asosiy e'tiborni qaratish kerak, natijada talabalar o'z bilimini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.
Strategik rejalashtirish- Oliy ta'lim muassasalarida integrativ tibbiy ta'lim dasturlari ishlab chiqish va amalga oshirishda strategik yondashuvlarni qo'llash.

tayyorlash sifatini oshirishga yordam beradi [4].

Sport va tibbiy bilimlarni integratsiyalash, bu ikki soha o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va bir-birini to‘ldirish uchun muhim ahamiyatga ega. Sport faoliyati inson salomatligi uchun foydali bo‘lib , tibbiy bilimlar esa sportchilarning salomatligini saqlash, travmalardan himoya qilish va muvozanatli rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [5].

Tibbiy bilimlarni rivojlantirishda integratsiyaning asosiy yo‘nalishlari (2- rasmga qarang):



Yuqorida ko’rsatilgan tibbiy bilimlarni rivojlantirishda integratsiyaning asosiy yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega bo’lib, tibbiyot ta'limida turli fanlarni birlashtirish orqali talabalar keng qamrovli bilimga ega bo'lishadi. Bu yondashuv jismoniy tarbiya va tibbiyot talabalari uchun klinik va nazariy bilimlarni birlashtirish imkonini beradi. Bu integratsion yondoshuvlar tibbiy bilimlarning rivojlanishini tezlashtiribgina qolmay, balki sog‘liqni saqlash sohasidagi muammolarni hal etishda yangi yechimlarni taklif etishga ham olib keladi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев, А.А. Мир человека и мир языка / А.А. Леонтьев. - М.: Детская литература, 1984. - 127 с.
2. Харден. Р., Шамвей Д.М. Руководство AMEE № 25. Оценка результатов обучения компетентного и мыслящего практикующего врача. Медицинское образование и профессиональное развитие. №1(23) 2016.
3. Орлова Н.А. Интеграция теории и практики в области физической культуры.
4. Рахимов О.Д., О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев. Замонавий таълим технологиялари. Тошкент-2012.
5. Акбарова, Д. Р. (2016). Адаптив ҳаракатга келтирувчи рекреация ва реабилитация шакллари. Дефектологиянинг долзарб масалалари, 1(1), 51-53.
6. Akbarova, D. (2023). The importance of types of medical supervision of a doctor in the development of medical knowledge of future teachers of physical culture. Science and innovation, 2(B4), 402-407.
7. Акбарова, Д. Р. (2022). Спорт тиббиётида функционал тестларнинг аҳамияти. Илий ахборотлари илмий журнали, 1(1), 50-57. 5. Акбарова, Д. Р. (2022). Антропометрия жисмоний ривожланганликни текшириш методлари ва усуллари мажмуи сифатида. Илий ахборотлари илмий журнали, 1(7), 47-50.
8. Каталомова Л. Л., Словарь. М.: Дрофа, 2007.- 61с
9. Shukurov I. B. Jaҳon ta’lim standartlari asosida sog’liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy omillari. www. oriens. uz.2023.-03(3)-364 -bet
10. Akbarova, D. R. (2016). Plase of physical exercises in the schedule. International Conference on European Science and Technology, 86(1), 75-78.
11. Arzikbaev, A., & Akbarova, D. (2016). Features of anatomic and psychophysiological development of juvenile school students. Influence of knowledge and public practice on the development of creative potential and personal success in life, 38-38.
12. Арзибаев, Қ. О., & Акбарова, Д. Р. (2016). Проблема здорового образа жизни в исследованиях. Наука и Мир, 3(3), 77-78.
13. Акбарова, Д. Р. (2015). Соғлом бўлай десангиз. Педагог газетаси, 2(951), 1-2.

MAKTAB FIZIKA LABORATORIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

SALIMOV SARDOR SAMADOVICH
BuxDPI. Fizika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Fizika fanini o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari asosiy o‘rin tutadi. Eksperimental faoliyat o‘quvchilarga tabiat qonunlarini chuqurroq anglash, nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun tajribalar va kuzatuvlarni o‘tkazishga imkon beruvchi laboratoriya jihozlar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalarning rivojlanishi o‘qituvchilar bilimini oshirishda sezilarli darajada imkon berdi. An’anaviy asbob-uskunalarga zamonaviy raqamli vositalar va simulyatsiyalar qo‘shilmoqda. Ushbu maqolada o‘qitish sifatini oshirish uchun klassik va zamonaviy laboratoriya vositalaridan qanday samarali foydalanish mumkinligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Arduino, Mikrokontroller, Sensor, Interfeys, PhET, Algodoo

Fizika darslarida qo‘llaniladigan an’anaviy asboblar, masalan, mexanik mayatniklar, elektrostatik mashinalar, elektromagnitlarning namoyish modellari va optik qurilmalar hanuzgacha o‘quv jarayonining muhim qismidir. Ular o‘quvchilarga fizik hodisalarni bevosita kuzatish va nazariy qonunlarni amalda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Klassik jihozlarning bir qator afzalliklari mavjud:

• Ko‘rgazmalilik va realizm. O‘quvchilar haqiqiy obyektlar va hodisalarni ko‘rishadi, bu esa fizik jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi.

• Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Asboblar bilan ishlash o‘lchov aniqligi, tajribani rejalashtirish va natijalarni talqin qilishga o‘rgatadi.

• Ilmiy yondashuvni shakllantirish. Klassik qurilmalardan foydalanish orqali o‘quvchilar gipoteza tuzish, ma’lumot to‘plash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydi.

Shunga qaramay, klassik uskunalarning ayrim cheklovlari ham mavjud. Masalan, yuqori xarajatlar va muntazam texnik xizmat ko‘rsatish zarurati byudjeti cheklangan maktablarda ularni qo‘llashni qiyinlashtirishi mumkin. Masalan: temir kukuni, Mis kuporosi va hokazo. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalar an’anaviy metodlarni to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli laboratoriyalar:

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan ta’lim jarayoniga raqamli laboratoriyalar va fizik jarayonlarni modellashtirishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minotlar kirib keldi. Sensorlar va o‘lchov qurilmalari kabi raqamli vositalarni kompyuterga ulash orqali real vaqt rejimida ma’lumotlarni olish va tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Ushbu texnologiyalarning ayrim namunalari:

• Vernier va Pasco raqamli laboratoriyalari. Ushbu tizimlar harorat, bosim, kuch, elektr toki va kuchlanish kabi fizik kattaliklarni o‘lchash imkonini beradi. Qurilmalar o‘quv jarayoniga oson integratsiyalashadi, bu esa o‘quvchilarga mustaqil o‘lchov o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

• Onlayn simulyatsiyalar. PhET va Algodoo kabi platformalar fizik jarayonlarning interaktiv modellari orqali real tajribalarga qo‘shimcha sifatida xizmat qiladi. Ular, ayniqsa, uskunalar yo‘qligida yoki tajriba xavfsizlik nuqtai nazaridan murakkab bo‘lgan hollarda foydalidir.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari:

Mavjudlik va iqtisodiylik. Raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar qimmat uskunalarni talab qilmaydi va kompyuter mavjud bo‘lgan har qanday sinfda foydalanish mumkin.

Aniqlikning ortishi. Zamonaviy sensorlar aniqligi yuqori natijalarni olishga imkon beradi, bu esa xatolar ehtimolini kamaytiradi va ma’lumotlarni tahlil qilishni yengillashtiradi.

O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Texnologiyalardan foydalanish darslarni interaktiv va qiziqarli qiladi, bu esa fizika faniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Xavfsizlik. Virtual simulyatsiyalar xavfli yoki murakkab tajribalarni hech qanday xavf-xatarsiz modellashtirish imkonini beradi.

Klassik va zamonaviy vositalarning integratsiyasi

Fizika o‘qituvchisi uchun eng samarali strategiya — bu klassik jihozlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishdir. Bunday yondashuv real uskunalar bilan ishlashdan keladigan amaliy foydani saqlab qolgan holda, raqamli texnologiyalarning tahlil va vizualizatsiya imkoniyatlarini ham o‘quv jarayoniga qo‘shadi.

Masalan, mexanika darslarida an’anaviy mayatniklar yoki bloklardan foydalanib Nyuton qonunlarini ko‘rsatish mumkin, so‘ngra harakat va kuch sensorlari yordamida tajriba natijalarini aniqlik bilan qayd etish mumkin. Bunday integratsiya ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, elektromagnetizmga oid tajribalarda ham aralash texnologiyalarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi kuzatiladi. Klassik g‘altaklar va magnitlardan foydalanish elektr toki va magnit maydoni o‘zaro ta’sirini ko‘rgazmali tarzda namoyon qiladi, raqamli kuchlanish va tok sensorlari esa ushbu kattaliklarni yuqori aniqlikda o‘lchash hamda grafiklar tuzish imkonini beradi.

Ushbu imkoniyatlardan foydalnishda qimmat uskunalar xarid qilish evaziga emas, balki, arzonroq mikrokontrollerlardan foydalanish muqobil yechim bo‘lib xizmat qiladi. Eng ommalashgan mikrokontrollerlardan biri Arduino bo‘lib, hozirgi kunda keng foydalanilmoqda.

Arduino bu ochiq manbali mikrokontroller bo‘lib, o‘quvchilarga elektronika va dasturlashni o‘rgatishda keng qo‘llaniladi. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardir:

Oson o‘rganish: Arduino dasturlash tili o‘zining oddiyligi va intuitivligi bilan foydalanuvchilar uchun mos keladi.

Arzonlik: Arduinoning narxi nisbatan arzon va ko‘plab komponentlar bilan mos keladi.

Keng qo‘llanilish: Arduino yordamida turli xil fizikaviy hodisalarni o‘lchash va boshqarish mumkin: issiqlik, yorug‘lik, harorat, bosim, kuchlanish va h.k.

Modullar bilan moslik: Turli xil sensorlar, aktuatorlar va interfeyslar bilan ishlash imkoniyatiga ega.


Arduino imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishda yordamchi sensorlar katta ahamiyatga ega. Ularning ayrimlari bilan tanishamiz

Maktabda fizika laboratoriyasini takomillashtirishda Arduino Uno ning roli katta. Quyidagi yo‘nalishlarda Arduino yordamida laboratoriya tajribalarini o‘tkazish imkoniyatlari mavjud:

Fizika darslarida ko‘plab tajribalar o‘lchovlar va natijalarni tahlil qilishga asoslangan. Arduino Uno yordamida quyidagi o‘lchovlar amalga oshirilishi mumkin:

Temperatura: Maktab fizika laboratoriya ishlarida harorat eng muhim kattalikdir. Temperaturani o‘lchashda quyidagi datchiklardan foydalanish mumkin DS18B20 yoki DHT11/DHT22 sensorlari yordamida haroratni o‘lchash va uni displeyda yoki kompyuterda ko‘rsatish imkoniyati mavjud.

1-rasm: Harorat o‘lchash datchiklari.



Ushbu qurilmalar haroratni o‘lchash bilan bir qatorda havo miqdoridagi namlikni ham o‘lchash imkoniyatiga ega. Agar bizdan 80○ C dan yuqori haroratlarni o‘lchash talab etilsa, termoparralardan foydalanishimiz mumkin.

Tok kuchi: Holl effekti yordamida tok kuchini o‘lchash va natijalarni Arduino orqali monitoring qilish.

ACS712 — bu Holl effekti asosida ishlaydigan analog tok sensor bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan tokni o‘lchash imkonini beradi. Sensor mikrokontrollerlar bilan ishlaydigan turli elektron loyihalarda keng qo‘llaniladi.

ACS712 sensorining asosiy ishlash prinsipi shundan iboratki, u orqali o‘tayotgan elektr toki magnit maydon hosil qiladi. Ushbu magnit maydon sensor ichida joylashgan Holl elementi tomonidan aniqlanadi va u tok miqdoriga proporsional bo‘lgan analog kuchlanish signaliga aylantiriladi. Bu signalni mikrokontrollerning analog kiritish pinlari orqali o‘qish mumkin.

Sensorning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, tok kuchi qiymatiga qarab tanlanadi.

Sensor moduli odatda uchta asosiy pin orqali ulanadi: VCC (5V quvvat manbai), GND (yer) va OUT (analog chiqish). Sensor o‘lchagan tok miqdoriga qarab OUT pinida 0V dan 5V gacha kuchlanish hosil bo‘ladi.


ACS712 sensorining afzalliklari orasida uning ixchamligi, AC va DC tokni bir xil aniqlikda o‘lchay olishi, galvanik ajratma (optoizolyatsiya) talab qilmasligi va Arduino kabi mikrokontrollerlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi bor. Biroq, bu sensor harorat o‘zgarishiga sezgir bo‘lishi va ba’zida kalibrlash talab qilinishi mumkin. Ayniqsa professional yoki yuqori aniqlik talab qilinadigan tizimlarda foydalanishda bu jihatga e’tibor berish kerak.

ACS712 keng qo‘llaniladigan sohalarga ega: masalan, quyosh energiyasi tizimlari, elektr dvigatellar nazorati, akkumulyatorlarni zaryadlash qurilmalari, quvvat nazorati tizimlari va turli Arduino loyihalari.



2-rasm: ACS712 sensori

Bosim: BMP180 yoki BME280 kabi sensorlar yordamida atmosferadagi bosim o‘lchovlarini amalga oshirish.



3-rasm: BMP180 yoki BME280 sensorlarni ko‘rinishi.

BMP180 - bosim sensori bo‘lib, atmosfera darajasini va haroratni o‘lchay oladi. U juda kichik hajmga ega va kam quvvat sarflaydi, shu sababli ko‘pchilik mikrokontrollerlar bilan yaxshi mos keladi

Ushbu sensor 300 kPa dan 1100 kPa bo'lgan bosimni o‘lchay oladi, bu esa suv dengiz sathidan 9000 metr pastlikdan 500 metr balandlikkacha bo‘lgan oraliqdagi bosimlarni o‘lchay oladi. Haroratni esa -40°C dan +85°C gacha o‘lchay oladi. Bosimni ±1 kPa aniqlikda, haroratni esa ±2°C aniqlikda o‘lchash imkoniyatiga ega.

BME280 ham bosim sensori bo‘lib BMP180 ga nisbatan kengroq o‘lchashga imkon beradi. Bu sensor atmosfera harorati, harorat va nisbiy namlikni bir vaqtda o‘lchay oladi. BME280 sensorining chastota diapazoni 300 kPa dan 1100 kPa gacha, harorat diapazoni -40°C dan +85°C gacha, va nisbiy namlik diapazoni 0% dan 100% gacha. O'lchov uchun ±1 kPa, harorat uchun ±1°C aniqlikda o‘lchash imkonini beradi.

Xulosa

Fizikadarslaridalaboratoriyauskunalaridan

foydalanish — o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarda chuqur fan tushunchasini shakllantirish va ilmiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Klassik asbob-uskunalar va zamonaviy raqamli texnologiyalar uyg‘unligi o‘quv faoliyatining shakllarini xilma-xillikka olib keladi, uni qiziqarli va samarali qiladi. Muhimi, o‘qituvchi har ikki turdagi vositalardan moslashuvchan foydalana olishi, ularni dars mavzusi va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga moslashtira bilishi kerak. Faqatgina shunday integratsiyalashgan yondashuv maktab o‘quvchilarida fizik bilim va ko‘nikmalarni to‘laqonli rivojlantirishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafoyev O’.R. 6-sinf "Tabiiy fan" darsligida namoyishli tajribalarning o'rni va roli//Innovations in technology and science education 2:17 (2023),p. 253-261.
2. Тўраев С.Ж. Дастурий воситалар асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. Диссертация PhD: 13.00.05. Тошкент. 2019 й
3. Назиров Э.Н., Худайбергенова З.А., Сафиулна Н.Х. – Механика ва молекуляр физикадан практикум. – Т., Ўқитувчи, 1979 й.
4. Sardor, S. (2023). QUYOSH KONSENTRATORLARI FOKUSINING YORUG ‘LIK ZICHLIGI TAQSIMOTI. Innovations in Technology and Science Education, 2(15), 61-67.
5. Samadovich, S. S. (2022). FRENEL LINZASIDA YORUG’LIKNING DIAMETIRINI ANIQLASH. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 383-385.
6. Daminov, M. I., Kakhkhorov, S. K., & Mustafayev, U. R. (2020). STUDYING THE BASIS OF NANOTECHNOLOGY IN THE SCHOOL PROGRAM PHYSICS. Scientific reports of Bukhara State University, 3(4), 320-324.
7. Salimov Sardor Samadovich, & Abdiyxamidova Soniya Jamshid qizi. (2025). MODDIY NUQTANING ERKIN TUSHISHI HARAKAT QONUNIYATLARINI LAGRANJ FUNKSIYASI ORQALI TEKSHIRISH. https://doi.org/10.5281/zenodo.15132771

MUSTAQIL TA’LIM KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI

SHAVAZOVA NILUFAR MUSAYEVNA
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assisenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishda hamkorlikda ishlashning samaradorligi tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, izlanish, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslari, psixologik-pedagogik omillari va amaliy tatbiqlari chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan dars shakllari (matbuot konferensiyasi, o‘zaro o‘qitish, guruhli ish, juftlikda ishlash va boshqalar) ko‘rsatilib, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: hamkorlikda o‘qitish, interfaol metodlar, mustaqil ta’lim, o‘quvchilarning fikrlash faoliyati, ijodkorlik, o‘quv topshiriqlari, psixologik-pedagogik yondashuv, dars shakllari, ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan, muammoni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalariga ega shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Bu esa pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni, xususan, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarini samarali qo‘llashni taqozo etadi. Hamkorlikda o‘qitish o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, baholash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol ta’limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta’limning interfaol metodlari o‘quvchilarning ulkan ta’limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o‘quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi.

Hamkorlikda ishlash – bu mantiqiy fikrlash jarayoni (tahlil, umumlashtirish va boshqa shu kabilar) va o‘quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta’lim va o‘qitishning ilgari ma’lum bo‘lgan usullarini qo‘llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham hamkorlikda ishlash ko‘proq o‘quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e’tiqodining shakllanishini ta’minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta’lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta’lim bo‘lib qoladi.

Hamkorlikda ishlash nazariyasi o‘quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta’limni tashkil qilishning psixologik-pedagogik yo‘llari va usullarini tushuntiradi.

Hamkorlikda ishlashning ahamiyatini aniqlash o‘quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o‘quv jarayonini qayta qurish g‘oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko‘rish asosida hamkorlikda ishlashning asosiy g‘oyasi aniqlanadi:

muammoli ta’limda bilimning deyarli katta qismi o‘quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar tom ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga intiladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o‘quvchi o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sifatida qaraladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo‘ladi. Ular o‘zaro hamkor, hamdo‘st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo‘ladilar. Hamkorlik munosabatlari o‘qituvchilar orasida, ma’muriyat bilan o‘quvchilar va o‘qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o‘rnatiladi.

Hamkorlikda o‘qitish o‘quvchining ta’lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Hamkorlikda o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

– o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;

– o‘quvchilarga ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv axborotlar to‘plamini beradi;

– o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;

– o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

– axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

– o‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

– turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni oldinga suradi.



Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan mashg‘ulotlarni o‘ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo‘llash tizimi mavjud bo‘lib, quyida shu mahg‘ulotlardan ayrim namunalarni ko‘rsatib o‘tamiz:

Umuman, hamkorlikda o‘qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O‘quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o‘qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o‘zlashtiriladi.


2. O‘quvchilar 2-5 a’zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O‘quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O‘quvchilar ijodiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyati bo‘yicha ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarning bir-birlariga ko‘maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘ladi.

5. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, ta’lim olishga, shaxsan mas’uliyatli va javobgardir.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari amalga oshadigan ayrim noana’naviy dars shakllari:



Matbuot konferensiyasi darsi - dars mavzusini savol javoblar orqali o‘zlashtirish mashqi.

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi - qiziqarli savol-ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o‘rgatish mashqi.

Guruhlarda ishlash darsi - o‘quvchilarning bir nechta guruhlarga bo‘linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

O‘zaro o‘qitish darsi - o‘quvchilarning dars mazmuni bo‘yicha matnning ayrim abzaslari yoki shunga o‘xshash kichik bo‘laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o‘zlashtirish darsi.

O‘quvchilar olib boradigan dars - dars mavzusini o‘quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o‘quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Tanlov darsi - sinfdagi o‘quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo‘yicha oldindan tayyorgarlik ko‘rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g‘oliblarni aniqlash darsi.

Juftlikda ishlash (binar) dars - o‘quvchilarning juft bo‘lib, dars mavzusini birgalikda o‘zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlash darsi. Bunda zarur bo‘lganda juftliklar dars davomida turlicha o‘zgartirilishi mumkin.

Dialog darsi - o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va o‘z fikrlarini bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o‘quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Aylana bo‘ylab mashq darsi - o‘quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o‘zlashtirish yoki o‘tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Innovasiyalar darsi - o‘quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo‘llash bo‘yicha taklif va loyihalar bilan tanishirish darsi bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish o‘rganishdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga, muammolarni yechishga, ijodiy yondashuvga undaydi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini chuqurlashtiradi, o‘zaro muloqot va hamkorlik madaniyati shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikda o‘qitish asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyati o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ta’lim sifati hamda samaradorligini ta’minlaydi. Mazkur texnologiyani ona tili darslarida keng qo‘llash orqali o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlashda muhim natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukodirova, M. (2020). Interfaol metodlar asosida darsni tashkil etish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Turaev, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
3. Jalolov, J. (2012). Ta’lim metodlari nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
4. Mahkamova, D. (2021). “Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining samaradorligi”, Xalq ta’limi, №1, 45–49-betlar.
5. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Slavin, R.E. (1995). Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. Boston: Allyn & Bacon.
7. Azizxo‘jaeva, N. (2003). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU.
8. Normurodov, A. (2020). “Zamonaviy ta’limda hamkorlik metodlarining o‘rni”, Pedagogik izlanishlar, №3, 32–36-betlar.
9. Shodmonova, S. (2017). Ta’lim jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti.
10. Johnson, D.W., Johnson, R.T., & Holubec, E.J. (1994). Cooperation in the Classroom. Edina, MN: Interaction Book Company.

TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARDA IJODIY-IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

MUXITDINOVA JAMILAXON RUSLANOVNA
Namanga davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor va shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakillantirishning imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ko'rsatilgan bo'lib, bugungi kunda texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligining shakllanganlik darajasi, mohiyati va uni maqsadli amalga oshirish metod va vositalarini qo'llashning yetarli emasligi hamda aniqlangan kamchiliklarni inobatga olish va korrektsiya qilish ishlarini olib borish zarurligi ko'rsatilgan. Mavzu bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar tahlili asosida quyidagi fikrni xulosa qilish imkonini berdi: o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish kabi pedagogik muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun, avvalom bor, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqbul pedagogik imkoniyatlarni hamda shart-sharoitlarni tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: В данной статье показана необходимость воспитания молодежи, способной взять на себя ответственность за будущее страны, инициативной и энергичной, а также потребность в расширении возможностей формирования у них социально-творческой активности. Таким образом, в статье показан уровень сформированности социально-творческой активности учащихся при обучении технологии, ее сущность, а также выявлено недостаточное использование педагогических методов и средств для ее целенаправленной реализации. Вместе с тем, указана необходимость учета выявленных недостатков и проведения корректирующих работ в данном направлении. На основании анализа изученной литературы по данной теме можно сделать следующие выводы: для успешного решения педагогической задачи формирования творческой и социальной активности учащихся, важно, прежде всего, подобрать соответствующие педагогические возможности и условия с учетом их возрастных особенностей.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor va shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakillantirishning imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan didaktik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi [1].

Dunyo ta'lim tizimida ijodiy-ijtimoiy faollikning asoslari o'quvchilarda yoshlikdan shakllanishi va har bir yosh davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, o'quvchilarning maktabda ta'lim olish davri boshlanishi - o'sib borayotgan inson hayotidagi alohida yosh davri bo'lib, u asosan o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga

o‘tish bilan bog‘liq ekanligi ma‘lum [2]. Uning tarkibiy asoslarini belgilashlari, pedagogik imkoniyatlarini ochib berishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilar va oliy ta‘lim talabalarida ijodiy-ijtimoiy faollikning asoslarini rivojlantirish omillari ta‘sirini baholash, kreativlikka asoslangan ta‘limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish orqali ularning kreativ fikrlash ko‘nikmalari, innovatsion rivojlanishni ta‘minlovchi kasbiy ko‘nikmalari bilan birgalikda ijodiy-ijtimoiy faolliklarini takomillashtirishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish kabi istiqbolli yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikning shakllanish jarayoni belgilan. Tadqiqotning predmetini texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Adabiyotlar sharhi. Ilmiy manbalar tahlili o‘quvchilarining ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning muayyan masalalari o‘z aksini topganligini ko‘rsatdi.

Ular orasida mamlakatimizda o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi va ijtimoiy-pedagogik tizimni takomillashtirish kabi masalalar X.M.Tojiboyeva, M.K.Bakiyeva, G.Z.Yusupova, Z.A.Pulatova, I.A.Oxunov, B.A.Xodjayorova, N.G.Gulyamova, M.F.Ziyayeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta‘lim jarayonidagi ijodiy faollikning psixologik-pedagogik, metodik muammolari A.R.Xodjabayev, U.SH.Begimqulov, R.X.Djo‘rayev, J.G‘.Yo‘ldoshev, R.A.Mavlyanova, N.A.Muslimov, SH.E.Qurbanov, G.B.Yaxyoyeva, K.X.Allaberdiyeva, B.A.Supiyeva, M.S.Achilovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ayrim jihatlari yoritib o‘tilgan.

MDH davlatlari olimlaridan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: o‘quvchi shaxsini ijodiy faolligi va ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari (G.S.Altshuller, V.I.Andreyev, V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomorev, C.L.Rubinshteyn, Ye.L.Yakovleva); o‘quvchi shaxsining ijodiy-ijtimoiy faolligini rivojlantirish (D.B.Bogoyavlenskaya, Ye.A.Prudnikova, A.A.Smirnova); ijtimoiy faollik va shaxs faoliyatining pedagogik asoslari (B.G.Ananyev, Ye.A.Anufriyev, V.F.Bexteryov, L.S.Vigotskiy, T.G.Kiseleva, V.I.Ovchinnikov, B.C.Rotenberg, V.A.Yadov) o‘rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan — A.Adler, A.Maslou, T.Parsons, J.Piaje, E.Erikson, Ye.P.Torrens ijtimoiy faollik va shaxs faoliyatning pedagogik va psixologik asoslari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ijodiy-ijtimoiy faolikning ayrim jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligining shakllanganlik darajasi, mohiyati va uni maqsadli amalga oshirish metod va vositalarini qo‘llashning yetarli emasligi ma‘lum bo‘lmoqda. Yuqorida zikr etilganlarni hisobga olgan holda texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘qitish jarayonlarda samarali qo‘llash uchun amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘quvchilarga amalda foydalanishlari uchun didaktik o‘quv

vositalari ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishning shart-sharoitlari, maqsadi, vazifalarini belgilab, tadqiqot ishini o‘tkazish, texnologiya fani mashg‘ulotlarida aniqlangan kamchiliklarni inobatga olish va korrektsiya qilish ishlarini olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxsning ijodkorlik sohasida erishadigan muvaffaqiyatlari darajasini belgilovchi asosiy omil uning egallayotgan yoki shug‘ullanayotgan ijodiy faoliyat turini to‘g‘ri tanlagani va ayni paytda shaxsning o‘zi ijodiy talablarga qay darajada javob bera olishi bilan belgilanadi [3].

Demak, texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish bo‘yicha yangicha qarashlarni va metodikasini ishlab chiqish, ularning nazariy ta‘limdan amaliy faoliyatga o‘tish davridagi dolzarb muammolarni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda mamlakatda ta‘lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishish, maktabgacha ta‘limdan to oliy ta‘limgacha bo‘lgan o‘qitish jarayonida uzluksizlik tamoyili asosida yoshlarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, ijtimoiy faollashtirish hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash borasida ta‘lim trayektoriyasi maqsadli amalga oshirilmoqda.

Pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy manbalarda ijodkorlik kategoriyasi bevosita faoliyat turi bilan bog‘liqligi yoritilgan bo‘lib, san‘at, adabiyot, fan va boshqa sohalarda yangi bosqich masalasining o‘ziga xosligini ochib beradigan qobiliyat muammosi bilan uyg‘unlashadi [4].

Turli mualliflar tomonidan e‘tirof etilgan ijod, ijodkorlik muammolari to‘g‘risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ilmiy tadqiqotimizda texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish masalasiga alohida urg‘u berilgan.

Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, obyektiv va subyektiv, individual va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o‘z ichiga qamrab oladi.

Ijodiy faoliyat - inson yoki jamoaviy fa-oliyat shakli, ilgari mavjud bo‘lmagan ammo sifat tomonidan yangicha qarash tushuniladi [5].

Ijodkorlik tushunchasi shaxsning individual xususiyatlariga xos bo‘lgan asosiy psixologik tushuncha bo‘lib, uning yosh xususiyatlari hamda rivojlanish bosqichlariga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Psixologik adabiyotlar tahliliga ko‘ra, bola rivojlanishining senzitiv davri har bir yosh davrida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf yosh davri bolalik davrining cho‘qqisi hisoblanadi. Bu yoshda yashash tarzi va uslubi o‘zgaradi: yangi talablar, o‘quvchining yangi ijtimoiy roli, printsipial jihatdan yangi faoliyat turi - ta‘lim faoliyatiga o‘tadi. Bu yoshdagi bolalar nafaqat maktab ta‘limiga moslashish, ta‘lim olish hamda maktab ta‘lim dasturini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini egallaydilar, balki ularning ijodiy faolligi rag‘batlantirilishiga, ijodiy o‘ziga xosligi, ma‘naviy boyligining rivojlantirilishiga ehtiyoj seza boshlaydilar [1].

O‘sib borayotgan o‘quvchining hayotidagi muhim va shu bilan birga "burilish nuqtasi" hisoblangan davr uning beshinchi sinfga o‘tish davri hisoblanadi. Chunonchi, beshinchi sinfda bolani o‘qitish va tarbiyalashning eng qiyin davrlaridan biri hisoblanishi bejiz emas. Beshinchi sinf o‘quvchisi, bir tomondan, o‘zini ancha xotirjam va mustaqil his qiladi, ikkinchi tomondan, o‘zini kuchsiz, hali ham ko‘p jihatdan yordamsiz va o‘z holiga tashlab qo‘yilgandek his qiladi. O‘smirning

rivojlanishidagi bu ichki qarama-qarshilik uning butun hayoti va faoliyatiga ta‘sir qiladi hamda uning hatti-harakatlarida ham juda ko‘p qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi. Bu yoshda faollik, ijodiy faollik, ijtimoiy va ijodiy faollik kabi sifatlarni shakllantirishga erishiladi [1].

13 yoshga kelib, bolalar allaqachon emotsional jihatdan ota-onalaridan mustaqil bo‘lib qoladilar. Bu davrda ularning mantiqiy va situatsion fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Bola uzoq muddatli rejalar tuzishni, birinchi marotaba kasb haqida jiddiy fikrlashni boshlaydi. Uning ichki "Menni allaqachon shakllanib bo‘ladi [1].

Shunday qilib, shaxs faolligi - bu alohida faoliyat turi yoki o‘ziga xos faoliyat bo‘lib, uning asosiy belgilarining kuchaytirilishi (maqsadga yo‘nalganlik, motivatsiya, onglilik, harakat usullari va metodlariga egalik, emotsional), shuningdek, tashabbuskorlik kabi fazilatlarning mavjudligi bilan ajralib turadigan alohida faoliyat turini anglatadi [6].

Shaxs faolligi muammosi zamonaviy psixologiyaning asosiy muammolaridan biridir: inson faoliyatining barcha turlarini faollashtirish va samaradorligini oshirish vazifalari bilan bog‘liq holda so‘nggi yillarda ushbu muammoga qiziqishning ortishi uni o‘rganishning yanada tabaqalashtirilgan yondashuvlarini va tadqiqotning metodik usullarini ishlab chiqish zaruratini olib keldi.

E.G‘.G‘oziyev ichki ehtiyojlar bilan belgilanadigan faollikni amalga oshiradigan uchta turini ajratib ko‘rsatdi - aqliy faoliyat, xarakatli (shu jumladan nutq-xarakatli) va ijtimoiy (muloqot) faoliyatlar [7].

Ijodiy faollik tushunchasi ham juda murakkab va ko‘p ma‘noli tushunchadir. Ijodiy faollik obyektiv ma‘noda - mavjud bo‘lgan narsalar asosida, hali mavjud bo‘lmagan narsalar yaratishdir. Shu bilan birga, ijodkorlik nafaqat yangilik bilan ifodalanadi, balki uning ijtimoiy qiymati bilan ham mezon belgilari sifatida ifodalanadi.

D.B.Bogoyavlenskaya o‘z ishlarida o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi pedagogik shartlarni ajratdi:

• ijodiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni va qiziqishni shakllantirish;

• o‘quvchilarning ijodiy faoliyat olib borish yo‘llarini o‘zlashtirish, tasavvurlarini, dialektik va tizimli fikrlashlarini rivojlantirish;

• faoliyatni rejalashtirish, faoliyat davomida o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini o‘zi baholay olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

• ta‘lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va bir-biriga ishonchga asoslangan munosabatlar [8].

M.G.Davletshin ta‘kidlaganidek, agar bola ijodkorlik quvonchini his qilsa, uni “ixtirosi uchun qattiq rag‘batlantirilsa, keyinchalik u qanday bosimga duchor bo‘lmasin, hech qachon bu qobiliyatini yo‘qotmaydi”. Shu bilan birga, M.G.Davletshinning ta‘kidlashicha, bolalik davridagi inson uchun ijodiy faoliyatning obyektivlashtirilgan natijalari emas, balki ijodiy faolligini atrofdagi "muhim insonlar" (oila a‘zolari, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, do‘stlar, sinfdoshlar) tomonidan ijodiy tashabbuskorligini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga egadir. “O‘qituvchilar tomonidan bolalarning ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligini so‘ndirish insonning ijodiy salohiyatini o‘ldiradi” – deb ta‘kidlaydi M.G.Davletshin [9].

Shunday qilib, shaxsning ijodiy faolligi aniq belgilangan ijtimoiy xarakterga ega ekanligini inobatga olib, ijodiy faollik bilan bir qatorda ijtimoiy faollikni ham ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. I.T.Frolov tomonidan tahrir qilingan falsafiy lug‘atda ijtimoiy faollik - bu shaxsning jamiyatdagi faoliyatini aks ettiruvchi tushuncha bo‘lib,

qiziqishning harakat omiliga aylanishi, bilish, maqsad qo‘yish va voqelikni o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning faol tabiati bilan bog‘liq, mavjudlik shartlari va shaxsning obyektiv ehtiyojlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik va inson mavjudligi ehtiyojlari va shartlari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etishga qaratilgan harakatdir [10].

Zamonaviy jamiyatining bozor munosabatlariga o‘tishi munosabati bilan hayotning yangi sharoitlari, jamoat ongi va munosabatlarida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Aksariyat ilmiy tushunchalar ham bu o‘zgarishlarga duch keldi. Hozirgi davrda ijtimoiy faollik atamasi yangi mazmun bilan to‘ldirildi va boyitildi.

Ijtimoiy faollik tushunchasiga ko‘plab ta‘riflarni keltirish mumkin. Ushbu ta‘riflar orasida quyidagi umumiy o‘xshashliklar qayd etilgan: faollik - bu shaxsning faoliyat subyekti sifatidagi jihatlari, ijtimoiylik esa uning faoliyatga qaratilganligini va uning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi [11].

O‘quvchilarining ijtimoiy va ijodiy faolligi haqida ijtimoiy va madaniy ijodiy faoliyat kontekstida gapirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bu ikkala natija bir-birini to‘ldiradi, ya‘ni ijodiy-ijtimoiy faollikni namoyon bo‘lish darajalari sinergetik yondashuv asosida amalga oshirilsa, yanada samaraliroq natijaga erishiladi. Shunday qilib, ijodiy va ijtimoiy faollikning tuzilishi va mazmunini ko‘rib chiqib, o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi tushunchasiga quyidagi mualliflik tarifini berishimiz mumkin:

o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs sifatlari bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga yo‘naltirilganlik, havaskorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijodkorlik bilan yondashish kabi sifatlardir.

O‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faollikning namoyon bo‘lishini turli yo‘llar bilan rag‘batlantirish mumkin: faollikni shakllantirish, ijodiy faoliyatni aktuallashtirish, shaxsning bilish va ijodkorlikka bo‘lgan motivatsiyani rivojlantirish, bolaning emotsional farovonligini ta‘minlash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar (axloqiy, oilaviy, fuqarolik) bilan tanishtirish uchun faol o‘yin faoliyatiga qo‘shish; o‘quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o‘quvchilarining ijodiy-ijtimoiy faolligini aksiologik, kognitiv, faoliyatli va ijodiy komponentlarining birligidagi ko‘p qirrali shaxsiy ta‘lim sifatida belgilashimiz mumkin. Ijodiy-ijtimoiy faollikning barcha komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, asosan ijodiy-ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar tahlili asosida quyidagi fikrni xulosa qilish imkonini berdi: o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish kabi pedagogik muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun, avvalom bor, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqbul pedagogik imkoniyatlarni hamda shart-sharoitlarni tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fani o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayoni o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo‘lib, muammoli vaziyatlar yaratish, mashg‘ulotlarga maqsadli va mazmunli yondashish, o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, axloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimi, malaka va ko‘nikmalarini faoliyatning turli shakl va usullarini egallab olishga yo‘naltiriladi.

Texnologiya fanini o‘qitishda

o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda mashg‘ulot samaradorligi ko‘p omillarga bog‘liq. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘quv materiali mazmuni, mashg‘ulotni o‘tkazish shakli, o‘qitish metodi, o‘quvchilarda intellektual, motivatsion va boshqa sohalarning faol rivojlanish darajasi, o‘qituvchining metodik mahorat darajasi hamda pedagogik dasturiy vositalarni tanlash va qo‘llash ko‘nikmasi.

Bugungi kunda ta‘limning faqat an‘anaviy usuliga tayanilgan o‘qitish, illyustrativ-tushuntirish metodlari va dalillarga asoslangan bilimlarni mexanik ravishda o‘zlashtirish zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Shuning uchun ham texnologiya o‘qituvchisini intellektual rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri bu – o‘quv jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlaridan keng foydalanish. Bunda produktiv metodlar, ya‘ni muammoli bayon etish, evristik, tadqiqotchilik usullarini qo‘llash orqali o‘quvchilar ijodiy faollikka o‘rgatiladi. Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish ko‘nikmalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ma‘lumotlarni tahlil qilish; muammoli masalalarni echa bilish; vaziyatlar haqida fikr bildirish; masalani echishning rasmiy usulini tushunish va undan foydalanish. Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda o‘quv materiallarini o‘rgatish jarayonida nafaqat o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishiga, balki amaliy faollashtirilishiga ham e‘tibor qaratish kerak [12].

Tadqiqot doirasida texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning bir qator pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlarni ajratish imkonini berdi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida qator ijobiy natijalarga erishiladi. Jumladan: o‘quv faoliyatini takomillashtirish hisobiga o‘quvchilarda bilim olishga motivatsiya kuchayadi; o‘quvchining mantiqiy fikrlashi faollashadi; o‘quvchilar ijodiy faolligini individual holda rivojlantira oladilar; bilish jarayonida har bir o‘quvchining mustaqilligi va faolligi ortadi; tezkor holda treninglar o‘tkaziladi; mashg‘ulot natijasini baholash xolisligi ortadi: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv amalga oshiriladi; o‘quvchilarda ijodiy ishlash, loyihalash, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi, o‘quv faniga qizishi ortadi [13].

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish sifat jihatdan mutlaqo yangi bos¬qichga ko‘tariladi. Demak, ushbu fanni o‘qitishda o‘quvchini ijodiy-ijtimoiy faolligi rivojlanib borishi ta‘lim jarayonini ma‘lum darajada optimallashtiradi. Uning axborot va metodik ta‘minotini yaratishga xizmat qiladi. Shunday bo‘lsa-da, eng asosiy maqsad ta‘lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish emas, balki ular vositasida ta‘lim samardorligini oshirish va aniq natijaga erishishdir [14].

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiribgina qolmay, balki ularning dunyoqarashi, irodasi, ijodiy fikrlash, kreativlik qobiliyatini rivojlantiradi va amaliyotda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shunga ko‘ra texnologiya mashg‘ulotlari uchun o‘qitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish muhim

ahamiyat kasb etadi [12].

Tahlil va natijalar muhokamasi. Hozirgi davrda yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o‘qitishning yangi shakl, noan‘anaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardagi ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta‘lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud bo‘lib, aynan mana shular uzluksiz ta‘lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta‘lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladigan ta‘sirchan choralarni ko‘rishni taqozo qiladi.

So‘nggi yillarda yosh tadqiqotchilardan D.A.Madjidova tabaqalashgan yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish, G.Q.Mardiyeva - ijtimoiy moslashtirish texnologiyasini takomillashtirish, H.X.Hamzayev – o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish, D.B.Mahmudova - ijtimoiylashtirishning didaktik tizimi, X.M.Tojiboyeva – o‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishni tizimlashtirish kabi tadqiqotlar olib borilgan [15].

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish uchta asosiy omilni integratsiyalash orqali ta‘minlash mumkin:

– texnologiya faniga oid o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan tayanch kompetentsiyalarga mos ravishda tuzilgan va didaktik jihatdan moslashtirilgan bilimlar kontseptsiyasiga asoslangan ta‘lim mazmunini tashkil etishning maqsadga muvofiq bo‘lishini ta‘minlaydigan modullilik;

– ta‘limning maqsadiga mos keladigan o‘qitish shakllarini tanlashni belgilab beradigan – ta‘limni faoliyatga ko‘ra tashkil etish;

– ta‘lim olish - rivojlanishning uzluksiz jarayonini tashkil etish yo‘li bilan inson kamolotining to‘la-to‘kis bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan – ta‘limni texnologiyalashtirish.

E.F.Zeer fikriga tayangan holda shuni ta‘kidlash mumkinki, texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda o‘z-o‘zini yo‘naltiruvchi va faollashtiruvchi ta‘lim texnologiyalari muhim o‘rinni egallaydi, ularga quyidagilarni kiritish mumkin [16]:

- kognitivlikka yo‘naltirilgan texnologiyalar: o‘qitishning dialogli metodlari, seminar-munozaralar, muammoli o‘qitish, kognitiv yo‘riqnomalar, kognitiv xaritalar, vositali-mantiqiy treninglar, trening-refleksiyalar va hokazo;

- faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalar: loyihalar metodlari, yo‘naltiruvchi matnlar, kontekstli ta‘lim, tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar, majmuaviy (didaktik) topshiriqlar, texnologik xaritalar, texnologik jarayonlarni taqlidiy-o‘yinlar orqali modellashtirish va hokazo;

- shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar: interaktiv va taqlidiy o‘yinlar, rivojlantirish treninglari, rivojlantiruvchi psixodiagnostika va hokazo [16].


Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samarali natija beradi. Jumladan, “SMART texnologiya”si ayni paytda texnologiya olamida keng qo‘llaniluvchi ibora bo‘lib, specific (o‘ziga xos), measuradle (o‘lchab bo‘ladigan), attainnable (erishib bo‘ladigan), relevant result-oriented (tegishli natijaga yo‘naltirilgan), time framed (aniq muddatli) so‘zlarining qisqartmasidan olingan. Mazkur texnologiya mashg‘ulotlarni texnologiya faniga qaratilgan ma‘lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko‘rsatish hamda boshqa axborot tizimlari bilan

integratsiyasini amalga oshiradigan texnologiya sifatida qaraladi.

O‘rganishlarimiz davomida o‘quvchilarning texnologiya fani amaliy mashg‘ulotlarini “SMART texnologiya”si asosida tashkil etishni quyidagicha tadqiq qildik (rasm.1):

• specific (o‘ziga xoslik, aniqlik) – amaliy mashg‘ulotning bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik faoliyati uchun juda muhim axamiyatga ega ekanligi hamda amaliyot jarayonida erishiladigan aniq maqsadga egaligi. Erishiladigan maqsad sifatida o‘quvchilarning olgan nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini iste‘mol buyumlarini ishlab chiqarish jarayonida qo‘llay olishi sinovdan o‘tkaziladi. O‘qituvchining umumta‘lim maktablarida texnologiya fanidan darsga tayyorgarlik ko‘rishi, tashkil eta olishi va boshqara olishi o‘ziga xos tarzda amalga oshirilishi uchun axborot tizimiga hamda mexanizmlariga egaligi ilmiy asoslanadi.

• Measuradle (o‘lchab bo‘ladigan) – amaliy mashg‘ulot boshlanishidan oldin va mashg‘ulotdan so‘ng olinadigan natijalarni mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Qo‘yilgan maqsadga ya‘ni o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllanganlik darajalarining rnivojlanganligi hisobga olinadi. O‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy fa-olligini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar asosida natijadorlik tahlil qilinadi hamda kerakli xulosalar chiqariladi.



1-rasm. Texnologiya fani mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishda “SMART texnologiya”si dan foydalanish.

• Attainnable (erishib bo‘ladigan) – amaliy mashg‘ulotni belgilangan talablar asosida va maqsadga erishish nuqtai nazaridan to‘g‘ri tashkil etilishi oldindan bashoratlangan natijaga erishish imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulotlarni avval passiv va keyinchalik faol tarzda tashkil etilishi natijalarning yaxshi bo‘lishiga zamin tayyorlaydi. Xar bir o‘quvchi o‘zining bo‘lajak tanlagan kasbi bo‘yicha tegishlicha xulosalar chiqarib oladi.

• Relevant (result-oriented) – (tegishli natijaga yo‘naltirilgan) – amaliy mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish, o‘z kasbiy kompetentlik darajalarini oshirish, kasbiy akmeologiyaga erishishda mustaqil va erkin ta‘lim olishlari va o‘z ustilarida ijodiy ishlashlari kafolatlanadi. Amaliy mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli bajargan o‘quvchilar o‘z portfoliolarini to‘ldirib borishadi. Oxirgi natijadorlik maqsadga erishilganlik darajalari ta‘minlanadi.

• Time framed (aniq muddatli) – amaliy mashg‘ulotlarning tizimli va izchil tarzda tashkil etilishiga erishiladi. Mashg‘ulotlar davomida bajariladigan ishlarning aniq muddatlari belgilab beriladi. Xar bir topshiriqning o‘z vaqtida va samarali bajarilishi “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha biriktirilgan ustozlari tomonidan nazorat qilib boriladi. Reproduktiv va produktiv mashg‘ulotlar davomida bajarilgan vazifalar o‘quvchi portfoliosida saqlanadi va baholashda foydalaniladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida tavsiya etilayotgan metodlarni integrativ qo‘llanishi natijasida texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish, o‘quvchilar dunyoqarashlarini ilmiy tarzda shakllanib, mustaqil tarzda turli muammolarga echim topa oladigan darajadagi zakovatga ega bo‘lib boradilar.

Texnologik fikrlashni rivojlantirish natijasida o‘quvchilar nafaqat iste‘moldagi yuqori texnologiya mahsulotlarini ish tamoyilini idrok etishga, balki ularni o‘zlari ishlab chiqara oladigan tarzdagi ijodiy-ijtimoiy salohiyati poydevoriga ega bo‘ladilar.

Ilgari surilgan ilmiy farazni amalga oshirish va uning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish uchun pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari 2020-2023 o‘quv yillari mobaynida birinchi navbatda tajriba o‘tkaziladigan va o‘rganilayotgan pedagogik jarayon to‘g‘risida har tomonlama ma‘lumotlar to‘plashga e‘tibor berildi. Bunda avvalo mazkur tajriba ishlarining holati, uning olib borilishi va moddiy-texnik sharoitlari aniqlandi. Jumladan, o‘quvchilarining dars jarayonidagi faoliyati, imkoniyatlari, bilimi, tajribasi, nazariy darslarni o‘zlashtirishi va amaliy ishlarni bajara olish, to‘garak ishlaridagi faolligi darajasiga oid tanlab olingan ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish usullarni qo‘llash yuzasidan so‘rovnoma (anketa)lar va suhbatlar o‘tkazildi, ish hujjatlarini hamda o‘quvchilarning bajargan ishlari o‘rganildi (anketa so‘rovnomalari).

Tajriba-sinov ishlar davomida 6- va 7-sinflardagi holati chuqur tadqiq etildi. Texnologiya fanida o‘quvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilayotgan an‘anaviy usullarning samaradorligi yuzasidan anonim holatda anketa savol-javobi o‘tkazildi. Shu bilan birga ushbu usullarni aniqlashtirish va qo‘llash bo‘yicha aniq ishlab chiqilgan uslubiy ko‘rsatmalar zarurligini ta‘kidladilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan har bir obyektdan ikkitadan parallel sinflarni tanlab olindi va ulardan birini tajriba guruhiga, ikkinchisini nazorat guruhiga ajratildi.

Tajriba ishlarini olib borish muddatlarini aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Agar, tajriba ishlari qisqa vaqt davomida olib borilsa, olingan natijalar haqqoniy chiqmaydi. Tajriba ishlari uchun ko‘p vaqt sarflansa, bajarilgan ishlar hajmi ortib ketadi va ishni

rasmiylashtirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda biz asosiy tajriba ishlarini 2022-2023 o‘quv yili davomida o‘tkazish rejalashtirildi. Bunga ko‘ra tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish bo‘yicha o‘quvchilar kontingenti tanlandi.

Tajribani o‘tkazish uchun tajriba jarayonida qatnashuvchi o‘quvchilar soni va tajribani o‘tkazish muddatlari belgilab olindi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining boshlang‘ich tayyorgarlik darajalari aniqlandi va olingan natijalar taqqoslandi. Shunga ko‘ra tajriba guruhida qo‘llaniladigan o‘qitishning noan‘anaviy usullari bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar va uslubiy tavsiyalar yanada takomillashtirildi. Aniq maqsadlar belgilab olindi. Natijada tajriba guruhi o‘quvchilarining bilimi va ijodkorlik ko‘nikmalari nazorat guruhi o‘quvchilarining bilimi va ijodkorlik ko‘nikmalaridan sezilarli darajada yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

6- va 7- sinf texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ahamiyati va samaradorligini oshirish, ijodiy-ijtimoiy faolikni rivojlantirish klasterli modeli, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlarimizni amaliyotga tatbiq qilish maqsadida 2020-2023 o‘quv yillarida uch bosqich (o‘rganuvchi-tahliliy (2020-2021 o‘quv yili), shakllantiruvchi tajriba (2021-2022 o‘quv yili), yakunlovchi tajriba (2022-2023-o‘quv yili))da pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining o‘tkazilishi jarayonini quyidagicha asoslash mumkin. Olib borilgan tajriba sinovnatijasida tavsiya etilgan o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini aniqlash masalalari tajribada qo‘llanilganda, o‘qituvchilar tomonidan belgilangan vazifalarni, topshiriqlarni bajarishda foydalana oldilar; hatto berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarda masalaga yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Natijada, o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini aniqlash masalalarida natijalar olindi, taqqoslandi, qiyosiy tahlil etildi, o‘quvchilarning bilim egallashlari, ko‘nikma va malaka hosil qilish ishlari maqsadli amalga oshirildi; o‘quvchilarda egallangan bilim, malaka, ko‘nikmalar (BKM) elementlarini ijodiylik elementlardan iborat yangi holatlarda va vaziyatlarda amaliyotga tatbiq eta olish ko‘nikmalari quyidagi mezonlar vositasida shakllantirildi.

Baholash mezonlari asosida respondent o‘quvchilarda ijtimoiy-ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo‘yicha baholash kvalimetrik jihatdan to‘g‘ri deb topildi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari “yuqori”, “o‘rta”, “quyi” darajalar bo‘yicha baholandi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o‘quvchilarning nazorat guruhi o‘quvchilariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshirildi, aniqlangan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilgani tasdiqlandi (jadval-1).

1-jadval

6-7-sinf o‘quvchilarida ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari bo‘yicha tajribadan avvalgi (TA) va tajribadan keyingi (TK) ma‘lumotlar

№	Tadqiqot ob‘ektlari	Tajriba guruhlari						Nazorat guruhlari					
		Yuqori		O‘rta		Past		Yuqori		O‘rta		Past	
		TA	TK	TA	TK	TA	TK	TA	TK	TA	TK	TA	TK
1	6-sinf	18	**25**	32	**49**	56	**32**	18	**23**	33	**32**	57	**53**
2	7-sinf	15	**41**	47	**45**	33	**9**	14	**15**	48	**52**	29	**24**

Yuqoridagi 1-jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, sinov va nazorat guruhlari taqqoslandi (2-jadval).

2-jadval

6-7-sinf o‘quvchilarida ijodiy- ijtimoiy faollikni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi ma‘lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tadqiqot ob‘ektlari	Yuqori	O‘rta	Past	Jami
	6-sinf	25	49	32	106
	7-sinf	41	45	9	95
Nazorat guruhi	Tadqiqot ob‘ektlari	Yuqori	O‘rta	Past	Jami
	6-sinf	23	32	53	108
	7-sinf	15	52	24	91

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o‘quvchilarning nazorat guruhi o‘quvchilariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. O‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollik va uning turli qirralarini har tomonlama ilmiy o‘rganish dolzarb vazifalardandir. O‘quvchilar uchun ijodkorlikni rivojlantirish ijtimoiy makon hamda voqelik uchun zarur bo‘lgan kasbiy yo‘nalishlarni aniq va to‘g‘ri, o‘z intilishlariga monand ravishda mos belgilay olishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, bugungi kunda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari jamiyatning innovatsion taraqqiyoti bilan bog‘liq tarzda ma‘lum o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samarali natija beradi. “SMART” texnologiyasi mashg‘ulotlarni texnologiya faniga qaratilgan ma‘lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko‘rsatish hamda boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyasini amalga oshiradigan texnologiya sifatida foydalanish ijobiy natija berdi.

Ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan ta‘lim beruvchilar tomonidan ishlab chiqilayotgan va amalda foydalanilayotgan ta‘lim texnologiyalari o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim tizim ekanligi hamda kelajakda kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun metodik tayyorgarlikniig bosqichma-bosqich rivojlanishi aniqlandi.

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishning klasterli modelida ijtimoiy ijodkorlikni ta‘lim texnologiyalari asosida samaradorligi mezonlari ishlab chiqildi hamda texnologiya fanidan bilimlarni egallab, ularni bo‘lajak kasbiy faoliyatida qo‘llay olishi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarshi kabi holatlar nazarda tutilgan.

O‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish texnologiyalaridan dars va darsdan tashqari jarayonlarda qo‘llash an‘anaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq. Olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining samarali bo‘lganligini tasdiqlaydi va tajriba-sinov ishlarining to‘g‘ri tashkil etilganligi, shuningdek, tadqiqotning to‘g‘ri amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir taklif va tavsiyalar:

O‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy

faolligini shakllantirishga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv lug‘atlar va auditoriyadan tashqari ishlarni bajarishda jumladan: mustaqil ishlar, muammoli videotopshiriqlar, vazifalarni bajarishda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar yaratishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Texnologiya fanining barcha turdagi mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy ma‘lumotlar, tavsiyalar, savol va topshiriqlar bilan mukammallashtirish lozim.

Texnologiya fanining nazorat va mustaqil topshiriqlariga ijtimoiy-ijodkorlikka oid didaktik materiallarning mazmun-mohiyati, manbalari, variantlari, muqobillari, qo‘llanishiga doir topshiriqlar, test savollari kiritish hamda ulardan unumli foydalanish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yaxshi samara beradi.

O‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishga yo‘naltirilgan “O‘zbek ijodkor hunarmandlari”ning ish namunalarini o‘rganishni texnologiya fani o‘quv rejasiga kiritish va uni o‘qitishga doir ilmiy-amaliy anjumanlar, davra suhbatlari o‘tkazish, “Yosh ijodkor hunarmand” to‘garagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni
2. Артюхова Т.Ю., Щелкунова Т.В. (2022) Психология школьников. Учебное пособие. Красноярск. Сс.136-152
3. Боритко Н.М. (2009) “Ижодкорлик фаолияти турлари“. Казань
4. Karimov I. (2023) O‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning uyg‘unlashgan texnologiyalari. Monografiya. Farg‘ona.
5. Мажар Н.Е. (1996) Теоретические основы развития творческой индивидуальности учителя: Дис. ... док. пед. наук. – М.: МГПУ, 348 с.
6. Tojiboeva X.M. «O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi.: Ped. f.n. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018, -43 b
7. G‘oziyev Ye.G‘. (2010) Umumiy psixologiya. T.- 238 s
8. Богоявленская, Д.Б. (2002) Психология творческих способностей. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М.- Академия. С.98
9. Давлетшин М.Г. (2002) Замонавий мактаб ўқувчисининг психологияси. Т., Ўзбекистон. - 30 бет.
10. Фролов И. Т. (2003) Введение в философию. Учебное пособие. М.: Республика - 623 с.
11. Egamberdiyeva N.M. (2009) Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.- Yangi asr avlodi nashriyoti.
12. Muxitdinova J.R. (2022) O‘quvchi talabalar ijodiy fikrlash faolligini rivojlantirishda texnologiya ta‘limining o‘rni va metodlari Zamonaviy ta‘lim. № 7. 21- 35 bb
13. Muxitdinova.J.R. (2022) Texnologiya darslarida o‘quvchilarni texnik fikrlash qobiliyatlarini kelajak kasblari bo‘yicha rivojlantirish usullari. Mug‘allim həm ɣzliksiz bilimlendirio‘. №-1-son. Nuqus. 115-120 bb
14. Muslimov N.A. (2014) Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. // Monografiya. – T.: TDPU Rizografi. 75 b.
15. Mardiyeva G.Q. (2013) Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabaligiga ijtimoiy moslashtirish omillari, bosqichlari va modeli. "Pedagogik ta’lim" jurnali. 6 son. 28-33 b
16. Зеер Э.Ф., Заводчиков Д. (2007) Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем // Высшее образование в России/ -№2
17. Muxitdinova J.R. (2024) Texnologiya fanini o’qitishda o’quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Dissertatsiya avtoreferati. Namangan. 17-b

AMALIY MASHG‘ULOTLARDA LAZER DASTGOHIDA BUYUMLAR TAYYORLASH JARAYONIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH

SHUKUROV SHUHRAT NASIMOVICH
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Aniq va amaliy fanlar fakulteti
Tasviriy san’at va texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda amaliy mashg‘ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim bo‘lgan yangi texnologiyalar va o‘qituvchi vazifalari haqidagi kerakli malumotlar va manbalar keltirib o‘tilgan. Maqolada berilgan malumotlar asosida o‘qituvchilar va ota-onalar o‘zilari uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Lazer texnologiyalari, ta’lim, metodika,amaliy dars, tafakkur, kreativlik, , suvenir buyumlar, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Аннотация: В данной статье представлена актуальная информация и ресурсы об обязанностях учителя, которые следует использовать для развития творческих способностей учащихся. Опираясь на информацию, представленную в этой статье, учителя и родители могут получить необходимую им консультацию.

Ключевые слова: обучение, методика, мышление, лазерные технологии, сувенирная продукция, творчество, характер, упражнение, мышление, творчество, мышление, свобода.

Annotation: This article provides relevant information and resources on teacher responsibilities that should be used to develop students' creative abilities. Based on the information provided in this article, teachers and parents can get the advice they need.

Keywords: Laser technologies, teaching, methodology, thinking, creativity, souvenir items, character, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishini ta’minlash va shu asosda aholimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashdek strategik vazifalami amalga oshirishda Yurtboshimizning bebaho g‘oyalari, siyosiy merosi biz uchun hamisha dasturilamal bo’lib xizmat qiladi [1].

Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi [1. 189-bet].

Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, texnik yo‘nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashda lazer texnologiyalari bilan ishlash katta ahamiyatga ega. Bunday texnologiyalar yordamida talabalar o‘z g‘oyalarini real mahsulotlarga aylantira oladi. Bu esa ularning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [2].

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bolib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygularida,

muayyan faoliyat turlarida namoyon boladi [3].

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qoyish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;652

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash [5. 71-bet].

Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o‘zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg‘amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi.

- Tomas Edison “Kreativlik - g‘ayri ixtiyoriy jarayon”, deydi. Lekin har kuni ko‘plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g‘ayri ixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi “sehrli tayoqcha” yo‘q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o‘ylashiga ko‘maklashadigan ko‘plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim [5. 133-bet].

- Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O‘zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so‘rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o‘rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo‘ldi. Endi yangi g‘oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi [5. 134-bet].

Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi.

Kreativlikka ega bo‘lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilgab oladilar va tez o‘zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar.

O‘quvchilarni maktab yoshdan kreaktiv fikrlay oladigan, ijodiy tafakkuri rivojlangan bolalar, kejajakda buyuk ixtirolar va kashviyotlar qiladilar, albatta o‘z vatanlari ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shadilar [5. 135-bet].

Mustaqil yondashuv – bu shaxsning biror bir berilgan topshiriqqa mustaqil ravishda yondashuvi.

Mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritish.

Mustaqil o‘rganish – bu intilish, izlanish, o‘z ustida mehnat qilish. Mustaqil ta’lim – o‘quv rejadagi fanlar bo‘yicha mavzu, topshiriq va vazifalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishi.

Mustaqil ijodkorlik – faollik, talabchanlik, tashabbuskorlik.

Ta’lim-tarbiyaning rivojlanishi va ko‘lamini kengayib borishi hozirgi davr o‘qituvchilariga amaliy bilimlarni chuqurroq singdirilishini taqozo etmoqda. Shu asosda har bir o‘quvchi muvaffaqiyatga erisha olishi uchun qulay bo‘lgan o‘quv vaziyatini vujudga keltirish innovatsion yondashuv orqali ta’minlanadi.

Hozirgi kunda zamonaviy dizayndagi mahsulotlar tayyorlash va materialga ishlov berishning eng samarali texnologiya va texnikalari bilan talabalarni tanishtiribgina qolmay, balki shu texnikalarning biri bilan amaliy mashg‘ilotlarda buyum ishlab chiqarishni talabalarga o‘rgatish orqali ularga kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kompitensiyalarni hosil qilish orqali zamonaviy, har tomonlama mukammal bilimli kadrlarni tayyorlash, barcha kasb-hunar ta’lim maskanlari oldidagi muhim masaladir. Bugungi kunda zamonaviy keng qo‘llanilayotgan texnologiyalardan biri bu lazer texnologiyalaridir. Bu texnologiya

rivojlangan mamlakatlarning ayniqsa hunar o‘quv kurslari, texnikumlari, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalaridagi amaliy mashg‘ulotlarda keng qo‘llaniladi.

Oliy ta’lim maskanlari uchun zamonaviy lazer dastgohlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish – bu nafaqat talabalarga amaliy ko‘nikma berish, balki ularni sanoat va

dizayn sohalaridagi zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirishda va zamonaviy ish usullarini o‘zlashtirishlarida katta ahamiyatga ega.

O‘quv jarayonida lazer texnologiyalarini qo‘llashning afzalliklari:

1. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish – talabalarda ish ko’nikmasi hosil qilinadi va lazer dastgohlaridan qanday foydalanishni o‘rganadi.

2. Ijodkorlikni rivojlantirish – talaba ijodiy fikirlaydi va o‘z loyihasini o‘zi ishlab chiqadi va tayyorlaydi (masalan, gravirovka, kesish, naqsh tushirish).

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishish – hozirgi uslub, bugungi dizayn va ishlab chiqarish jarayonlarida keng tarqalgan texnologiya.


4. Kichik biznes g‘oyalari – talabalar tayyorlagan buyumlari, suviner mahsulotlarini sotish orqali startap loyihalar boshlashi mumkin.

Lazer bilan ishlashda amaliy mashg‘ulot bosqichlarini quyidagicha tuzish mumkin:

Bosqich	Faoliyat tavsifi
1. Nazariy kirish	Lazer texnologiyasining asoslari bilan tanishish, xavfsizlik qoidalari
2. Dizayn bosqichi	CorelDRAW , AutoCAD , Illustrator dasturlarida chizma chizish va dizayn yaratishni o‘rganish
3. Lazer sozlash	Dastgohda kesish va gravirovka parametrlarini belgilashni o‘rganish
4. Ishlab chiqarish	Yog‘ochni kesish, gravirovka qilishni, belgilashni o‘rganish
5. Yakuniy ishlov	Silliqlash, bo‘yash, laklash amaliy ishlari
6. Taqdimot	Talaba tayyorlagan mahsulotni taqdim etadi va ta’riflaydi

Yog‘ochni lazer bilan kesish texnologiyasi

Yog‘ochni lazer bilan qayta ishlashda maxsus ishlab chiqarish joylarini yoki yuqori malakali mutaxassislarni talab qilmaydi. Asosiy ishchi vosita lazer stanogi va lazer nuridir. U ishlov beriladigan sirtda kontaktsiz tarzda harakat qiladi. Nur sirtga urilganda, uni nuqta yo‘nalishi bo‘yicha isitadi, bu esa yog‘och tolalarining kuyib ketishiga olib keladi.



1-rasm Laserda kesish prinspi.

Radiatsiya manbayining kuchi va buyum sirtidan masofasiga qarab, u material kichik qismini to‘liq kuydirib yuborishi yoki qisman kuydirib yuborishi mumkin. Birinchi holda, to‘la kesiladi, ikkinchisida esa sirtga o‘yma hosil qilinadi. Kuydirish chuqurligi har bir holatda alohida o‘rnatiladi va bajariladigan ishning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Yog‘ochni lazer bilan kesish afzalligi, ishning hajmi, turi va ishlov berish qalinligidan qat’i nazar, oddiy va juda tezdir. Ammo, xavfli tomoni biz yonuvchan materialni kesib ishlayotganimizni unutmaslik va lazer dastgohni doim nazorat qilishimiz kerak. Yong‘inning oldini olish uchun ishlov berish maydoniga havoning sovutish oqimi beriladi. Shuningdek, u kesishda hosil bo‘gan kulni olib yo‘q qiladi va shu bilan toza yuza va toza kesilgan qisimni hosil qilishni ta’minlaydi.



2-rasm Laser stanogida kesish

Zamonaviy lazer dastgohlarining turlari:

1. CO_2 lazer dastgohlari – asosan yog‘och, akril, plastik kabi materiallarga ishlov berishda ishlatiladi.

2. Fiber (tola) lazerlar – metallarga ishlov berishda qo’llaniladi va yaxshi natija beradi.

3. Diodli lazerlar – kichik ishlar uchun, ba’zan yog‘och detal yuzalariga yengil gravirovka uchun qo‘llaniladi.

Bular ichida keng tarqalgani va odatda ta’lim muassasalari ustaxonalarida CO_2 lazer dastgohi bo’lib, ular – asosan yog‘och, akril, plastik kabi materiallarga ishlov berishda qo’llaniladi.




3-rasm. LZ-1310 rusumli Laser stanogi

Lazer uskunalari o‘rnatiladigan xonalar alohida va maxsus jihozlangan bo‘lishi kerak. Bunda lazer nuri asosiy o‘tga chidamli devorga qarab yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu devor va shuningdek xonaning boshqa devorlari ham nur qaytarish koeffitsienti juda oz bo‘lgan materiallardan bo‘lishi kerak. Jihozlarning ustki qoplamalari va detallari yarqirash xususiyatiga ega bo‘lmasligi kerak. Xonaning yoritilishi maksimal miqdorda bo‘lishi kerak, chunki bu holda ko‘z qorachig‘i minimal kengaygan bo‘ladi. Barcha lazer uskunalarini ma`lum masofadan turib boshqarishni ta’minlash va avtomatlashtirish yaxshi natija beradi [8. 211-bet].

Lazerli texnologiyalari asosida yaratilgan tasvirlar yuqori aniqlik va fototasvir sifatga ega.

Umuman olganda, talabalar lazerni kesishi sifatli bo'lishi uchun quyidagi asosiy parametrlarni hisobga oladilar:

- Old tomondan bn va orqa tomondn bз kesish kengligi va shuningdek Δb,
- notekis qirralar Rz;
- issiqlik ta'sir qiladigan zonaning kengligi Δrh
- old tomoni erish radiusi R,
- chiqindilar miqdori (grata) m,
- kesilgan (yoriqchalar) S ichki yuzasining mikrogeometriyasi,
- kesish kechikishi (orqa yuzadagi kesish kechikishiga nisbatan old) j.



4-rasm. Lazerli kesishda sifat xususiyatlari:

Lazerli o‘ymakorlarning bu afzalliklari reklama mahsulotlarini yaratishda, shuningdek, turli xil suvenir mahsulotlarini ishlsb chiqaruvchilar va dizaynerlar tomonidan amalda keng qo‘llaniladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar lazer dastgohi yordamida yog‘ochdan quyidagi oddiy suviner buyumlar turlarini yaratishlari mumkin: Kalitcha ilmoqlari (брелок), gravirovkalangan lavhalar, dekorativ plakatlar yoki rasmli taxtachalar, yog‘och soatlar, qalamdonlar, vizitka ushlagichlari, o‘quv esdalik sovg‘alar yoki sertifikat ramkalari, o‘yma naqshli qutichalar va xokazo.

Lazerli dastgoh bilan ishlov berishning afzalliklari

Yog‘ochni lazer bilan kesish dastgohi bir qator afzalliklarga ega:

- Silliq va hatto kesuvchi konturga

erishiladi.

- Yog‘och detallarga kontaktsiz ishlov berish.

- Lazer uskunalari yordamida yog‘ochda ishlab chiqarilgan naqsh va rasmlar uchun estetik jihatdan yoqimli, kontrastli qorong‘u ko‘rinishga ega bo‘lish.

- Yog‘ochdan yasalgan suvenirlarni yaratishning qulayligi va soddaligi.

- Burchaklarni kesish uchun minimal yaxlitlash radiusining mavjudligi: 0,1 dan 0,3 mm gacha.

- Jarayonning yuqori tezligi va lazerli dastgohida yangi yog‘och mahsulot ishlab chiqarishga sozlash uchun minimal vaqt talab etiladi.

- Lazerni kesish jarayonining yuqori mahsuldorligi.

- Bir vaqtning o‘zida kesish va o‘yma hosil qilish.

- Mexanik ishlov berish orqali erishib bo‘lmaydigan yog‘ochni lazerli o‘ymakorlikning yangi dekorativ xususiyatlarining mavjudligi.

- Badiiy yog‘och mahsulotlarini qayta ishlash uchun yangi standartlarning paydo bo‘lishi va boshqa ijobiy jihatlar bor.



Lazer dastgohda ishlash jarayoni talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun juda foydali texnik vosita bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayon texnik bilimlar bilan bir qatorda, ijodiy yondashuvni ham talab qiladi.

Quyida lazer dastgoh orqali kreativ fikrlash qanday shakllanishi mumkinligi haqida ba'zi jihatlarni keltish mumkin:

1. Raqamli dizayn va tasavvur:

Lazer dastgohda ishlashdan oldin talabalar o‘z g‘oyalarini grafik dasturlarda (masalan, CorelDRAW, AutoCAD, Illustrator) yaratishadi. Bu bosqichda ular:

• Grafik dizayn dasturlari orqali lazer uchun chizmalar tayyorlash talabani estetik fikrlashga, vizual tafakkurni rivojlantirishga undaydi. Muammoga turli burchaklardan yondashishni o‘rganadilar, Estetik va funksional dizaynni uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar, Amaliyotga tatbiq qilinadigan yangi g‘oyalarni o‘ylab topadilar.

2. Eksperiment va sinov

Lazer bilan kesish yoki gravirovka qilish jarayonida talabalar:

• Turli materiallar bilan tajriba qilishadi (fanera, akril, karton, charm va boshqalar),

• Xatoliklardan saboq olishadi va dizaynni takomillashtirishadi,

• Har bir loyihani yaxshilash uchun innovatsion yondashuvlarni sinab ko‘rishadi.

3. Muammolarni hal qilish qobiliyati

Lazer dastgohda ishlashda ba'zida texnik nosozliklar yoki materialga oid, chizmagadagi muammolar bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda:

• Talabalar muammoni tahlil qilib, mustaqil yechim topishga harakat qilishadi,

• Turli alternativ usullarni ishlab chiqishadi,

• Har bir muvaffaqiyatsiz urinishni yangi imkoniyat sifatida ko‘rishadi.

4. Fanlararo bog‘liqlik (integratsiya) yondashuvi

Lazer dastgoh loyihalari ko‘pincha boshqa fanlar bilan uyg‘unlashadi:

• Dizayn + fizika (nurlar, energiya, elektr toki),

• Dizayn + matematika (o‘lchamlar, geometriya, yuza, hajm),

• Dizayn + ekologiya (qayta ishlash, chiqindisiz texnologiyalar, tejamkorlik).

5. Estetik tafakkur va individual yondashuv

Har bir talaba o‘z shaxsiy didi, madaniyati va qiziqishlariga asoslangan dizaynlar yaratadi. Bu esa:

- Shaxsiy kreativlikni rivojlantiradi,
- O‘ziga xos fikrlash tarzini shakllantiradi,
- Estetik va funksional muvozanatni yaratishga undaydi.

Kritik fikrlash: Lazer dastgoh bilan ishlashda har bir detal haqida o‘ylash kerak – dizayn mos keladimi, kesim aniq bo‘ladimi, material zarar ko‘rmaydimi – bu o‘ylash jarayoni tanqidiy tafakkurni kuchaytiradi.

Moslashuvchan fikrlash: Loyiha davomida yuzaga keladigan xatoliklarni hal qilish kreativ yechimlar topishni talab qiladi va talaba shakillanib boradi.

Xulosa

Lazer dastgohda ishlash nafaqat amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki talabalarni ijodiy fikrlashga, yangilik izlashga undaydi. Bu esa ularni zamonaviy kasbga moslashgan, mustaqil va innovatsion fikrlay oladigan mutaxassis bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, lazer texnologiyasini o‘quv jarayoniga joriy qilish orqali ta’lim sifatini va talabalarning kreativ salohiyatini oshirish mumkin.

Reference:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O„zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. Karimov B.I., Rajabov A.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 250 b
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma.– Toshkent 2015,40 bet
4. Davletshin M.G, Do‘stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To‘ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O‘quv metodik qo‘llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
5. Ernazarova G. O., Yakubova M., Oblaqulov S.D. Kreativ pedagogika asoslari bo’yicha o‘quv qo‘llanma– Toshkent. 2022-yil. 162 bet.
6. Jo‘rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta’limga asoslangan o‘quv-metodik qo‘lanma. –T.: Fan, 2005-yil, 66 b.
7. Aliyev A. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent:
O‘qituvchi,1991-yil, 40bet.
8. Hasanova O.T., Zayniddinov V.V. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik-T.: 2020. - 265 bet.
8. R. Sh. Mamatov, A. A. Saidov – “Materialshunoslik va lazer texnologiyalari” 199-yil. 45 bet.
9. William Steen, Jyotirmoy Mazumder – “Laser Material Processing”
10. Э.И. Агеев, В.П. Вейко, С.Г. Горный, Г.В. Одинцова, А.А. Петров -“Лазерная обработка конструкционных материалов” Университета ИТМО 197101, Санкт-Петербург, Кронверкский пр, 49

TA’LIMDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY VA ZAMONAVIY QARASHLAR

JO’RAYEV FOZILBEK ABDULXAMID O’G’LI
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Abstrakt. Mantiqiy tafakkur ko‘p asrlar davomida ta’limning asosi bo‘lib, qadimgi falsafiy an’analardan zamonaviy pedagogik asoslargacha rivojlandi. Ushbu maqola ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning tarixiy va zamonaviy istiqbollarini o'rganadi, G'arb va Sharq olimlarining hissalarini yoritadi. Aristotelning rasmiy mantiqi va hind fikrlashning Nyaya maktabi kabi antik falsafalar tizimli fikrlash uchun asos solgan. Zamonaviy nuqtai nazarlar, jumladan Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari va Bloom taksonomiyasi, asosiy ta'lim maqsadi sifatida tuzilgan fikrlashni ta'kidlaydi. Maqolada zamonaviy amaliyotlarni shakllantirishda texnologiya, fanlararo yondashuvlar va madaniy ta'sirlarning roli ko'rib chiqiladi. Tarixiy va zamonaviy g'oyalarni sintez qilish orqali ushbu maqola mantiqiy fikrlashning tobora murakkablashib borayotgan dunyoda o'quvchilar uchun muhim mahorat sifatidagi doimiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Mantiqiy fikrlash, ta'lim, pedagogika, tarixiy istiqbollar, zamonaviy yondashuvlar, tanqidiy fikrlash, kognitiv rivojlanish.

Абстрактный. Логическое мышление на протяжении многих столетий было основой образования и эволюционировало от древних философских традиций к современным педагогическим основам. В этой статье рассматриваются исторические и современные перспективы развития логического мышления в образовании, подчеркивая вклад западных и восточных ученых. Древние философии, такие как формальная логика Аристотеля и школа индийской мысли Ньяя, заложили основу систематического мышления. Современные точки зрения, в том числе этапы когнитивного развития Пиаже и таксономия Блума, подчеркивают структурированное мышление как основную образовательную цель. В статье рассматривается роль технологий, междисциплинарных подходов и культурных влияний в формировании современных практик. Синтезируя исторические и современные идеи, эта статья подчеркивает непреходящую важность логического мышления как важнейшего навыка для учащихся во все более сложном мире.

Ключевые слова. Логическое мышление, образование, педагогика, исторические перспективы, современные подходы, критическое мышление, когнитивное развитие.

Kirish. Mantiqiy fikrlash samarali o'rganish va muammolarni hal qilish uchun zarurdir. Tarix davomida pedagoglar va faylasuflar fikrlash jarayonlarida ravshanlik, aniqlik va ratsionallikni rivojlantirish uchun ushbu mahoratni rivojlantirishga urg'u berishgan. Mantiqiy tafakkur azaldan ta'limning asosi sifatida qaralib, odamlarda axborotni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Antik falsafadan tortib to hozirgi zamon pedagogik nazariyalarigacha G‘arb va Sharq an’analari olimlari mantiqiy tafakkur taraqqiyotini tushunishimizga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maqola G'arb va Sharq olimlarining nuqtai nazarlarini sintez qilib, ta'limdagi mantiqiy fikrlash haqidagi tarixiy va zamonaviy qarashlarni o'rganadi.

Mantiqiy fikrlashning tarixiy istiqbollari. Ta'limdagi mantiqiy fikrlashning ildizlarini falsafavafikrlashintellektualhayotdamarkaziy o'rin tutgan qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. G‘arb qarashlari Qadimgi Yunonistonda mantiq Aristotel (miloddan

avvalgi 384–322) kabi faylasuflarning asarlari orqali rasmiy fan sifatida o‘rnatilgan. Aristotelning "Organon" asari deduktiv fikrlash uchun asos yaratib, sillogistik mantiqni binolardan xulosa chiqarish vositasi sifatida ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, ta'lim aniq va tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun mantiqiy fikrlash tamoyillarini singdirishi kerak, bu bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ma'rifat davrida Jon Lokk (1632-1704) kabi olimlar ta'limda oqilona izlanishni ta'kidladilar. Lokk o'zining "Inson tushunchasi to'g'risida" inshosida ta'lim faqat bilimlarni uzatishdan ko'ra, odamlarga qanday fikr yuritishni o'rgatish kerak, deb ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, mantiqiy fikrlash odamlarga haqiqatni yolg'ondan ajratishga va hukm qilishda noxolislikdan qochishga imkon beradi. Sharq qarashlari Sharqda mantiqiy tafakkur qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasida chuqur ildizlarga ega. Hind falsafasining Nyaya maktabi (miloddan avvalgi 6-asr) mantiqning qat'iy tizimini ishlab chiqdi, unda tizimli fikrlash va munozaralarni haqiqiy bilimga ega bo'lish quroli sifatida ta'kidladi. Nyaya asoschisi Gautama Hindistonda asrlar davomida ta'lim amaliyotiga ta'sir ko'rsatgan fikrlash va noto'g'ri aniqlash usullarini belgilab berdi. Xuddi shunday, Konfutsiy (miloddan avvalgi 551-479) ta'limning ustunlari sifatida ratsionallik va axloqiy fikrlashni ta'kidladi. Konfutsiy falsafasi rasmiy mantiqdan ko‘ra axloqiy fikrlashni birinchi o‘ringa qo‘ygan bo‘lsa-da, jamiyat uyg‘unligiga va individual rivojlanishga erishishda tizimli fikrlash muhimligini tan oldi.

Ta'limda mantiqiy fikrlashga zamonaviy qarashlar. Ta'limdagi mantiqiy fikrlashning zamonaviy istiqbollari psixologiya, nevrologiya va texnologiya sohasidagi yutuqlarni aks ettirish uchun rivojlandi. G'arb va Sharq olimlari zamonaviy ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun tarixiy asoslarni kengaytirdilar. G'arbiy qarashlar Jan Piaget (1896-1980) bolalarda mantiqiy fikrlashning rivojlanishini tushunishdagi asosiy shaxsdir. Uning kognitiv rivojlanish nazariyasi bosqichlarni aniqlaydi, masalan, aniq operatsion bosqich (7-11 yosh), bu erda bolalar mantiqiy fikrlash bilan shug'ullana boshlaydilar. Piaget ta'lim ushbu rivojlanish bosqichlariga mos kelishi, amaliy o'rganish va muammolarni hal qilish faoliyati orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi kerakligini ta'kidladi. Benjamin Bloom (1913-1999) ta'lim maqsadlari taksonomiyasi bilan tanqidiy va mantiqiy fikrlashni kognitiv qobiliyatlar cho'qqisiga qo'ydi. Bloom mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun tahlil, sintez va baholashni ta'kidlab, eslab qolishdan tashqariga chiqadigan ta'lim amaliyotlarini qo'llab-quvvatladi. Zamonaviy G'arb ta'limida tanqidiy fikrlash asoslari muhim o'rin tutdi. Richard Pol va Linda Elder (2006) kabi olimlar mantiqni o'qitish amaliyotiga integratsiyalashuviga urg'u berib, o'quvchilarni taxminlarga shubha qilish, dalillarni baholash va asosli dalillarni yaratishga undaydi. Ularning "Tanqidiy fikrlash asoslari" o'qituvchilar uchun turli fanlar bo'yicha talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Sharqona qarashlar Sharq olimlari mantiqiy tafakkurning zamonaviy yondashuvlariga ham hissa qo‘shgan.

Tsunesaburo Makiguchi (1871-1944), yapon pedagogi va Soka ta'lim harakatining asoschisi, tanqidiy va mantiqiy fikrlash orqali qiymat yaratishga urg'u berdi. Makiguchi ta'lim mantiqiy fikrlashni axloqiy mulohazalar bilan birlashtirgan holda real muammolarni aniqlash va hal qilish qobiliyatini rivojlantirishi kerak, deb hisobladi. Xitoyda neo-konfutsiy olimi Chju Si (1130-1200) zamonaviy ta'lim fikrini shakllantirishda ta'sirchan bo'lib qolmoqda. Chju Si mantiqiy tafakkur va xarakter tarbiyasini

integratsiyalash bo'yicha zamonaviy sa'y-harakatlar bilan rezonanslashadigan oqilona tadqiqotni axloqiy tarbiya bilan birlashtirgan muvozanatli yondashuvni yoqladi. Sharqiy Osiyoning zamonaviy ta'lim tizimlari ko'pincha mantiq va axloqning ushbu sintezini aks ettiradi. Misol uchun, Konfutsiy tamoyillaridan ilhomlangan Singapur ta'lim tizimi o'zining qat'iy o'quv dasturining asosiy natijalari sifatida muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Ushbu yondashuv talabalarda analitik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun maqtovga sazovor.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda texnologiyaning roli. Ta'limga texnologiya integratsiyasi mantiqiy fikrlashni o'rgatish va rivojlantirishni o'zgartirdi. G'arb va Sharq olimlari fikrlash qobiliyatlarini oshirish uchun raqamli vositalarning imkoniyatlarini tan olishadi. Western Perspectives Jonassen (2000) talabalar murakkab muammolarni hal qilishda qatnashishi mumkin bo'lgan haqiqiy o'quv muhitini yaratish uchun texnologiyadan foydalanishni ta'kidlaydi. Simulyatsiyalar, interaktiv o'yinlar va onlayn munozara platformalari kabi vositalar talabalarni stsenariylarni tahlil qilish, natijalarni bashorat qilish va echimlarni ishlab chiqishga undash orqali mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi. Sharq nuqtai nazari Sharqda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnologiya xuddi shunday qo'llaniladi. Hindistonlik ta'lim tadqiqotchisi Sugata Mitra texnologiya bolalarda mustaqil o'rganish va mantiqiy muammolarni hal qilishda qanday yordam berishini ko'rsatgan "Devordagi teshik" tajribalari bilan mashhur. Uning ishi o'quvchilarga raqamli resurslardan foydalangan holda mustaqil ravishda tadqiq qilish va fikr yuritish imkoniyatini berish muhimligini ta'kidlaydi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi muammolar. O'zining muhimligiga qaramay, ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bir qator muammolarga duch keladi.

Standartlashtirilgan test: Alfie Kohn kabi g'arb olimlari standartlashtirilgan testlarga haddan tashqari e'tibor berishni tanqid qiladilar, bu ko'pincha tanqidiy va mantiqiy fikrlashdan ko'ra eslab o'rganishni birinchi o'ringa qo'yadi. Xuddi shunday, o‘zining akademik qat’iyligi bilan mashhur bo‘lgan Sharq ta’lim tizimlari ham imtihonga tayyorgarlikni ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan muvozanatlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Madaniy tafovutlar: Sharqda jamoaviy fikrlashga an'anaviy urg'u G'arbning tanqidiy fikrlashdagi individualistik yondashuvlariga zid bo'lishi mumkin. Ushbu madaniy istiqbollarni birlashtirish global kompetensiyalarni ilgari surish bilan birga, ta'lim amaliyotlarini mahalliy sharoitlarga moslashtirishni talab qiladi.

Texnologik ortiqcha yuk: Texnologiya imkoniyatlarni taqdim etsa-da, Nil Selvin kabi olimlar uni haddan tashqari ishlatishdan ehtiyot bo'lishadi, bu esa chuqur mantiqiy fikrlashdan ko'ra yuzaki ishtirok etishga olib kelishi mumkin.

Kelajakdagi ta'lim amaliyotiga ta'siri. Ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish XXI asr muammolarini hal qilish uchun rivojlanishi kerak. Olimlar quyidagi strategiyalarni qo'llab-quvvatlaydilar:

Fanlararo ta'lim: falsafa, matematika va texnologiya kabi fanlarni birlashtirish talabalarga mantiqiy fikrlashni mashq qilish uchun turli kontekstlarni taqdim etishi mumkin.

O'qituvchilar malakasini oshirish: O'qituvchilar talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. G‘arbiy va Sharqiy yondashuvlar bu maqsadga erishishda o‘qituvchi tayyorlashning muhimligini ta’kidlaydi.

Global hamkorlik: G'arb tanqidiy

fikrlash modellarini Sharqning yaxlit yondashuvlari bilan birlashtirish mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muvozanatli asos yaratishi mumkin.

Xulosa. Ta'limda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi G'arb va Sharq an'analarining boy g'oyalari bilan shakllangan. Aristotel va Konfutsiydan tortib, Piaget va Makiguchigacha olimlar shaxsiy va jamiyat taraqqiyotida tizimli fikrlash muhimligini ta'kidladilar. Texnologik innovatsiyalar va fanlararo yondashuvlar bilan boyitilgan zamonaviy ta'lim ana shu negizlarga tayanishda davom etmoqda. Dunyo tobora o'zaro bog'langan bo'lsa, mantiqiy fikrlash bo'yicha turli nuqtai nazarlarni birlashtirish yanada samarali va inklyuziv ta'lim paradigmasini yaratish imkoniyatini beradi. G'arb va Sharq an'analarining kuchli tomonlariga tayanib, o'qituvchilar o'quvchilarni zamonaviy dunyoning murakkabliklarida aniqlik, aql va axloqiy e'tibor bilan harakat qilishga tayyorlashlari mumkin. Ta'limda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi qadimgi falsafiy an'analardan hozirgi zamon pedagogik asoslarigacha rivojlandi. Aristotel va Konfutsiy kabi olimlarning tarixiy hissalari tizimli fikrlash uchun asos yaratdi, Piaget, Bloom va Polning zamonaviy nazariyalari esa ta'limda qo'llanilishini kengaytirdi. Texnologiyalar, fanlararo yondashuvlar va madaniy tushunchalarni birlashtirgan holda, zamonaviy ta'lim mantiqiy fikrlashni tobora murakkablashib borayotgan dunyoni boshqarish uchun muhim mahorat sifatida rivojlantirishda davom etishi mumkin. Tarixiy donolikni zamonaviy innovatsiyalar bilan bog'lash yanada samarali va inklyuziv ta'lim amaliyotiga yo'l beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaakbarov A. M. TALABALARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O ‘RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH YO ‘LLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 13 SPECIAL. – C. 570-574.
2. Thiel U. Locke's concept of person //John Locke: Symposium Wolfenbüttel. – 1979. – C. 181-192.
3. Kohnstamm, Dolph. Jean Piaget, Children and the Class-inclusion Problem. Routledge, 2021.
4. Husén T. Benjamin S. Bloom 1913-99 //Fifty Modern Thinkers on Education. – Routledge, 2002. – C. 86-90.
5. Elder, Linda, and Richard Paul. Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life. Foundation for Critical Thinking, 2020.
6. Goulah J., Gebert A. (ed.). Tsunesaburo Makiguchi (1871-1944): Educational philosophy in context. – Routledge, 2016.
7. Hatton, Russell Emmett. A Comparison of the Role of Prime Matter in the System of Francis Suarez (1548-1617) with that of Ch'i in the System of Chu Hsi (1130-1200). State University of New York at Buffalo, 1979.
8. Kohn, Alfie. "Why incentive plans cannot work." Harvard business review 71.5 (1993): 54-60.
9. Rustamovna M. S. et al. OLIY TA'LIM TALABA-YOSHLARINING MANTIQIY FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //MASTERS. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 61-64.

SU'NIY INTELLEKT ASOSIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

MIRSAGATOVA U.Z. TKTI Tillar kafedrasi dotsent v.b.
KOMILOVA SH.A. TKTI Tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga jadal integratsiyalashuvi pedagogik nazariya va amaliyotni tubdan yangilayotgani ilmiy tahlil qilindi. Konstruktivizm, kommunikativ yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari SI asosidagi adaptiv platformalar, generativ dialog tizimlari va metakognitiv analitika vositalari orqali yangi sifat bosqichiga ko'tarilayotgani dalillar bilan asoslandi. Differensial ta'limni avtomatlashtirish, multimodal immersiya, real vaqtli polimodal baholash hamda kooperativ o'rganish muhitlari o'quvchilarning motivatsiyasi va natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib berildi. Shu bilan birga, ma'lumot xavfsizligi, akademik halollik va madaniy sezgirlikni ta'minlash bo'yicha falsafiy axloqiy muammolar tahlil qilinib, ustozning didaktik dizayner sifatidagi o'rni aniqlashtirildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xorijiy til o'qitish, konstruktivizm, kommunikativ yondashuv, adaptiv ta'lim, metakognitiv strategiyalar, differensial ta'lim, multimodal immersiya, polimodal baholash, madaniy kompetensiya.

Abstract. This article analyses how artificial intelligence (AI) technologies are transforming foreign language education and prompting a fundamental revision of pedagogical theory and practice. Constructivism, the communicative approach and learner centred pedagogy are shown to reach a new qualitative level through AI driven adaptive platforms, generative dialogue systems and metacognitive analytics. Automated differentiation, multimodal immersion, real time polymodal assessment and collaborative co learning environments demonstrably boost learner motivation and performance. At the same time, the study addresses the ethical challenges of data security, academic integrity and cultural sensitivity, and clarifies the teacher's evolving role as a didactic designer in AI enhanced classrooms.

Keywords: artificial intelligence, foreign language teaching, constructivism, communicative approach, adaptive learning, metacognitive strategies, differentiated instruction, multimodal immersion, polymodal assessment, cultural competence.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga chuqur singib borishi XX asr oxirida shakllangan kompyuter yordamida til o'qitish (CALL) an'analarining mantiqiy davomidir. Ammo zamonaviy SI o'zining neyron tarmoqlar, keng miqyosli til modellari, nutqni avtomatik tanish va generativ algoritmlar kabi imkoniyatlari bilan didaktik muammolarga ancha nozik yondoshadi. Masalan, o'quvchining talaffuzini fonetik darajada tahlil qilib, xatolarni haqiqiy murabbiydek izchil ko'rsatish, interaktiv muloqotda mavhum semantik nozikliklarni his etish hamda nutq yetukligiga qarab dialogni moslashtirish singari funksiyalar bugun real vositalarga aylanmoqda. Bunday sharoitda pedagognik asoslarni qayta ko'rib chiqish, klassik nazariyalar bilan birgalikda yangi ko'nikmalarni tizimli ravishda shakllantirish zarurati paydo bo'ladi.

Konstruktivistik yondashuvga ko'ra bilim o'quvchining faol kognitiv konstruksiyasi sifatida yuzaga chiqadi. SI yordamida yaratilgan adaptiv platformalar ushbu tamoyilni individual taskilarni ishlab chiqish orqali kengaytiradi. Har bir o'quvchining xatolar korpusini tahlil qilish va natijani darhol moslashtirish o'z-o'zini anglashni tezlashtiradi, chunki tizim fikrlashning kuchli va zaif bo'g'inlarini aniqlab, ularni eng samarali o'quv faoliyatiga yo'naltira

oladi. Shunday qilib, konstruktivizm nazariy jihatdan o‘z o‘rnini saqlab qoladi, ammo uning amaliy ijrosi SI algoritmlarining real vaqt rejimidagi hisob-kitoblariga tayana boshlaydi.

Aloqa nazariyasi (communicative approach) til o‘rganishning asosi sifatida muloqotni qo‘yadi. Chatbotlar, multimodal dialog tizimlari va virtual hamkorlar tilga immersiv kirishni ta’minlash orqali shu modelni mukammallashtirdi. Avvalgi interaktiv mashqlar ko‘p vaqtni talab etar, javoblar asosan skriptlangan bo‘lsa, hozirgi generativ tizimlar kontekstni hisobga olgan holda yangi gaplar tuzadi, ijtimoiy-pragmatik vaziyatni ham o‘quvchining niyatini ham his qiladi. Bu til o‘rganishni sun’iy muhitdan real hayotga yaqinlashtiradi, chunki har bir dialog takrorlanmas va natija o‘quvchining nuqtai nazariga mos holda shakllanadi.

Metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish SI tizimlarining yana bir kuchli jihatidir. O‘quvchilarga o‘z natijalarini ko‘rsatadigan analitik panellar, xatolar trendini chizuvchi grafiklar va tavsiyalar bilimni faqat deklarativ emas, balki regulativ darajada ham mustahkamlaydi. Refleksiya uchun yaratilgan bu muhitlar o‘qituvchining monitoring vazifasini yengillashtiradi va nazariy pedagogika poydevoriga mos ravishda o‘quvchi o‘z o‘qish jarayonining faol subyektiga aylanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning markaziy talabi bo‘lgan differensial ta’lim SI orqali ilgari hech bo‘lmagan darajada aniq va dinamik ko‘rinish oladi. Masalan, til oqimining murakkablik darajasi (lexical density, syntactic complexity) o‘quvchi B1 darajasidan B2 ga o‘tayotgan paytda bosqichma-bosqich oshirilishi mumkin. Buning zamirida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) modellari turibdi, ular matnni avtomatik tahlil qilib, CEFR parametrlariga mos darajalash imkonini beradi. Demak, differensial yondashuv endilikda o‘qituvchi subyektiv bahosiga emas, balki katta hajmdagi statistik ko‘rsatkichlarga tayanadi.

SI asosidagi til o‘qitishning falsafiy-axloqiy mezonlari ham dolzarb. Birinchidan, ma’lumot xavfsizligi: o‘quvchining nutq namunalari yoki shaxsiy ma’lumotlari bulutda qay darajada himoyalangan? Ikkinchidan, akademik halollik masalasi: generativ tizimlar yozma topshiriqlarni avtomatik tuzib berishi, mustaqil fikrlashni zaiflashtirishi mumkinmi? Bu savollar pedagogik nazoratning yangi mexanizmlarini talab qiladi. Amalga kiritilayotgan LLM-lar uchun “izohli modullar” (explainability layers) va plagiatga qarshi hybrid algoritmlar ilmiy tamoyillarni buzmaslikka xizmat qilmoqda, ammo o‘qituvchining etik kuzatuvi hanuz zarur.

Xorijiy tillarni o‘qitishdagi til va madaniyat dialektikasini SI qanday hal qiladi? Multimodal modellarda yagona tilga cheklanish yo‘q, ularning korpusi ko‘plab madaniy kontekstlarni qamrab oladi. Bu esa pragmatik kompetensiyani tabiiy ravishda kengaytiradi: o‘quvchi shu tilni ishlatadigan turli jamiyatlar haqida boyroq tasavvurga ega bo‘ladi. Biroq bunday universal korpuslar ayrim hollarda madaniy sezgirlikni pasaytirishi, stereotiplarga olib kelishi mumkin. Demak, o‘qituvchi SI tizimlarining mazmun tanlash mexanizmlarini diqqat bilan nazorat qilishi, regionga xos ijtimoiy-kulturni aks ettiruvchi materiallarni ham integratsiya qilish zarur.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning yoshlar orasida liderlik sifatlarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli orqali talabalarda yetakchilik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, muloqot va jamoaviy ishlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, transformatsion liderlik va ichki motivatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, ushbu yondashuv asosida o‘qituvchilarning ham motivatsiyasi va kasbiy faolligi oshishi ko‘rsatilgan.

Kalit so'zlar: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, liderlik qobiliyati, transformatsion yetakchilik, ichki motivatsiya, talaba faolligi, pedagogik texnologiyalar, loyiha asosidagi ta’lim.

Аннотация. В данной статье освещается роль личностно-ориентированного подхода в современном образовательном процессе в формировании лидерских качеств у молодежи. Научно-теоретически анализируются и применяются методы развития у студентов таких социальных компетенций, как лидерство, инициативность, самостоятельность мышления, коммуникабельность, умение работать в команде через модель личностно-ориентированного образования. Также анализируется взаимосвязь трансформационного лидерства и внутренней мотивации, и показано, что данный подход повышает мотивацию и профессиональную активность педагогов.

Ключевые слова: Личностно-ориентированное образование, лидерские качества, трансформационное лидерство, внутренняя мотивация, активность студентов, педагогические технологии, проектное обучение.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv yetakchilik, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish masalasi global ta’lim tizimida dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, ko‘plab pedagog va psixologlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. 1

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Olimlardan, M. Jalolov ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalasini o‘rganib, bunda yoshlarning individual imkoniyatlari, ijtimoiy tajribasi va liderlikka moyilligi hisobga olinishi kerakligini ta’kidlaydi.2 Unga ko‘ra, liderlik sifatlarini shakllantirish uchun erkin fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish va muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim. S.P. Sysoyeva esa yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishda refleksiv metodlar va loyiha asosidagi o‘qitish texnologiyalarining ahamiyatini alohida qayd etgan. Unga ko‘ra, guruhiy faoliyat, bahs-munozaralar, rol o‘yinlari orqali o‘quvchilar ijtimoiy rollarni amalda sinab ko‘radilar va bu orqali shaxsiy rivojlanishga erishadilar .3

Bundan tashqari, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan “XXI asr ko‘nikmalari” konsepsiyasida ham yetakchilik, muloqot, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash kompetensiyalari muhim ijtimoiy kompetensiyalar sifatida

belgilangan . Bu ko‘nikmalar aynan shaxsga yo‘naltirilgan, faol va ishtirokchilikka asoslangan ta’lim usullari orqali shakllanadi. 4

Shu bilan birga, yetakchilikni shakllantirishda o‘quvchi yoshlarning emotsional intellekti, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini baholay olish, muqobil fikrlarni qabul qilish kabi fazilatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslangan integrativ yondashuvlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.5

Shuningdek, biz ichki motivatsiya transformatsion yetakchilik va mehnat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikda muhim vositachi rol egallashini alohida ta’kidlashimiz zarur. Chunki, yuqori ichki motivatsiyaga ega o‘qituvchilar, odatda, faolroq ishtirok etishadi va yuqori ish natijalarini ko‘rsatishadi.6

Shaxsga yo‘naltirilgan transformatsion yetakchilik (ShYTY) o‘qituvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yetakchilik uslubi har bir shaxsning salohiyati va yutuqlarini tan oluvchi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantiradi. Bunday yetakchilar har bir o‘qituvchining o‘ziga xos kasbiy va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini chuqur anglab, ularni rag‘batlantirishga intiladilar. Natijada, o‘qituvchilarda o‘z kompetensiyalari va ishonchi ortadi, bu esa ularning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yetakchilik sharoitida o‘qituvchining hissasi qadrlansa, ichki motivatsiya kuchayadi, bu esa ishga qoniqish va yuqori samaradorlik bilan namoyon bo‘ladi.7

Ayniqsa, ShYTYning muhim elementi bo‘lgan intellektual rag‘batlantirish o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy muammolarni hal etish ko‘nikmasini rivojlantirib, ularning o‘sishiga xizmat qiladi.7 Shuningdek, ilhomlantiruvchi motivatsiya ularning ishiga mazmun kiritadi, vazifalarga sadoqatni kuchaytiradi va ichki motivatsiyani oshiradi.9

Ichki motivatsiya — bu insonning faoliyatni tashqi mukofotlar emas, balki uning o‘ziga xos mazmuni va zavqi uchun bajargan holatidir. Bu turdagi motivatsiya insonning o‘zini malakali va mustaqil his qilish ehtiyoji, shuningdek, faoliyatning o‘ziga xos qadriyatidan kelib chiqadi. Ichki motivatsiyaga ega shaxslar ish jarayonidan bevosita mamnunlik va zavq olishadi.10

Pedagogik muhitda bu holat o‘qituvchilarning faol qatnashuvi va samaradorligini ta'minlaydi. Tadqiqotchilar ichki motivatsiyani turli yo‘nalishlarga bo‘lishgan bo‘lib, Deci va Ryan uning kognitiv (kompetensiya, mustaqillik) va affektiv (qiziqish, qoniqish, hayajon) tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatganlar.

Muhokama va natijalar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim zamonaviy pedagogikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv yoshlarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ayniqsa samaralidir. Chunki yetakchilik – bu individual tashabbus, mustaqil fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar va mas'uliyatlilik kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Quyida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida ushbu qobiliyatni rivojlantirishning samarali usullari keltirilgan:11

1. Loyihaviy ta’lim (Project-based learning). O‘quvchilar jamoaviy yoki individual loyihalarda ishtirok etishadi. Yetakchilik uchun zarur bo‘lgan tashabbuskorlik, rejalashtirish, qaror qabul qilish, javobgarlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Har bir loyiha oxirida o‘zaro baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali liderlik kompetensiyalari mustahkamlanadi.

2. Rol o‘yinlari va ijtimoiy mashqlar. “Lider–jamoa”, “Murabbiy–shogird”, “Muzokarachi–qarshilik ko‘rsatuvchi” kabi rollarda o‘ynash orqali o‘quvchilar muomala yuritish, boshqaruv, muammo hal qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Bu metodlar hissiy-ijtimoiy tafakkur va empatiyani kuchaytiradi.

3. Muammoli ta’lim (Problem-based learning). O‘quvchilarga real hayotga oid muammolar taqdim etiladi va ular guruhlarda yechim topishga yo‘naltiriladi. Yetakchi shaxslar muammoni tahlil qilish, javobgarlikni o‘z zimmasiga olish, guruhni boshqarish jarayonida ajralib chiqadi.

4. Trening mashg‘ulotlari. Yetakchilikka oid psixologik treninglar (masalan, “Samarali muloqot”, “Tashabbuskorlikni rivojlantirish”, “O‘zini baholash va o‘zini tahlil qilish”) o‘tkaziladi. Treninglar yoshlarning o‘ziga ishonchini oshiradi va liderlikka tayyorlaydi.

5. Reflektiv tahlil usuli. Dars oxirida “Nima o‘rgandim?”, “Nimani yaxshiroq bajardim?”, “Qanday yetakchilik qildim?” kabi savollar orqali o‘quvchilar o‘z harakatlarini tahlil qiladilar. Bu jarayon o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi va liderlik fazilatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

6. Mentorlik va tengdoshlar orqali o‘rganish. Kuchliroq o‘quvchilar (mentorlar) boshqalar uchun rahbarlik qiladi, bu esa ularni real yetakchilik rollarida sinash imkonini beradi. O‘zaro o‘rganish va tajriba almashish muhitida yetakchilik tabiiy shakllanadi.

7. Kreativ topshiriqlar va tanlovlar. Yozma va og‘zaki nutq mashqlari, bahslar, prezentatsiyalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini erkin va asosli ifoda etishni o‘rganadilar. Bunday topshiriqlar orqali oratorlik, ishontirish, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi liderlik komponentlari rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yoshlardan ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal eta oladigan, davlat va nodavlat tashkilotlarida ishchi jamoalarni boshqara oladigan, murakkab holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan, jamoa bilan ishlashda yetakchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qilmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayonida liderlikni shakllantirishga oid innovatsion o‘quv shakl va metodlarni o‘rganish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda onlayn ta’lim tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va liderlikni shakllantirishga oid ko‘plab kurslar mavjud. Bunday kurslar tarkibiga videodarslar, onlayn treninglar va masofaviy o‘quv dasturlari kiradi.

Shunday qilib, shaxsda liderlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalash jarayoni, avvalo, o‘quvchilarga qulay va psixologik jihatdan ijobiy muhitda kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallash imkonini beruvchi muayyan pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirishdagi muhim shartlardan biri — bu yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy jarayonni pedagogik jihatdan to‘g‘ri va puxta loyihalangan texnologiya asosida tashkil etishdir. Bu texnologiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: faoliyatning konseptual asoslarini belgilash, chuqur o‘ylangan pedagogik model yaratish va kompleks maqsadli dasturni ishlab chiqish.12

Zamonaviy oliy ta’limda talabalar orasida liderlik sifatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, bu jarayon talabalarni turli faoliyat turlariga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu

faoliyat turlari yosh avlodda quyidagi yetakchilik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi: maqsadlilik, muloqotga kirishish va hamkorlik qilish qobiliyati, mas'uliyat, faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Heifetz, R.A., & Linsky, M. (2002). Leadership on the Line: Staying Alive through the Dangers of Leading. Harvard Business Press; Goleman, D. (2000). Leadership that Gets Results. Harvard Business Review.
2. Jalolov, M. (2016). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O'zR FA nashriyoti.
3. Sysoyeva, S.P. (2011). Innovatsion texnologiyalar va metodlar pedagogik ta'limda. Moskva: Pedagogika Press.
4. UNESCO (2015). Education 2030 Framework for Action. Paris: UNESCO Publishing.
5. Salovey, P., & Mayer, J.D. (1990). Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 185–211.
6. Cherian, J., & Jacob, J. (2013). Impact of self-efficacy on motivation and performance of employees. International Journal of Business and Management, 8(14), 80–88. DOI:10.5539/IJBM.V8N14P80
7. Nielsen, K., & Munir, F. (2009). How do transformational leaders influence followers' affective well-being? Exploring the mediating role of self-efficacy. Work & Stress, 23(4), 313-329. DOI:10.1080/02678370903385106
8. Zhu, W., Avolio, B. J., & Walumbwa, F. O. (2009). Moderating role of follower characteristics with transformational leadership and follower work engagement. Group & Organization Management, 19(3), 590–619.
9. Breevaart, K., Bakker, A. B., Hetland, J., Demerouti, E., Olsen, O. K., & Espevik, R. (2014). Daily transactional and transformational leadership and daily employee engagement. Journal of Occupational and Organizational Psychology, 87(1), 138-157. https://doi.org/10.1111/joop.12041
10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Springer US.
11. Albano, J. (2000). Adaptive Leadership in Education. Educational Leadership Journal; Heifetz, R.A., & Linsky, M. (2002). Leadership on the Line: Staying Alive Through the Dangers of Leading. Harvard Business Review Press.
12. Лукаш Сергей Николаевич, Тимченко Павел Владимирович Педагогические условия развития лидерских качеств у студенческой молодежи // ЧиО. 2015. №2 (43). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskie-usloviya-razvitiya-liderskih-kachestv-u-studencheskoy-molodezhi (дата обращения: 05.05.2025).

“TEMURBEKLAR MAKTABLARI” O‘QUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASH G‘OYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA (GEOGRAFIYA TA’LIMI MISOLIDA)

ISLAMOVA KARIMA TURDIYEVNA
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL geografiya fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, muammolarga mustaqil va chuqur yondashish, to‘g‘ri xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. . Maqolada tanqidiy fikrlashning ta’lim jarayoniga integratsiyasi, o‘quvchilar tomonidan o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish va tahliliy yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha yondashuvlar hamda zamonaviy ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarurati tahlil qilinadi. Geografiya ta’limida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari, samarali usullari hamda ularning o‘quv jarayonidagi ahamiyati yoritilgan, tanqidiy fikrlash haqidagi qarashlar mazmuni, tanqidiy fikrlashning bugungi globallashuv ijtimoiy munosabatlardagi pedagogik faoliyati va ahamiyati, istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tahlil qilish, taqqoslash, baholash, interaktiv vositalar, keyslar tahlili, vizual materiallar, yangi texnologiyalar, xaritalar, grafiklar, tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv, mustaqil fikrlash, zamonaviy ta’lim, intellektual salohiyat.

“Ta’limni o ‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o ‘zgartirib bo ‘lmaydi”
Sh.Mirziyoyev

Mamlakatimizning bugungi kundagi iqtimoiy-ijtimoiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin olish uchun ma’naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan darajada qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchi-yoshlarimizning dunyoqarashini o‘zgartirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda yangiliklarga intilish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini jahon andozalari darajasiga ko‘tarishni taqozo qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan yo‘nalishida maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish masalalariga katta ahamiyat qaratilgan. Zero, bugun jamiyat ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirishni, ularning mustaqil intellektual faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo‘ydi (4).

Zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu ko‘nikma insonning atrofdagi voqealarga nisbatan tahlilchan, mulohazali munosabat bildirishi, muammolarni chuqur anglab, yechimlar taklif etishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, geografiya fanining hayot bilan uzviy bog‘liqligi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Tanqidiy fikrlash — bu ma’lumotni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Uni rivojlantirish pedagogikada muhim muammo sifatida qaraladi, chunki bu o ‘quvchilarning mustaqil o‘ylashini, muammolarni yechishini va yangicha qarashlarni shakllantirishini ta’minlaydi: tanqidiy fikrlash aniq, asoslangan

qarorlar qabul qilishda o‘z-o‘zini taftish qilishni nazarda tutadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida fikrlar dalillanishi, turli tomonlardan muammo kritik jihatdan ko‘rib chiqilishi zarur. Bizning nazarimizda, tanqidiy fikrlash chuqur bilim olishga qaratilgan bo‘lib, bu bilimlarni aks ettirish, idrok etish, nazariy jihatdan ko‘rib chiqish va amaliy faoliyatda baholashda o‘zini namoyon qiladi. Tanqidiy fikrlash tahlil asosida nazorat qilish, mustaqillik asoslash, dalillar keltirish, dalillarni mantiqiy ko‘rib chiqish va maqsadga yo‘naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtga qadar tanqidiy fikrlash masalasi MDH va xorij olimlari tomonidan turli jabxalarda o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyotida Sharq ta’limi mazmunini o‘zida mujassam etgan ta’lim muassasalarimizda o‘quvchilarni mustaqil tanqidiy fikrlashga o‘rgatish zarurligi haqida o‘rta asrlarning buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta’kidlaganidek, ana shu tanqidiy fikrlash jarayonida, bugungi globallashuv jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlar ma’lum manbadan olingan bilimlarga nisbatan katta ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatish muhimdir. Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tizimli tahlil qilish, dalillarning ishonchliligini baholash, qarama-qarshi fikrlarni tortish va asosli xulosalar shakllantirishni o‘z ichiga olgan kognitiv jarayon. Bu qobiliyat zamonaviy voqelikka samarali moslashishning ajralmas qismidir (1).

Farobiy “Fozil odamlar shahri ” asarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni juda muhim deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilimga erishish uchun odamlar mustaqil fikrlashlari, dalillarni sinchiklab tekshirishlari va turli fikrlarni tahlil qilishlari kerak. Farobiyning fikricha, ideal jamiyatda har bir fuqaro o‘z fikrini asosli va mantiqan izchil tarzda ifoda eta olishi zarur. Shuningdek, u insonlarni dogmatik fikrlashdan voz kechishga, shubhalanish va izlanishga undaydi. Farobiy tanqidiy fikrlashni insonning intelektual rivojlanishida asosiy omil sifatida ko‘radi va bu orqali jamiyatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Yana bir kunimiz tadqiqodchilaridan biri T.B.Nazarov tanqidiy fikrlashga “Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o‘rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko‘nikmadir ”-deya ta’riflaydi. Rossiyaning bugungi tadqiqotchilaridan M.V.Klarin o‘zining “Развитие критического и творческого мышления” deb nomlangan texnologiyasida shunday deydi: “Biz intuitiv va analitik fikrlash bir-birini mustahkamlaydi, deb hisoblaymiz. Inson sezgiga tayanib, tahlilchi qila olmaydigan ixtiro yoki kashfiyot qilishi mumkin. Ammo tahlilchi unga tegishli rasmiy ifodani bera oladi”. Qozoq falsafasida Abay Qunanbayuli tanqidiy fikrlashning yangi ufqini ochdi. Abayning hokimiyatga bo‘ysunmaslikni tarannum etgan, bilim va e’tiqodda oqilona aniqlik va dalil talab etgan ayrim she’r va nutqlarini tanqidiy fikrlashning ajoyib namunasi deyish mumkin. Zamonaviy olimlar qatorida Jon Dyui, Lyudvig Vitgenshteyn va Jan Piagetlar ham o‘z hissalarini qo‘shishgan. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari 1960-yillarda Robert Ennis tomonidan amalga oshirilgan ishlar orqali rivojlangan, keyinchalik ular maktablarda o‘qitilgan va ish joyida qo‘llanilgan. Ennis tanqidiy fikrlashni orttirilgan iste’dod sifatida ta’kidladi, undan ko‘rsatmalar va amaliyot bilan ish joyida foydalanish mumkin. Turkiyalik olimlar, Özkaya, Ö.Miraç; S.Nuriye, larning fikricha,- tanqidiy fikrlash - bu odamlar bugungi dunyoda omon qolish va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan mahoratdir.(5)

Rivojlanayotgan dunyoga shaxslarni tayyorlash uchun har bir fan sohasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘rgatish muhimdir. Shuning uchun bu ko‘nikmaga o‘rgatish uchun avvalo bu ko‘nikmaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan tanqidiy fikrlash to‘siqlarini aniqlash kerak. Tanqidiy fikrlashga xalaqit beradigan to‘siqlarni bartaraf etish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va qo‘llashni osonlashtirishi mumkin .

“Tanqidiy fikrlash - bu o‘z fikrini yaxshilash uchun fikr yuritayotganda fikrlash haqida o‘ylashdir.” (V.P.Richard). V.R.Ruggieroning ta’kidlashicha sinfda “tanqidiy fikrlash” iborasi o‘qituvchilar tomonidan tez-tez qo‘llaniladi. Insonning fikrlash qobiliyatini oshirish uchun tanqidiy fikrlash “fikrlash haqida fikr yuritish san’ati” deb nomlanadi. Albatta, qiyinchilik sinf ichida ham, undan tashqarida ham tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradigan o‘quv sharoitlarini loyihalashda. Kattalar tanqidiy fikrlashni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash orqali o‘z bilimlarini qabul qilish va nazorat qilish imkoniyatiga ega. Tanqidiy fikrlaydigan kattalar o‘quv muhitiga boshqacha qarashadi. Tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanadigan o‘quvchilar odatda dars materialiga yanada aniqroq va samaraliroq yondashadilar, ko‘proq talabchan savollar beradilar va o‘quv jarayoniga faolroq kirishadilar. Ushbu tanqidiy fikrlash jarayoni maktabdan keyin ish joyida davom etadi. R. Ennis ko‘p yillik o‘rganish, tahlil qilish, ko‘rsatma va amaliyot orqali tanqidiy fikrlash “nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan” degan xulosaga keldi. (4)

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yaxlit texnologiya faqat 90-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘ldi. Ushbu texnologiyani qo‘llab-quvvatlovchilar juda ko‘p. Shunday qilib, M.O.Choshanov muammoli modulli ta’lim texnologiyasini ishlab chiqib, o‘quvchilarda tanqidiy fikr yuritgandagina samarali bo‘ladi, degan xulosaga keldi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi (TFRT) – “tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish” xalqaro loyihasi mualliflari C. Templ, K. Meredit, D. Still, S. Valter tomonidan taklif etilgan ta’lim texnologiyasi. Ushbu o‘qitish texnologiyasining muhim xususiyatlarini tushunish uchun tanqidiy fikrlash atamasini tushunish kerak. TFRT axborot bilan ishlashda yuqoridagi ko‘nikmalarni shakllantiradigan yaxlit tizimdir. Ushbu texnologiyaning maqsadi talabalarning ta’lim va kundalik hayotda zarur bo‘lgan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ushbu ta'lim texnologiyasi - bu birinchi navbatda o‘quvchining qiziqishini uyg'otish, uning izlanish va ijodiy faolligini uyg'otish, so‘ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash va nihoyat, olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam beradigan strategiya va usullar majmuasidir. Siz an'anaviy darsning bir qismi sifatida texnologiyadan foydalanishingiz mumkin. TFRT ilmiy kontseptual asosga ega bo‘lib, u axborot qidirishni tashkil etishda ham, diskret oqimli ma'lumotlarni qayta ishlashda ham - o‘quv va ilmiy matnlarni o‘qishni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy axborot yondashuvi TFRT ilmiy kontseptual asosining elementlaridan biridir. D.Xelpern tanqidiy fikrlash mantiqiy va maqsadli ekanligini ta'kidlaydi. Mantiq qonunlari ma'lumotlar bilan ishlashga qaratilgan ba'zi TFRT texnikasi asosida yotadi. TFRT ning dastlabki "Challenge" bosqichida asosiy bilimlar yangilanadi. Guruh savollarga javob beradigan jamoalarga bo‘lingan. Savollar har bir jamoaga ketma-ket beriladi. Agar birinchi jamoa savolga javob bermasa, imkoniyat keyingi jamoaga o‘tadi. Jamoaga imkon qadar ko‘proq ball to‘plash imkoniyatini berish va o‘qituvchining bilim darajasini baholash uchun jami 30 ga yaqin savol bo‘lishi kerak. Tushunish bosqichida qiziqish yangi ma'lumotlar bilan to‘g'ridan-to‘g'ri ishlashda qoladi, asta-sekin eski "bilim" dan "yangi" ga o‘tadi. O‘quvchi tinglaydi, o‘qiydi, ya’ni faol idrok etish usullaridan foydalangan holda audiovizual ma'lumotlarni oladi, yangi ma'lumotlarni idrok etganda qayd qiladi. O‘rganilayotgan ma'lumotlarni ijodiy qayta ishlash, tahlil qilish, talqin qilish jadvallar, klasterlarni to‘ldirish, sabab-oqibatni aniqlash shaklida ifodalanadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi o‘qituvchiga nafaqat mavjud texnika va usullardan foydalanish, balki ularni mustaqil ravishda yaratish imkoniyatini beradi.(4)

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy pedagogik muammolar quyidagilar:

O‘qitish metodlarining yetarli darajada

takomillashmaganligi — ko‘pincha ta’lim jarayonida yozma va yoki faktlarni yodlashga asoslangan yondashuv qo‘llaniladi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xalaqit beradi.

O‘qituvchilarning tanqidiy fikrlashni o‘qitishdagi malakasining pastligi — bu ularning o‘zlari ham tanqidiy yondashuvni to‘liq tushunmasligi va qo‘llay olmasligiga olib keladi.

Dastur va o‘quv materiallarining tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirmaydiganligi — ko‘p ta’lim dasturlari fikrlashning murakkab bosqichlarini rivojlantirishga kam e’tibor beradi.

Muhit va madaniyatning ta’siri — talabalar erkin fikrlash va mulohaza qilish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yo‘qligi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagoglarga yangi metodlar (muammoga asoslangan o‘qitish, muhokamalar, keyslar tahlili), innovatsion o‘quv vositalari va treninglardan foydalanish tavsiya etiladi.(3)

Qisqasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogikadagi dolzarb muammo bo‘lib, uni hal qilish ta’lim sifatini yaxshilashga va kelajak mutaxassislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash — bu ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash, mantiqiy xulosa chiqarish va turli nuqtai nazarlardan qarab, eng asosli pozitsiyani tanlash jarayonidir. Ta’lim jarayonida ushbu ko‘nikmani shakllantirish o‘quvchining mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishini ta’minlaydi. Geografiya darslarida o’quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini takomillashtirish uchun muammoli vaziyatlar asosida dars tashkil etish eng samarali uslubdir. Demak darsliklarimizda o’quvchi yoshiga mos shunday metodlarga tayanishimiz kerakki, u o’quvchiga tanqidiy fikrlashni o’rgatibgina qolmasdan, o’z ustida ishlashga, loyihalar tuzishga undasin, bir so’z bilan ijodkor va faol avlodni tarbiyalasin. Natijada o’quvchilar geografiyani kundalik hayotimizning ajralmas bo’lagi ekanligini tushunib, mantiqiy fikrlash darajalari o’sadi.

Geografiya ta’limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari

1. Muammoli vaziyatlardan foydalanish

Darsda haqiqiy hayotdan olingan, yechimi aniq bo‘lmagan vaziyatlar taqdim etiladi:

Masalan: “Aholi zich joylashgan hududlarda qanday transport muammolari yuzaga keladi va ularni qanday hal qilish mumkin?”.

2. Ochiq savollar va fikr muhokamasi

Savollar orqali o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undash:

“Nega turli mintaqalarda iqlim shunday farq qiladi?”, “Agar global isish davom etsa, mamlakatimizda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?”

3. Tahlil va taqqoslash ko‘nikmalarini shakllantirish

Xarita, diagramma va jadvallarni tahlil qilish orqali ma’lumotlarga tanqidiy yondashishni rivojlantirish.

4. Loyiha va guruhli ish shakllari

O‘quvchilarni jamoada ishlash va o‘z g‘oyasini himoya qilishga o‘rgatish.

5. Interfaol metodlardan foydalanish

Klaster, akvarium, debat, “Agar men bo‘lsam...” kabi o‘qitish usullari orqali o‘quvchi faolligini oshirish. Geografiya darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida qaralganda, uning bir necha jihatlari va muammolari alohida e’tiborga loyiqdir.

Muammolar va sabablar:

Mazmun va metodikaning an’anaviyligi - ko‘pincha geografiya darslari faktlarni yodlash va ma’lumotlarni ko‘chirishga asoslanadi. Bu talabalarning mustaqil tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirmaydi.

Ta’lim muhiti va vositalarning cheklanganligi - interaktiv va vizual materiallar (kartalar, grafiklar, 3D modellar) yetarlicha qo‘llanilmaydi, bu esa o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni tanqidiy ko‘z bilan ko‘rishini qiyinlashtiradi.

O‘qituvchilarning malakasi va

tayyorgarligi - barcha o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlariga o‘zlashtirilgan emas, ular uchun yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish muammo bo‘ladi.

Ta’lim dasturining rejalashtirilishi - geografiya fanining o‘quv dasturlari tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi vazifalar va faoliyatlarni kam o‘zida aks ettiradi.

Pedagogik muammoni hal qilish uchun darslarda muhokamalar, debatlar, muammoli holatlar va keys-stadilarni ko‘proq qo‘llash, o‘quvchilarni jamoaviy va mustaqil izlanishga, tadqiqot ishlariga jalb etish, geografik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun yangi texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanish.o‘qituvchilar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish, ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi vazifalarni kiritish muhim hisoblanadi.(3)

Geografiya darslarida dizayn ta’lim texnologiyalarini kiritish o‘quvchilarning faolligini va o‘rganishini oshirishi mumkin. Interfaol xaritalar, virtual sayohatlar va GIS dasturiy ta’minotidan foydalanish orqali o‘quvchilar landshaftlar, iqlim va madaniyatlarni yanada dinamik va interaktiv tarzda o‘rganishlari mumkin. Ushbu texnologiyalar, shuningdek, hamkorlikda o‘rganish uchun platforma bo‘lib, talabalarga real dunyo geografik muammolarni tahlil qilish va hal qilish uchun birgalikda ishlash imkonini beradi. Bundan tashqari, videolar, tasvirlar va simulyatsiyalar kabi multimedia resurslaridan foydalanish geografik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Dizayn ta ‘lim texnologiyalarini integratsiyalashgan holda, geografiya darslarini 21- asr uchun muhim bo‘lgan tanqidiy fikrlash, fazoviy tahlil va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi immersiv va boyituvchi tajribaga aylantirish mumkin. Geografiya darslariga dizayn ta’lim texnologiyalarini kiritish o‘quvchilarning faolligini va geografik tushunchalarni tushunishini oshirishi mumkin. Interfaol xaritalar, virtual sayohatlar va multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda, talabalar mavzuga singib ketishlari va atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunishlari mumkin. Dizayn ta’lim texnologiyalarini o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar qiziqarli va immersiv darslarni yaratishi mumkin. O‘quvchilar va talabalar interfaol xaritalar va 3D modellar orqali geografik hodisalarni tasavvur qilishlari mumkin. Bu ularning fazoviy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi va geografiyaning bizning dunyomizdagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, dizayn ta’lim texnologiyalari geografiya darslarida hamkorlikda o‘rganishga yordam beradi. O‘quvchilar va talabalar o‘z g‘oyalarini almashish va muhokama qilish uchun raqamli vositalardan foydalangan holda loyihalar ustida birgalikda ishlashlari mumkin. Bu jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘quvchilarni hamkorlikni talab qiladigan kelajak uchun tayyorlaydi. Geografiya darslarida dizayn ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan raqamli vositalar va interfaol resurslarni o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar o‘quvchilarning geografik tushunchalarni tushunishlarini kuchaytirishlari va o‘rganishda faol ishtirok etishlarini rag‘batlantirishlari mumkin. Geografik axborot tizimlari (GIS), xaritalash dasturlari va virtual haqiqat ilovalaridan foydalanish talabalarga chuqur o‘rganish tajribasini taqdim etishi mumkin. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga real dunyo geografik ma’lumotlarini o‘rganish va fazoviy munosabatlarni tahlil qilish imkonini beradi, natijada geografik tushunchalarni to‘liqroq tushunish imkonini beradi. Interfaol loyihalar ustida ishlash va raqamli vositalardan foydalanish orqali talabalar geografik hodisalarni chuqurroq tushunishlari va o‘z bilimlarini real dunyo ssenariylarida qo‘llashlari mumkin. Geografiya darslarida virtual dala sayohatlaridan tortib, interaktiv xaritalar va ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish vositalari real aloqadorlikni keltirib, o‘rganish

tajribasini yanada dinamik va immersiv qiladi. (2)

Xulosa

Geografiya darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilishi va yechimi pedagogik jarayonning sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa umumta’lim maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Geografiya ta’limida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish — faqat bilim berish emas, balki o‘quvchini faol shaxs sifatida tarbiyalash, global va mahalliy muammolarga nisbatan yechim topa oladigan fuqaro etib kamol toptirishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin:

1.Tanqidiy fikrlashning ta’lim jarayonidagi asosiy o‘rni sifatida shuni aytish mumkinki, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini, dalillarni sinchiklab tahlil qilishni va turli xil fikrlarni asosli ravishda baholashni o‘rgatadi. Bunday fikrlash usullari o‘quvchilarning intelektual rivojlanishida, ayniqsa, o‘z fikrlarini mantiqan asoslab bayon etish va jamiyatda faol fuqarolar sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim jarayonini samarali va zamon talablariga mos ravishda olib borishga xizmat qiladi.

2. Tanqidiy fikrlashning milliy va xalqaro ahamiyati: O‘rta asr mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy va Ibn Sino kabi buyuk olimlarning fikricha, tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning intelektual rivojlanishi va milliy ta’lim tizimining taraqqiy etishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlar ham tanqidiy fikrlashni XXI asr talablariga javob bera oladigan va global dunyoda muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma sifatida e’tirof etadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni nafaqat milliy, balki xalqaro ta’lim tizimlarida ham muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.(3)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov, A.J. ” Geografiya ta’limida innovatsion yondashuvlar ”. T.- “Fan va texnologiyalar” - 2020.
2. Ostanova D.E. “Geografiya fani darslarida loyihalash ta’lim texnologiyalaridan foydalanish”
3. Ismoiljonov Sh.B. “ Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va uning ahamiyati”. ”Yangi O’zbekistonning umidli yoshlari”-3(1)-son,2024 yil.
4.Allaxova G. Y. “Geografiya darslarini muammoli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish”. Kokand University -2024.

BO‘LAJAK INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

ABDULLAYEV ILXOM XUJAYOROVICH
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Informatika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini axborot xavfsizligi sohasida tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari va ularga qo‘yiladigan talablar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida O‘zbekistonning 5 ta pedagogika universitetida 155 nafar respondent bilan so‘rov o‘tkazilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning 68%i axborot xavfsizligi asoslarini biladi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning texnik, pedagogik va ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv taklif etilgan. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish va blended learning yondashuvlari asosiy zamonaviy metodlar sifatida belgilangan. 4 moduldan iborat ta’lim dasturi va 5 bosqichli baholash tizimi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot xavfsizligi, Informatika o‘qituvchilari, Pedagogik kompetensiyalar, Kiberxavfsizlik, Raqamli ta’lim, Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, Blended learning, Professional tayyorgarlik

Abstract: The article analyzes modern approaches to training future computer science teachers in the field of information security and the requirements for them. As part of the study, a survey was conducted with 155 respondents at 5 pedagogical universities of Uzbekistan. The results showed that 68% of students know the basics of information security. The study proposed a comprehensive approach that includes technical, pedagogical and socio-ethical competencies of teachers. Practice-oriented education, project-based learning and blended learning approaches are identified as the main modern methods. A 4-module educational program and a 5-stage assessment system have been developed.

Keywords: Information security, Computer science teachers, Pedagogical competencies, Cybersecurity, Digital education, Practice-oriented education, Blended learning, Professional training

Kirish

Zamonaviy axborot jamiyatining shakllanishi va raqamli texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi ta’lim sohasida ham chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonda axborot xavfsizligi masalalari alohida ahamiyat kasb etib, pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Informatika fani o‘qituvchilari nafaqat o‘z sohalarida chuqur bilimga ega bo‘lishlari, balki zamonaviy axborot tahdidlari va ulardan himoyalanish usullarini ham mukammal egallashlari lozim [1].

Yevropa Ittifoqining rivojlangan mamlakatlarida axborot xavfsizligi masalalari pedagogika yo‘nalishlarida umumiy o‘quv yuklamaning 5-8% ini tashkil etadi [2]. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda hali ham etarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini axborot xavfsizligi sohasida samarali tayyorlash zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini axborot

xavfsizligini ta’minlashga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish va ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: axborot xavfsizligi sohasida o‘qituvchi kompetensiyalarini tahlil qilish, zamonaviy ta’lim yondashuvlarini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi

Axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchillar tomonidan o‘rganilgan. Jahon tajribasiga ko‘ra, informatika o‘qituvchilarining axborot xavfsizligi kompetensiyalari uch asosiy yo‘nalishda shakllanadi: texnik bilimlar, pedagogik mahorat va axloqiy mas’uliyat [3].

NIST (National Institute of Standards and Technology) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarga ko‘ra, ta’lim sohasidagi axborot xavfsizligi quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: ma’lumotlarni himoyalash, tizim xavfsizligi, tarmoq muhofazasi va foydalanuvchi xabardorligi [4]. Evropa Ittifoqi davlatlarida esa GDPR (General Data Protection Regulation) qoidalariga muvofiq o‘qituvchilardan yuqori darajadagi ma’lumotlar himoyasi kompetensiyalari talab qilinadi [5].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Karimov A.B. [6] va Rashidova S.M. [7] tomonidan olib borilgan ishlar O‘zbekiston ta’lim tizimida axborot xavfsizligi masalalarining dolzarbligini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga faol kirib kelishi o‘qituvchilardan yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Adabiyotlar tahlili - mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar va normativ hujjatlarni o‘rganish

2. Taqqoslash metodi - xorijiy va mahalliy tajribalarni solishtirish

3. So‘rov metodi - O‘zbekistonning 5 ta pedagogika universitetida 120 nafar informatika yo‘nalishi talabalari va 35 nafar o‘qituvchilar bilan so‘rov o‘tkazish

4. Ekspert baholash - axborot xavfsizligi sohasidagi 12 nafar ekspert fikrini olish

5. Statistik tahlil - olingan ma’lumotlarni matematik-statistik usullar orqali qayta ishlash

Natijalar va muhokama

Hozirgi holat tahlili

O‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, informatika yo‘nalishi talabalari orasida axborot xavfsizligi bo‘yicha bilim darajasi quyidagicha taqsimlanadi:

1-jadval.

Talabalarning axborot xavfsizligi b o‘yicha bilim darajasi

Bilim darajasi	Talabalar (%)	O‘qituvchilar (%)	Tavsif
Yuqori daraja	68	82	Axborot xavfsizligi asoslarini yaxshi biladi
O‘rta daraja	25	15	Axborot xavfsizligi b o‘yicha o‘rta bilimga ega
Past daraja	7	3	Axborot xavfsizligi b o‘yicha zaif bilimga era
Jami	**100**	**100**	-

So‘rov natijalariga ko‘ra, talabalarning 68% i axborot xavfsizligi asoslarini biladi, 25% i o‘rta darajada, 7% i esa zaif bilimga ega. O‘qituvchilar orasida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 82%, 15% va 3% ni tashkil etadi [8].

Kompetensiyalar tizimi

Tadqiqot natijalariga asoslanib, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining axborot xavfsizligi kompetensiyalari quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

1. Bilimlar (Knowledge)

- Axborot xavfsizligi nazariy asoslari
- Kiberxavfsizlik tamoyillari
- Ma’lumotlarni himoyalash qonunlari
- Texnik himoya vositalari

2. Ko‘nikmalar (Skills)

- Axborot tizimlarini xavfsizligini ta’minlash
- Zararli dasturlardan himoyalanish
- Parollar xavfsizligini boshqarish
- Ta’lim jarayonida xavfsizlik choralarini qo‘llash

3. Kompetensiyalar

• O‘quvchilarga axborot xavfsizligi asoslarini o‘rgatish qobiliyati

• Raqamli fuqarolik tamoyillarini shakllantirish

• Axborot madaniyatini rivojlantirish

• Kiberbulling va boshqa onlayn tahdidlarga qarshi kurashish

Zamonaviy yondashuvlar

Jahon tajribasi asosida quyidagi zamonaviy yondashuvlar aniqlandi:

1. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim Bu yondashuv real vaziyatlarda axborot xavfsizligi masalalarini hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Talabalar laboratoriya ishlarida turli xil kiberhujumlarni simulyatsiya qilish va ularga qarshi himoya choralarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadilar [9].

2. Loyiha asosidagi o‘qitish Talabalar jamoaviy loyihalar doirasida maktab muhiti uchun axborot xavfsizligi strategiyalarini ishlab chiqadilar. Bu usul nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi [10].

3. Blended learning yondashuvi An’anaviy dars shakllari bilan onlayn ta’lim elementlarini birlashtirish orqali talabalar turli xil o‘qitish vositalaridan foydalanishni o‘rganadilar [11].

Talab qilinadigan kompetensiyalar

Ekspertlar fikricha, zamonaviy informatika o‘qituvchisi quyidagi asosiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak:

1. Texnik kompetensiyalar (30%)

Axborot tizimlari xavfsizligi

Tarmoq protokollari va himoya mexanizmlari

Kriptografiya asoslari

2. Pedagogik kompetensiyalar (40%)

Axborot xavfsizligini o‘qitish metodikasi

Interaktiv o‘qitish usullari


Baholash va monitoring tizimi

3. Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar (30%)

Raqamli fuqarolik

Axborot madaniyati

Professional axloq



1-rasm. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining axborot xavfsizligi kompetensiyalari modeli

Ta’lim dasturi taklifi

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ta’lim dasturi tuzildi:

Dastur 4 asosiy moduldan iborat:

• 1-modul: Axborot xavfsizligi nazariy asoslari (72 soat)

• 2-modul: Amaliy ko‘nikmalar (96 soat)

• 3-modul: Pedagogik metodika (84 soat)

• 4-modul: Amaliyot va loyiha ishi (108 soat)

Baholash tizimi

Kompetensiyalarni baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

Baholash 5 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Dastlabki diagnostika
2. Joriy nazorat
3. Oraliq baholash
4. Yakuniy attestatsiya
5. Kuzatuv va monitoring



2-rasm. Axborot xavfsizligi kompetensiyalarini baholash tizimi

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini axborot xavfsizligini ta’minlashga tayyorlash zamonaviy ta’limning muhim vazifasi hisoblanadi. Jahon tajribasi va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yondashuv quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi:

1. O‘qituvchilarning axborot xavfsizligi kompetensiyalari texnik, pedagogik va ijtimoiy-axloqiy komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak.

2. Ta’lim jarayonida amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustunlik qilishi lozim.

3. Kompetensiyalarni rivojlantirish uchun uzluksiz ta’lim tizimi joriy etilishi zarur.

4. Baholash tizimi kompleks xarakterga ega bo‘lib, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni bir vaqtda qamrab olishi kerak.

5. Xalqaro standartlar va mahalliy ehtiyojlar o‘rtasida muvozanat ta’minlanishi

muhim.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu yondashuvning samaradorligini tajribada sinab ko‘rish va takomillashtirish yo‘nalishida olib borilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Abdullayev, R.A. (2023). Raqamli ta’limda axborot xavfsizligi masalalari. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 156 bet.
[2] Toshkent davlat pedagogika universiteti. (2023). “Informatika o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturi. Toshkent: TDPU.
[3] Johnson, M., & Smith, K. (2022). Cybersecurity education for future teachers: A comprehensive approach. Journal of Educational Technology & Society, 25(3), 45-62.
[4] National Institute of Standards and Technology. (2023). Framework for improving critical infrastructure cybersecurity. NIST Cybersecurity Framework 2.0, Gaithersburg, MD.
[5] European Union. (2022). General Data Protection Regulation in educational settings: Guidelines for teachers. Brussels: EU Publications Office.
[6] Karimov, A.B. (2024). “O‘zbekiston ta’lim tizimida axborot xavfsizligi: holat va istiqbollar”. Ta’lim texnologiyalari jurnali, 2(15), 23-31.
[7] Rashidova, S.M. (2023). “Informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari”. Pedagogik ta’lim, 4(28), 78-85.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2024). Raqamli xavfsizlik yo‘nalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. Toshkent.
[9] Williams, A., Chen, L., & Davis, R. (2023). “Project-based learning in cybersecurity education: Lessons from practice”. Computers & Education, 189, 104-118.
[10] Miller, P., & Anderson, J. (2024). “Blended learning approaches in information security training for educators”. Educational Technology Research and Development, 72(2), 234-251.
[11] Lee, S.H., Kim, J.W., & Park, M.K. (2023). “Competency framework for information security education in teacher training programs”. Asia-Pacific Journal of Teacher Education, 51(4), 567-584.
[12] UNESCO. (2023). Digital literacy and cybersecurity for educators: Global guidelines. Paris: UNESCO Publishing.
[13] Isaeva, Z.K., & Muhammadjonov, N.R. (2024). “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlar”. Uzluksiz ta’lim, 3(45), 67-74.
[14] Brown, T., Garcia, M., & Thompson, L. (2022). “Assessment strategies for cybersecurity competencies in pre-service teacher education”. Journal of Technology and Teacher Education, 30(4), 412-429.
[15] Qo‘chqarov, U.A. (2023). “Pedagogik ta’limda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi”. Pedagogika, 5(89), 34-42.